

2026-yil, 30-iyul 14(82)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



Yoz o'tmoqda soz



DOLZARB MAVZU

Maxsuda SARIBAYEVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti
Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze
E-mail: moviy69@mail.ru

BO'LAJAK ADABIYOT O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YUZASIDAN MULOHAZALAR

Annotatsiya: maqolada adabiyot ta'limining metodik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari hamda shakllarining adabiy ta'limdagi o'rnini ilmiy jihatdan tavsiflash masalasi metodika fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri ekanligi yoritilgan. Shuningdek, talaba adabiy ta'lim jarayonida bir vaqtning o'zida ikki xil didaktik pozitsiyada faoliyat yuritishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, metodika, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari, zamonaviy didaktika, filolog-pedagoglarni tayyorlash, kompetensiya, tizim.

Аннотация: в статье рассматривается проблема выявления взаимосвязей между методическими особенностями литературного образования, а также научного определения роли содержания образования, методов, средств и форм обучения в системе литературного образования как одного из важнейших направлений исследований методической науки. Кроме того, анализируется деятельность студента в процессе литературного образования, где он одновременно выступает в двух различных дидактических позициях.

Ключевые слова: литературное образование, методика, содержание образования, методы обучения, средства обучения, современные дидактические подходы, подготовка филологов-педагогов, компетенция, система.

Annotation: this article highlights that identifying the relationships among the methodological characteristics of literature education and providing a scientific description of the role of educational content, teaching methods, instructional tools, and organizational forms in literature education constitute one of the major research directions of methodology as a field of study. Furthermore, the article analyzes the fact that, throughout the process of literary education, students simultaneously function within two distinct didactic positions.

Key words: literature education, methodology, educational content, teaching methods, instructional tools, modern didactics, the preparation of philologist-teachers, competence, system.

Kirish. Ma'lumki, Adabiyot o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish jarayonida "...ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi" [1:11] gan didaktikaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillari muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Pedagogika fanida ta'limning ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ongillik va faollik, ko'rgazmalilik, individuallashtirish, nazariya va amaliyot birligi kabi umumdidaktik tamoyillari uzoq yillar davomida nazariy jihatdan asoslangan hamda ta'lim amaliyotida qo'llanib kelinmoqda. Tasniflashda shartli "...ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari [2:11] tarzida ikki guruhda farqlanadi. Mazkur tamoyillar ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini belgilashda asosiy mezonlardan biri sifatida qoraladi.

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi ham umumiy pedagogik va didaktik qonuniyatlarga tayangan holda rivojlanib kelgan. Shu sababli adabiy ta'limning mazmunini shakllantirish, badiiy asarlarni tanlash, ularni tahlil qilish metodlarini belgilash, dars jarayonida foydalaniladigan vositalarni tanlash hamda o'quv

faoliyatini tashkil etishda didaktik tamoyillarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Adabiyot ta'limi o'quvchilarda nafaqat badiiy-estetik tafakkurni, balki ma'naviy-axloqiy qarashlar, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni ham shakllantirishga xizmat qilgani bois uning didaktik asoslarini aniqlash masalasi doimo dolzarb bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism. Pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, adabiyot o'qitish jarayonining alohida tarkibiy qismlari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, ta'lim mazmunini tanlash mezonlari, badiiy asarlarni o'rganish metodlari, o'qitishda qo'llaniladigan vositalar hamda dars shakllarining samaradorligi yuzasidan turli nazariy va amaliy qarashlar shakllangan [3:4:9]. Adabiy ta'lim mazmunini takomillashtirish, innovatsion metodlarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv darslarni tashkil etish kabi masalalar ham metodik tadqiqotlarda keng yoritilgan [8].

Shuningdek, didaktika nazariyasida "...o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami" [11:84] bo'lgan ta'lim mazmuni, "yo'l; tadqiqot, o'qitish, bayon etish usuli; xatti-harakat usuli; usul, usullar yig'indisi ma'nolarini

anglatadi" [8] gan *metodlari*, "...yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt" [11:65] sanaladigan *ta'lim vositalari* va o'quv jarayonining dars ichidagi tashkiliy ko'rinishlari bo'lgan *ta'lim shakllari* o'zaro bog'liq komponentlar sifatida izohlanadi. Har bir komponentning mohiyati, vazifalari va amaliy imkoniyatlari bo'yicha yetarlicha ilmiy qarashlar mavjud. Masalan, ta'lim mazmuni o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar tizimi sifatida talqin qilinsa, metodlar ushbu mazmunni o'zlashtirishning usullari sifatida qaraladi. Vositalar ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi resurslar vazifasini bajarsa, shakllar o'quv faoliyatining tashkiliy ko'rinishlarini ifodalaydi. Ushbu komponentlarning har biri bo'yicha pedagogik hamda metodik adabiyotlarda alohida ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda adabiyot ta'limi oldiga qo'yilayotgan yangi talablar, xususan, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash kabi vazifalar didaktik asoslarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda. Chunki zamonaviy ta'lim jarayonida adabiyot fanining maqsadlari faqat badiiy matnni o'qitish bilan cheklanmay, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, umumdidaktik tamoyillar va adabiyot ta'limining metodik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari hamda shakllarining adabiy ta'limdagi o'rnini ilmiy jihatdan tavsiflash masalasi metodika fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida eslatilgan ilmiy manbalarda mazkur masalalarning har biri alohida-alohida yoritilgan, lekin bizningcha, didaktik asoslarning adabiyot ta'limi tizimidagi ahamiyati va ular bilan bog'liq nazariy qarashlar ilmiy muhokamalarning markazida bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, **muammo** shundaki, ularni (ya'ni ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari hamda shakllarini) *yaxlit bir tizim sifatida* o'rganish hamda bo'lajak pedagoglar bo'lmish talabalarga o'rgatish to'laqonli yuzaga chiqmagan edi.

Muammo mavjud ekan, uning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan **bo'shliq** nimadan iborat ekanini aniqlab olish zarur bo'ladi.

Pedagogika va adabiyot o'qitish metodikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari didaktikaning asosiy kategoriyalari sifatida keng o'rganilgan. Mazkur komponentlarning har biri yuzasidan mustaqil ilmiy qarashlar, metodik yondashuvlar hamda amaliy tavsiyalar shakllangan. Ta'lim mazmunini tanlash va loyihalash, o'qitish metodlarining samaradorligi, ta'lim vositalarining didaktik imkoniyatlari hamda dars shakllarining tashkiliy xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilgan. Natijada ushbu komponentlarning nazariy tavsifi, tasnifi va amaliy qo'llanishiga oid salmoqli ilmiy meros vujudga kelgan. Biroq mavjud ilmiy manbalarni (darslik, qo'llanmalar, alohida ilmiy

ishlar) chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda mazkur to'rt komponent o'zaro integrallashgan didaktik tizim sifatida emas, balki bir-biridan nisbatan mustaqil bo'lgan elementlar sifatida talqin qilinadi. Ko'pincha ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari ketma-ket joylashtirilgan nazariy kategoriyalar sifatida tavsiflanadi, biroq ularning ichki aloqadorligi, funksional bog'liqligi hamda ta'lim jarayonidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari yetarli darajada ochib berilmaydi. Tizim (sistema) yondashuviga ko'ra, "muayyan tarzda o'zaro bog'langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan elementlar majmuyi ... yaxlitlik, tuzilish, aloqa, munosabat tushunchalari bilan uzviy bog'liq" [14:654-655] bo'lishi lozim.

Darhaqiqat, zamonaviy didaktika nuqtayi nazaridan qaralganda, mazmun, metod, vosita va shakl alohida komponentlar emas, balki yagona pedagogik tizimning o'zaro bog'liq elementlari hisoblanadi. Ta'lim mazmunidagi o'zgarish metodlarni yangilashni talab qiladi; metodlarning transformatsiyasi esa o'z navbatida, yangi vositalar va tashkiliy shakllarni zaruratga aylantiradi. Shuningdek, vositalardagi innovatsiyalar ta'lim mazmunining taqdim etilish usullariga va o'quv faoliyatining tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, ushbu komponentlarni alohida emas, balki o'zaro bog'langan dinamik tizim sifatida tadqiq etish metodika fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, filolog-pedagoglarni tayyorlash tizimida mazkur muammo yanada murakkab tus oladi. Chunki filologiya yo'nalishidagi talabalar odatiy o'quvchi yoki talaba maqomidan tashqari, kelgusida pedagogik faoliyat olib boruvchi mutaxassis sifatida shakllanadilar. Shu sababli ular adabiy ta'lim jarayonida ikki xil funksional pozitsiyani bir vaqtning o'zida egallaydi.

Ilk (dastlabki) pozitsiyada talaba badiiy matnning *hamma qatori kitobxon* – o'quvchisi hisoblanadi. Asarni o'qirgan, uni estetik idrok etadi, bitikning badiiy tabiati, g'oyaviy mazmuni, poetik xususiyatlari va estetik qiymatini anglashga intiladi. Bu jarayonda talaba adabiyotshunoslikka oid bilimlarga tayanadi, badiiy tafakkurini rivojlantiradi va adabiy-estetik kompetensiyalarni shakllantiradi. **Keyingi (ikkinchi) pozitsiyada** esa *talaba kelajakdagi o'qituvchi* sifatida ayni shu badiiy matnni qanday o'qitish, qanday metodlar asosida tahlil qilish, qanday vositalardan foydalanish va qaysi tashkiliy shakllarda taqdim etish mumkinligini ham o'rganadi. Ya'ni u bir vaqtning o'zida ham ta'lim oluvchi, ham bo'lajak ta'lim beruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi lozim. Zamonaviy ta'limda "o'quvchini zaruriy bilimlar yig'indisi bilan ta'minlash doirasidan chiqib...", o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish hamda boyitish, bilimlarni izchil ravishda to'ldirish, bilishga bo'lgan ichki ehtiyojni qondirish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlay olish ko'nikmasini shakllantirish" [5:12] kabi vazifalarni ado etish uchun mazkur ikki pozitsiya oliy filologik ta'limda ayricha ahamiyat kasb etadi.

Mavjud metodik tadqiqotlarning aksariyatida aynan mana shu ikki yo'nalishli didaktik vazifaning nazariy modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Adabiy ta'lim mazmuni ko'proq adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tavsiflansa, metodik

tayyorgarlik masalalari alohida kurslar yoki bo'limlar doirasida ko'rib chiqiladi. Natijada talabanning badiiy asarni o'quvchi sifatida idrok etishi bilan uni kelajakda o'qituvchi sifatida talqin etishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tizimli ravishda asoslanmaydi.

Mazkur holat filolog-pedagog tayyorlash tizimida nazariya va amaliyot o'rtasidagi muayyan tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Talaba adabiyotshunoslik bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi mumkin, biroq ushbu bilimlarni maktab adabiyot ta'limiga moslashtirish, pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash yoki metodik faoliyatga transformatsiya qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmasligi mumkin. Aksincha, metodik tavsiyalarni o'zlashtirgan talaba badiiy matnning chuqur estetik va poetik mohiyatini anglashda qiyinchiliklarga duch kelishi ehtimoli ham mavjud.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash mexanizmlari ham yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida adabiyot fanlari mazmuni sezilarli darajada yangilanib, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy adabiy nazariyalar, media madaniyat, raqamli gumanitar tadqiqotlar [7,6,2] kabi yo'nalishlar bilan boyitilayotgan bo'lsa-da, ularni o'qitishda qo'llanayotgan metodlar va vositalar ko'pincha an'anaviy didaktik model doirasida qolib ketmoqda.

Natijada mazmun va metod o'rtasida muayyan nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Masalan, talabalardan zamonaviy adabiy jarayonlarni tahlil qilish, mustaqil interpretatsiya yaratish, tanqidiy va kreativ fikrlash kompetensiyalarini namoyon etish talab qilinadi, biroq o'quv jarayonida hanzuz reproduktiv xarakterdagi ma'ruza, qayta hikoyalash yoki tayyor xulosalarni o'zlashtirishga asoslangan metodlar ustunlik qilishi mumkin. Bunday vaziyatda ta'lim mazmunida nazarda tutilgan kompetensiyalar bilan ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar o'rtasida uzilish yuz beradi.

Xuddi shuningdek, ta'lim vositalari masalasida ham ayrim qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Adabiy ta'lim mazmuni raqamli madaniyat, multimodal matnlar va mediaresurslar bilan boyib borayotgan bir paytda, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan vositalar ko'pincha an'anaviy darslik, konspekt va og'zaki bayon shakllari bilan cheklanib qolmoqda. Masalan, badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish jarayoniga sun'iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish yo'llarini aniqlash, uning samaradorligiga oid tavsiyalar ishlab chiqish masalasiga bag'ishlangan O.Shukurboyevaning tadqiqot ishi [15] natijalari kundalik amaliyotda o'qituvchilarga tanish emas. Bu esa zamonaviy ta'lim ehtiyojlari bilan amaldagi metodik ta'minot o'rtasida tafovut paydo bo'lishiga olib keladi.

Ta'lim shakllari bilan bog'liq holat ham shunga o'xshashdir. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarining faol, hamkorlikka asoslangan, loyiha va tadqiqot xarakteridagi faoliyatini talab qilayotgan bo'lsa-da, ko'plab hollarda darslarning tashkiliy modeli an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari doirasidan chiqmaydi. Bu esa ta'lim shakllarining mazmun va metodlar bilan yetarlicha

uyg'unlashmaganligini ko'rsatadi. "...turkiy xalqlar eposlarini qiyoslab o'qitish mazmunini yangilash orqali o'quvchilarda umumiy etnogenetik ildizni bilish, o'zga millatga xos ruhiyatni anglash kabi ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish usullari va dars samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy taklif hamda tavsiyalar" ishlab chiqilgan tadqiqotchi Nazokat Yusufjonovanning "Turkiy xalq eposlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'qitish texnologiyasi" mavzusidagi dissertatsiya ishida adabiy ta'lim sifat va samaradorligi dars materiallari mazmunining mos shakllar bilan uyg'unlashuviga bog'liqligi ta'kidlanadi [12]. Lekin bu kabi ishlarda taklif qilingan shakllar yaxlit bir tizimda umumlashtirilishi hamda kundalik adabiy ta'lim amaliyotiga tatbiq etilishi kerak.

Mavjud tadqiqotlarda ushbu nomuvofiqliklarning sabablari, ularning filolog-pedagog tayyorlash sifatiga ta'siri hamda mazmun-metod-vosita-shakl tizimining integrallashgan modeli maxsus tadqiqot predmeti sifatida deyarli o'rganilmagan. Ayniqsa, adabiyot o'qituvchisini tayyorlash jarayonida mazkur komponentlarning o'zaro funksional bog'liqligini ta'minlash mexanizmlari, didaktik integratsiya mezonlari va metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Holbuki, "Talaba bo'lajak mutaxassis-o'qituvchi sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalarini qanchalik to'g'ri tanlasa, bu jarayonni takomillashtirish darajasi shunchalik yuksaladi" [10:28].

Shunday qilib, mavjud ilmiy ishlarda ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari alohida kategoriyalar sifatida yetarlicha tavsiflangan bo'lsa-da, ularning filolog-pedagog tayyorlash tizimidagi integrallashgan faoliyat modeli, o'zaro funksional bog'liqligi hamda talabanning ikki yo'nalishli – adabiyotni o'quvchi sifatida o'zlashtirish va uni kelajakda o'qituvchi sifatida o'qitishga tayyorlanish – vazifalari bilan bog'liq didaktik mexanizmlar yetarlicha nazariylashtirilmagan. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy bo'shlig'ini tashkil etadi va ushbu yo'nalishda maxsus konseptual yondashuv ishlab chiqishni zaruratga aylantiradi.

Albatta, mavjud muammo va kamchiliklarni qayd etish bilan masala hal bo'lmaydi.

Taklif etilayotgan konsepsiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, filolog-pedagog tayyorlash jarayonida ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari o'rtasidagi munosabatlar chiziqli emas, balki tizimli va dinamik xarakterga ega bo'lishi lozim. Bunda mazmun metodlarni belgilaydi, metodlar vositalarni tanlashga ta'sir qiladi, vositalar esa ta'lim shakllarining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur komponentlarning har biri o'z navbatida, boshqalarining rivojlanishiga turtki beruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Natijada adabiyot o'qitish metodikasining barcha tarkibiy qismlari yagona didaktik tizim doirasida faoliyat yuritadi.

Mazkur yondashuvning metodologik yangiligi filolog-pedagog tayyorlash jarayonining ikki yo'nalishli tabiatini hisobga olishda namoyon bo'ladi. Ya'ni talaba adabiy ta'lim jarayonida bir vaqtning o'zida ikki xil didaktik pozitsiyada faoliyat yuritadi:

birinchidan, u badiiy matnni o'quvchi va tadqiqotchi sifatida o'zlashtiradi; ikkinchidan esa, ayni matnni kelajakda qanday o'qitish mumkinligini metodik jihatdan tahlil qiladi. Shu sababli ta'lim mazmuni faqat adabiyotshunoslik bilimlarini emas, balki metodik bilim va kompetensiyalarni ham o'z ichiga olgan ikki qatlamli tuzilma sifatida qaralishi zarur.

Taklif etilayotgan modelga ko'ra, har qanday adabiy asarni o'rganish jarayoni ikki parallel yo'nalishda tashkil etiladi. Birinchi yo'nalish badiiy-estetik idrok bilan bog'liq bo'lib, unda talaba asarning mazmuni, g'oyasi, poetikasi, obrazlar tizimi va estetik qimmatini anglaydi. Ikkinchi yo'nalish esa metodik refleksiya bilan bog'liq bo'lib, unda talaba ushbu asarni maktab o'quvchilariga qanday o'qitish, qaysi metodlardan foydalanish, qanday topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va qaysi vositalarni qo'llash mumkinligini tahlil qiladi. Natijada adabiy bilim va metodik bilim parallel ravishda shakllanadi.

Bunday integrallashgan model adabiyot ta'limida kuzatilayotgan mazmun, metod, vosita va shakl o'rtasidagi nomuvofiqliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki unda ta'lim mazmunining har bir elementi mos metodlar, vositalar va tashkiliy shakllar bilan bog'langan holda loyihalashtiriladi. Masalan, agar mazmun tanqidiy fikrlash va mustaqil interpretatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, unga mos ravishda muammoli ta'lim, munozara, keys-stadi, loyiha metodi kabi faol metodlar tanlanadi. Ushbu metodlarni amalga oshirish uchun esa raqamli platformalar, multimedia resurslari, elektron kutubxonalar va interaktiv dasturlar kabi zamonaviy vositalardan

foydalaniladi. Natijada mazmun bilan metod va vosita o'rtasida didaktik uyg'unlik ta'minlanadi.

Shuningdek, taklif etilayotgan yondashuv ta'lim shakllarini ham qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi. An'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda seminarlar, loyiha faoliyati, pedagogik laboratoriyalar, mikroo'qitish (microteaching), refleksiv mashg'ulotlar va raqamli hamkorlik formatlarini integratsiyalash zarur deb hisoblanadi. Bu esa talabalarning nafaqat adabiy bilimlarini, balki amaliy pedagogik kompetensiyalarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Yuqorida qayd etilgan holat tadqiqotning ilmiy bo'shlig'ini tashkil etadi va ushbu yo'nalishda maxsus konseptual yondashuv ishlab chiqishni zaruratga aylantiradi.

Xulosa. Mazkur konsepsiya doirasida adabiyot o'qitish metodikasining didaktik asoslarini tavsiflash uchun **"integrallashgan didaktik model"** tushunchasini ilmiy muomalaga kiritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu modelda mazmun, metod, vosita va shakl mustaqil bloklar sifatida emas, balki o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi elementlar sifatida aks etadi. Modelning markazida esa filolog-pedagog shaxsining kasbiy-metodik kompetensiyasi joylashadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aniqlangan ilmiy bo'shliq ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini alohida didaktik kategoriyalar sifatida emas, balki filolog-pedagogning kasbiy tayyorgarligiga xizmat qiluvchi yagona tizim sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.A., Askarov A.D. Umumiy pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari bakalavrlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: O'zMU, 2019. 360-b.
2. Abduraxmonova Sh.B. Umumta'lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarini kulturologik yondashuv asosida o'qitish. Ped-ka fanlari b. fals. doktori (PhD) diss-si. –T., 2026.
3. Adabiyot o'qitish metodikasi (dasturiy qo'llanma). Tuzuvchilar: Q.Yo'ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov. – T., 1994.
4. Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: "Ўқитувчи", 1967. 448-б.
5. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. –T.: Innovatsion-Ziyo, 2022. 401-b.
6. Norqulov N.S. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mumtoz nasr namunalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ped-ka fanlari b. fals. doktori (PhD) diss-si. –T., 2025.
7. Nurmuhammadov J.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida adabiy laboratoriyalar yaratishning ilmiy-metodik asoslari. Ped-ka fanlari b. fals. doktori (PhD) diss-si. –T., 2024.
8. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2022. 408-b.
9. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.168-b.
10. Xafizova M.A. Kasbiy pedagogika: O'quv qo'llanma. –Samarqand: "SamDCHTI" nashriyoti, 2024. 134-b.
11. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Darslik. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2017. 416-b.
12. Юсуфжонова Н.Н. Туркий халқ эпосларини қиёсий-типологик ёндашув асосида ўқитиш технологияси. Педагогика фанлари б. фалс. док. (PhD) илм. даражасини олиш учун ёзилган дисс-яси. –Т., 2022.
13. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: "Ўқитувчи", 1992. 333-б.
14. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 7-жилд. –Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2004. 704-b.
15. Shukurboyeva O.N. O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish. Ped-ka fanlari b. fals. doktori (PhD) diss-si. –T., 2026.

Farxod NIZOMOV,
Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: farkhodnizomov22@gmail.com



“IKKI ESHIK ORASI” ROMANINI O’RGANISHDA MUAMMOLI TA’LIMNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini o'qitish jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilgan. Asar matni asosida muammoli vaziyatlar yaratish, muammoni qo'yish va uning yechimlarini turli variantlar shaklida topish usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, didaktik imkoniyat, "Ikki eshik orasi" romani, muammoli vaziyat, matn bilan ishlash texnikasi, tanqidiy fikrlash, yechim variantlari.

Аннотация: в данной статье с научно-методической точки зрения исследованы дидактические возможности использования технологий проблемного обучения в процессе преподавания романа Уткира Хашимова «Меж двух дверей». Раскрыты методы создания проблемных ситуаций на основе текста произведения, постановки проблемы и поиска её решений в виде различных вариантов.

Ключевые слова: проблемное обучение, дидактические возможности, роман «Меж двух дверей», проблемная ситуация, техника работы с текстом, критическое мышление, варианты решений.

Annotation: this article scientifically and methodologically explores the didactic possibilities of using problem-based learning technologies in the process of teaching Utkir Hoshimov's novel "Between Two Doors". It highlights the methods of creating problem situations based on the literary text, posing problems, and finding their solutions in various alternative forms.

Key words: problem-based learning, didactic possibilities, novel "Between Two Doors", problem situation, text working techniques, critical thinking, solution variants.

Dars jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish bir tomondan, o'quvchilarning asar yoki uning muallifi haqidagi tushunchalarini mukammallashtirsa, ikkinchi tomondan, ularni fikrlashga, mustaqil qaror chiqarishga undaydi. Ushbu ta'lim texnologiyasi bugungi kunda Milliy ta'lim tizimimizda keng ishlatilmoqda. Badiiy asar tahlil qilinar ekan, matn bilan ishlash, matnni tahlil qilish katta natija beradi. "O'qish davomida o'quvchi matndan ma'no yaratadi. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi muttasil ochiq aytilmagan (yashirin) ma'noni anglash, bo'shliqlarni to'ldirish, taxminlar (gipotezalar) yaratish va ularni matn asosida tekshirish jarayonlari asosida ma'no yaratadi" [1; 58]. Shunday ekan, o'quvchi tafakkurida matnni analiz qilish, sharh bera olish kabi ko'nikmalar shakllangan bo'lishi kerak. Muammoli ta'lim texnologiyasi ayni shu jarayonda qo'l keladi.


Ushbu metoddan foydalangan "V. Marasman, D. Saladkova, T. Kudryavsev, N. Kudryashov, M. Lisaxina, L. Ayzerman va boshqalar adabiyot darslarida muammoli ta'limdan foydalanishda biror mavzuni imkon qadar chuqurroq tushunishni ta'minlash va ta'lim jarayonida faollashishga erishishni nazarda tutishgan" [1; 170]. Shu jihatdan, mazkur texnologiya asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

– muammoli vaziyat yaratish orqali adabiy ta'lim samaradorligini oshirish;

– o'quvchilar ijodiy tafakkurini o'stirish, faolligini oshirish;

– mashg'ulotni qizg'in bahs-munozara shaklida bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning urush mavzusida yozilgan asarlarini o'rgatishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Muammoli vaziyat uch bosqichga bo'lib olib boriladi [5]:



“Ikki eshik orasi” romanidan quyidagicha muammoli vaziyatlar yaratish mumkin¹.

Muammoli vaziyat. Romanda bir qator achchiq qismat egalari mavjud. Asar mutolaasi davomida voqealar rivojlangani sari qahramonlar taqdiri chigallashib boraveradi. Goh u, goh bu obrazlar murakkabligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi.

Muammo: asarda sizningcha, kim baxtsiz qismat egasi sifatida tasvirlangan Kimsan yoki Muzaffar?

Ushbu muammoga talabalar quyidagicha javob berishi mumkin.

¹ Muammoli vaziyat yechimi uchun maqola hajmidan kelib chiqib, ikkitadan yechim keltirilmoqda. Muallif.

Muammoning birinchi yechimi: men uchun asarda Muzaffardan-da baxtsizroq inson yo'q. Hamma asar haqida eshitishi bilanoq, birinchi bo'lib Kimsanning fojiaiy o'limini ko'z oldiga keltiradi, aslida, o'lim bu dunyodagi azoblarning tugashidir. Otasi urushdan nogiron bo'lib qaytgan, onasi tashlab ketgan, sevgan insoni yor bo'la olmagan Muzaffar eng baxtsizdir.

Muammoning ikkinchi yechimi: inson bir marta tug'ilib, bir marta o'ladi, lekin Muzaffar bir marta tug'ilib, ming bora o'lgan insondir. U urushdan qolgan og'ir jarohatlar bilan hamnafas yashadi. Bu esa yigit uchun bitmas-tuganmas azob-uqubatlar olib keldi. Asarda Kimsan qismati ham fojiaiyiligi bilan ajralib turadi. O'n gulidan bir guli ochilmagan yigitning taqdiri urush maydonlarida noma'lum bo'lib ketadi. Ota-onasi, sevgan qizini qayta ko'rish nasib etmaydi. Kimsan o'lgan bo'lsa ham, ruhi odamlar, yaqinlari ichida hayot bo'lgan obrazdir.

Muammoli vaziyat. Asarda har bir obrazning o'z ismi bor. Aksariyat nomlar sof o'zbekchadir. Inson taqdirini belgilashda ismlarning ahamiyati katta.

Muammo. Asar muallifi Kimsan obraziga nima uchun aynan "Kimsan" deb ism berdi? Asarda qahramonlar obrazini ochib berishda ism qanchalar ahamiyatga ega?

Muammoning birinchi yechimi: xalq o'rtasida inson bolasi o'z ismi bilan tug'iladi, ilohiy ismlar osmondan tushadi degan ming yillik gaplar bor. Insonning kelajakda qanday inson bo'lishida ism alohida o'ringa ega, ota-onaning farzand oldidagi burchlaridan biri bolaga yaxshi ism qo'yishdir. Kimsan ismining qo'yilishi olti farzandini tuproqqa qo'ygan ota-ona ilohiy qarashlarga qarab qo'ygan bo'lishi mumkin.

Muammoning ikkinchi yechimi: asar qahramoni Kimsan rostan ham 19-20 yil umr ko'rib kimligini bilmay o'tadi. Nima uchun tug'ilganini bilmay o'tadi. Uni doim o'lish uchunmi o'ldirish uchunmi yashayotganini anglay olmaslik qiynagan, urush uni mana shunday o'ylar iskanjasida qoldirib ketadi. Urush qo'ydek yuvvosh insonlarni ham vahshiy qilib o'zligini yo'qotib qo'yishga majbur etadi. Urushda bitta qoida bor: O'ldirmasang – o'lasan. Dushmanning kim ekanligi kerak emas. Asarda dom-daraksiz ketgan qahramon bo'lganligi uchun ham unga Kimsan degan nom tanlangan.

Muammoli vaziyat. Romanda mehribon onalar obrazi juda go'zal tasvirlangan. Har bir ona samimiy o'zbek ayoli, mehribon ona siymosida gavdalana oladi. Ikki o'g'lini urushda qurbon qilgan Xolposh xola, o'g'illaridan bir o'g'li urushda halok bo'lgan Lazakat xola obrazlari yuksak pafos bilan ochib berilgan

Muammo. Asarda Qora amma obrazi aynan nima uchun shunday nomlangan? Bunga uning tashqi ko'rinishi sababmi?

Muammoning birinchi yechimi. Asarda muallif bergan kichik portretda bu ayolning chinakam mehnatkashligi, tinimsiz yumush bilan bandligi, bo'ylari pastroq ekanligi, qoraga moyil ekanligi aytiladi. Asarda bu ayolning Qora amma

deyilishi ko'p jihatdan tashqi ko'rinishi hamda hayotida sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan aytilgan.

Muammoning ikkinchi yechimi. Qora amma – chin ma'nodagi o'zbek onasi timsolidir. Onalar qancha qiynalmasin, jonlari qancha aziyat chekmasin dardini yaqinlariga, ayniqsa, bolalariga sezdirmaydi. Eng yaqin insonlaridan judo bo'ladi. Tanholikka mahkum, ammo yashashga tashna, yashaganda ham yaxshi yashashga intiladi. Ko'ngli ezgulikka, ko'zi muhabbat nurlariga to'la ayoldir. Har qanday damda ham o'zida yashashga kuch topa olgan buyuk qalb sohibidir. Muallif ayni shu obraz vositasida kishi hayotida og'ir kunlar ko'p bo'lishini, kutilmagan sinovlarga duchor bo'lishligini ko'rsatib, ularning qarshisida odam o'zini yo'qotib qo'ymasligini dalillash uchun ushbu qahramonni tanlaydi. Bizningcha, adib bekorga Qora amma deya atamagan uning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki, hayoti, qismati ham qoradir.

Muammoli vaziyat. Urush vaqtida eng qiyin yumush pochtda ishlayotganlarga tegishli bo'ladi. Urush maydonlaridan kelayotgan xatlarni egalariga yetkazish doim ham yaxshilikka olib kelmagan. Bir xursand qilsa, bir ranjitgan. Ushbu asardagi pochtdachi obrazining ahamiyati qanday?

Muammo. Nima uchun qishloq odamlari Rashid abzini avval yaxshi ko'rishdi keyin esa nafratlanishdi. O'zbek kino ijodkorlari tomonidan filmlardan birida xuddi shunday obrazni uchratishimiz mumkinmi?

Muammoning birinchi yechimi. Urushda yaqin kishilarini jangga jo'natgan odamlar ulardan xat-xabarni intizor bo'lib kutgan. Onalar dilbandining yo'lga intiq termulgan, oshiqalar o'z yorining so'zlariga, nigohlariga zor bo'lgan, singillar akalarining, ukalarining qadamlariga nigoron bo'lgan. Ularning sog'inchini bir-ikki betlik, uniqqan, dog' tegib, sarg'ayib ketgan xatlar orqali ovuntirgan. Xat – diydor, xat – ota, xat – aka, xat – sevimli yor bo'lgan ular uchun. Urushning dastlabki yillarida keladigan millionlab xabarlar quvonch olib kelar edi, urushga ketganlarning holidan xabar olib kelar edi, bu oilalarga quvonch bag'ishlar edi, shodlik bag'ishlardi. Urush avj olgan sari ko'p insonning yostig'ini qurita boshladi va "qora xat" atalmish shumxabarlar keldi. Ularni olib kelgan pochtdachilarga juda og'ir bo'ldi, endi ulardan odamlar qo'rqishar, uylariga yaqinlashsa, yurak hovuchlar edi.

Muammoning ikkinchi yechimi. Rashid abzi obraziga xos jihat "Ilhaq" filmida ham uchraydi. Filmdagi obraz ham oyog'i cho'loq bo'lgani uchun urushga bormay pochtdachilik qiladi. Uning ham zimmasiga insonlar quvonch – musibatlarini yetkazish vazifasi topshirildi. Xuddi Rashid abzidek. Ikkisi ham nogiron edilar. Ular aybsiz edilar. Qora xat borgan uylardagi insonlar urush achchig'ini, alimini, faryodlarini ulardan olishdi, "shumqadam" deyishdi. Aslida ular qalbi pok, iymoni butun, nuqsonli bo'lsa ham mehnatdan qochmaydigan odamlar edi. Urush ularni aybsiz "aybdorga" aylantirib qo'ydi. "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi"da ham bir ayolning qismati Rashid abzi qismatiga o'xshab ketadi.

Qaysidir asar, ayniqsa, katta hajmli asar “O’quvchi oldiga muammo shaklida qo’yilgan, uni asar matni ustida o’ylashga, izlanishga undaydigan, uning zamiridagi ma’nolarni tushunish uchun hayotiy tajribalarga qayta-qayta murojaat qilishga majbur qiladigan savol yoki topshiriqlarni muammoli masala yoki muammoli savol-topshiriqlar deyish mumkin” [4; 62]. “Ikki eshik orasi” romani yuzasidan bugungi kunga bog’lab, asar mazmuni va g’oyasidan kelib chiqib ham muammoli savol tanlash mumkin.

Muammoli vaziyat. Dunyo aholisi ikkita jahon urushini ko’rdi, qancha begunoh insonlarning qoni to’kildi. Yer yuzi hamon urush qoldirgan asoratlarni tuzatish bilan band. Qanchadan qancha odamlar nogiron bo’lib qoldi.

Muammo. Odamlar nega urushadi? Urush bizga nima berdi?

Muammoning birinchi yechimi. Inson yaralibdik, Odam Atodan meros qoldi o’z nafs uchun yashash. Nafsni deb Odam Ato va Momo Havo Jannatdan haydaldilar, uzoq ayriqliqqa duchor bo’ldilar. Urush ham insonning tugamas, hech ham to’lmas nafs uchundir. Birinchi odam o’ldirish Odam Ato farzandi Qobil ibn Odam tomondan o’z istaklari uchun amalga oshirildi va unga cheksiz la’nat va gunohlar yozildi, hozir ham kimda kim bir jon olsa, uning gunohi birinchi bo’lib Qobil ibn Odamga yozilar ekan va ajabo inson yaratilgandan buyon ne ne urushlarda qancha- qancha insonning joni olinmadi...

Muammoning ikkinchi yechimi. Urush bizga son sanoqsiz majruhlar, yetim qolgan bolalar, farzandi dog’ida kuyib kul bo’lgan ota-onalar, yosh-yosh beva qolgan ayollar, har uydagi bir necha o’n yillab tutilgan motamlar, ochlik, azob va yana azobdan boshqa hech narsa bermadi. Insoniyat boshiga yog’dirilgan eng katta ofat edi bu urush. Insonlar o’ldirishdi, o’lishdi. Nima uchun urush qilayotganlarini ham bilishmadi. Jabr ko’rgan ham inson bo’ladi xolos. Insonlar hatto insonlik qadrini ham bilmay qoldi. Odamlarning, yaqinlarimizning qadriga yetaylik, hatto bir siqim tuproq-u bitta xas bo’lsa ham.


Shuningdek, mazkur asar yuzasidan:

1. Orif oqsoqol hayoti nima uchun murakkab kechdi? Uni haqiqiy o’zbek otasi, yo’lboshchi desak bo’ladimi?


2. Husan дума qanday inson? Uni qahramon deb atash mumkinmi?

3. Ra’noning kechirilmas aybini oqlab bo’ladimi? Siz uni inson sifatida kechira olar edingizmi? Kabi savollar asosida yana davom ettirish mumkin.

“Ikki eshik orasi” konfliktida muhabbat uchburchagining ahamiyati katta. Bu uchburchakni quyidagi sxemada ko’rsatish mumkin.



Shu bilan birga, yana bir uchburchak halqasi mavjud. Bu quyidagicha:



Ushbu ikki shaklni ham muammoli vaziyat sifatida qo’yish mumkin. Nega aynan ushbu besh obraz o’zaro qarama-qarshi qo’yilmoqda. Izohlang shaklida. Talabalar o’zlarining javoblarini berishi mumkin.

Izoh: ushbu muhabbat uchburchagining **birinchisida** tuyg’ular va fikrlar, dunyoqarashlar qarama-qarshiligi nihoyatda rang-barang va dramatik shiddat bilan tasvirlangan. **Ikkinchi** uchburchakda esa hissiyot va kechinmalar aro ziddiyat ko’zga tashlanadi. Bunda aql va yurak bir-biriga zid qo’yiladi.

Ushbu muammoli vaziyat asosida berilgan savollar o’rganuvchining ichki “men”i shakllanishiga hissa qo’shadi. O’z maqsadi sari dadil qadam bosishga undaydi. Eng muhimi, badiiy asarni kecha – bugun – erta orasidagi voqelik sifatida tahlil etish ko’nikmasi shakllanadi. O’quvchi tafakkurini, nutqini o’stiradi. Og’zaki bayon qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva Z., Jalolov K. Adabiyot o’qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka. Uslubiy qo’llanma. – Toshkent, 2020. 158-bet.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: “Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi” nash. 2009. 170-bet
3. Хошимов Ў. “Икки эшик ораси”, – Тошкент: “Шарқ”, 2016. 418 бет.
4. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O’qituvchi. 1996. 62-bet.
5. <http://www.uuoidata.org/course/es1/FoK/Lecture%20-%208.pdf>



TILSHUNOSLIK



Ma'rufjon YO'LDOSHEV,
Filologiya fanlari doktori, professor
marufcany@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5239-4804



Bir she'r tahlili turkumidan

TEXNO-GROTESK YOXUD MA'NAVIY BEGONALASHUVNING IRONIK TASVIRI

Annotatsiya: maqolada zamonaviy filologiya va san'atshunoslikda yangi badiiy tasvir usuli sifatida bo'y ko'rsatayotgan texno-grotesk fenomenining mohiyati haqida fikr yuritildi. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida inson ma'naviyatining emirilishi, sun'iy intellekt va algoritmlar ta'sirida shaxsning egzistensial begonashuvi masalalari yoritilgan. Shodmonkul Salomning bir she'rida ifodalangan an'anaviy timsollarning texnogen transformatsiyasi hamda ichki xavotir tuyg'usining badiiy-estetik tasviri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *texno-grotesk, badiiy tasvir, ma'naviy begonashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot, surreal talqin, ironiya, transformatsiya.*

Аннотация: в статье рассматривается сущность феномена техногротеска, который возникает как новый метод художественного представления в современной филологии и истории искусства. Подчеркиваются проблемы эрозии человеческой духовности в условиях научно-технического прогресса, экзистенциального отчуждения личности под влиянием искусственного интеллекта и алгоритмов. Раскрываются техногенная трансформация традиционных символов и художественно-эстетическое изображение чувства внутренней тревоги, выраженного в одном из стихотворений Шодмонкуля Салома.

Ключевые слова: *техногротеск, художественное представление, духовное отчуждение, научно-технический прогресс, сюрреалистическая интерпретация, ирония, трансформация.*

Annotation: the article discusses the essence of the techno-grotesque phenomenon, which is emerging as a new method of artistic representation in modern philology and art history. The issues of the erosion of human spirituality in the conditions of scientific and technological progress, the existential alienation of the individual under the influence of artificial intelligence and algorithms are highlighted. The technogenic transformation of traditional symbols and the artistic and aesthetic depiction of the feeling of inner anxiety expressed in one of Shodmonkul Salom's poems are revealed.

Key words: *techno-grotesque, artistic representation, spiritual alienation, scientific and technological progress, surreal interpretation, irony, transformation.*

Texno-grotesk atamasi adabiyot va san'at bilan bog'liq tadqiqotlarda odamzod bilan jonsiz mashinalarning, sof insoniy tuyg'ular bilan sovuq texnologiyalarning g'ayritabiiy, mantiqsiz va qo'rqinchli tarzda qorishib ketishini ifodalovchi badiiy tasvir usuliga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu tushuncha zamirida shiddatli ilmiy-texnik taraqqiyotning inson ruhiyatini yemirishi, tabiatning mutatsiyaga uchrab sun'ylashuvi va odamzodning o'z kashfiyotlari qurboniga aylanib borayotgani haqidagi global xavotir yotadi. Bunday tasvir usulida ijodkor voqelikdagi evrilishlarni shunchaki bayon qilmay, uning vayronkor va surreal tomonlarini ataylab bo'rttirib ko'rsatadi. Kanadalik san'atshunos

olim Bernard Shyutse o'zining "The Grotesque and the Techno-grotesque" nomli maqolasida texno-grotesk tushunchasini inson tanasi va texnologiyaning o'zaro gibridlashuvi natijasida yuzaga keladigan yangi estetik va falsafiy holat sifatida talqin qiladi. Muallifning fikricha, protezlar, implantlar, kiborg texnologiyalari hamda virtual muhit bilan integratsiya inson tanasining an'anaviy chegaralarini o'zgartiradi va organik hamda texnologik unsurlar bir butun gibrid tizimga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, texno-grotesk inson va mashina o'rtasidagi chegaraning noaniqlashuvini, gibridlashuv esa biologik va sun'iy tizimlarning o'zaro qo'shilib, yangi mavjudlik shaklini hosil qilishini anglatadi. Bu jarayon esa muallif

tomonidan postinson (post-human) konsepsiyasi bilan bog'lanib, texnologiyalar ta'sirida an'anaviy "inson" tushunchasining transformatsiyaga uchrashi va yangi antropologik modelning shakllanishi sifatida izohlanadi. [1]

Bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa ilmiy markazlarida an'anaviy nazariyalardan mutlaqo yangi, raqamli voqelikni aks ettiruvchi zamonaviy yo'nalishlar jadal rivojlanayotganligi kuzatilmoqda. [5] Sun'iy intellekt va neyrotarmoqlarning til tizimiga shiddatli kirib kelishi g'arb filologik tafakkurida jiddiy transformatsiyalarni yuzaga chiqardi. So'nggi yillarda e'lon qilingan tadqiqotlarga qarab, sun'iy intellekt lingvistikasi va generativ modellar diskommunikatsiyasi bilan bog'liq mavzularga qiziqish ortganini kuzatishimiz mumkin. [1]

Sun'iy intellekt texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi esa adabiyot va san'atdagi texno-grotesk tushunchasini sof badiiy metaforadan real hayotiy voqelikka ko'chirayotgani ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Bugungi kunda inson tafakkurining nozik mahsuli bo'lgan ijod, his-tuyg'u va mantiqning mashina algoritmlari bilan g'ayritabiiy ravishda qorishib ketishi postindustrial jamiyatning yangi vizual va ma'naviy groteskini yuzaga chiqarmoqda. Zamonaviy sun'iy intellekt insonni jismonan emas, balki uning fikrlashi, san'ati va ichki kechinmalarini algoritmlarga aylantirib, klassik texno-groteskning yangi, "hisobli va raqamli xaos"ga asoslangan teran ko'rinishini namoyon etmoqda.

Rus olimlari bu fenomenni asosan M. Baxtinning klassik grotesk konsepsiyasining transformatsiyasi sifatida baholashmoqda. [2, 5] Boshqacha aytadigan bo'lsak, avvallari grotesk inson va tabiatning karnaval zamiridagi qayta tug'ilishini anglatgan bo'lsa, zamonaviy texno-groteskda inson ruhiyati va tanasining kiber-makon va sun'iy intellekt tili bilan qorishib, "jonsizlanishi" sifatida qaralmoqda. [3, 4]

Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham ushbu ma'naviy inqiroz, texnologik taraqqiyotni ironik tilda tasvirlash ko'p kuzatiladi. Shunday ijodkorlardan biri Shodmonqul Salomdir. Uning "Tezlashtirilgan hayot" nomli konseptual she'rida dastlabki satrlardan oq tazodga asoslangan ifodalar orqali raqamlashgan dunyoning ahvolini behad ta'sirchan tavirlanadi.

*Tezlashtirilgan hayot,
Yulduzi qattiq osmon.
Toraytirilgan dunyo,
Kengaytirilgan maydon.*

Muallif tomonidan ishlatilgan "Toraytirilgan dunyo, Kengaytirilgan maydon" ifodasi texnologik va moddiy imkoniyatlar nechog'lik kengaymasin, inson yashaydigan ruhiy kenglik, mehr va samimiyat maydoni shunchalik qisqarib borayotganiga ishora qilinadi.

She'rdagi "sekinlatilgan urush" metaforasi esa ochiq qurolli to'qnashuvlardan ko'ra dahshatliroq bo'lgan, postindustrial tizim tomonidan inson ongi va ruhiyatiga qarshi olib borilayotgan surunkali, boshqariladigan sovuq urushning o'ziga xos ironik tasviri hisoblanadi.

*Sekinlatilgan urush,
Suvga tashlangan yurak.
Yig'iga o'xshab kulish,
Qaerda kulish kerak?*

Shoir butun boshli insoniyat erishgan yutuqlarni achchiq piching ostiga olib, uni qadriyatlarining qadrsizlanib borishi sifatida talqin qiladi.

*Tengsiz muvozanatlar
Tenglashib turibdilar.
Ertakdagi botirlar
Ertaksiz yuribdilar.*

Ushbu misralarda dunyoning ziddiyatlardan iborat abadiy muvozanati va zamon shiddatida o'z ideallarini yo'qotib, oddiylikka singib ketgan inson qismatining mahzun haqiqati aks etgan. Shoir "tengsiz muvozanat" va "ertaksiz botirlar" kabi teran tazod hamda oksimoronlar orqali bugungi kunning ichki dramtizmini yuzaga chiqaradi. Bu erdagi "ertaksizlik" afsonaviy ulug'vorlikning yemirilishi va qahramonlikning oddiylashganiga ishora bo'lib, she'r matn osti ma'nolari va yuksak lirik kuzatuvchanlik mahsulidir. Borliqning ko'zga ko'rinmas qonuniyatlari ustiga qurilgan ushbu to'rtlik kitobxonni zamon suronlarida ramzga aylangan "botirlar"ning bugungi holati va ularning ichki olami haqida chuqur falsafiy mushohadaga chorlaydi.

*To'lolmay turgan oylar
Ko'ngillarday cho'kdilar.
Tushdan chiqqan suluvlar
Tushday erib ketdilar.*

Keltirilgan misralarda inson ruhiyatidagi sukunat, umidsizlik va o'tkinchilik tuyg'ulari go'zal poetik

bo'yoqlarda ifodalangan. *"To'lolmay turgan oylar"* va *"cho'kkan ko'ngillar"* o'rtasidagi o'xshatish lirik qahramonning ichki dunyosidagi kemtiklikni, amalga oshmagan armonlarni aks ettiradi. Shoir *"tushdan chiqqan suluvlar"*ning *"tushday erib ketishi"* orqali go'zallik va baxtning oniylikini, inson hayotidagi eng go'zal lahzalarning ham xuddi sarob kabi tez yo'qolishini ta'sirchan lirik tashbehlar vositasida tasvirlagan. Tagma'nolarga boy ushbu satrlar o'quvchini borliqning beqarorligi, orzu va reallik o'rtasidagi nozik chegara hamda inson qalbining mahzun manzaralari fonida o'zlikni anglashga undaydi.

*Biri birisidan tez
Yurak qumsoatlari.
Ezgulikka o'xshaydi,
Nomlari, niyatlari.*

Shoir inson umrining o'tkinchiligi va vaqt shiddatini o'ziga xos tarzda tasvirlagan. *"Yurak qumsoatlari"* o'xshatishi orqali shoir umrning cheklanganligini, har bir yurak urishi aslida tugab borayotgan vaqtning oniy lahzalari ekanligini chuqur drammatizm bilan ifodalaydi. Bu yugurik vaqt oqimida inson qalbini saqlab qoluvchi yagona najot *"ezgulikka o'xshagan nomlar va niyatlar"* ekani she'rning umumiy g'oyaviy o'zagini tashkil etadi. Parchada insonning bu dunyodagi muvaqqat borlig'i va undan qoladigan ma'naviy iz, ezgu amallarning boqiyliqi haqida go'zal bir xulosa taqdim etilgan.

*Biri oq, biri qora,
Ustunlarda belanchak.
Kelajakni tebratar
Temir qo'lli kelinchak.*

Zamonaviy dunyoning texnologik taraqqiyoti, ramziylik va insoniyat qismatiga daxldor xavotirlar mazkur parchada ham metaforik tizimda aks ettirilgan. *"Biri oq, biri qora ustunlar"* hayotning abadiy ziddiyatlari va sinovlarini anglatga, undagi *"belanchak"* insoniyatning beshigi deb qaraladigan kelajak timsolidir. Shoir *"temir qo'lli kelinchak"* deganda inson hayotiga shiddat bilan kirib kelayotgan sun'iylik, sovuq texnika va robotlashuv davrini majoziy tarzda ifodalab, kelajak avlod taqdiri qanday qo'llarda ekanligiga ishora qiladi. Parchada go'zallik va nafosat ramzi bo'lgan *"kelinchak"* obrazining *"temir qo'lli"* sifatida tasvirlanishi she'rga kuchli drammatizm bag'ishlab, globallashuv asrida insoniylik va tabiiylikning omon qolishi so'roq ostida qolayotganligiga e'tibor qaratiladi.

*Zanglamaydigan o'qlar,
Zangi yurakka ko'chgan.
Tushlarning xonasida
Chiroqlar sovuq o'chgan.*

Ushbu misralarda zamondosh insonning ichki sovuqligi, ruhiy inqirozi va his-tuyg'ularning begonalashishi yuksak lirik mahorat bilan chizilgan. Shoir *"zanglamaydigan o'qlar"*ning zangi yurakka ko'chganini ta'kidlash orqali tashqi olamdagi sovuqlik va shafqatsizlik inson qalbini ich-ichidan yemirayotganiga ishora qiladi. *"Tushlar xonasida chiroqlarning sovuq o'chishi"* esa umidlarning so'nishi, inson ichki dunyosining zulmat va huvillashga mahkum bo'lganini ifodalovchi go'zal metaforadir.

*Ko'zlargarmon emas,
Xazonlarga kuz kelgan.
Ko'zyosh aslo sho'r emas,
Sharob ta'mini olgan.
Olti oyoqli otlar,
Tilsiz qolgan tilsimot.
Oftobdan soliq olar
Hisobli taraqqiyot.*

Shoir tabiat qonuniyatlarining buzilishi va insoniyatning ruhiy fojiasini ta'sirchan badiiy detallar vositasida ochib beradi. Birinchi to'rtlikdagi sharob ta'mini olgan ko'zyosh tasviri lirik qahramon ichki dunyosidagi og'riqlarning real hayot voqeligiga ko'chishini ko'rsatadi. Davomida kelgan *"olti oyoqli otlar"* va *"tilsiz qolgan tilsimot"* obrazlari orqali shoir hayot va mamot o'rtasidagi sirli muvozanatning yo'qolayotganiga urg'u beradi. Yakuniy xulosadagi *"oftobdan soliq oluvchi hisobli taraqqiyot"* metaforasi esa hisob-kitob ustiga qurilgan zamonaviy dunyoning tabiiylikni mahv etayotganini ko'rsatib beradi. Globallashuv va modernizatsiya shiddati mazkur parchada sof ironik kontekstga ko'chiriladi, bunda tabiatning eng beminnat in'omi bo'lgan kunduz nuri ham raqamlashtirilgan tizim tomonidan boshqarilishi mumkinligi ifodalanadi. Parchadagi *"Oftobdan soliq olar, Hisobli taraqqiyot"* satrida yaqin kelajakda kapitallashtirilgan jamiyat tomonidan hatto havo, nur va his-tuyg'ular ham nazoratga olinishi haqidagi xavotirli xulosa ilgari suriladi.

*Tezlashtirilgan dunyo,
Shamoli shartli osmon.
Chig'anoqdan uy qurib
Quvonadi biyobon.*

“Tezlashtirilgan dunyo” va “shamoli shartli osmon” tasviri tabiiylikdan uzilgan, har bir harakati nazorat qilinadigan zamonaviy hayot tarzini anglatadi. Sahro timsolidagi “biyobon”ning ummon sog‘inchi va xotirasi bo‘lgan “chig‘anoqdan uy qurib” quvonishi esa insonning haqiqiy baxtdan mahrum bo‘lib, arimas ovunchoqlar va yasama muhit ichida yashayotganiga ishora qiladi. Parchada pragmatik dunyoning soxta yutuqlari ortida berkingan ruhiy qashshoqlik va chuqur yolg‘izlik manzarasi butun bo‘yicha namoyon bo‘lgan. Yana bir o‘rinda o‘zbek xonadonida samimiy suhbatlar, tiriklik va mehr-oqibat makoni hisoblangan an‘anaviy supa obrazi destruksiya uchraliladi.

Ko‘ngillarda ayg‘ir ot

Suvo‘tiday chayqalar,

Supada taraqqiyot,

Marhumlarga joy solar.

Tizginsiz kuch, erkinlik va jo‘shqinlik ramzi bo‘lgan “ayg‘ir ot”ning ko‘ngil kengliklarida xuddi suv tubidagi “suvo‘tiday chayqalishi” lirik qahramon ichki dunyosidagi yashirin iztiroblar va tinchlik bermayotgan tug‘yonlarni anglatadi. Shoir ushbu ziddiyatli va harakatchan obrazlar vositasida qalbning sirli qatlamlarini, undagi tizginlab bo‘lmas tuyg‘ularning naqadar teran va bezovta ekanini go‘zal bir badiiy chizgida ochib beradi. “Supada taraqqiyot, Marhumlarga joy solar” satri orqali taraqqiyotning insoniyatni yuksalishga emas, balki ma‘naviy inqirozga va ruhiy tushkunlikka olib kelayotganiga ishora qilinadi. Ya‘ni, tiriklar makonining jonsiz algoritmlar qo‘liga o‘tishi texnogen groteskning yuqori darajasini ko‘rsatadi.

Yoshi o‘ttizga borgan,

Bir chol daraxt kesyapti.

Bahor — qaytib kelgan qiz,

G‘amin shoxga osyapti.

Shoir “yoshi o‘ttizga borgan bir chol” oksimoroni orqali jismonan yosh, ammo ruhan

charchagan, umidlari so‘ngan zamondosh timsolini yaratadi va uning hayot bag‘ishlovchi “daraxt kesayotgani” majoziy ma‘noda o‘z umrini, kelajagini boltalayotganiga ishora qiladi. She‘rning ikkinchi qismidagi “bahor — qaytib kelgan qiz” o‘xshatishi va uning o‘z “g‘amini shoxga osishi” tabiatning uyg‘onishi ham bu mahzun qalbga quvonch olib kelolmayotganini, aksincha, o‘tmish xotiralari va armonlarini yangilayotganini anglatadi.

Tezlashtirilgan hayot,

Kesishadi chiziqlar.

Bunda turish azobli,

Buni ko‘rish qiziq-da.

Shoir “bunda turish azobli, buni ko‘rish qiziq-da” degan teran badiiy xulosa orqali insoniyat o‘z qo‘li bilan yaratgan ushbu global va sun‘iy jarayonning ham ishtirokchisi, ham tashqi kuzatuvchisiga aylanib qolganini ifodalaydi. To‘rtlik zamon suronlari ichida yashashning ichki dramatzimini va tashqaridan jozibador ko‘ringan taraqqiyotning aslida inson ruhiyatiga solayotgan og‘ir yukini o‘ziga xos falsafiy mushohada bilan tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, texnogen taraqqiyot va ma‘naviy begonalashuv sharoitida fojiaiy ironiya zamonaviy adabiyotda shunchaki yengil kulgi yoki oddiy tasvir vositasi emas, balki butun boshli raqamli taraqqiyotning ichki yemirilishini badiiy tadqiq etuvchi metodga aylanganligi anglashiladi. Lirik qahramonning “bunda turish azobli, buni ko‘rish qiziq-da” degan yakuniy fikri insoniyatni ushbu texnologik halokatli jarayonga chetdan nazar tashlashga, tiriklik sifatlarini va ruhiy muvozanatni saqlab qolish uchun masofaviy xulosa chiqarishga undaydi. She‘rdagi bunday ironik tasvir esa raqamli kaos ichida jonli tafakkur va sof ma‘naviyatni asrab qolishga bo‘lgan ishonch va umidni uyg‘otishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schütze, B. The Grotesque and the Techno-grotesque. Inter, 1995 (63), P. 49-49.
2. Бахтин М. М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура Средневековья и Ренессанса. – Москва: Художественная литература, 1965. – 500 с.
3. Михайлова, Е.С. Ирония и мифотворчество как способы построения реальности в новейших произведениях Виктора Пелевина // История русской литературы XX-XXI вв. Elektron resurs: <http://www.topreferat.znate.ru>
4. Невярович, Н. Гротеск и ритуальный смех в ретсепсии современной прозы Elektron resurs: <http://www.philosophy.ua/lib/31nevarovich-doxa-13-2008.pdf>
5. Тюпа, В. И. Семиотический статус гротеска / В. И. Тюпа // Гротеск в литературе: материалы конф: к 75-летию проф. Ю.В. Манна. – М.; Тверь, 2004. – 154 с.

Soxibaxon YUNUSOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
sohibayunusova007@gmail.com



ZAMONAVIY DISKURS TADQIQOTLARIDA LINGVOPRAGMATIK TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI VA METODOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy diskurs tadqiqotlarida lingvopragmatik tahlilning nazariy asoslari va metodologik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi diskursni o'rganishga oid zamonaviy yondashuvlarni tizimlashtirish va ularning ilmiy ahamiyatini aniqlashdan iborat. Maqolada lingvopragmatik tahlilning diskursni izohlashdagi imkoniyatlari asoslanib, uning metodologik xususiyatlari ochib berildi.

Kalit so'z va iboralar: *diskurs, diskurs tahlili, lingvopragmatika, pragmatik yondashuv, kommunikativ strategiyalar, kognitiv yondashuv, metodologik tamoyillar.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические основы и методологические возможности лингвопрагматического анализа в современных исследованиях дискурса. Цель исследования заключается в систематизации современных подходов к изучению дискурса и определении их научной значимости. В статье обосновываются возможности лингвопрагматического анализа в интерпретации дискурса и раскрываются его методологические особенности.

Ключевые слова: *дискурс, дискурс-анализ, лингвопрагматика, прагматический подход, коммуникативные стратегии, когнитивный подход, методологические принципы.*

Annotation: this article examines the theoretical foundations and methodological possibilities of linguopragmatic analysis in contemporary discourse studies. The aim of the research is to systematize modern approaches to discourse analysis and determine their scientific significance. The article substantiates the potential of linguopragmatic analysis in discourse interpretation and reveals its methodological characteristics.

Key words: *discourse, discourse analysis, linguopragmatics, pragmatic approach, communicative strategies, cognitive approach, methodological principles.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tadqiqotlari tilni faqat grammatik va semantik tizim sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida o'rganishga yo'naltirilgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda diskurs tushunchasi insonning kommunikativ faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va ma'lum bir vaziyat doirasidagi nutqiy harakatlarini tadqiq etishda muhim nazariy kategoriya sifatida qaralmoqda. Shu bois diskursni tahlil qilishda faqat til birliklarining shakliy xususiyatlarini emas, balki ularning pragmatik vazifalari, kommunikativ maqsadi hamda adresatga ta'sir mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Diskurs tahlilining rivojlanishi natijasida mazkur yo'nalishda turli nazariy va metodologik yondashuvlar shakllandi. Xususan, lingvistik, pragmatik, kognitiv va kommunikativ yondashuvlar diskurs hodisasining ko'p qirrali tabiatini ochib berishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, lingvopragmatik tahlil diskurs birliklarining nafaqat mazmuniy xususiyatlarini, balki ularning kommunikativ vazifalari, yashirin ma'nolari, baholovchi jihatlari va adresatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy kommunikativ makonda siyosiy, media va ijtimoiy diskurslarning ta'sir doirasi kengayib borayotgan bir sharoitda diskurs hodisalarini kompleks tahlil qilish zarurati ortmoqda. Diskursni o'rganishda qo'llaniladigan zamonaviy lingvistik nazariyalar va metodologik tamoyillarni tizimlashtirish til birliklarining real kommunikativ

jarayondagi funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi zamonaviy diskurs tadqiqotlarida qo'llanilayotgan lingvopragmatik yondashuvlarning nazariy asoslari va metodologik imkoniyatlarini umimlashtirish, shuningdek, ularning diskurs hodisalarini izohlashdagi o'rnini aniqlash bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv orqali diskursning kommunikativ, pragmatik va kognitiv jihatlari yaxlit holda tadqiq etish imkoniyatlari ochib beriladi.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy diskurs tadqiqotlarida lingvopragmatik tahlilning nazariy asoslari va metodologik imkoniyatlarini yoritish hamda mazkur yondashuvning diskurs hodisalarini o'rganishdagi ilmiy ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar belgilandi:

- diskurs tushunchasining zamonaviy lingvistik talqinlarini tahlil qilish;
- diskurs tadqiqotlarida shakllangan asosiy nazariy yondashuvlarni tavsiflash;
- lingvopragmatik tahlilning asosiy tamoyillari va metodologik imkoniyatlarini aniqlash;
- zamonaviy diskurs tahlilida pragmatik va kognitiv omillarning o'rnini yoritish.

Asosiy qism. Diskurs zamonaviy tilshunoslikda murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinib, uning mohiyatini ochib berishda turli ilmiy yondashuvlardan foydalaniladi. An'anaviy

lingvistik tadqiqotlarda til birliklarining struktur-semantik xususiyatlari asosiy e'tiborda bo'lgan bo'lsa, zamonaviy diskurs tahlilida ushbu birliklarning qo'llanish muhiti, kommunikativ maqsadi va pragmatik ta'siri markaziy o'ringa chiqmoqda. Shu jihatdan diskursni tadqiq etishda lingvopragmatik yondashuv til vositalarining real muloqot jarayonidagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Diskurs tahlilining nazariy asoslari XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllanib, ushbu yo'nalishda turli metodologik maktablar vujudga keldi. Xususan, diskursni ijtimoiy faoliyat shakli sifatida o'rganuvchi yondashuvlar, kommunikativ-pragmatik nazariya hamda kognitiv yo'nalish vakillari diskursning ko'p qatlamli tabiatini ochib berishga harakat qildilar. T.van Deyk diskursni nafaqat matn shakli, balki ma'lum ijtimoiy bilimlar, kommunikativ vaziyat va kognitiv jarayonlar bilan bog'liq murakkab tuzilma sifatida izohlaydi. [1: 45-46]

Lingvopragmatik tahlilning asosiy vazifasi diskurs birliklarining shakliy xususiyatlarini emas, balki ularning kommunikativ vazifalarini aniqlashdan iborat. Mazkur yondashuv doirasida nutqiy aktlar, presuppozitsiya, implikatura, baholash kategoriyasi, kommunikativ strategiyalar va diskursiv ta'sir mexanizmlari muhim tadqiqot obyektlari sifatida qaratiladi. J.Ostin va J.Syorl tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi nutq jarayonida til birliklari orqali amalga oshiriladigan harakatlarni tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. [2: 22]

Zamonaviy diskurs tahlilida muhim masalalardan biri til birliklarining ma'nosi faqat ularning lug'aviy mazmuni bilan emas, balki qo'llanish konteksti va kommunikativ vaziyat bilan belgilanishi haqidagi qarashdir. Shu nuqtayi nazardan, diskursni tadqiq etishda kontekstual tahlil alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bir xil til birligi turli kommunikativ sharoitlarda turlicha pragmatik mazmun kasb etishi mumkin. Xususan, siyosiy va ommaviy kommunikatsiyada baholovchi birliklar, metaforalar, kinoyaviy ifodalar hamda boshqa diskursiv vositalar nafaqat axborot uzatish, balki muayyan munosabatni shakllantirish va adresat xulqiga ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, zamonaviy diskurs tadqiqotlarida adresat omili markaziy tushunchalardan biri sifatida qaratiladi. Diskursning samaradorligi nafaqat so'zlovchining kommunikativ maqsadi, balki qabul qiluvchining bilim darajasi, ijtimoiy tajribasi va madaniy xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Shu sababli lingvopragmatik tahlilda presuppozitsiya, implikatura va kommunikativ strategiyalarni o'rganish alohida ahamiyatga ega. Mazkur vositalar orqali ochiq ifodalanmagan ma'nolar, yashirin baholashlar va ta'sir mexanizmlari aniqlanadi. Natijada diskurs tahlili til shakllari bilan bir qatorda, ularning ortida yotuvchi kommunikativ niyat va ijtimoiy mazmunni ham yoritishga imkon beradi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, kontekstual, pragmatik va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali diskurs hodisasining asosiy nazariy tushunchalari umumlashtirildi, kontekstual tahlil yordamida til birliklarining ma'lum kommunikativ vaziyatdagi mazmuniy va funksional

xususiyatlari aniqlandi. Pragmatik tahlil esa nutq birliklarining adresatga ta'siri, kommunikativ maqsadi va yashirin ma'nolarini ochib berishga imkon berdi. Diskursiv tahlil metodi orqali esa til, jamiyat va kommunikativ jarayon o'rtasidagi munosabatlar tizimli ravishda o'rganildi.

Tadqiqot natijalarini shuni ko'rsatdiki, zamonaviy diskurs tahlilida lingvopragmatik yondashuv alohida ahamiyatga ega bo'lib, u til birliklarini faqat semantik darajada emas, balki kommunikativ vazifa va pragmatik ta'sir nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, diskursda qo'llaniladigan baholovchi birliklar, metaforalar, presuppozitsiyalar va kommunikativ strategiyalar adresat ongiga ta'sir ko'rsatish, muayyan nuqtayi nazarni shakllantirish hamda ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, zamonaviy diskurs tadqiqotlarida fanlararo yondashuvlarning ahamiyati ortib borayotgani aniqlandi. Diskurs tahlilida lingvistik, pragmatik, kognitiv va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqadorligini hisobga olish diskurs hodisalarining ko'p qirrali mohiyatini ochib berishga imkon yaratadi. Xususan, siyosiy, media va institutsional diskurs turlarini o'rganishda ushbu yondashuvlardan foydalanish kommunikativ strategiyalarni aniqlash, ta'sir mexanizmlarini ochib berish va diskursiv ma'nolarning shakllanish jarayonlarini izohlash imkonini beradi. Demak, zamonaviy diskurs tahlilida lingvopragmatik yondashuv nafaqat nazariy tushunchalarni izohlash, balki real kommunikativ jarayonlarda til vositalarining funksional imkoniyatlarini aniqlash uchun ham muhim metodologik asos hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy diskurs tadqiqotlarida lingvopragmatik yondashuv diskurs hodisalarining mazmuniy, kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini ochib berishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Diskursni faqat til birliklarining majmui sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillar bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida o'rganish uning mohiyatini yanada to'liq anglash imkonini beradi.

Tahlillar asosida aniqlandiki, lingvopragmatik tahlil diskurs tarkibidagi baholash vositalari, kommunikativ strategiyalar, yashirin ma'nolar hamda adresatga ta'sir mexanizmlarini aniqlashning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan zamonaviy diskurs tahlilida lingvistik, pragmatik, kognitiv va ijtimoiy yondashuvlarning o'zaro aloqadorligi tadqiqot samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, diskursning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini o'rganishda fanlararo yondashuvlardan kompleks foydalanish hamda lingvopragmatik tahlil imkoniyatlarini turli kommunikativ sohalarida qo'llash istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi, degan xulosaga keldik. Kelgusidagi tadqiqotlarda siyosiy, media va institutsional diskurslarda kommunikativ strategiyalar, manipulyativ mexanizmlar hamda kognitiv modellarni qiyosiy aspektida o'rganish zamonaviy diskursshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Т.А. ван. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке и коммуникации. – М.: ЛИБРОКОМ, 2013.
2. Остин Дж.Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986.

Nursulton SHAYXISLAMOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti
o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



O'ZBEK VA QOZOQ TILLARIDA AFFIKSLARNING FUNKSIONAL IXTISOSLASHUVI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va qozoq tillaridagi affikslarning funksional ixtisoslashuvi qiyosiy-tipologik, struktur-semantik hamda funksional yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi affikslarning tarixiy taraqqiyot jarayonida ma'lum grammatik yoki derivatsion vazifalarga ixtisoslashish qonuniyatlarini aniqlash, ularning funksional differentsiatsiyasi hamda zamonaviy til tizimidagi o'rnini yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida affikslarning grammatik, so'z yasovchi, semantik va kommunikativ funksiyalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. O'zbek va qozoq tillaridagi umumturkiy affikslarning funksional rivojlanish yo'nalishlari qiyoslanib, ayrim affikslarning bir tilda faol, ikkinchi tilda esa cheklangan yoki ixtisoslashgan holda qo'llanishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Shuningdek, maqolada affikslarning funksional ixtisoslashuvi morfologik tizimning ichki taraqqiyot qonuniyatlari, semantik differentsiatsiya va tilning kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek va qozoq tillarida affikslar tizimining umumiy tipologik asosga ega ekanligini, biroq tarixiy rivojlanish jarayonida ularning funksional imkoniyatlari turlicha shakllanganini tasdiqlaydi. Olingan ilmiy xulosalar turkiy tillar morfologiyasi, qiyosiy tilshunoslik va derivatsion lingvistika sohalaridagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: affiks, funksional ixtisoslashuv, o'zbek tili, qozoq tili, morfologiya, derivatsiya, grammatik kategoriya, struktur semantika, qiyosiy tilshunoslik, turkiy tillar, agglutinatsiya, tipologiya.

Annotation: this article investigates the functional specialization of affixes in the Uzbek and Kazakh languages from comparative-typological, structural-semantic, and functional perspectives. The primary objective of the study is to identify the patterns of specialization through which affixes acquire specific grammatical or derivational functions during the course of historical language development, as well as to determine their functional differentiation and role in the modern linguistic system. The research examines the grammatical, word-formative, semantic, and communicative functions of affixes as an interconnected system. A comparative analysis of Common Turkic affixes in Uzbek and Kazakh demonstrates that while some affixes remain highly productive in one language, they may become functionally restricted or specialized in the other.

The article further argues that the functional specialization of affixes is closely related to the internal developmental mechanisms of the morphological system, semantic differentiation, and the communicative needs of language users. The findings confirm that although the affixal systems of Uzbek and Kazakh share a common typological foundation inherited from the Common Turkic language, their functional capacities have evolved differently throughout historical development. The results contribute to the theoretical foundations of Turkic morphology, comparative linguistics, derivational linguistics, and functional grammar, providing new perspectives for further linguistic research.

Key words: affix, functional specialization, Uzbek language, Kazakh language, morphology, derivation, grammatical category, structural semantics, comparative linguistics, Turkic languages, agglutination, typology.

Аннотация: в данной статье исследуется функциональная специализация аффиксов в узбекском и казахском языках на основе сравнительно-типологического, структурно-семантического и функционального подходов. Основной целью исследования является выявление закономерностей, в соответствии с которыми аффиксы в процессе исторического развития языка специализируются на выполнении определённых грамматических или словообразовательных функций, а также определение их функциональной дифференциации и роли в современной языковой системе. В работе грамматические, словообразовательные, семантические и коммуникативные функции аффиксов рассматриваются как взаимосвязанные компоненты единой морфологической системы. Сопоставительный анализ общетюркских аффиксов узбекского и казахского языков показывает, что отдельные аффиксы сохраняют высокую продуктивность в одном языке, тогда как в другом приобретают ограниченный или специализированный характер функционирования.

В статье также обосновывается, что функциональная специализация аффиксов тесно связана с внутренними закономерностями развития морфологической системы, процессами семантической дифференциации и коммуникативными потребностями носителей языка. Полученные результаты подтверждают, что, несмотря на общетюркскую типологическую основу аффиксальных систем узбекского и казахского языков, их функциональные возможности формировались по-разному в ходе исторического развития. Выводы исследования расширяют теоретические представления о морфологии тюркских языков, сравнительном языкознании, дериватологии и функциональной грамматике и могут служить основой для дальнейших научных исследований.

Ключевые слова: аффикс, функциональная специализация, узбекский язык, казахский язык, морфология, словообразование, грамматическая категория, структурная семантика, сравнительное языкознание, тюркские языки, агглютинация, типология.

Kirish. Turkiy tillar morfologik tizimining asosini affiksatsiya tashkil etadi. Agglutinativ tillarda grammatik ma'nolar va yangi leksik birliklar, asosan, affikslar vositasida ifodalanadi. Shu sababli affikslarning tuzilishi, semantikasi va funksional imkoniyatlarini o'rganish turkiy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda funksional grammatika, qiyosiy-tipologik tilshunoslik hamda derivatsion nazariya rivojlanishi natijasida affikslarning nafaqat grammatik vazifalari, balki ularning funksional taraqqiyoti va ixtisoslashuvi ham alohida ilmiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda [1; 2].

An'anaviy morfologik tadqiqotlarda affikslar ko'proq so'z yasovchi va shakl yasovchi birliklarga ajratilib o'rganilgan. Bunday tasnif morfologik tizimni tavsiflashda muhim bo'lsa-da, affikslarning tarixiy rivojlanishi, funksional differentsiatsiyasi va til tizimidagi ixtisoslashuv jarayonini to'liq yoritib bera olmaydi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tarixan bir xil vazifani bajargan ayrim affikslar keyinchalik ma'lum grammatik yoki derivatsion funksiyaga ixtisoslashib, boshqa vazifalardan chekinadi. Aksincha, ayrim affikslar yangi funksional imkoniyatlarni o'zlashtirib, qo'llanish doirasini kengaytiradi. Bu jarayon tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillar ta'sirida yuz beradi [3].

O'zbek va qozoq tillari umumturkiy morfologik asosga ega bo'lsa-da, ularning tarixiy taraqqiyoti davomida affikslarning funksional tizimi bir xil yo'nalishda rivojlanmagan. Ba'zi affikslar o'zbek tilida derivatsion jihatdan yuqori mahsuldorlikka erishgan bo'lsa, qozoq tilida ular grammatik vazifaga ko'proq ixtisoslashgan. Ayrim hollarda esa buning aksi kuzatiladi. Mazkur farqlar affikslarning funksional ixtisoslashuvini qiyosiy jihatdan o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va qozoq tillarida affikslarning funksional ixtisoslashuvi qonuniyatlarini aniqlash, ularning struktur-semantik rivojlanish omillarini tahlil qilish hamda umumturkiy affiksatsion tizimdagi o'rnini qiyosiy-tipologik asosda yoritishdan iborat.

Asosiy qism. Affikslarning funksional ixtisoslashuvi til tizimining dinamik rivojlanish qonuniyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, morfologik birliklarning tarixiy taraqqiyoti natijasida yuzaga keladigan eng muhim hodisalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda affikslar o'zining dastlabki umumiy funksiyalaridan bosqichma-bosqich ajralib, ma'lum grammatik yoki derivatsion vazifaga moslashadi. Natijada ular til tizimida barqaror funksional maqomga ega bo'ladi. Bunday ixtisoslashuv tilning iqtisodiylik tamoyili, semantik aniqlikni ta'minlash zarurati hamda kommunikativ ehtiyojlarning ortib borishi bilan izohlanadi [4].

O'zbek va qozoq tillarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, funksional ixtisoslashuv, avvalo, derivatsion affikslar tizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *-kor* affiksi tarixan fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lsa-da, zamonaviy adabiy tilda ma'lum faoliyat yoki kasb egasini ifodalovchi mahsuldor vositaga aylangan. Ijodkor, bunyodkor, tadbirkor, hunarmandkor kabi birliklarda mazkur affiks faol harakatni amalga oshiruvchi shaxs ma'nosini ifodalaydi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu affiksning qo'llanishi asosan, ijobiy baholash semantikasi bilan uyg'unlashadi. Shu sababli u salbiy mazmundagi asoslar bilan kam birikadi. Demak, affiks nafaqat derivatsion, balki semantik jihatdan ham ma'lum funksiyaga ixtisoslashgan.

Qozoq tilida mazkur vazifaga to'liq mos keluvchi affiks mavjud bo'lmasa-da, agentlik ma'nosini ifodalashda *-шы/-*

ш affiksi ustunlik qiladi. Егінші, малшы, спортшы, өнерші, балықшы kabi birliklarda mazkur affiks kasb, mashg'ulot yoki doimiy faoliyat egasini bildiradi. So'nggi yillarda бағдарламашы, жобалаушы, сарапшы kabi yangi terminlarning shakllanishi uning terminologik tizimdagi mahsuldorligini ham ko'rsatmoqda. Demak, o'zbek tilida agentlik ma'nosi bir necha affikslar orqali ifodalansa, qozoq tilida ushbu vazifaning katta qismi *-шы/-ш* affiksi zimmasiga yuklangan. Bu esa funksional ixtisoslashuvning tillaro farqlarini yaqqol namoyon etadi.

Funksional ixtisoslashuv grammatik affikslarda ham kuzatiladi. O'zbek tilidagi ko'plik ko'rsatkichi *-lar* morfologik jihatdan son kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Biroq zamonaviy adabiy tilda uning qo'llanish doirasi grammatik ko'plik bilan cheklanmaydi. *Otamlar keldilar, ustozlar aytdilar, oyimlar chaqiryaptilar* kabi birliklarda ko'plik emas, balki hurmat va nutq etiketi ma'nosi yuzaga chiqadi. Shunga qaramay, affiksning asosiy funksional markazi son kategoriyasini ifodalash bo'lib qolmoqda. Hurmat ma'nosi esa ikkilamchi funksional qatlam sifatida shakllangan.

Qozoq tilida ham *-лап/-лер, -дап/-дер, -тап/-теп* affikslari ko'plikni ifodalovchi asosiy grammatik vosita hisoblanadi. Biroq qozoq tilida hurmat ma'nosining ifodalashini ko'proq sintaktik va leksik vositalar orqali amalga oshiriladi. Shu bois mazkur affiksning grammatik ixtisoslashuvi o'zbek tiliga nisbatan ancha barqaror saqlangan. Bu holat grammatik kategoriyalarning funksional rivojlanishida milliy til me'yorlari va nutq madaniyatining muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Affikslarning funksional ixtisoslashuvi mahsuldorlik darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Til taraqqiyoti davomida faol qo'llanadigan affikslar yangi so'zlar hosil qilish imkoniyatini saqlab qoladi, passivlashgan affikslar esa asta-sekin tarixiy yoki cheklangan birlikka aylanadi. Masalan, o'zbek tilida *-li* affiksi bugungi kunda ham yangi birliklar hosil qilishda faol ishtirok etadi: *internetli, kodli, elektronli, raqamli* kabi birliklar bunga misoldir. Qozoq tilidagi *-лы/-ли* affiksi ham xuddi shunday mahsuldorlikka ega: сандық, электронды, интернетті kabi zamonaviy birliklar uning funksional faolligini ko'rsatadi. Demak, mahsuldorlik va funksional ixtisoslashuv o'zaro uzviy bog'liq hodisalardir.

Yana bir muhim jihat shundaki, funksional ixtisoslashuv affikslarning paradigmatic munosabatlarida ham namoyon bo'ladi. Ayrim affikslar bir xil semantik vazifani bajargan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ularning qo'llanish sohasi ajralib ketadi. Masalan, o'zbek tilidagi *-li* va *-dor* affikslari predmetning belgi yoki xususiyatga egaligini bildiradi. Biroq *-dor* ko'proq kitobiy va uslubiy bo'yoqqa ega birliklarda (salobatdor, obro'dor) qo'llansa, *-li* affiksi neytral va umumxalq nutqida (*mazali, suvli, mevali, toshli*) keng ishlatiladi. Bu esa affikslarning faqat semantik emas, balki uslubiy ixtisoslashuvini ham ko'rsatadi.

Shunga o'xshash hodisa qozoq tilida *-лы/-ли* hamda ayrim analitik vositalar o'rtasidagi vazifa taqsimotida ham kuzatiladi. Tarixiy rivojlanish natijasida ayrim semantik funksiyalar affikslar zimmasida saqlanib qolgan bo'lsa, ayrimlari sintaktik konstruksiyalar orqali ifodalanadigan bo'ldi. Natijada morfologik va sintaktik vositalar o'rtasida funksional muvozanat shakllandi. Bu esa affikslarning ixtisoslashuvi til tizimining boshqa sathlari bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'zbek va qozoq tillarida affikslarning funksional ixtisoslashuvi umumturkiy morfologik asosga tayangan holda rivojlangan bo'lsa-da, har bir tilning tarixiy taraqqiyoti, adabiy me'yorlarining shakllanishi hamda kommunikativ ehtiyojlari natijasida ayrim affikslarning funksional yuklamasi

turlicha yo'nalishda rivojlangan. Mazkur hodisa turkiy tillar morfologiyasining evolyutsion taraqqiyotini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va affiksatsion tizimni faqat shakliy emas, balki funksional nuqtayi nazardan ham tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va qozoq tillarida affikslarning funksional ixtisoslashuvi turkiy tillar morfologik tizimining evolyutsion taraqqiyotini belgilovchi muhim qonuniyatlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Qiyosiy-tipologik tahlillar asosida affikslar til tizimida faqat grammatik shakl hosil qiluvchi yoki yangi leksik birliklar yasovchi vosita sifatida emas, balki ma'lum funksional yo'nalishga ega bo'lgan, kommunikativ ehtiyojlar hamda semantik taraqqiyot ta'sirida takomillashib boruvchi ko'p qatlamli morfologik birliklar ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot davomida o'zbek va qozoq tillaridagi affikslarning aksariyati umumturkiy kelib chiqishga ega bo'lishiga qaramay, ularning funksional rivojlanishi bir xil yo'nalishda kechmaganligi aniqlandi. Tarixiy taraqqiyot, ichki til qonuniyatlari, adabiy me'yorlarning shakllanishi hamda ijtimoiy-kommunikativ omillar ta'sirida ayrim affikslar ma'lum grammatik, derivatsion yoki semantik vazifalarga ixtisoslashgan. Natijada umumiy morfologik asos saqlanib qolgan bo'lsa-da, har bir til o'zining funksional tizimini mustaqil ravishda rivojlantirgan.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida ayrim derivatsion affikslarning funksional imkoniyatlari kengaygan va ular yangi leksik birliklar hosil qilishda yuqori mahsuldorlikni namoyon etmoqda. Qozoq tilida esa ayrim grammatik affikslarning funksional barqarorligi va tizimliliigi yaqqol kuzatiladi. Bu holat affikslarning funksional ixtisoslashuvi tilning morfologik qurilishi bilan bir qatorda uning tarixiy rivojlanishi va nutq amaliyoti bilan ham uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Demak, affikslarning funksional maqomini baholashda faqat shakliy mezonlarga

tayanish yetarli emas, balki ularning semantik, derivatsion va kommunikativ imkoniyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish zarur.

Tadqiqot natijalari affikslarning funksional ixtisoslashuvi mahsuldorlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini ham ko'rsatdi. Til tizimida faol qo'llaniladigan affikslar yangi nominativ birliklar yaratish imkoniyatini saqlab qoladi, kam qo'llaniladigan affikslar esa asta-sekin funksional jihatdan cheklanib boradi yoki tarixiy qatlamlarga o'tadi. Mazkur jarayon affiksatsion tizimning doimiy ravishda yangilanib borishini, tilning esa kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Shu jihatdan funksional ixtisoslashuv til taraqqiyotining tabiiy evolyutsion mexanizmlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot affikslarning funksional ixtisoslashuvi umumturkiy morfologik tizimning tipologik universallari va milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim nazariy mezon bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi. O'zbek va qozoq tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy kuzatishlar ayrim affikslarning funksional differentsiatsiyasi turkiy tillarning umumiy taraqqiyot qonuniyatlarini aks ettirishi bilan birga, har bir tilning ichki rivojlanish yo'nalishlarini ham yoritib berdi. Bu esa turkiy tillar morfologiyasini o'rganishda funksional yondashuvning ilmiy samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kelgusida affikslarning funksional ixtisoslashuvini turkiy tillarning milliy korpuslari asosida statistik va korpus lingvistikasi metodlari yordamida tadqiq etish, ularning diaxron rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda boshqa turkiy tillar materiallari bilan qiyoslash mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning istiqbolli vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, turkiy tillar morfologiyasi, derivatsion lingvistika, funksional grammatika va tipologik tadqiqotlarning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi hamda affiksatsion tizimni zamonaviy lingvistika nuqtayi nazaridan talqin etish uchun yangi ilmiy imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожи́ев А. Ўзбек тили морфологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. 208 б.
2. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2006. 476 б.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. 312 б.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. 286 б.
5. Махмудов Н. Тил ва нутқ. – Тошкент: Маънавият, 2013. 224 б.
6. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. 128 б.
7. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. 240 б.
8. Оралбай Н. Қазақ тілінің морфологиясы. – Алматы: Арыс, 2007. 360 б.
9. Исаев С. Қазақ тілі грамматикасы. – Алматы: Ана тілі, 1998. 384 б.
10. Аханов Қ. Тіл білімінің негіздері. – Алматы: Санат, 2002. 496 б.
11. Маманов Ы. Қазіргі қазақ тілі. Морфология. – Алматы: Мектеп, 1967. 248 б.
12. Сауранбаев Н. Қазақ тілі. Морфология. – Алматы: Мектеп, 1953. 216 б.
13. Crystal D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. 272 p.
14. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. 420 p.
15. Booij G. The Grammar of Words: An Introduction to Morphology. – 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2012. 336 p.
16. Bybee J. Language, Usage and Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. 278 p.
17. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology. – 2nd ed. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. 264 p.
18. Dressler W. U. Morphology and Language Typology. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2006. 358 p.
19. Plungian V. A. General Morphology: Introduction to the Problems of Inflection and Word Formation. – Berlin: De Gruyter, 2011. 352 p.
20. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – 2nd ed. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2003. 502 p.

Dildora BAXRIDINOVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Filologiya fakulteti

Ingliz tili nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, PhD

email: dildora.bahriddinova86@gmail.com

Ruxshona TURDIBOYEVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti Filologiya fakulteti

Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

email: ruxshonaturdiboyeva383@gmail.com

KASALLIK BILAN BOG'LIQ EVFEMIZMLAR: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI QIYOSIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida kasallik bilan bog'liq evfemizmlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasallik nomlari hamda sog'liq holatini ifodalovchi evfemistik birliklarning qo'llanish sabablari, ularning kommunikativ vazifalari va lingvomadaniy xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *evfemizm, kasallik, tibbiy diskurs, pragmatika, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil, o'zbek tili, ingliz tili.*

Аннотация: в данной статье проводится сопоставительный анализ лингвистических и прагматических особенностей эвфемизмов, связанных с заболеваниями, в узбекском и английском языках. В исследовании рассматриваются причины употребления эвфемистических единиц, обозначающих названия заболеваний и состояние здоровья, а также раскрываются их коммуникативные функции и лингвокультурные особенности.

Ключевые слова: *эвфемизм, заболевание, медицинский дискурс, прагматика, лингвокультура, сопоставительный анализ, узбекский язык, английский язык.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of disease-related euphemisms in Uzbek and English. It examines the linguistic, pragmatic, and cultural features of euphemistic expressions used to describe diseases and health conditions, highlighting their communicative functions in medical and everyday discourse.

Key words: *euphemism, disease, medical discourse, pragmatics, linguoculture, comparative analysis, Uzbek, English.*

Til jamiyatning madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashi va kommunikativ me'yorlarini o'zida aks ettiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Inson hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan kasallik, o'lim, jismoniy va ruhiy nuqson kabi mavzular aksariyat madaniyatlarda nozik hamda hissiy jihatdan ta'sirchan tushunchalar sifatida qaraladi. Shu sababli bunday tushunchalarni ifodalashda ko'pincha bevosita nominatsiyadan ko'ra evfemistik vositalarga murojaat qilinadi. Evfemizmlar nafaqat nutqning muloyimligi va odob me'yorlarini ta'minlaydi, balki muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatini inobatga olgan holda salbiy mazmunni yumshatish, ijtimoiy stigma va psixologik bosimni kamaytirish vazifasini ham bajaradi. Kasallik bilan bog'liq evfemizmlar tibbiy diskurs, ommaviy axborot vositalari hamda kundalik muloqotda eng faol qo'llaniladigan leksik birliklardan biridir. Ayniqsa, og'ir, surunkali yoki ijtimoiy jihatdan salbiy baholanadigan kasalliklarni ifodalashda evfemistik birliklar kommunikativ strategiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bunday birliklarning tanlanishi til egalarining tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti, diniy e'tiqodlari va madaniy qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turli tillarda o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. O'zbek va ingliz tillarida

kasallik bilan bog'liq evfemizmlar semantik tuzilishi va pragmatik vazifalarida umumiyliklar bilan bir qatorda, milliy-madaniy tafovutlarni ham namoyish etadi. Shu bois mazkur birliklarni qiyosiy aspektda tadqiq etish nafaqat evfemistika va frazeologiya, balki pragmatolingvistika hamda lingvomadaniyatsunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ko'pincha evfemizmlar o'z his-tuyg'ularini va stress darajasini samarali boshqarish va tartibga solish uchun strategik vosita sifatida qo'llaniladi va shu bilan jismoniy va ruhiy holatning yomonlashishi bilan bog'liq voqealardan himoya qilish uchun to'siq bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mohirona manipulyatsiya, oxir-oqibat, odamlarning o'zlari va suhbatdoshlari tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulaylik yoki bezovtalikni kamaytirishga olib keladi.

Bu guruhga kiruvchi evfemizmlar surunkali davom etadigan, davo topish mushkul bo'lgan kasallik nomlarining "o'rinbosarlari" hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilida: qizamiq o'rnida "oymomo", "haymomo"¹, chechak o'rnida "gul", sil (tuberkulyoz) o'rnida "uzun og'riq", "o'pka kasali",

1 Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. – Тошкент, 1995. – Б. 75.

pes o'rnida "oq"², rak kasali o'rnida "saraton"³, "yomon kasal"; kuydirgi yara o'rnida "yomon yara"⁴; pnevmoniya o'rnida "o'pka kasal"; "zotiljam", "o'pka shamollashi" ifodalari ishlatiladi.

Ingliz tilida: pnevmoniya – o'pka shamollashi (Pneumonia)ning evfemistik shakli "the old man's friend" (nuroniylarning do'sti); o'smakasalligi (cancer) o'rnida "long illness" (uzoq muddatli kasallik); zaxm, sil, sifilis (syphilis) o'rnida "French pox", "French ache" ("fransuz og'rig'i" yoki "fransuz kasalligi"). R.Holder ingliz tilida fransuz tili bilan salbiy bog'langan ko'plab atamalar mavjudligini ta'kidlaydi va bu assotsiatsiya ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tarixiy kelishmovchilik natijasidir. U fransuz tilining kasalliklarga nisbatan qo'llanilishi aniq salbiy ma'nolarga ega, ammo bunda muhokama qilinayotgan o'ziga xos kasallik aynan qaysi ekanligi noma'lumligicha qoladi, deya ta'kidlaydi. Masalan, "French pox", "French ache" ("fransuz og'rig'i" yoki "fransuz kasalligi") atamasi ko'pincha zaxm, sil, sifilisga murojaat qilish uchun ishlatiladi⁵. Shifokorlar bemorlar bilan munosabatda bu kasallikni "treponemal disease" (treponemal kasallik), "luetic disease" ("lues" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "contagion – yuqumli", "plague" – "o'lat" degan ma'noni bildiradi); "spirachoeal disease" (spiraxoyetal kasallik); shuningdek, "special disease" (maxsus kasallik) deb ham nomlashadi⁶.

2 Содиқов А., Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 1981. – Б. 106.

3 O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 446-b.

4 Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 125.

5 Holder R.W. Dictionary of Euphemisms: How Not to Say What You Mean. OUP Oxford – P. 47.

6 Keith A., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as

Bundan tashqari, yurak kasalliklari evfemistik almashtirishlar tez-tez qo'llaniladigan yana bir soha ekanligini ko'rsatish mumkin. "Yurak kasalligi" yoki "yurak xuruji" kabi iboralar "cardiac incident" (yurak bilan bog'liq hodisa), "cardiac arrest" (yurak tutilishi) yoki "heart problem" (yurak muammosi) kabi atamalar bilan almashtirilishi mumkin. J.Eyto ham bu mavzuiy guruhdagi evfemizmlarni tahlil etgan. U ushbu kasallikning yana bir evfemistik shakli "Coronary" (koronar) – yurakni qon bilan ta'minlaydigan arteriyalarga ishora qiluvchi evfemizm bo'lib, "yurak xuruji" degan ma'noni bildiradi. "Ticker" (yurak urishini soatga o'xshatish); "Pump" (nasos) evfemizmlari yurak bilan bog'liq xastaliklar o'rnida qo'llanilishini ta'kidlaydi⁷.

Xulosa qilib aytganda, kasallik bilan bog'liq evfemizmlar o'zbek va ingliz tillarida salbiy mazmundagi tushunchalarni yumshoq va ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil ushbu birliklarning har ikki tilda ham kommunikativ va pragmatik vazifani bajarishini, shu bilan birga, ularning shakllanishida milliy-madaniy omillar muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ular til egalarining sog'liq va kasallikka bo'lgan munosabati, qadriyatlar hamda madaniy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Kasallik bilan bog'liq evfemizmlarni qiyosiy o'rganish tibbiy kommunikatsiyani takomillashtirish, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqotga oid tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Shield and Weapon. Oxford University Press, 1991. – P. 163.

7 Eyto J. Over 3000 ways to avoid being rude or giving offence. – P. 199.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keith A., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. Oxford University Press, 1991. – P. 161.
2. Eyto J. Euphemisms. Over 3000 ways to avoid being rude or giving offence. – Bloomsbury, 1993. – P. 202.
3. Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. – Тошкент, 1995. – Б. 75.
4. Содиқов А., Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 1981. – Б. 106.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 446-bet.
6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 125.
7. Holder R.W. Dictionary of Euphemisms: How Not to Say What You Mean. OUP Oxford – P. 47.
8. Keith A., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. Oxford University Press, 1991. – P. 163.
9. Eyto J. Euphemisms. Over 3000 ways to avoid being rude or giving offence. – Bloomsbury, 1993. – P. 199.
10. Holder R.W. Dictionary of Euphemisms: How Not to Say What You Mean. OUP Oxford – P. 47.
11. Eyto J. Over 3000 ways to avoid being rude or giving offence. – P. 199.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Gulasal QAYUMOVA,

SHDPI Filologiya fakulteti til va adabiyot kafedrasida o'qituvchisi

gulasalqayumova12@gmail.com

Sevinch XO'JAQULOVA,

SHDPI Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

sevinchxojaqulova099@gmail.com

“NAVOIY” ROMANI O‘ZBEK ROMANCHILIGINING DURDONA ASARI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning hayoti va ijodiy faoliyati, xususan, uning “Navoiy” romanining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda Alisher Navoiyning shaxsiyati, davlat arbobi va mutafakkir sifatidagi faoliyati, ona tiliga munosabati hamda xalqparvarlik g'oyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *tarixiy-biografik roman, badiiy mahorat, tarixiy haqiqat, obrazlar tizimi, turkiy tili, ijtimoiy muhit, shoh asar, o'zbek tarixiy romanchiligi, tarixiy shaxslar, forsiyazonlar*

Аннотация: в данной статье анализируется жизнь и творчество Мусы Ташмухаммада оглу Ойбека, выдающейся фигуры узбекской литературы XX века, в частности, идеологические и художественные особенности его романа «Навои». Рассматривается личность Алишера Навои, его деятельность как государственного деятеля и мыслителя, его отношение к родному языку и его националистические идеи.

Ключевые слова: *исторически-биографический роман, художественное мастерство, историческая правда, система образов, турецкий язык, социальная среда, шедевр, узбекский исторический роман, исторические личности, персидисты*

Annotation: this article analyzes the life and creative work of Musa Tashmuhammad oglu Oybek, a major figure in 20th-century Uzbek literature, in particular, the ideological and artistic features of his novel “Navoiy”. The work covers Alisher Navoiy's personality, his activities as a statesman and thinker, his attitude to his native language, and his ideas of nationalism.

Key words: *historical-biographical novel, artistic skill, historical truth, system of images, Turkish language, social environment, masterpiece, Uzbek historical novel, historical figures, Persian speakers*

Kirish. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek XX asr o'zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Adib 1905-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Oybek mehnat faoliyatini talabalik yillaridan boshlab, o'rta maktab, texnikum va ishchilar fakultetlarida va Xalq xo'jaligi, Qishloq xo'jalik va Pedagogika institutlarida til va adabiyot fanlaridan dars beradi, Toshkent institutining iqtisod fakultetida esa assistent sifatida xizmat qiladi. Demak, uning ilk faoliyati pedagoglikdan boshlangan. Shuning uchun ham uni biz buyuk pedagog sifatida tanymiz. 1937-yilda Sovet davlati qatag'on siyosatining avj olishi Oybekning “millatchi” va “milliy ittiqodchilar”ga xayrixoh kishi sifatida ishdan haydalihi hamda tazyiqqa uchrashiga sababchi bo'ladi. Oybek she'riyat, nasr va publitsistika sohalarida samarali ijod qilgan. Uning “Qutlug' qon”, “Bolalik”, “Nur qidirib”, “Ulug' yo'l” kabi asarlari o'zbek adabiyotining nodir namunalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, “Navoiy” romani yozuvchining eng yirik va mashhur asari bo'lib, unda buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti, ijodi hamda ma'rifatparvarlik faoliyati yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Ushbu roman nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon tarixiy-

biografik romanlari orasida ham munosib o'rin egallaydi. U jahon adabiyotining ko'plab durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, milliy adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shgan. Xususan, u rim adabiyoti namunalari, J. B. Molyerning “Tartyuf”, Aleksandir Pushkinning “Yevgeniy Onegin”, Mixail Lermontovning “Maskarad”, “Sosunli Dovud” arman xalq eposi, G. Geyne, I. A. Krilov, V. G. Belinskiy, E. Verharn va boshqalarning asarlarini tarjima qilgan. Asarlari ichida eng durdonasi “Navoiy” romani sanaladi. Oybek “Navoiy” romanini ayni ikkinchi jahon urushi yilida, ya'ni 1942-yilda yozdi. “Navoiy” asari oltmishdan ortiq xorijiy tillarga tarjima etilgan

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Navoiy” romani o'z davrida g'oyatda go'zal va betakror roman hisoblangan. U chinakam ma'noda Oybekning shoh asaridir. “Navoiy” romani tarixiy- biografik roman turi shakllanishiga zamin bo'la oldi. Romandagi voqealar ham tarixiyligi, ham ijtimoiy muhit muammolarini ochish uchun xizmat qilgan, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Ijodkor obraz tizimini shunday shakllantirganki, unda tarixiy shaxslar bilan bir qatorda, to'qima obrazlarning borligini sezmaslik tayin. Asar jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. “Biz o'zbek

tilida yaratilgan birinchi tarixiy romanni ko'rib turibmiz. Buni Oybek yaratdi. Oybek bizga – kitobxonga XV asr buyuk odamining fojiasini ko'rsatdi. Keng kitobxonlar ommasi O'rta Osiyoning o'sha davri hayoti haqida yozilgan o'nlab ilmiy ishlardan ham ololmagan ma'lumotlarni bu romandan oladilar" [6:29]. Bu fikrlar asar yaratilgandan keyin aytilgan birinchi fikrlar edi. Oybekning "Navoiy" romani o'zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrining eng yuksak namunalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Asarda buyuk mutafakkir, davlat arbobi va so'z san'atkori Alisher Navoiyning hayoti, faoliyati hamda ma'naviy dunyosi badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Asarda XV asr tarixiy muhitini aks ettiruvchi ko'plab tarixiy shaxslar ham ishtirok etadi. Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majiddiddin kabi obrazlar voqealar rivojida muhim o'rin egallaydi. Ularning har biri o'ziga xos xarakter va dunyoqarashga ega bo'lib, bosh qahramon Navoiyning shaxsiyati va faoliyatini yanada chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro bilan Navoiy o'rtasidagi do'stlik, davlat boshqaruvi va adolat masalalaridagi qarashlar romanning yetakchi syujet chiziqlaridan biri hisoblanadi. Oybek romanda tarixiy haqiqat va badiiy to'qimani uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Tahlil va natijalar. Oybekning "Navoiy" romanida turkiy va forsiy til haqida ham bahs ketadi. Bu bahsda o'sha davrning ko'plab ziyolilarida turk til haqida uning ohangdorligi, forsiy tilda asar yozish o'sha davr va undan oldingi davr uchun ham an'ana ekanligi haqida gapirishadi. Lutfiy, Nizomiy kabi buyuk allomalarimiz ham forsiy tilida asarlar yaratishganini aytishadi. "Mavlono Binoiyning botiq ko'zlarida kinoya, nash'a yonib ketdi. U beo'xshov o'ralgan, katta sallali boshini ko'tardi.

Ulug' zotlar, – dedi u so'zini chertib, – hammalaringiz Chorsu orqasidagi bizning chapdast temirchilar ko'chasidan o'tgansizlar, ularning "taraq-turug'i" quloqlarga mix qoqqandan battar azob berur. O'zbek g'azallarini tinglaganda ham ayni azobni his eturmen! Binoiy o'zbek tili va she'ri haqida so'z borganda, hamisha shu ravishda gapiradigan bo'lgani uchun ham odamlar undan yana dag'alroq, behayoroq gap kutganlaridan, ahamiyatsiz kulibgina qo'yishdi" [2:175]. Binoiy turkiy tilni yerga urib, uni qadrsizlaydi. Bu uning chinakam ilm odami emasligini ko'rsatadi. Shu vaqti Navoiy hazratlariga savol berishadi.

–Alisher janoblari, siz zullisonaysiz, siz uchun "Foniy" mi, "Navoiy" mi dilbardir?

– biz uchun o'z tilimiz dilbardir, demak, "Navoiy" dilbardir.

– Ne uchun? – shoshilib so'radi mullo Usmon.

– "Foniy" go'zal, "Foniy!" – qichqirib qo'ydi mavlono Binoiy og'zidan ovqatini sachratib.

Navoiy o'tkir istehzo bilan mavlono Binoiyga bir qarab qo'ydi-da, so'zida davom etdi:

– Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlarning husni va salobatini hech vaqt inkor etmadik. Turkona so'z bilan tarannum etaylikki, elning yuragi mavjga kelsin. So'z gulshanida o'zga ellar qatorida bizning elimiz ham bahramand bo'lsin. Fors ash'ori elimizning zavqi uchun begonaroqdir. [2:176] Mazkur parchada Oybek Alisher Navoiy shaxsini nafaqat buyuk shoir, balki o'z xalqining tili va madaniyati uchun kurashgan ma'rifatparvar inson sifatida tasvirlaydi. Voqea ilm-fan va adabiyot ahli yig'ilgan majlisda kechadi. Suhbat davomida Mavlono Binoiy o'zbek tilini kamsitib, uning ohangini temirchilar ko'chasidagi shovqinga qiyoslaydi. Bu orqali muallif o'sha davrda ayrim ziyolilar orasida keng tarqalgan forsiyparastlik kayfiyatini ko'rsatadi. Binoiyning nutqi va munosabatida kinoya, mensimaslik hamda o'ziga ortiqcha baho berish sezilib turadi. Navoiyning javobi esa mutlaqo boshqacha ruhda yangraydi. U fors tilining go'zalligi va adabiy salohiyatini inkor etmaydi, aksincha, bu tilda ham ijod qilganini ta'kidlaydi. Biroq shunga qaramay, o'z ona tilini qalbiga yaqin va aziz deb biladi..

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy" romani o'zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrining eng mukammal namunalardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Asarda buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning hayoti, faoliyati, ma'naviy dunyosi hamda xalq manfaatlarini yo'lidagi fidokorona xizmatlari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Oybek tarixiy haqiqat va badiiy to'qimani uyg'unlashtirish orqali XV asrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitini ishonarli aks ettirgan. Roman nafaqat Navoiy siymosini ulug'laydi, balki xalqparvarlik, adolat, ilm-ma'rifat va ona tiliga muhabbat kabi umuminsoniy g'oyalarni ham targ'ib qiladi.

Oybek Navoiy obrazini xalq dardi bilan yashaydigan, yurt ravnaqi va inson kamoloti uchun kurashadigan komil inson sifatida yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamajonov S. Oybek mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
2. Oybek. Navoiy. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2019.
3. Solihov Y. O'zbek adabiyotida tarixiy roman poetikasi. – Toshkent: Fan, 2002.
4. Valixojayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
5. To'xtamurodov T. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. Tixonov N. "Literaturnaya gazeta" 1946, 29 iyun.

Elmira DJURAKULOVA,

TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey o'qituvchisi, f.f.n.
djurakulovaelmira@gmail.com



MUSTAQILLIK DAVRI NASRI VA UNDA SHOYIM BO'TAYEV ASARLARINING TUTGAN O'RNI, BADIY POETIK XUSUSIYATLARI, UNI AKADEMIK LITSEY ADABIYOT TA'LIMIDA QO'LLASHNING MA'NAVIY-TARBIYAVIY VA ILMIY-METODIK AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrining rivojlanish tendensiyalari, undagi badiiy-estetik yangilanishlar hamda zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk adiblaridan biri Shoyim Bo'tayev romanlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma'naviy-tarbiyaviy salohiyati ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, adib romanlarining akademik litsey adabiyoti ta'limida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini mustahkamlashning samarali yo'llari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, akademik litsey, ma'naviy tarbiya, kitobxonlik, kompetensiya, badiiy tahlil, pedagogik texnologiya, milliy qadriyat.*

Аннотация: в статье представлен научный анализ тенденций развития и художественно-эстетических новаций в современной узбекской прозе, а также рассмотрены идейно-художественные особенности и воспитательный потенциал романов Шойима Ботаева — видного деятеля современной узбекской литературы. Кроме того, в статье обосновываются эффективные способы использования романов автора в учебном процессе по литературе в академических лицеях с целью повышения культуры чтения, развития навыков анализа литературных текстов и укрепления духовно-нравственных качеств учащихся.

Ключевые слова: *литературное образование, академический лицей, духовное воспитание, культура чтения, компетентность, литературный анализ, педагогическая технология, национальные ценности.*

Annotation: this article provides a scholarly analysis of the development trends and artistic-aesthetic innovations in contemporary Uzbek prose, as well as the ideological-artistic characteristics and educational potential of the novels of Shoyim Botayev, a prominent figure in modern Uzbek literature. Furthermore, the article substantiates effective ways to utilize the author's novels in academic lyceum literature education to elevate reading culture, develop competencies in analyzing literary texts, and reinforce spiritual-moral qualities.

Key words: *literary education, academic lyceum, spiritual upbringing, reading culture, competence, literary analysis, pedagogical technology.*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda badiiy asar va kitobxonlikka, ijodkor shaxsiga bo'lgan munosabat adabiy jarayonning asosiy masalalaridan biriga aylanmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida adabiyot fanini o'qitish mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish, badiiy tafakkur va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jarayonda o'zbek zamonaviy romanchiligining yuksak namunalarini ta'lim mazmuniga samarali integratsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shoyim Bo'tayev zamonaviy o'zbek romanchiligining o'ziga xos uslubini yaratgan ijodkorlaridan biri hisoblanadi.

Adib romanlarida inson ruhiyati, ma'naviy tanlov, ijtimoiy ziddiyatlar, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar hamda axloqiy masalalar badiiy jihatdan chuqur yoritilgan. Ushbu xususiyatlar mazkur asarlarni nafaqat adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, balki ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish uchun ham muhim manbaga aylantiradi. Shoyim Bo'tayevning asarlari maktab, litsey darsligi va o'quv dasturiga kiritilmagan bo'lsa-da, uni asarlarini o'rgangan, tahlil qilgan izlanuvchi sifatida aynan o'quvchilar ommasiga tanishtirish va tahlilga tortish lozimdir.

Mohir yozuvchi, kinodramaturg, noshir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi va "Do'stlik" ordeni sohibi Shoyim Bo'tayevga "Qo'rg'onlangan oy" (1996), "Shox" (2006) kabi romanlari shuhrat keltirdi va keng

jamoatchilikning e'tirofiga tushdi. Adabiyotshunos I.Yoqubov qayd qilganidek: "O'zbek adabiyotshunosligida uzoq yillar davomida G'arb estetikasi va badiiyati tamoyillari bilan zamonaviy adabiy jarayon hodisalarini bog'lashga kuchli intilish mavjud bo'lib keldi. Shubhasiz, biz bu harakatning ijobiy jihatlarini inkor etmaymiz. Ammo shuni unutmaslik kerakki, milliy istiqlol davrida o'zbekning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondashish tarzida sezilarli siljish sodir bo'ldi. O'zbek romani o'z taraqqiyotining oldingi bosqichlariga nisbatan teranroq darajada milliylashdi..." [1].

Haqiqatdan ham, milliy romanchiligimizda ko'zga ko'rinayotgan qator adiblar izlanishlari yuqoridagi mulohazalarni to'liqligicha asoslaydi. Boshqacha aytganda, roman tadrijida tafakkur qamrovining sifat o'zgarishiga qarab siljishi, an'ana va noan'ana chegarasidagi poetik talqinning yanada jozibador bo'lishiga katta zamin bo'lganligini ham ta'kidlash lozim. Shu bilan birgalikda, ma'naviy barkamol inson obrazining badiiy ifodasi, ammo o'z xarakter injiqliklari asosida insoniylik xususiyatini yo'qotish sari qadam tashlagan shaxs fojiasi talqinlari yetakchilik qilishi ko'rsatib berilgan. Shoyim Bo'tayev ijodida uchta xususiyatni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Shaxs. 2. Tabiat. 3. Jamiyat. Mana shu uchlik adib romanlarida qizil ip bo'lib, sujet dinamikasini sintezlaydi. Adib ana shu uchlikdan katta umumlasmalar chiqarishga harakat qiladi. Adibning ilk romani "Qo'rg'onlangan oy"dagi Murtazo, "Shox" romanidagi Hotam va Qulmahmud kabi qahramonlar ana shu uchlikni to'ldiruvchi asosiy obrazlar desak adashmaymiz.

Akademik litsey adabiyot ta'limining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda badiiy matnni tahlil qilish, estetik didni shakllantirish, mustaqil fikrlash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Shoyim Bo'tayev romanlari mazkur maqsadlarga erishishda samarali didaktik vosita bo'la oladi. Chunki ularda aks etgan murakkab xarakterlar, hayotiy ziddiyatlar va falsafiy mushohadalar o'quvchini kuzatish, taqqoslash, xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda baholashga undaydi.

Yozuvchi "Qo'rg'onlangan oy" romanidagi Murtazo obrazidan boshlangan qahramon ruhiyatini ochishdagi psixologik tasvir vositalari yordamida qahramonlar xatti-harakatidagi va ruhiyatidagi o'zgarishlarning "Shox" romanidagi Hotam va Qulmahmudda o'zgacha shaklda yuzaga chiqishini o'zgacha tasvirlab beradi. Qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlar ularning hayotiga qay darajada ta'sir qilishi o'quvchini sergaklantiradi va tabiat, jamiyat uzviy bog'liqligini, inson shu ikkalasining bir a'zosi ekanligini his qiladi va hamisha yovuzlikning ezgulik ustidan g'alaba qozonmasligini anglab yetishga undaydi. Shaxs sifatida shakllanib borayotgan yosh avlod, kelajakda Murtazo,

Qulmahmud, Hotam kabi inson bo'lib shakllanishdan cho'chiydi va vijdonini azobga qo'yadigan, oxiri voy bo'ladigan ishlardan chekinadi. Zero, yozuvchining asosiy maqsadi ham shu, yo'lini topishga intilayotgan kelajak avlodni to'g'ri yo'lga boshlash, bir-birini to'ldiruvchi asar qahramonlari singari sujet liniyalarida turfa xil holatlarda harakatlangan, voqealar rivojida o'zligini unutib, axloqsiz odatlar, ochko'zlik qurboni bo'lgan obrazlar orqali tarbiyalash, ko'zingni vaqtida och deyishdan iboratdir.

Romandagi voqealar silsilasiga nazar tashlar ekanmiz, inson qalbida kechayotgan evrilishlar hayotdagi qarama-qarshiliklar, adolatsizliklar zamirida inson xarakterining shakllanishiga asos bo'lgan. Shuning uchun ham badiiy xarakter turfa xil ziddiyatlar, kurashlar zamirida shakllandi, bu esa insonni shafqatsizlik, razillik sari elta boshladi. Adib falsafiy-psixologik roman yaratish yo'lidan borar ekan, asar qahramonlarining turfa olamini, uning badiiy qiyofasini, davrning murakkab va ziddiyatli holatlarini badiiy matnga singdirishga harakat qilgan. "Qo'rg'onlangan oy" romanida quyidagi matnga e'tibor beraylik. Romanda o'ndan ortiq o'rinlarda psixologik kayfiyat xarakterlararo o'ziga xoslikning yuzaga chiqishiga katta zamin yaratgan:

"—Bolani qachongacha qog'ozga o'rog'liq qanday asrab o'tirasiz, aylanay?! — Murtazoning piqillab yig'layotgan ayasiga o'zicha tasalli berardi qo'shni ayol. — O'g'lingiz er yetibdi, ishga kiribdi, quvoning, shungayam yig'i-sig'imi? Onaizor bu so'zlarni elamas, satin ko'ylagi ostidan zo'r-bazo'r bilinib turgan yelkalari silkinardi. Koyishlari ta'sir qilmay, so'zlari yelga uchayotganidan qo'shni ayolning burun parraklari piri-pirab, jahli chiqdi...

— Qo'shniyon, bilmay gapirmang-da, — dedi nimalargadir ishora qilgancha. — Ularning yo'rig'i bo'lak. Xatchaniyam, Norvishniyam bolalari eshikdan quvsang, teshikdan kirib, haqlarini topib ketishadi.

— Ajab qilishadi. — Murtazom esa...— Nima qipti Murtazoga?

— Yolg'iz o'g'il bo'lgani uchunmi, bo'sh-bayov-da. Opalarigayam sira-sira o'xshamaydi. Xovotirim shundan...— Hechqisi yo'q, — g'o'ldiradi qo'shni ayol" [2].

Mazkur lavhada, yozuvchi Murtazoning bolalik damrlarini tasvirlaydi. Romanda Murtazoning bolalikdan uydan chiqmasdan, bir o'zi yolg'izlikka o'rganishi, ota-ona tanlovining bola ruhiyatiga ta'sirini asar muqaddimasida "tahlil" qilib o'tadi. Chunki romandagi keyinchalik sodir bo'ladigan voqelikka mana shu lavhada "sirli ishora" mavjud. Aytish joizki, romanda Murtazo sodda va ishonuvchan, hech qanday yomonlik sog'inmaydigan bola sifatida keltiriladi. Roman muqaddimasida Ismoil, Ubaydulla chavandoz, Zokir bulbul obrazlari keyingi voqelikni idroklashga kalit vazifasini o'taydi. Birgina lavhada Murtazo xarakteriga badiiy chizgilar berar ekan, ona va qo'shni ayolning o'zaro suhbatidan zukko o'quvchi

uning xarakterini, shaxs sifatidagi qiyofasini bilib olishga intiladi. O'tish davrining o'ziga xos qiyinchiliklari sabab o'zga yurtlarga ishlagani ketayotgan qishloq bolalarida ichkarida ulg'ayib kelayotgan ruhiy holatlar roman to'qimalarida mohirlik bilan tasvirlanadi. Adabiyotshunos I.Yoqubov qayd qilganidek: "Bugungi nasrimizga kirib kelgan jahon adabiyoti ilg'or an'analardan biri yolg'on burch, yolg'on axloq. Yolg'on ijtimoiy munosabatlar qurboni bo'lgan, ma'nisiz umidlar quchog'ida yashagan inson fojiasini tasvirlash orqali davrning dolzarb muammolariga munosabat bildirish bo'ldi. Aldangan shaxs umrining tagi puch g'oyalarga sarflanganligini butun keskinligi hamda fojiasi bilan qabariq tasvirlash romanchiligimizda ramziy-majoziy timsollarni ancha kuchaytirdi" [3].

Qayd qilinganidek, poetik tasvirdagi yangilanishlar adib romanlarining o'ziga xos talqinlarini namoyon qilgan. Romandagi voqealarga asosan, qishloq odamlari, ularning ezgulik va yovuzlik yo'lidagi kurashlari asos qilib olinadi va shu asosida asardagi voqealar silsilasi shakllanib boradi. "Romanda etnik tasvir bilan his-tuyg'ular tasviri o'ziga xos uyg'unlashadi. Asarda tashqi voqelikning panoramasi – qahramonlar qalbidagi kechinmalarni reallashtirgani kabi, kechinma va fikrlar oqimi tasviri o'z navbatida tasvirlanayotgan hayotning mohiyatini ochadi", [4] – deb yozadi adabiyotshunos H.Umurov.

Adibning "Shox" romanida ham ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashning zamiri va intihosiga doir qarashlarni Hotam, Qulmahmud, janob Van Tu, uning gumashtalari misolida ko'rsatadi. O'quvchi odam va shayton o'rtasidagi kurashni mifologik tasvirlar orqali inson hayotida haligacha davom etayotganini mushohada qilar ekan, hayotlarida uchraydigan Odam, Hotam, Qulmahmud kabi taqdir egasi bo'lishdan cho'chishlari tabiiydir. "Aslida esa kishilik jamiyatini ichdan yemirishga yo'naltirilgan maslak yovuzlikka tutashadi. Vaholanki,

hayot mantig'ini to'ldiradigan tafsilotlar uyg'unligi ifodada yaxlitlik hosil qilishi badiiy ehtiyoj sanaladi" [5], – deya yozadi X.To'liboyev.

Ilmiy tomondan Shoyim Bo'tayev romanlari ilk bor adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitish metodikasi uyg'unligida kompleks tahlil qilinishi yangilikdir. Romanlarning badiiy-estetik xususiyatlari bilan bir qatorda ularning akademik litsey o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi imkoniyatlarini ochib berish hamda kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari asosida o'qitishning amaliy ahamiyati muhimdir. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, germevntik, poetik tahlil, pedagogik kuzatish, kompetensiyaviy yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Xulosa qilib aytganda, Shoyim Bo'tayev asarlari o'zining yuksak badiiy-estetik qimmatini, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi g'oyaviy mazmuni hamda inson ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy salohiyati bilan zamonaviy o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Adib roman va qissalarida insonning ichki kechinmalari, axloqiy tanlovlari, tarixiy xotira, milliy o'zlik, vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar badiiy yuksaklikda talqin etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Shoyim Bo'tayev ijodining poetik xususiyatlari obrazlar tizimining mukammalligi, ramziy ifoda vositalari, falsafiy mushohada, psixologik tasvir, milliy ruh va individual uslubning uyg'unligi bilan xarakterlanadi. Mazkur jihatlar o'quvchilarda badiiy tafakkur, estetik did va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Shu bois Shoyim Bo'tayev asarlarining ma'naviy-tarbiyaviy salohiyati va badiiy poetik xususiyatlarini akademik litsey adabiyot ta'limi mazmuniga tizimli ravishda integratsiya qilish, ular asosida metodik tavsiyalar, o'quv-topshiriqlar va didaktik materiallar ishlab chiqish adabiyot ta'limi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ёқубов И. Бадиий – эстетик сўз сеҳри. –Т.: "ТДПУ". Б. 40-41.
2. Бўтаев Ш. Қўрғонланган ой. –Т.: Шарқ. 1996. Б. 8-9.
3. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. Монография. – Тошкент: "Фан ва технология", 2006. 159-бет.
4. Умuroв Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. 31- бет.
5. Тўлибоев Х. Ҳозирги ўзбек романчилигида бадиий услуб ва жанрий-композицион яхлитлик синтези. Филол. фан.фалсафа-док.дисс. – ФарДУ. 2018. 79-бет.

Olmos XURRAMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
khuramov.@navoiy-uni.uz

XAYRIDDIN SULTONOV IJODIDA BOBUR OBRAZINING BADIY TALQINI

Annotatsiya: maqolada tarixiy hikoya imkoniyatlari va unda tarixiy hikoya muallifi asosan tarixiy manbalarga, tarixiy dalillarga asoslanganligi ta'kidlanadi. Shu bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek nasrida Boburning realistik hikoyalash an'analari ma'lum ma'noda davom ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihat A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi romanlarida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek, G'.G'ulom, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov, X.Sultonlar nasrida ham boburona hikoyalash usullari ko'zga tashlanganligi haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *tarixiy hikoya, hikoya janri, Bobur va boburiylar obrazi, tarixiy manba.*

Annotation: this article examines the potential of the historical short story as a literary genre, emphasizing that its authors primarily rely on historical sources and factual evidence. It also argues that Babur's realist narrative tradition has, to a certain extent, been continued in contemporary Uzbek prose. This continuity is particularly evident in Abdulla Qodiriy's novels *Bygone Days* (*O'tkan kunlar*) and *Scorpion from the Altar* (*Mehrobdan chayon*). Furthermore, the article discusses the influence of Babur's narrative techniques on the prose of G'afur G'ulom, Oybek, O'tkir Yoqubov, Pirimqul Qodirov, and Khayriddin Sultanov.

Key words: *historical short story, short story genre, the image of Babur and the Baburids, historical source.*

Аннотация: в данной статье рассматривается потенциал исторического рассказа как литературного жанра, при этом подчеркивается, что его авторы в основном опираются на исторические источники и достоверные факты. Также утверждается, что традиция реалистического повествования Бабура в определённой степени получила продолжение в современной узбекской прозе. Эта преемственность особенно ярко проявляется в романах Абдуллы Кадыри «*Минувшие дни*» (*O'tkan kunlar*) и «*Скорпион из алтаря*» (*Mehrobdan chayon*). Кроме того, в статье анализируется влияние повествовательных приёмов Бабура на прозу Гафура Гуляма, Ойбека, Уткира Ёкубова, Пиримкула Кадырова и Хайриддина Султанова.

Ключевые слова: *исторический рассказ, жанр рассказа, образ Бабура и Бабуридов, исторический источник.*

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti o'ta qiziqarli, sarguzashtli, dramatism va tragik vaziyatlarga boy bo'lgan murakkab hayot yo'lidir. "Boburnoma" va boshqa tarixiy asarlarda tasvirlangan u haqidagi barcha voqea-hodisalar kichik lavha sifatida yaxshi hikoya uchun asos bo'lishi mumkin. Masalan, Boburning Samarqandni tashlab chiqishi, Xoja Ahror Valiyni tush ko'rishi bilan bog'liq voqea, Afg'oniston yo'lidagi dovonda qor kechishi, malika Bayda tomonidan zaharlanishi, o'limi kabi qator lavhalar mukammal, jahonshumul hikoyalarga mavzu bo'lishi mumkin. Ayni paytda, Boburning o'zi ham o'ta mohir hikoyanavis. Uning o'zi va o'zgalar haqidagi voqealarni hikoyalash yo'li, uslubi, kompozitsiya va syujetni qurish mahorati, obraz va portretni tasvirlashdagi badiiyati har qanday hikoyanavis uchun maktab bo'ladigan darajada mukammaldir.

Bobur hikoyanavisligi bir nechta bosqich va darajalarga ega. U birinchidan, o'zigacha yashab o'tgan tarixiy shaxslar haqida mahorat bilan hikoya qiladi. Ularning hayotlarida kechgan muhim va qiziqarli voqealarni tanlay biladi. Portretlari va xarakterlariga doir muhim chizgilarni mukammal darajada beradi. Ikkinchidan, Bobur o'z davri ijtimoiy hayotini, jonli muloqotlar jarayonini juda yaxshi his qiladi. Zamondoshlarini bir ruhshunos sifatida kuzatadi. Ularning tabiatlari, maxsus fe'l va odatlari, yashash tarzlari, hatto kiyadigan kiyimlarigacha e'tibor qaratadi. O'z hikoyalarida bularning barchasini mukammal darajada badiiy tasvirlaydi. Uchinchidan, Bobur o'z karomatli tushlari vositasida kelajak voqealarini ham tasvirlagan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, sahobalar, avliyo zotlarga doir tushlarning ham "Boburnoma"da mukammal tasviri keladi. Bularda ham

muallifning hikoyalash mahorati sabab tush voqealari o'quvchi ko'z o'ngida real hayotdagidek yorqin gavdalanadi. Chunki Boburning o'zi ilohiy-karomatli tushlarga real qaraydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida Boburning realistik hikoyalash an'analari ma'lum ma'noda davom ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jihat A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi romanlarida yaqqol ko'rinadi. Shuningdek G.G'ulom, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov, X.Sultonlar nasrida ham boburona hikoyalash usullari ko'zga tashlanadi. Ammo afsuski, bunday o'ziga xos an'ana o'zbek nasrida izchil tarzda kuzatilmaydi. Shu bilan birgalikda, zamonaviy o'zbek nasrida Bobur va boburiylar haqidagi hikoyalarning nihoyatda kamligini ham alohida ta'kidlash joiz.

X.Sultonning "Oy botgan pallada", "Nuqta", B.Omonning "Boburning bolaligi", M.Uzoqovning "Bobur sog'inchi" hikoyalarinigina janr talablariga to'la javob beradigan asarlar sifatida qayd etish mumkin.

X.Sulton Bobur haqida ikkita hikoya yozgan. Bizningcha, yozuvchining har ikki hikoyasi ham Bobur hayotining muhim pallalarini yoritishi jihatidan muhimdir. Ushbu maqolada yozuvchining "Nuqta" hikoyasi haqida so'z yuritamiz.

Dastlab hikoya sarlavhasi haqida mushohada qiladigan bo'lsak, uning "Nuqta" deb nomlanishining o'zi bir badiiy jumboqdir. Ma'lumki, ma'noni yashirin ifodalash so'z, ibora, jumla va detallar vositasida amalga oshiriladi. Shunda ushbu badiiy unsurlarning barchasi bir emas, biryo'la bir nechta ma'no qatlamlariga ega bo'ladi.

Sarlavha badiiy asar kompozitsiyasining muhim birligi bo'lib, yozuvchining badiiy niyatiga monand holda turlicha vazifa bajarishi mumkin. Ba'zi sarlavhalar o'zida asar mazmunini jamlab namoyon etishi bilan sof mantiqiy mohiyat kasb etadi ("Uloqda", "Oromkursi" kabi). Ba'zi sarlavhalar, ayniqsa hikoya sarlavhalari, badiiy aks ettirilayotgan voqea mohiyatini o'zida ifodalaydi (masalan, "Ko'chki", "Zilzila" kabi). Boshqalari voqea sodir bo'lgan joy nomlari bilan bog'liq bo'ladi ("Qichqiriq", "Oq bino oqshomlari" kabi). Ba'zilarida hikoya qilinayotgan voqea zamiridagi tuyg'u yuzaga qalqib chiqadi va hikoya sarlavhasiga aylanadi ("Bodom qishda gulladi" kabi). Yana bir xil hikoyalarda voqea qahramonining ismi asar sarlavhasiga chiqariladi va h.k.

X.Sultonning ushbu hikoyasida esa "nuqta" so'zi bir nechta ma'nolarda kelganini e'tirof etish mumkin. Birinchidan, hikoya ma'lum ma'noda epistolyar mohiyat

kasb etadi. U Boburning o'g'li Humoyunga maktubi asosiga qurilgan. Ma'lumki har qanday xatning oxirgi belgisi – bu nuqta hisoblanadi. X.Sulton hikoyasi ham Bobur maktubidagi so'nggi nuqta bilan nihoyalanadi.

Ikkinchidan, Bobur xatining mazmun-mohiyatida o'g'lidan har narsaga e'tiborli bo'lish, inshoda zeru zabar, hatto nuqtani ham diqqatdan qochirmaslik haqida so'z boradi. Yozuvchi asarning xulosasida bunga shunday izoh beradi: "Biz ham shu o'rinda hikoyaga nuqta qo'ysak bo'lar. Ammo hikoyaga sig'may qolgan ikki og'iz mulohaza borki, muhtaram kitobxon buning uchun bizni aybsitmas.

Boburdek muhtaram zotning bir nuqta tufayli bu qadar iztirob chekkani bejiz emas edi – hayot buni isbotladi: taqdirning g'alati o'yinini qarangki, Bobur vafotidan keyin ham zeru zabar jabrini tortadi – uzoq yillar mobaynida nomi "Bobir" deya yozib kelinadi. Faqat uning besh yuz yillik to'yi arafasida nuktadan bir olim "Bobir emas, Bobur!" deya na'ra tortib chiqadi-yu bu boradagi "g'alati mashhur" bartaraf etiladi.

Bir nuqtaning tarixi, qadri va mavqeyi ana shunday.

Тамом. Нуқта". [Султон Х. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Т.: Ф.Ғулом, 1993. – Б. 228.]

Uchinchidan, sarlavhada bu maktub Bobur o'limi arafasida, uning hayotiga taqdirning so'nggi nuqtasi qo'yilishidan bir bahiya oldin yozilganga ishora bor.

Hikoyaning birinchi jumlasini ham so'nggi punkttdagi xulosamizni tasdiqlaydi: "Boburning hasratidek uzun yomg'ir..." [Султон Х. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Т.: Ф.Ғулом, 1993. – Б. 217.]. Albatta, bu hasrat o'limdan qo'rquv hasrati emas. Bu hasrat qatlarida Boburning ulkan jahongirlik yo'li, Vatan hajri, yutuqlari va xatolari mujassam. Yomg'ir detali ham ma'lum ma'noda g'am-anduh va hasrat ifodasini kuchaytiradi. Odatda yomg'ir inson qalbida umr yo'llari va intiho haqidagi o'y-mushohadalarni uyg'otadi. Hasratli xotiralarni qo'zg'aydi.

Hikoyaning keyingi qismlari ham sarlavha va birinchi jumlagi monand holda falsafiy mazmun kasb etadi. Bobur navqiron o'g'liga nasihatimiz maktub bitar ekan, o'zining umri nihoya topayotganiga yana bir bor amin bo'ladi: "Alisherbekning hikmat to'la, dard to'la bayti iqrar tig'i bilan yuragini tilib o'tadi:

Soqol oqi o'limg'a peshravdur,

Тiriklik sabzasi ichra qirovdur." [Султон Х. Нуқта / Бобурнинг тушлари. – Т.: Ф.Ғулом, 1993. – Б. 217.].

Bobur o'z o'g'lining navqiron yigitga aylangani, yurt boshqaruvida kamolot hosil qilayotganidan xursand.

Farzand ko'rganidan esa boshi osmonga yetadi. Ammo Humoyun maktubidagi hashamdorlik, dabdaba Boburga o'tirishmaydi. Bobur maktublarda ham o'z hayoti kabi soddalik, to'g'rilik va aniqlik bo'lishini istaydi. Humoyun o'z o'g'liga qo'ygan Al'mon ismida ham sun'iy dabdaba, xalq tilini va dilini anglamaslik yotganidan ranjiydi: "Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro'zi qilg'ay, omin yo Robbal olamin, deya davom etdi u.-Otini Al'amon qo'ymishsan. Tengri muborak qilg'ay. Vale bovujdkim, o'zung bitibsen, mundin g'ofil bo'lubsenkim, kasrati iste'mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o'zga mundoq alif-lom otta kam bo'lur..." [Султон Х. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Т.: Ғ.Ғулом, 1993. – Б. 220].

Inshodagi kichik bir xato mutafakkir otani chuqur o'yg'a toldiradi. Xayolan tarixga safar qildiradi. O'z otasini qatl etgan Abdullatif, mast holatda nabirasi Mo'min Mirzo o'limi haqidagi farmonga imzo chekkan Sul-ton Husayn qilmishlarini eslaydi. Ushbu xotiralar uni Vatan haqidagi iztirobli armonlarga yetaklaydi. Vatanni tark etish sahnalari, temuriy shahzodalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, Shayboniy ta'qibi ostida yurganida uni hech kim qo'llamagani kino lentasidek ko'z oldidan bir-bir o'tadi.

Hikoyaning mana shunday o'rinlarida hikoyanavis epistolyar janr chegaralaridan chiqib ketadi. Boshqacha aytganda, bu janr imkoniyatini kengaytiradi. Maktub mazmuniga hikoya qahramoni xotiralarini bog'lash orqali muallif assotsiativ tasvir usuliga murojaat qiladi. Natijada asar badiiyatini oshirishi bilan birga hikoyaning badiiy zamon va makon ko'lamini kuchaytiradi.

"Yana sendin ozroq ginam bor, – deya xat boshidan yozdi u, – bu ikki-uch yildin beri bir kishing kelmadi. Men yuborgan kishi ha rost bir yildin so'ngra keldi. Mundoq bo'lurmi?" [Султон Х. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Т.: Ғ.Ғулом, 1993. – Б. 222.]

Keksaygan shoh va otaning hasrati, arkoni davlat, hashamat va shon-shuhrat ichidagi yolg'izligi maktubdagi shu parcha orqali yaxshi asoslangan. Shu gapni yozgan Boburning chap qulog'i orqasida og'riq turadi, qalam tutgan qo'li titraydi. Bu sof fizik va psixologik holat. Voqelikda ham yomon xotiralar inson ruhiyatida g'ayrioddiy qo'zg'alish uyg'otadi. Quloq orqasining sanchishi ruhiy iztirobning tana a'zosiga bergan salbiy signalidan dalolat beradi. Yozuvchi faqat shu bilan cheklanmaydi. Quloq og'rig'ining tabiiy asoslarini ham beradi. Bu orqali Bobur dardining nihoyatda teran ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma'naviy ildizlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Ko'tali Zarrinda misli ko'rilmagan bo'ronga duchor bo'lgani, oddiy askarlar qatori qalin qorni o'yib yerto'la yasagani, shu joyda tunni g'aribona o'tkazgani haqidagi "Boburnoma"dagi dalilni keltiradi. Beklari Boburni nisbatan qulayroq g'orda dam olishga chorlaydilar: "Axir qaysi yuz bilan borsin? Barcha navkarlari bunda – bo'ron changalida titrab-qaqshab o'tirsa-yu, u issiq g'orda, farog'at og'ushida mudrasa!..." [Султон Х. Нуқта /Бобурнинг тушлари. – Т.: Ғ.Ғулом, 1993. – Б. 222.]. Bu bilan muallif Bobur tabiatidagi botiniy demokratiya, mardlik, jasorat va irodani ta'kidlaydi. Maktub yozayotgan ota, shonli o'tmish sohibi bo'lgan shoh, umri yaqinlab qolgan yolg'iz odam tarixini bir nuqtaga jamlab, mukammal badiiy palotnoga muhrlashga erishadi.

Xullas, X.Sulton "Nuqta" asari misolida hikoya janri imkoniyatlarini kengaytirgan. Epistolyar usul bilan assotsiatsiya usulini badiiy mushtarak holatga keltirishga erishgan. Shu bilan birgalikda, Bobur hayotidagi eng muhim voqealarni, Boburga yaqin bo'lgan tarixiy dalillarni, uning ruhiy-ma'naviy holatlarini bir nuqtada jamlashga erishgan. Sof badiiy-psixologik talqin orqali Bobur obrazi mohiyatini muvofiq darajada yoritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобур З.М. "Бобурнома". – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.
2. Султонов Х. Бобурнинг тушлари. Қиссалар. Ҳикоялар. Эсселар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1993. – 272 б.
3. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшunoslik терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи. – 376.
4. Муродов Ғ. Мозий ва бадий адабиёт. – Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 1994. – 93 б.
5. Қўшжонов М. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Sharq, 2018. – 712 б.
6. Каттабеков А. Тарихий романлар хусусида баҳслар // Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2011. – 544 б.

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Shahzoda QULMAMATOVA,

Mustaqil tadqiqotchi

Email: shahzodaqulmamatova26@gmail.com



ESSEDA FIKRLAR UYG'UNLIGI: MEEROC – YANGI DAVR METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida ona tili darslaridagi yozma ishlar tahlili asosida esse janrining o'рни va uni yozish jarayonidagi metodologik muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda **MEEROC modeli** – esse yozishdagi mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlovchi yangi yondashuv sifatida taklif etiladi. Modelning har bir bosqichi batafsil yoritilib, uning an'anaviy inshodan farqi, fikr tarqoqligining oldini olish, dalillarni tizimli joylashtirish hamda o'quvchi e'tiborini jalb etishda ushbu metodikaning afzalliklari ochib beriladi. O'rganish natijasida esse janrining shunchaki erkin yozuv emas, balki aniq bir tizimga ega bo'lgan tahliliy jarayon ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, ona tili, esse janri, MEEROC modeli, insho.

Annotation: this article analyzes the role of the essay genre and the methodological problems in the writing process based on an analysis of written assignments in native language classes within the modern education system. The study proposes the **MEEROC model** as a new approach to ensure logical sequence in essay writing. Each stage of the model is described in detail, highlighting its advantages over traditional essays in preventing the fragmentation of thoughts, systematically arranging evidence, and engaging the reader's attention. The study concludes by substantiating that the essay genre is not merely free writing, but an analytical process with a definite structure.

Key words: modern education, native language, essay genre, MEEROC model, composition.

Аннотация: в данной статье на основе анализа письменных работ на уроках родного языка в современной системе образования анализируется роль жанра эссе и методологические проблемы процесса его написания. В исследовании предлагается **модель MEEROC** как новый подход, обеспечивающий логическую последовательность при написании эссе. Подробно освещается каждый этап модели, раскрываются ее преимущества перед традиционным сочинением в предотвращении разрозненности мыслей, систематическом размещении доказательств и привлечении внимания читателя. В результате исследования обосновывается, что жанр эссе — это не просто свободное письмо, а аналитический процесс, обладающий четкой структурой.

Ключевые слова: современное образование, родной язык, жанр эссе, модель MEEROC, сочинение.

XXI asr – 'Axborot -texnologiyalar asri' – har bir sohada o'zgarishlarni, zamon bilan hamnafas bo'lib harakatlanishni talab qilmoqda. Ayniqsa, bu ta'lim sohasiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni kun sayin jadallik bilan rivojlanib borayotgan global olam axborot muhitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, yangiliklar oqimidan oqilona foydalanishdan iborat. So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or o'qitish tajribalariga tanqidiy yondashib, ta'lim tizimimizning milliy xususiyatlarini, mentalitetimizni inobatga olgan holda o'rganish va amaliyotga joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu sababli ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili faniga ta'limda o'quvchilar yozma nutq malakasini

baholash usuli sifatida qo'llanib kelingan diktant, bayon va insho kabi yozma ish turlariga **"esse"** degan yangi baholash metodikasi kiritildi. Bilamizki, ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarga o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda mustaqil va aniq bayon etishga o'rgatishdir. Ona tili o'quvchilarga o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash, o'zaro muloqot qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu yangi baholash metodikasi o'quvchining nafaqat og'zaki va yozma nutqini o'stiradi, balki intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini, shuningdek o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini rivojlantiradi. O'quvchilarning esse yozish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda ona tili ta'limining eng dolzarb va muzokarali masalalaridan biri sanaladi.

Esse asosan, adabiy janr sifatida tadqiq qilingan, biroq o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab pedagogikada o'zlashtirilgan bilim darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziluvchi metod sifatida qo'llanila boshladi. Esseni metod sifatida ta'lim sohasiga kiritish taklifi **1998-yilda Templ universiteti o'qituvchilari Lee va Bropliy tomonidan ilgari surilgan** [1:44].

Esseni metod sifatida darslarda qo'llash yuzasidan tavsiyalar o'tgan asrning so'nggi yillariga to'g'ri keladi. Bu metodning o'quvchilar nutqini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirishdagi fikrlar ko'plab adabiyotlarda o'z aksini topgan. D. Ro'ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqovalar tomonidan yaratilgan *"Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi"* nomli metodik qo'llanmada esse metodiga quyidagicha ta'rif berilgan: *"Texnologiya kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U o'quvchilar tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi"* [2:36].

Esse ilk bor 2020-yildan boshlab ona tilidan milliy sertifikatning 45-savolida qo'llaniladi, so'ng 2022-yilda 10-sinf ona tili darsligida topshiriqlar sifatida beriladi. Davlat ta'lim standarti talablari ham o'quvchilarning o'qish

savodxonligi va nutqiy kompetensiyalarini yuqori darajada shakllantirishni nazarda tutadi.

Jumladan, bitiruvchilar mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrlarini yozma va og'zaki ravon bayon etish hamda turli vaziyatlarni tanqidiy baholay olish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozimligi belgilangan. Shuning uchun ham avvalo, esse mavzulari yuqori sinf darsliklaridan keltirilib boshlandi, chunki yuqori sinflarda o'z shaxsiy fikrlarini bayon etish juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonlarni inobatga olgan holda ta'lim tizimimiz maktab darsliklarini yaratishda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratgan holda yildan yilga maktab darsliklarini zamonaviy davrga mos bo'lgan yangi manbalar bilan boyitib bormoqda. Jumladan, avvalgi darsliklarga qaraganda hozirda biz foydalanayotgan yangi darslikda ona tilimizning grammatikasidan ko'ra ko'proq o'quvchining shaxsiy fikri, tanqidiy fikrlashiga ko'proq diqqat qaratilmoqda. Darsliklarda ko'proq bugungi kundagi dolzarb bo'lgan muammolar yuzasidan yoshlarning ularga nisbatan munosabatini bilish kelajakda bunday masalalarga yechim topishga undashga qaratilgan esse mavzulari yozish uchun topshiriqlik sifatida berilmoqda, lekin haligacha ayrim o'quvchilar insho bilan essening farqini aniq ajratisholmaydi, chunki esse yangi metodika sanalib, pedagoglarda buni o'quvchiga o'rgatishda aniq bir usullarning yo'qligidir. Quyida esse va inshoning asosiy farqlari keltirilgan:

Esse va inshoning farqli tomonlari

Esse	Insho
Esse – fransuz tilida “essai” – “tajriba”, ingliz tilida “essay” – “assay” – intilish, ijodiy sinov, ocherk; lotincha “exagium” – “o'ylash” degan ma'noni bildiradi.	Insho – arab tilidan olingan so'z bo'lib, “bino qilish”, “qurish” degan ma'noni bildiradi.
Esse – o'quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Uning o'zgachaligi – mavzuda ko'tarilayotgan muammoga fakt va dalillarni o'rinli keltirish orqali o'z munosabatini bildirish.	Insho – o'quvchining o'zbek adabiyoti fanidan olgan nazariy bilimlarini o'z fikri va dunyoqarashi bilan bog'lab yozadigan ijodiy mehnati. Bunda o'quvchidan o'qilgan badiiy asarni chuqur o'ylashi, tahlil qilishi, so'ng badiiy til bilan ta'sirli ifodalashi talab etiladi.
Esse erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publistsistik janrning bir turi. Esse muayyan bir reja asosida yozilmaydi. Essening kompozitsiyasi quyidagicha: kirish, asosiy qism (3 xatboshi), xulosa. Umumiy so'zlar miqdori 200–250 ta bo'lishi tavsiya etiladi.	Insho – tuzilishi jihatdan hajmi keng, fan bo'yicha egallangan nazariy bilimlar asosida yoziladigan ijodiy ish. Insho uchun reja tuziladi va epigraf yoziladi.
Essening maqsadi – o'quvchini faol fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirish.	Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchining yozma nutqini rivojlantirishdir.

MEEROC modeli – esse yozishda hamda uni o'quvchilarga o'rgatishda qulay metodika sanaladi. Mazkur model asosida esse argumentining bir tomonini (ijobiy yoki salbiy) osongina yozish mumkin. Hozir esa dolzarb esse mavzularidan biriga shu modeldan foydalanib, bitta esse yozamiz.

ESSE mavzusi: mamlakatimizda ekologik muammolar kun sayin ortib bormoqda. Ayrimlar ekologik muammolarni hal etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taklif qilmoqda, ayrimlar esa ekologik barqarorlikka an'anaviy usullar asosida erishish mumkinligini ta'kidlashmoqda.

INTRODUCTION – **kirish qismida mavzuning mazmunini saqlagan holda qisqacha parafriz qilib olamiz.** Kundan kunga jadallik bilan rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekistonimizda dunyo bo'ylab globallashib borayotgan ekologiya muammosi o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Ba'zilar bu masalaga yechim sifatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish taklifini ilgari surayotgan bo'lsa, boshqa ziyoli qatlam vakillari an'anaviy yo'llar asosida tabiatimizda barqarorlikni saqlashga erishish mumkin deb hisoblashadi. Xo'sh, biz qaysi bir usuldan foydalansak yurtimizning buguni va ertasi uchun manfaatliroq bo'ladi?

M – main body (asosiy fikr) birinchi g'oya beramiz. Biz – insonlar o'zimizga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida o'zimiz bilib va sezmagan holatda bizni o'rab turgan tabiatimizga ziyon yetkazib qo'yimoqdamiz. **E – explanation (izohlash) berilgan fikrni tushuntiramiz.** Jumladan, mamlakatimiz mustaqillik ostonasiga qadam qo'ygandan to bugungi kunga qadar har sohada tez sur'atlarda rivojlanib kelmoqda, lekin afsuslar bo'lsinki, buning natijasida ekologiyamizda turli muammolar kelib chiqmoqda. **E – example (misol) g'oyani dalillaymiz.** Xususan, "Orol fojiasi" (dehqonchilikni rivojlantirish sanoatni rivojlantirish va urbanizatsiya natijasida paydo bo'lgan) bunga yaqqol

misoldir. **R – result (natija) fikrning natijasida nima bo'lishi mumkinligi.**

Mutaxassislarimiz bu muammoga yechim sifatida innovatsion texnologiyalardan foydalanib, sun'iy qor-yomg'ir yog'dirish taklifini olib chiqishdi, **O-C-opposite (qarshi) g'oyaning salbiy tomoni; conclusion (qisqa xulosa) keltirilgan fikrni yakunlovchi qisqa xulosa**, lekin shuni ham unutmasligimiz kerakki, biz uchun yechimdek tuyulgan bu g'oyalar kelajakda O'zbekiston iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Argumentning bir tarafi yozildi. MEEROC modeli asosida 2- tomon ham yoziladi. Essedagi eng muhim jihat bu shaxsiy fikr berishdir. Bunda o'quvchi o'zi qay bir tomonni yoqlashni istasa, o'z fikrlarini berib, asoslab ketadi.

Masalan quyidagicha: mening fikrimcha, ekologik muammolarni hal etishda an'anaviy usullardan foydalanish kerak, chunki yuqorida ta'kidlab o'tganidek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning buguni bor, ertasi esa noma'lum. Xalqimizda bir naql bor: "Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarma".

Xulosa qismida yuqorida keltirilgan fikrlar umumiy qilib yoziladi: so'nggi so'z o'rnida bir so'z deganlaridek, insoniyat hech qachon rivojlanish va taraqqiyotdan to'xtab qolmasligi kerak shuning bilan birga, bizni o'rab turgan tabiat bilan yaxshi munosabatda bo'lishi lozim. Zero, odamzot u bilan tirikdir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, esse yozish jarayoni – bu shunchaki til o'rgatish emas, balki barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishning asosiy vositasidir. Pedagogning mahorati esa nazariy bilimlarni zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtira olishida namoyon bo'ladi. Ulardan mohirona foydalangan pedagoglarga o'z darslarini mazmunan boy, usluban rang-barang va ta'sirchan qila oladi. Bu – eng katta yutuq. **MEEROC modeli** esa zamonaviy metodika sifatida o'quvchilarni esse yozishga o'rgatishdagi bir usul sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фарберман Б.Л, Мусина Л.Г. Интерактивные методы обучения. – Ташкент. 2002. 44-б.
2. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi" – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. 2013. 36-b.



A light pink background with a white plus sign at the top center, a red wavy line at the top right, the text 'TADQIQOTLAR' in bold dark blue in the center, and another white plus sign at the bottom right.

Nargiza NAZIROVA,
Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat
markazi o'qituvchisi
e-mail: nargiza87@mail.ru

ICHKI MONOLOG, ICHKI DIALOG VA ONG OQIMINING BADIY PSIXOLOGIZMDAGI O'RNI

(Shukur Xolmirzayevning hikoyalari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy psixologizmning muhim komponentlari hisoblangan ichki monolog, ichki dialog va ong oqimi kategoriyalarining nazariy asoslari yoritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy psixologizm, ichki monolog, ichki dialog, ong oqimi, psixologik tahlil, Shukur Xolmirzayev, ruhiyat, xotira, assotsiatsiya, psixologik detal.

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические основы внутреннего монолога, внутреннего диалога и потока сознания как важнейших компонентов художественного психологизма.

Ключевые слова: художественный психологизм, внутренний монолог, внутренний диалог, поток сознания, психологический анализ, Шукр Холмирзаев, психология героя, память, ассоциация, психологическая деталь.

Annotation: this article examines the theoretical foundations of inner monologue, inner dialogue, and stream of consciousness as major categories of literary psychologism.

Key words: literary psychologism, inner monologue, inner dialogue, stream of consciousness, psychological analysis, Shukur Xolmirzayev, memory, association, psychological detail.

Badiiy psixologizm adabiyotning inson ruhiyatini estetik idrok etishga qaratilgan eng murakkab qatlamlaridan biri hisoblanadi. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida psixologik tasvir vositalari haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ichki monolog, ichki dialog va ong oqimi ko'pincha alohida hodisalar sifatida talqin etilib, ularning yagona psixologik tizim sifatidagi o'zaro munosabati yetarli darajada yoritilmagan.

Bizningcha, mazkur uch hodisa inson ongining uch xil faoliyat shaklini ifodalaydi. Ichki monolog ongning o'ziga qaratilgan refleksiv faoliyatini, ichki dialog ongning qarama-qarshi pozitsiyalar o'rtasidagi bahsni, ong oqimi esa tafakkurning assotsiativ va intuitiv harakatini namoyon qiladi. Shu sababli ularni badiiy psixologizmning alohida unsurlari emas, balki yagona tizimning o'zaro bog'langan uch darajasi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Psixologik tasvir masalasi rus va o'zbek adabiyotshunosligida keng tadqiq etilgan. I.V. Straxov psixologik tahlilning ichki va tashqi shakllarini ajratadi¹. O. Uorren badiiy tafakkurda ong va ongsizlik munosabatlarini asoslaydi². Y. Solijonov monologni badiiy nutqning alohida turi sifatida baholab, uni ichki nutqdan mantiqiy yaxlitligi bilan farqlaydi³. M. Boboxonov psixologik tasvirning ichki shakllari qatoriga ichki monolog, xotira, assotsiatsiya va tasavvurlarni kiritadi⁴. Olim ichki monologning

muallif aralashuviz personaj ruhiyatini ochishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. G. Muhammadjonova ichki monologni badiiy psixologizmning markaziy elementi sifatida baholab, monolog-xotira, monolog-tafakkur va monolog-mulohaza shakllarini ajratadi⁵. N. Shodiyev esa ichki monologni qahramonning o'z-o'zi bilan ichdan suhbatlashuvi sifatida izohlaydi⁶. Mazkur ilmiy qarashlar Shukur Xolmirzayev hikoyalridagi psixologik tasvir mexanizmlarini tahlil qilish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. "Odam" hikoyasida Rahima obrazi inson umrining turli bosqichlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab psixologik tipdir. Asarda ichki monolog ko'proq xotira va tafakkur shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, kampirning: "Mening enam qani?.. U kutib qoldi-ku?"- degan nutq shakli Rahimaning ongida bolalik davri bilan bog'liq xotiralarning jonlanishini ko'rsatadi. Bu monolog qahramonning biologik qarish jarayonida ongning retrospektiv harakatini ifodalaydi. Hikoyada ichki dialog tashqi shaklda berilsa-da, aslida Rahimaning o'z "men"i bilan kurashini aks ettiradi. U bir vaqtning o'zida qiz, kelin, ona va kampir sifatida yashaydi. Asardagi: "Rahima kampir ertasi kuni bir necha odamga o'xshab, har xil qiyofada yashadi: goh Rahima qiz bo'ladi, goh Rahima kelin. Birdan Rahima onaga aylanadi. Keyin Rahima buviga" parchasi shaxs ichidagi ko'p qatlamli identifikatsiya holatini ko'rsatadi. Bu yerda qahramonning turli davrlardagi

1 Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: пособ. для студ. / В 5 ч. / – Саратов: Изд. Саратовского университета, 1973. – Ч. 1. – С. 4.

2 Уэллек Р./ Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978. 102–107 с.

3 Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нукт поэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2002. Б. 64.

4 Бобохонов М.Р. Ҳозирги ўзбек романлари структурасида психологизм

муаммоси. Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс. – Авт. реф., 2023. Б. 25.

5 Мухаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси. – Фарғона: Classic, 2022. Б. 197

6 Шодиев Н. Рухият рассоми. – Тошкент, Фан, 1977. Б. 30.

7 Xolmirzayev Sh. Odam: hikoya – [Elektron manba] <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-odam-hikoya> (kun ko'rilgan: 26.08.2025)

“men”lari o‘zaro dialogga kirishadi. Natijada ichki polifoniya yuzaga keladi. Baxtin nazariyasidagi dialoglik tamoyili nuqtayi nazaridan qaranganda, Rahima ongida bir nechta ovozlari bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lib, ular o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasida ruhiy muloqot hosil qiladi. Kampirning xotiralari vaqt ketma-ketligiga bo‘ysunmaydi. Muallif yozadi: “*Ko‘z oldidan allaqanday baland minoralar, paranjyopingan ayollar o‘tdi. Keyin o‘zini allaqanday ariq labida ko‘rdi*” Bu yerda vaqt chegaralari buziladi. Bir lahzada bolalik, keyingi lahzada yoshlik, undan so‘ng urush davri xotiralari namoyon bo‘ladi. Yana: “*So‘ng ko‘z oldiga lop etib kirza botinka va fufayka kiygan o‘g‘li Abdulrahim keldi*” bu parchada assotsiativ tafakkur mexanizmini ko‘rsatadi. Xotira bir obrazdan ikkinchisiga mantiqiy bog‘lanishsiz o‘tadi. Bu ong oqimining klassik ko‘rinishidir. J. Joys va V. Vulf asarlaridagi ong oqimi texnikasiga xos bo‘lgan vaqtning subyektivlashuvi va assotsiativ tafakkur “Odam” hikoyasida milliy ruh va o‘zbekona hayotiy material asosida qayta yaratilgan.

Shukur Xolmirzayevning “Qorbobo keladi” hikoyasi esa bolalar psixologiyasi, tasavvur va hayotiy haqiqat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy talqin etgan asarlardan biridir. Hikoyada voqealar birinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. Shu sababli qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va tafakkur jarayonlari bevosita o‘quvchiga yetib boradi. Asarda ichki monolog psixologik tasvirning asosiy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoya davomida qahramonning Qorbobo haqidagi tasavvurlari, shubhalari va umidlari ichki monolog shaklida ifodalanadi. Ayniqsa, Qorboboning aslida maktab muallimi ekanligini eshitganidan keyingi ruhiy holat muhim ahamiyatga ega. “*Qorbobo yo‘q, desam-chi? Sir toyib bo‘lar, o‘rmon-o‘rmondek, qish-qishdek, yangi yil — shunchaki bir bayramdek, tug‘ilgan kunim esa, tug‘ilishim kerak bo‘lgan bir kundek tuyular, yuragim bo‘shab qolardi*”⁸ Mazkur parcha qahramonning ichki kechinmalarini ochib beruvchi monolog hisoblanadi. Bu yerda bola ongida kechayotgan ruhiy jarayon, ya‘ni haqiqatni tan olish bilan mo‘jizaga ishonishni saqlab qolish o‘rtasidagi ziddiyat namoyon bo‘ladi. Shuningdek: “*So‘ng yana zo‘r berib shivirlardim o‘zimga: ‘Qorbobo bor... u o‘rmonda’*” jumlasini ham ichki monologning namunasi sanaladi. Qahramon o‘z tasavvuridagi

olamni saqlab qolish uchun o‘z-o‘zini ruhlantiradi va ichki e‘tiqodini mustahkamlashga urinadi.

Hikoyada ichki dialog ichki monologga nisbatan faolroq ko‘rinishda uchraydi. Chunki qahramon ongida ikki qarama-qarshi fikr kurashadi. Bir tomondan: “*Qorbobo degan kishi o‘rmonda bo‘lmas ekan, o‘shanda meni aldashgan ekan*” desa, ikkinchi tomondan esa: “*Lekin bari bir ishonmasdim: Qorbobo bor, u o‘rmonda yashaydi*” Bu ikki qarash qahramon ongida o‘zaro bahslashadi. Natijada ichki dialog yuzaga keladi. Mazkur dialog ochiq savol-javob shaklida emas, balki qarama-qarshi ruhiy pozitsiyalar to‘qnashuvi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Asarda sof modernistik ong oqimi kuzatilmaydi. Biroq ayrim o‘rinlarda ong oqimi elementlari mavjud. Masalan: “*Shuni o‘ylasam, o‘rmon ham, yangi yil ham, tug‘ilgan kunim ham, qish ham, hammasi sirli bo‘lib ko‘rinardi*” Bu yerda qahramon fikri bir tushunchadan ikkinchisiga erkin o‘tadi: Qorbobo → o‘rmon → qish → yangi yil → tug‘ilgan kun. Assotsiativ bog‘lanishlarning mavjudligi ong oqimi poetikasining ayrim belgilarini yuzaga chiqaradi. Biroq bu tasvirlar to‘liq ong oqimi darajasiga yetmaydi. Chunki muallif fikr oqimini nazorat qilib turadi va bayon mantiqiy izchillikni saqlab qoladi. Hikoyadagi asosiy psixologik konflikt bola tafakkuridagi “haqiqat” va “orzu” qarama-qarshiligiga asoslanadi. Qahramon ulg‘aygani sari Qorboboning real mavjud emasligini tushunadi. Biroq uning qalbida mo‘jizaga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qoladi. Natijada ikki qatlamli ong holati yuzaga keladi: aql bilan inkor qilish va qalb bilan ishonish. “*Hatto, endi ko‘proq ishonib qolganman: ‘Qorbobo bor, u o‘rmonda, u sovg‘a olib keladi, u salom olib keladi, u bizni tabriklaydi’*” Mazkur fikr inson ruhiyatida bolalik tasavvurlari va ma‘naviy ehtiyojlarning umr bo‘yi yashab qolishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Ichki monolog — personajning o‘z ruhiy holatini anglash, baholash va izohlashga qaratilgan refleksiv nutq shakli bo‘lib, unda ong o‘zini kuzatish obyektiga aylanadi. Ichki dialog — bir shaxs ongida mavjud bo‘lgan turli axloqiy, hissiy yoki dunyoqarash pozitsiyalarining o‘zaro bahsi natijasida yuzaga keladigan polifonik psixologik muloqotdir. Ong oqimi — tafakkurning mantiqiy nazoratdan nisbatan xoli bo‘lgan, xotira, assotsiatsiya, hissiyot va intuitiv impulslar ta‘sirida uzluksiz harakatlanishini aks ettiruvchi badiiy psixologik konstruksiyadir.

⁸ Xolmirzayev Sh. Qorbobo keladi — [Elektron manba] <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-qorbobo-keladi-hikoya> (kun ko‘rilgan: 12.04.2025)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: пособие для студентов: в 5 ч. Ч. 1. — Саратов: Изд-во Саратовского университета, 1973. 72 с.
2. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы / пер. с англ. — Москва: Прогресс, 1978. — С. 102–107.
3. Солижонов Й. XX asrning 80–90 yillari ўzbek nasrida badiiy nuqt poetikasi: Filol. fan. d-ri (DSc) diss. — Toshkent, 2002. 286 b.
4. Бобохонов М.Р. Ҳозирги ўzbek romanlari strukturasi psixologizm muammosi: filol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref. — Toshkent, 2023. 74 b.
5. Мухаммаджонова Г. Мустақиллик davri ўzbek nasrida ijodkor inson konseptsiasini. — Farfona: Classic, 2022. 288 b.
6. Шодиев Н. Рухият рассоми. — Toshkent: Fan, 1977. 128 b.

Charos XUSHMURODOVA,
 Samarqand davlat texnika universiteti
 Talaba klublari bo'limi boshlig'i

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA LINGVOPOETIK MASALALAR TADQIQI

Annotatsiya: badiiy matnning shakliy va mazmuniy jihati tahlili fanda amaliy ahamiyatga ega. Lingvopoetika matnda ifodalangan lingvistik birliklarning mazmuniy, badiiy-estetik jihatlarini tadqiq etuvchi filologik yo'nalish hisoblanadi. Muallif badiiy matn ifodasida ikki bosqich: lingvistik vositalarni tanlash va badiiy ta'sir kuchini ifodalash maqsadida axborot tashuvchi birliklarning konnotativ funksiyalarini belgilashdan iboratdir. Badiiy matn tahlili uch darajada amalga oshiriladi: semantik, metasemantik, lingvopoetik. Matnning shakliy tahlili stilistika sohasi, mazmuniy analizi esa lingvopoetika yo'nalishi bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, semantika, metasemantika, denotativ, konnotativ, badiiy ta'sir*

Аннотация: практическое значение в науке имеет анализ формально-содержательной стороны художественного текста. Лингвопоэтика-это филологическое направление, изучающее содержательные, художественно-эстетические аспекты языковых единиц, выраженных в тексте. Автор выделяет два этапа в выражении художественного текста: выбор языковых средств и определение коннотативных функций единиц, несущих информацию, с целью выражения силы художественного воздействия. Анализ художественного текста проводится на трех уровнях: семантическом, метасемантическом и лингвопоэтическом. Формальный анализ текста связан с областью стилистики, а содержательный анализ — с областью лингвопоэтики.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, семантика, метасемантика, денотативный, коннотативный, художественный эффект*

Annotation: the analysis of the formal and semantic aspects of a literary text is of practical importance in science. Linguopoetics is a philological discipline that studies the semantic and artistic-aesthetic aspects of linguistic units expressed in a text. The author's artistic text expression consists of two stages: the selection of linguistic means and the definition of the connotative functions of information-bearing units in order to express the power of artistic influence. The analysis of a literary text is carried out at three levels: semantic, metasemantic, and linguopoetic. Formal analysis of text is related to the field of stylistics, while content analysis is related to the field of linguopoetics.

Key words: *linguopoetics, semantics, metasemantics, denotative, connotative, artistic effect*

Jahon tilshunosligida tilni amaliy tadqiqiga e'tibor kuchaymoqda. Badiiy asarlar lingvistik xususiyatlari tadqiqi muallif nutqiy maqsadi, mavzu yo'nalishi, badiiy-estetik ta'sirni baholashni taqozo etmoqda. Bunga aloqador matnshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, lingvistik ekspertologiya, kompyuter lingvistikasi kabi bir qancha yo'nalishlar shakllana boshladi. Xususan, tilni estetik jihatdan tadqiq etishga qaratilgan lingvopoetika sohasi ham jadallik bilan rivojlana boshladi. Matnning badiiy ta'sir kuchi matn turi, lingvistik vositalar va ularning konnotativ funksiyalarida ko'zga tashlanadi.

Lingvopoetika lingvistika va poetika oralig'ida yuzaga kelgan soha bo'lib, XX asrning oxirgi choragida shakllana boshladi. Tilning muhim vazifasi kommunikativ muhitni yuzaga keltirish, axborot almashinuv jarayonini shakllantirish hisoblanadi. Matnda fikrning o'ziga xos ifodasi, emotsional-ekspressiv ta'siri kabi estetik xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Antropotsentrizmning lingvopoetika yo'nalishida jahon tilshunosligida Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida V.V. Vinogradov, Praga tilshunosligi professorlari A.I. Smirnitkiy, R. Velkel kabi olimlarning tadqiqotlariga asoslanib O.S.Axmanova, V.Y. Zadornova, A.A.

Lipgart hamda ko'plab yosh tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar amalga oshirdilar. Xususan, lingvopoetika asoslari haqida A.A.Lipgart, matnning hikoya turlarini lingvopoetik tadqiq etish muammosiga doir A.A. Murashkina, Shekspir ijodida bayt va nasr almashinuving lingvopoetik vazifasi haqida V.D. Asanov, tasviriy qiyoslashning lingvopoetikasi xususida S.K. Gasparyan, adabiy qahramon obrazining lingvopoetik xususiyatlari haqida A.K. Junisbayeva, XVI-XVII asr ingliz dramaturgiyasida ko'p komponentli atributiv so'z birikmalarining lingvopoetikasi to'g'risida A.V. Kirtayeva, D. Bayron asarlarining lingvopoetik xususiyatlari xususida L.R. Krasnikova¹ kabi olimlarning qator tadqiqotlari mavjud.

Lingvopoetik muammolar xususida XX asrning 90-yillarida A.A. Lipgart ko'plab tadqiqotlarga rahbarlik qildi. U: filologik tadqiqotlarda lingvopoetika koseptual apparatini aniqlashtirish dolzarb masala, deya baholadi. Shu davr olimlari lingvopoetikaga badiiy matnga kiritilgan barcha lingvistik birliklar estetik ahamiyatga egaligi haqida ta'riflar berdilar.

Professor O.S. Axmanovanning fikricha, matn tahlili uch darajada amalga oshiriladi: semantik, metasemiotik va lingvopoetik². Semantik tahlilda

matndagi aniq tushuncha ifodalovchi birliklarga ahamiyat berish lozim. Chunki mavhum tushunchalar anglanmasdan turib ularning murakkabroq konnotativ xususiyatlarini tahlil qilish bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Aniq ma'no ifodalovchi tushunchalarning leksik tahlilidan tashqari zarurat yuzaga kelgan o'rinlarda morfologik va sintaktik darajadagi ayrim faktlar ham muhokama qilinadi. Metasemiotik tahlilda esa birliklar alohida emas, balki matn, jumla, ibora ichida lingvistik birliklardan foydalanish bilan bog'liq konnotativ xususiyatlar muhokama qilinadi. Matndagi birliklar semantik tahlilisiz nutqiy maqsadni aniqlash chalkashlikni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham, dastavval, lingvistik birliklar semantik tahlili, keyin metasemantik tahlili tadrijiy tarzda amalga oshirilishi lozim. Lingvistik birliklar ma'nosi, ularning gapdagi konnotativ xususiyatlari matn haqida umumiy xulosa hosil qilishni taqozo etadi. Bu esa lingvopoetik darajadagi tahlil hisoblanadi. V.Y.Zadornovanning fikricha³, dastlabki ikki daraja stilistika sohasiga tegishli bo'lib, bu holat semantik tahlil va qo'shimcha ekspressiv, hissiy va baholovchi atfenkalar yoki konnotatsiyalarni farqlashni o'z ichiga oladi. Tahlilni uchinchi darajasi esa matnning mafkuraviy, badiiy mazmunini ifodalovchi birliklarning nozik va murakkab estetik xususiyatlari bilan aloqador hisoblanadi.

Lingvopoetika – bu badiiy asarda qo'llanadigan lingvistik vositalarning umumiyliigi bo'lib, ular orqali yozuvchi o'zining mafkuraviy va badiiy qarashlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan estetik ta'sirga erishadi⁴. Estetik ta'sir, olimning fikricha, nafaqat asarda nima deyilgani, balki u qanday aytilganiga ham bog'liqdir. Bunda lingvopoetikaning maqsadi va vazifa chegaralari belgilanadi. Demak, lingvopoetik tahlilning maqsadi muallif tomonidan ma'lum bir lingvistik birlik og'zaki va badiiy ijod jarayonida qanday ishtirok etishini hamda birliklarning ma'lum bir kombinatsiyasi qay tarzda estetik effekt yaratishga olib kelishini aniqlashdan iboratdir.

Badiiy matnning shakliy va mazmunij jihati tadqiqi lingvopoetik usullarni taqozo etadi. Badiiy matnning

1 Липгарт А.А. Основы лингвопозитики. – М., 2013. – 168 с.; Липгарт А.А. Лингвопозитическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале англ. лит. 16 – 20 вв.): Дисс. ... д-ра филол.наук. [в 2 т.]. – М., 1996. – 656 с.; Мурашкина А.А. К проблеме лингвопозитического исследования повествовательных типов текста // Философия языка. Функциональная стилистика. Лингвопозитика. Сборник научных статей под ред. А.А. Липгарта и А.В. Назарчука. – М., 2004, №2. – С. 68-69.; Асанов В.Д. Лингвопозитическая функция смены стиха и прозы в творчестве Шекспира. – Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1988; Гаспарян С.К. Лингвопозитика образного сравнения. – Ереван. 1991. – 125 с.; Жунисбаева А.К. Лингвопозитическая характеристика образа литературного персонажа – Автореф. ... дисс. канд. филол.наук – М., 1987; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопозитического исследования. – Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1992. – 479 с.; Карпова Л.С. Лингвопозитика повествовательных типов в английских сонетах елизаветинского периода (на материале произведений Э.Спенсера, С.Дэниела, У.Шекспира). – Дисс. ...канд.филол.наук. . – М., 2009. – 270 с.; Киртаева А.В. Лингвопозитика многокомпонентных атрибутивных словосочетаний в английской драме XVI-XVII веков. – Дисс. ...канд. филол.наук. – М., 2001. – 200 с.; Красникова Л.В. Лингвопозитические особенности стихотворных циклов Т. Мура «Ирландские мелодии» и Дж.Г. Байрона «Еврейские мелодии». – Дисс. ...канд.филол.наук. – Москва, 2016. – 200 с.; Красникова Л.В. О стилистической и лингвопозитической специфике описательных стихотворений из цикла «Еврейские мелодии» Джордж Гордона Байрона. // Интеграция образования. Серия «Общая педагогика», Том 19, №2/2015. – С. 109-115.; Полякова Е.В. Стилистические и лингвопозитические особенности рассказов Г.Х.Манро. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2014; 2 Красникова Л.В. Лингвопозитические особенности стихотворных циклов Т. Мура «Ирландские мелодии» и Дж.Г. Байрона «Еврейские мелодии». – Дисс. ...канд.филол.наук. – Москва, 2016. – С. 14.;

Ахманова О.С. К вопросу о слове в языке и речи // Доклады и сообщения филологического факультета. Вып. 5. М., 1948.

3 Задорнова В.Я. Лингвопозитика. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. МАКС Пресс, 2005. Вып. 29. 160 с. ISBN 5-317-01330-5. 2005. – С. 115.

4 Qarang: Задорнова В.Я. Лингвопозитика. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. МАКС Пресс, 2005. Вып. 29. 160 с. ISBN 5-317-01330-5. 2005. – С. 116.

shakliy jihati stilistikada tahlil qilinadi hamda uning mazmuniy, badiiy-estetik ta'siri kabi tomonlari lingvopoetikaning tadqiq obyekti hisoblanadi. Y.V.Polyakovaning fikricha, O.S. Axmanova maktabi ilgari surgan lingvopoetika tushunchasi g'arb tilshunosligida stilistika deb yuritiladi. G'arb tilshunosligida lingvopoetika va lingvostilistika o'rtasida aniq farq yo'q. Har ikkisi ham badiiy matnda lingvistik birliklarning funksional jihati o'rganiladi⁵. Lingvopoetika adabiy nazariya, adabiy tanqid, adabiy tarix va lingvostilistika sohalariga doir muammolarni muhokama qiladi. Lingvopoetikaning nafaqat lingvistik shakl, balki matn mazmunini ham tadqiqi etishi uni adabiy tanqid yo'nalishiga yaqinlashtiradi. Olima lingvopoetika metodlarini tahlil qilib, ular uch darajada: lingvopoetik tabaqalanish, lingvopoetik taqqoslash va matn turlari lingvopoetikasi – tadqiq etiladi, degan xulosaga keldi. U G.X. Manro nutqini lingvopoetik tadqiq qilar ekan, quyidagicha xulosa hosil qildi⁶: matnda ibora va turli tobe, hokim birikishlar asosida muallif murakkab g'oyani yorqin va esda qolarli tarzda ifodalay olgan. Ketma-ket tobe sintaktik aloqalar esa nutqqa qo'shimcha mavhum yoki assotsiativ maydonni yuzaga keltirgan.

5 Полякова Е.В. Стилистические и лингвопоэтические особенности рассказов Г.Х. Манро. Автореф. ... канд. филол. Наук. – С. 11.

6 Qarang: Полякова Е.В. Стилистические и лингвопоэтические особенности рассказов Г.Х. Манро. Автореф. ... канд. филол. Наук. – С. 16.

L.V. Krasnikova xulosalariga ko'ra, badiiy matnlar shakli va mazmuni birligida tahlil qilinadigan filologiya bo'limi sifatida lingvopoetikaning vazifasi estetik ta'sir yaratish bilan bog'liq holda matnga kiritilgan lingvistik birliklarning roli va funksiyasini aniqlashdan iboratdir⁷. Demak, lingvistikaning amaliy yo'nalishi sifatida lingvopoetika sohasi yuzaga keldi. Uning vazifasi badiiy matnda muallifning nutqiy maqsadini ifodalovchi lingvistik birliklarni funksional jihatlarini ochib berishdan iboratdir. Ushbu jarayonda badiiy ta'sirni ifodalovchi lingvistik vositalarning turi va ularning detotativ, konnotativ funksiyalarini tadqiq etish kabi jihatlar muhim hisoblanadi.

Tilshunoslikning stilistika sohasida lingvistik birliklar shaklan tadqiq etiladi, ammo birliklarning yondosh funksiyalari, ifoda xususiyatlari kabi masalalar lingvopoetik tahlilni talab etadi. Muallif matnni yaratishda lingvistik vositalardan foydalanish barobarida ularning axborot tashish funksiyalarini ham hisobga oladi. Demak, badiiy matn ifodasi ikki qatlam: resurs sifatida lingvistik birliklardan foydalanish, estetik ta'sir kuchini ifodalash maqsadida ularning konnotativ funksiyalarini namoyon etishdan iboratdir.

7 Красникова Л.В. Лингвопоэтические особенности стихотворных циклов Т. Мура «Ирландские мелодии» и Дж.Г. Байрона «Еврейские мелодии». – Дисс. ...канд.филол.наук. – Москва, 2016. – С. 114.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале англ. лит. 16 – 20 вв.): Дисс. ... д-ра филол.наук: [в 2 т.]. – М., 1996. – 656 с.
2. Мурашкина А.А. К проблеме лингвопоэтического исследования повествовательных типов текста // Философия языка. Функциональная стилистика. Лингвопоэтика. Сборник научных статей под ред. А.А. Липгарта и А.В. Назарчука. – М., 2004, №.2. – С. 68-69.
3. Асанов В.Д. Лингвопоэтическая функция смены стиха и прозы в творчестве Шекспира. – Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1988.
4. Гаспарян С.К. Лингвопоэтика образного сравнения. – Ереван. 1991. – 125 с.; Жунисбаева А.К. Лингвопоэтическая характеристика образа литературного персонажа – Автореф. ... дисс. канд. филол.наук – М., 1987.

Nargiza TULANOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
"O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
nargizatulanova6@gmail.ru*

ANTROPONIMLARNING BADIY IFODASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida talmeh (atoqli ot) san'atining o'rnini, turlari va semantik-stilistik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Talmehning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari va adabiyotda qo'llanish usullari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, Shavkat Rahmon va Iqbol Mirzo she'rlari misolida antroponimlarning badiiy ifodasi, ma'no kengayishi va zamonaviy tafakkur bilan uyg'unligi ko'rsatilgan. Maqolada talmehning obraz yaratishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy san'atlar, talmeh, antroponim, toponim, atoqli otlar, katarsis, o'xshatish, dallilash, tasvir, kishi ismlari, tarixiy shaxslar, tarixiy hodisalar.*

Аннотация: в данной статье всесторонне анализируются место, виды, а также семантико-стилистические особенности поэтического приёма талмеха (употребления собственных имён) в узбекской классической и современной литературе. На основе научных источников освещаются теоретические основы талмеха, его структурные компоненты и способы функционирования в художественном тексте. Кроме того, на примере поэзии Шавкат Рахмон и Икбол Мирзо раскрываются особенности художественного выражения антропонимов, расширение их семантики и их гармония с современным художественным мышлением. В статье также выявляется роль талмеха в создании художественного образа.

Ключевые слова: *поэтические приёмы, талмех, антропоним, топоним, собственные имена, катарсис, сравнение, аргументация, изображение, личные имена, исторические личности, исторические события.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the role, types, and semantic-stylistic features of the literary device of *talmeh* (the use of proper names as artistic allusion) in Uzbek classical and contemporary literature. The theoretical foundations of *talmeh*, its structural components, and its functional application in literary texts are examined on the basis of scholarly sources. Furthermore, drawing on the poetry of Shavkat Rahmon and Iqbol Mirzo, the study demonstrates the artistic expression of anthroponyms, the expansion of their semantic scope, and their integration with modern literary thinking. The article also elucidates the role of *talmeh* in the creation of artistic imagery.

Key words: *literary arts, talmeh, anthroponym, toponym, proper names, catharsis, simile, argumentation, imagery, personal names, historical figures, historical events.*

Kirish. Hozirgi o'zbek she'riyati lingvostilistik jihatdan mumtoz poetik an'ana va zamonaviy estetik tafakkurning sintezi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda badiiy san'atlar faqat estetik bezak vositasi emas, balki ma'no yaratishning asosiy mexanizmi sifatida faollashgan. O'zbek mumtoz adabiyotida ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan turli voqealar, inson hayotiga oid hodisa va tarixlar badiiy san'at usulida keng qo'llangan. Mavjud lisoniy vositalarning leksik-semantik va stilistik imkoniyatiga tayangan holda ishora usuli bilan qator tarixiy hodisalar asarda bir so'z yoki atama vositasida tasvirlangan. Shunday san'atlardan biri talmehdir.

N. Husanov antroponimlarning badiiy san'atlarni yuzaga keltirishdagi rolini o'rganar ekan, kishi ismlari quyidagi san'atlarda ishtirok etishini qayd qilgan:

1. Ramziy tasvir usullari (istiora, tashxis, intoq)
2. Qiyosiy o'xshatish usullari (tashbih, talmih, laf va nashr, tanosub)
3. Fikrni dalillash usullari (husni ta'lil, irsoli masal)

4. Sintaktik-semantik usullar (tardi aks, tarse', ta'did, qaytariq)

5. Emotsional-mubolag'ali tasvir usuli (mubolag'a, ruju', nido)

6. So'zning ichki va tashqi formasi bilan aloqador san'atlar (tajnis, lutf, ittifoq, ishtiyoq, qalb)

7. Antonimlarga asoslangan usul (tazod)

8. Harfiy san'atlar (muammo, istihroj) [1]. [N. Husanov. XV asr O'zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. II kitob. – Toshkent: Fan, 1997. 27-28 betlar].

Talmeh ("nazar solmoq") [A. Hojiahmedov. Mazkur san'atni talmih deb atagan] she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir [2] [A. Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. 43-bet]. Ushbu san'at asosida yaratilgan she'rlarda tarixiy hodisalar ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib eslanadi.

Asosiy qism. Zamonaviy shoirlar atoqli otlar vositasi orqali keng ma'noni ixcham lisoniy shaklda jamlashga intilib, tarixiy-ma'naviy kontekstni faollashtiradi, matnda ochiq aytilmagan, ammo seziluvchi ma'no qatlamini hosil qiladi. Ko'pincha, muallif hammaga ma'lum bo'lgan milliy qahramon yoki yaxshilik, saxiylik timsoliga aylangan tarixiy shaxslarning nomini she'r tarkibida qo'llashi ularning amalga oshirgan ishlari ma'lum bir g'oya, holatni obrazli qilib ta'riflaydi:

Zabt etgani kelmadim seni,
 Yeng ichida yo'qdir pichog'im.
 Men **Iskandar, Chingizxon** emas,
 Osmon kabi ochiq quchog'im.

(Shavkat Rahmon, "Sayohat")

Tarixda insonlar boshiga ne-ne kulfatlar solgan *Iskandar, Chingizxon* istilolarining ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini ularning ismini keltirish bilan o'quvchi ko'z oldida namoyon bo'ladi. O'quvchi tasavvurida tarixni gavdalanitirish uchun **antroponimlar** ma'lum g'oyaviy-tarixiy manba hisoblanadi. Binobarin, keltirilgan antroponimlarning butun semantik doirasi uning badiiy matn ichidagi ma'nosida mujassamlashgan.

Iskandar, Chingizxon tomonidan yondirib yuborilgan shahar va qishloqlardagi tutunning qora soyasiga ishora sifatida "Osmon kabi ochiq quchog'im" o'xshatishi orqali yangi semantik tizim yaratish imkonini bergan.

"Talmeh uchun vosita bo'la oluvchi, o'z g'oyasi, fikrini obrazli ifodalay oladigan lisoniy vositalarni har bir adib maqsadga muvofiq ravishda tanlaydi. Shoirlar mumtoz she'riyatimizda qayta-qayta ishlatilgan an'anaviy "material" dan foydalanganda ularning yangi qirralarini ochishga yangicha talqin qilishga intiladilar [3] [Yo. Ishoqov. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2007. 72-bet].

Shavkat Rahmon va Iqbol Mirzolarining she'rlarida talmeh san'ati vositalari qayd qilingan fikrning to'g'riligini tasdiqlaydigan dalillar anchagina. Quyida ularning ba'zilarini keltiramiz:

Talmeh hosil qilishda shoir tarixiy shaxslarning nomlaridan foydalanadi:

Netay zanglab ketgan bu saksovullar,
 Tirik bir ilonday turadi og'ir –
 Turar **Jaloliddin Manguberding**
 Sahroga otilgan o'zligi kabi.

(Shavkat Rahmon, "Qizil qumda bir tun")

"Ijodkorning real borliqdagi yurish-turishi uning kimligini ko'rsatmaydi. Odamlarning asl qiyofasi ularning niyatida aks etadi. Ulug' bir alloma aytganidek, "til insoniyatga uning asl maqsadini yashirish uchun berilgan", xolos. Asarda aks etgan alohida dunyo biz uchun ideal dunyoga aylanadi. Biz o'zimizni aynan o'sha dunyodagina baxtli his qilamiz. Biz mutolaa jarayonida ruhlanamiz, ilhomlanamiz va o'z-o'zimizdan buyuk ishlarga chog'lanamiz, zero

bilamizki, "G'oyaning ulug' qo'ng'irog'iga zang urish vaqti keldi". Aynan shu holatni Aristotel katarsis deb atagan edi [4] [M.Tojiboev. Badiiy asarning so'zsiz tarjimasi // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2018 yil, 4-son, 103-106 betlar].

Ulug' ajdodlarning mavjudligi, ulardagi farzandlarning vorisiyligi ifodalanadi.

Ertaga
 Ust boshin qoqib **Er To'nga**
 Tulporiga urar egar jabdug'ini.
 Ertaga Ketamiz ertakka
 Yoshu qari
 Quyoshga talpingan titrak go'dakka,
 Jilmayib qaraydi **Solih Qoshg'ariy**.

(Iqbol Mirzo, "Janggoh").

"Yurakda jo'sh urayotgan his-tuyg'ular umumfazoyiy global muammo bo'lib ko'rinadi, biz har bir ishimiz, har bir qilmishimiz uchun butun insoniyat oldida o'zimizni mas'ul sezamiz. Binobarin, jamiyatga zid ishlarni qilmaslikka intilamiz, o'zimizni ruhan ulkan taqdirga tayyorlaymiz. Har qanday azob-uqubatga, har qanday sinovga ruhan tayyorlanamiz, o'zimizda ulkan sabr-toqat, ulkan kuch va matonatni eng avvalo ruhimizda shakllantiramiz. Bunday transformatsiya o'quvchi-kitobxonda ijodiylikni yaratadi, takomillashtiradi, uni ruhan chiniqtiradi. Uning vositasida buyuk adabiy asarlar har bir inson tasavvurida yangi syujet holatida aks etadi. Asar qahramonlarining yuksak insoniy fazilatlarini tarannum etuvchi faoliyatlari o'quvchida mana shunday faoliyatga ruhiy ishtiyoqni uyg'otadi, uni ulkan hayotga munosib shaxs bo'lishga undaydi [5] [M.Tadjibaev. Badiiy matnning germeneytik tavsifi. – Toshkent: Universitet, 2025. 44-45 betlar].

Ona-yerning qadimiyligi, ko'hna tarixi, moziyga daxldorlik g'oyalarini bayon qilmoq uchun *Go'ro'g'li, Namoz, Xudoyor* kabi atoqli otlardan foydalanadi:

Bu yerdan oh urib o'tgan **Go'ro'g'li**,
 Bu yerdan ot surib o'tgandir **Namoz**.
 Bu yerga qismatning uchta zo'r o'g'li
 Piyoz ekayapmiz, piyoz!
 "Qarg'ish tekkan yer bu!"-degan **Xudoyor**

(Iqbol Mirzo, "Janggoh")

Birinchi misolda saksovul obrazi Osiyo sahrolarida asrlar osha yashayotgan xalqni anglatga, uning ilonga o'xshatishida ko'k turk hoqonlaridan biri *Mo'g'ilonga* ishora qiladi. Shoir o'xshatishlar orqali turkiy xalqlarning sahradagi hayoti, ularning ozodlik va erk yo'lidagi kurashi o'quvchi ko'z o'ngida gavdalangan.

Jaloliddin Manguberdi shaxsining she'rga kiritilishi *Chingizxon* bosqini fojialarini, kuli ko'kka sovurilgan shahar va qishloqlarni gavdalanitiradi.

Keyingi misolda ham milliy qahramon alp *Er To'nga* nomining zikr etilishi eronliklar tomonidan *Afrosiyob* deb atalgan mashhur turk lashkarboshisining yurt ozodligi

yo'lidagi kurashlarini eslatadi. *Koshg'ariy*ning butun odob-axloq haqidagi aqidalari birgina antroponimni qo'llashi bilan o'quvchi ongida to'laligicha tasavvur uyg'otadi. Kishi ismlari orqali talmeh yaratishda birgina ishoraning o'zi kamlik qiladi.

Oxirgi misolda shoir kuzatilayotgan ma'noni to'ldirish, uni yorqinroq ochib berish uchun qo'shimcha vositalarga murojaat qilgan. Shoir folklor qahramoni, jasorat va isyon ramzi *Go'ro'g'li*, o'zbek milliy ozodligi yetakchisi *Namoz*, o'z yurtidan ajralib, uzoqda halok bo'lgan siyosiy-axloqiy inqiroz timsoli *Qo'qon xoni Xudoyorni* tilga olishi natijasida xalq og'zaki ijodi namunalari yoki tarixiy kitoblarda keltirilgan voqealarga ishora qiladi. "Ma'lumki, Dikens, Xamsun, Peymont Konrad, Gorkiy hayotda xilma-xil mashaqqatlarni ko'rganlar, uning turfa rang sinovlariga dosh berishga majbur bo'lganlar. Xo'sh, mana shu mashaqqatlar va sinovlar ularning ijodi uchun juda qimmatli material bergan emas, deb kim ayta oladi? Uitmendan to bugunga qadar butun Amerika adabiyoti haddan tashqari g'ayrioddiy yo'llardan o'tib kelgan odamlar tomonidan yaratilgandir. Ular shaxsiy hayotlarida shunaqa ishlarni va sharoitlarni ko'rganlarki, bunaqasini boshqa mamlakatlardagi ko'pgina yozuvchilar hatto tushlarida ham ko'rgan emas. Ular o'z faoliyatlari bilan o'z asarlari uchun xomashyo barpo etishgan [6]" [Yan. Parandovskiy. So'z kimyosi // Jahon adiblari adabiyot haqida. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. 291-bet].

Ma'lumki, *O'lmas Koshey* obrazi salbiy obraz bo'lib, u faqat yomonlik illatining elchisi sifatida barchaga tanish:

O'lmas Koshey kabi bu jaholatning

Mingta kallasi bor,

Vujudi bitta.

(Shavkat Rahmon, "Maslahat")

San'atkor shoir Shavkat Rahmon she'rlari insonlarni yashash uchun kurashga undaydi, yashaganda ham yaxshi yashash haqida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, yomon illatlardan

qutulish choralari haqida maslahat beradi. Yuqoridagi she'rda jaholatning vujudi bitta, lekin kallasi mingta ekanligi, lirik qahramon obdon o'ylab, xalq ta'biri bilan aytganda, "yetti o'lchab bir kesishi" kerak, shundagina uning joni qayerda ekanligi oydinlashadi, ya'ni puxta o'ylangandagina muammoning yechimi topiladi degan fikrni ilgari surgan. "Badiiy matnda nafaqat zamonaviy, balki zaruriyatga ko'ra tarixiy unsurlar ham estetik vazifaning xizmatida bo'ladi [7]" [M.Yo'ldoshyev. Badiiy matnning lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 102-bet]. Shoirning yana bir she'rda saxiylik ulug'lanadi:

Ishonmasang qara ko'zimga

Ko'zlarimda yashaydi **Hotam**.

Hotam toy obrazi mumtoz adabiyot asarlarida saxiylik ramzidir. Saxiylik haqida gap ketganda, albatta, *Hotam* obrazi tilga olinadi. Baytda muallif yomon niyatli insonlarning ko'zlaridan ma'lum bo'lishini ta'kidlab, ko'zlarimga yaxshilab qara, mening niyatim pok demoqchi bo'lgan.

Xulosa. Xullas, talmeh o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalardan biri. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham tarixiy voqealarni lirik asarlar zamiriga singdirib, ulardan ma'no bo'rttirish va qisqalikka erishishga mo'ljallangan talmeh san'atining namunalari hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'aviy imkoniyatlarini to'ldirgan.

Talmeh san'atida tarixiy yoki afsonaviy shaxs, joy nomi yoki voqea-hodisalar ro'y bergan sana va boshqalarni eslatish yo'li bilan tilda ortiqcha izoh, bayondan xalos bo'linadi. Eslatilgan antroponim, toponim va boshqa leksik-semantik birliklarning zamirida ko'zda tutilgan ma'no namoyon bo'lgan. Tarixiy xodisalar va voqealarni badiiy asar tarkibiga kiritish jarayonida antroponimlarni qo'llash orqali so'zda ixchamlikka erishish yo'li bilan hosil qilingan san'atlar til lug'at tizimining boyishi uchun xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanov N. XV asr O'zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. II kitob. – Toshkent: Fan, 1997. 27-28 betlar.
2. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. 43-bet.
3. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2007. 72-bet.
4. Tojiboev M. Badiiy asarning so'zsiz tarjimasi // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2018-yil, 4-son, 103-106 betlar.
5. Tadjibaev M. Badiiy matnning germeneytik tavsifi. – Toshkent: Universitet, 2025. 44-45 betlar.
6. Parandovskiy Yan. So'z kimyosi // Jahon adiblari adabiyot haqida. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B. 291.
7. Yo'ldoshyev M. Badiiy matnning lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 102-bet.

Ozoda YOZDONQULOVA,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: o.yozdonqulova@dtpi.uzORCID: <https://orcid.org/0009-0000-7082-0248>

METONIMIYA VA SINEKDOXANING ANTONOMAZIYA BILAN SEMANTIK-FUNKSIONAL MUNOSABATI

Annotatsiya: mazkur maqolada metonimiya, sinekdoxa va antonomaziya o'rtasidagi semantik hamda funksional munosabatlar zamonaviy tilshunoslik va lingvopoetika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu badiiy tasvir vositalari o'zaro yaqin hodisalar sifatida qaralsa-da, ularning nominativ imkoniyatlari, semantik ko'chish mexanizmi va uslubiy vazifalari bir-biridan muayyan darajada farqlanadi. Tadqiqot natijalari ushbu stilistik vositalarning o'zaro aloqadorligini aniqlash, antonomaziyaning semantik tabiati haqidagi ilmiy qarashlarni boyitish hamda badiiy matnning lingvopoetik tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: antonomaziya, metonimiya, sinekdoxa, semantika, lingvopoetika, nominatsiya, semantik ko'chish, uslubiyat, badiiy matn, jadid adabiyoti.

Аннотация: в данной статье анализируются семантические и функциональные связи между метонимией, синекдохой и антономазией с точки зрения современной лингвистики и лингвопоэтики. Хотя эти средства художественной образности считаются тесно связанными явлениями, их номинативные возможности, механизмы семантического переноса и стилистические функции в определенной степени различаются. Результаты исследования служат для определения взаимосвязи этих стилистических средств, обогащения научных взглядов на семантическую природу антономазии и совершенствования методологии лингвопоэтического анализа художественных текстов.

Ключевые слова: антономазия, метонимия, синекдоха, семантика, лингвопоэтика, номинация, семантический перенос, методология, литературный текст, джадидская литература.

Annotation: this article analyzes the semantic and functional relationships between metonymy, synecdoche, and antonomasia from the point of view of modern linguistics and linguopoetics. Although these means of artistic imagery are considered to be closely related phenomena, their nominative capabilities, semantic transfer mechanisms, and stylistic functions differ to a certain extent. The results of the study serve to determine the interrelationship of these stylistic means, to enrich scientific views on the semantic nature of antonomasia, and to improve the methodology of linguopoetic analysis of artistic texts.

Key words: antonomasia, metonymy, synecdoche, semantics, linguopoetics, nomination, semantic transfer, methodology, literary text, modern literature.

Introduction.

Tilning leksik-semantik tizimi nominativ birliklarning shakllanishi, rivojlanishi va funksional imkoniyatlarini belgilovchi murakkab munosabatlar majmuidan iborat bo'lib, unda ma'no ko'chish hodisalari alohida o'rin egallaydi. So'z manosining metafora, metonimiya, sinekdoxa va antonomaziya kabi usullar orqali ko'chishi tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan bir qatorda inson tafakkuri, milliy-madaniy tajribasi va kommunikativ ehtiyojlari bilan ham chambarchas bog'liq. Shu bois mazkur hodisalarni faqat stilistik vosita sifatida emas, balki tilning nominativ tizimi hamda semantik taraqqiyotini ta'minlovchi lisoniy mexanizmlar sifatida o'rganish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Jahon tilshunosligida ma'no ko'chish hodisalari semasiologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmatolingvistika va lingvopoetika nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, metonimiya, sinekdoxa va antonomaziyaning o'zaro munosabati hanuzgacha bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotlarda antonomaziya metonimiyaning alohida ko'rinishi sifatida talqin qilinsa, boshqalarida u metafora yoki boshqa ko'chim turlari bilan uzviy bog'liq mustaqil uslubiy hodisa sifatida baholanadi. Natijada antonomaziyaning semantik tabiati, uning metonimiya va

sinekdoxa bilan chegaradoshlik nuqtalari hamda ularni farqlovchi mezonlar yuzasidan yagona ilmiy konsepsiya shakllanmagan.

O'zbek tilshunosligida ham metonimiya va sinekdoxaning nazariy asoslari, ularning leksik-semantik hamda uslubiy xususiyatlari bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Antonomaziya masalasi ham ayrim stilistik va lingvopoetik tadqiqotlarda tilga olingan bo'lsa-da, ushbu hodisalarning o'zaro semantik-funksional munosabatini tizimli ravishda yoritishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Ayniqsa, antonomaziyaning metonimik va sinekdoxik asosda yuzaga kelish mexanizmlari, ularning nominativ tabiatidagi umumiy hamda differensial belgilar, shuningdek, badiiy matnda bajaradigan lingvopoetik vazifalari yetarli darajada ilmiy umumlashtirilmagan.

Ma'no ko'chish hodisalari o'rtasidagi munosabatni aniqlash faqat nazariy ahamiyat kasb etmaydi. Ularning semantik chegaralarini belgilash badiiy matn interpretatsiyasi, uslubiy vositalar tasnifi, izohli va uslubiy lug'atlar tuzish, matn lingvistikasi hamda kognitiv semantika yo'nalishlarida ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan metonimiya, sinekdoxa va antonomaziya o'rtasidagi semantik-funksional bog'liqlikni kompleks tahlil qilish zamonaviy o'zbek tilshunosligining dolzarb ilmiy vazifalaridan biridir.

Materials and Methods

Mazkur maqolada metonimiyasinekdoxaning antonomaziya bilan semantik-funksional munosabati tizimli yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tahlil jarayonida ushbu hodisalarning nominativ mexanizmlari, semantik ko'chish modellari, uslubiy imkoniyatlari va lingvopoetik funksiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek badiiy adabiyoti, publitsistik matnlar va xalq tili materiallari asosida antonomaziyaning metonimik hamda sinekdoxik asosda shakllanishi, ularning o'zaro kesishuvchi va farqlanuvchi jihatlari ilmiy dalillar yordamida yoritiladi. Tadqiqot natijalari antonomaziyaning til tizimidagi o'rnini aniqlashtirish, ma'no ko'chish hodisalarining tasnifini takomillashtirish hamda lingvopoetik tahlil metodologiyasini boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-semantik, lingvopoetik hamda konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Metonimiya, sinekdoxa va antonomaziya o'ld nazariy qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va differensial belgilari aniqlandi. Shuningdek, semantik tahlil yordamida antonomaziyaning metonimik va sinekdoxik asosda shakllanish mexanizmi yoritildi. Tadqiqotning nazariy manbalarini o'zbek va xorijiy tilshunos olimlarning ishlari tashkil etdi.

Results

Tilshunoslikda metonimiya va antonomaziya o'rtasidagi munosabat yuzasidan yagona ilmiy qarash shakllanmagan. Buning asosiy sababi antonomaziyaning ayrim ko'rinishlari metonimik ko'chishga juda yaqin bo'lib, ayrim holatlarda esa undan sezilarli darajada farqlanishidir. Natijada ayrim tadqiqotlarda antonomaziya metonimiyaning xususiy turi sifatida baholansa, boshqalarida u mustaqil stilistik hodisa sifatida talqin qilinadi (Hojiyev, 2002: 87). Mazkur holat antonomaziyaning semantik maqomini aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, metonimiya va antonomaziya o'rtasidagi o'xshashlik, avvalo, nominativ ko'chish mexanizmining dastlabki bosqichida namoyon bo'ladi. Har ikki hodisada ham nomning yangi referentga ko'chishi tasodifiy emas, balki obyektlar o'rtasidagi real yoki ijtimoiy aloqadorlikka asoslanadi. Biroq aynan shu bosqichdan keyin antonomaziyaning mustaqil semantik tabiati namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, **"Navoiyni mutolaa qildim"** birikmasida **Navoiy** leksemi muallif yaratgan

asarlari ma'nosida qo'llangan. Bu yerda semantik ko'chish muallif va asar o'rtasidagi obyektiv aloqadorlikka asoslanadi hamda nominativ almashinish metonimiya doirasida qoladi. Ammo **"U zamonamizning Navoiysi"** jumlasida **Navoiy** nomi endi tarixiy shaxsni ham, uning asarlarini ham anglatmaydi. Nomning semantik markazi buyuk iste'dod, badiiy tafakkur va milliy adabiyot taraqqiyotiga xizmat qilgan ijodkor konseptiga ko'chadi. Demak, mazkur birlikda metonimik aloqadorlik mavjud bo'lsa-da, u baholovchi va obrazli nominatsiya bilan murakkablashadi.

Xulosa. Metonimiya, sinekdoxa va antonomaziya o'rtasidagi semantik-funksional munosabatlarni tahlil qilish ushbu hodisalarning ma'no ko'chish tizimida o'zaro bog'liq bo'lsa-da, lingvistik tabiati va funksional vazifasiga ko'ra mustaqil lisoniy birliklarni ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida antonomaziyaning yuzaga kelishida metonimik aloqadorlik hamda sinekdoxik umumlashtirish elementlari muayyan darajada ishtirok etishi aniqlandi. Biroq mazkur hodisalar antonomaziyaning semantik mohiyatini to'liq belgilamaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, antonomaziya nominativ ko'chish oddiy referensial almashinish bilan cheklanmaydi. Unda tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajriba asosida shakllangan konseptual belgilar yangi kommunikativ vaziyatga ko'chiriladi. Natijada atoqli ot o'zining birlamchi denotativ ma'nosidan uzoqlashib, baholovchi, tavsiflovchi hamda ekspressiv semantikani ifodalovchi nominativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda antonomaziyaning metonimiya yoki sinekdoxaning xususiy ko'rinishi sifatida emas, balki ularning semantik imkoniyatlarini o'zida uyg'unlashtiruvchi, biroq mustaqil nominativ va lingvopoetik xususiyatlarga ega bo'lgan integrativ semantik model sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli degan xulosaga kelindi.

Shuningdek, maqolada ilgari surilgan nazariy mulohazalar antonomaziyaning semantik-funksional xususiyatlarini o'rganishda differensial yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar o'zbek tilshunosligida ma'no ko'chish hodisalarini nazariyasini rivojlantirish, lingvopoetik tadqiqotlarni chuqurlashtirish hamda badiiy matnning semantik tahliliga oid keyingi ilmiy izlanishlar uchun muayyan nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳоҗиев А. **Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати**. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 164 б.
2. Раҳматуллаев Ш. **Ҳозирги адабий ўзбек тили**. – Тошкент: Университет, 2006. – 476 б.
3. Миртожиев М. **Ўзбек тили семасиологияси**. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – 288 б.
4. Нурмонов А. **Танланган асарлар. I жилд. Назарий тилшунослик масалалари**. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 412 б.
5. Маҳмудов Н. **Ўзбек тилининг назарий грамматикаси ва нутқ маданияти масалалари**. – Тошкент: Ma'naviyat, 2013. – 312 б.
6. Йўлдошев Б. **Бадий матн лингвopoэтикаси**. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – 286 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I–V жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006–2008.

Gavhar RAXMONOVA,
 Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri
 Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
 Xorijiy tillar kafedrasida assistent o'qituvchisi

FRAZEOLGIK DERIVATSIYANING LINGVOMADANIY VA TARJIMAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlari lingvomadaniy hamda tarjimaviy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda derivatsion o'zgarishlarning semantik tuzilishga va tarjima ekvivalentligini ta'minlashga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda frazeologik derivatsiyaning madaniy omillar bilan uzviy bog'liqligi hamda tarjima jarayonidagi funksional xususiyatlari tizimli asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *frazeologik derivatsiya, frazeologik birlik, lingvomadaniyat, tarjimashunoslik, semantik transformatsiya, derivatsion jarayon, madaniy konnotatsiya, ekvivalentlik, idiomatik ifoda, qiyosiy tahlil.*

Аннотация: в данной статье анализируются деривационные особенности фразеологических единиц узбекского и английского языков с лингвокультурной и переводческой точек зрения. В исследовании раскрывается влияние деривационных изменений на семантическую структуру и достижение переводческой эквивалентности. Научная новизна работы заключается в системном анализе взаимосвязи фразеологической деривации с культурными факторами и функциональными особенностями, проявляющимися в процессе перевода.

Ключевые слова: *фразеологическая деривация, фразеологическая единица, лингвокультура, переводоведение, семантическая трансформация, деривационный процесс, культурная коннотация, эквивалентность, идиоматическое выражение, сравнительный анализ.*

Annotation: this article examines the derivational characteristics of phraseological units in Uzbek and English from linguistic-cultural and translation perspectives. The study explains the influence of derivational changes on semantic structure and the achievement of translation equivalence. The scientific novelty of the research lies in its systematic analysis of the relationship between phraseological derivation, cultural factors, and the functional features manifested during the translation process.

Key words: *phraseological derivation, phraseological unit, linguoculture, translation studies, semantic transformation, derivational process, cultural connotation, equivalence, idiomatic expression, comparative analysis.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini, xalqning dunyoqarashi va tafakkurini aks ettiruvchi muhim lisoniy hodisalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Frazeologik birliklar nafaqat tayyor va turg'un til birliklari, balki til taraqqiyoti davomida turli ichki va tashqi omillar ta'sirida o'zgarishga uchraydigan dinamik tizim ham hisoblanadi. Ana shunday o'zgarishlarning muhim ko'rinishlaridan biri **frazeologik derivatsiya** bo'lib, u mavjud frazeologik birliklarning strukturaviy, semantik va funksional jihatdan yangilanish jarayonini ifodalaydi. Bugungi globallashuv, madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima amaliyotining rivojlanishi sharoitida frazeologik derivatsiyani lingvomadaniy hamda tarjimaviy nuqtayi nazardan tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.[2:79, 6:110]. Frazeologik derivatsiya natijasida hosil bo'ladigan yangi shakllar tilning ichki imkoniyatlarini namoyon

etish bilan birga, muayyan xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlar va madaniy stereotiplarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, o'zbek tilidagi **ko'ngli tog'dek ko'tarildi** frazeologizmi quvonch va ruhiy yengillikni ifodalasa, ingliz tilidagi **to be on cloud nine** xuddi shu mazmunni bildiradi. Biroq ushbu birliklarning obraz manbai turlicha: o'zbek tilida tog' timsoli barqarorlik va ulug'vorlikni anglatadi, ingliz tilida bulut obrazi ruhiy yuksalish ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, semantik yaqinlik mavjud bo'lsa-da, lingvomadaniy asoslar farqlanadi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilishda faqat lug'aviy ma'no emas, balki ularning madaniy konnotatsiyasi ham hisobga olinishi lozim.

Yana bir misol sifatida o'zbek tilidagi **tilini tishlamoq** frazeologizmi ehtiyotsizlik bilan aytilgan fikrdan afsuslanish yoki gapni to'xtatishni bildiradi. Ingliz tilida esa shu mazmunga yaqin **to bite one's tongue** frazeologizmi

qo'llanadi. Har ikki birlik bir xil obrazga ega bo'lsa-da, ularning qo'llanish chastotasi, uslubiy qiymati va kommunikativ vazifasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa frazeologik derivatsiya va tarjima jarayonini kompleks lingvistik hamda lingvomadaniy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi [3:70].

Frazeologik derivatsiya masalalari jahon tilshunosligida keng o'rganilgan bo'lib, Charles Bally, Viktor Vinogradov, Alexander Kunin, Wolfgang Fleischer kabi olimlarning ilmiy qarashlari mazkur yo'nalishning nazariy asoslarini shakllantirgan. O'zbek tilshunosligida esa Shavkat Rahmatullayev, Baqo Yo'ldoshev va boshqa olimlar frazeologiya, semantika hamda frazeologik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini chuqur tadqiq etganlar. Biroq frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy va tarjimaviy jihatlarini o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida kompleks ravishda yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar hanuz yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion xususiyatlarini lingvomadaniy hamda tarjimaviy nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilish, derivatsion o'zgarishlarning semantik tuzilishga, madaniy mazmunga va tarjima ekvivalentligini ta'minlashga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillarida qo'llaniladigan frazeologik birliklar, ularning derivatsion shakllari, semantik transformatsiyalari, lingvomadaniy xususiyatlari hamda badiiy va publitsistik matnlardagi tarjima namunalari tanlandi.

Tadqiqot predmeti frazeologik derivatsiyaning struktur-semantik mexanizmlari, lingvomadaniy omillari va ularning tarjima jarayonida namoyon bo'ladigan ekvivalentlik hamda funksional moslik xususiyatlaridan iborat [3:91].

Tadqiqotning nazariy asoslari. Tadqiqotning nazariy asosini frazeologiya, derivatsion tilshunoslik, lingvomadaniyat va tarjimashunoslik sohalarida yaratilgan ilmiy konsepsiyalar tashkil etadi. Jumladan, Charles Ballyning ekspressiv stilistika haqidagi qarashlari, Viktor Vinogradovning frazeologik birliklar tasnifi, Alexander Kuninning ingliz frazeologiyasi nazariyasi, Vladimir Teliyaning lingvomadaniy konsepsiyasi hamda Eugene Nidaning tarjimada dinamik ekvivalentlik nazariyasi mazkur tadqiqotning asosiy metodologik tayanchi hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida Shavkat Rahmatullayev va Baqo Yo'ldoshevlarning frazeologiya sohasidagi ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy bazasini boyitadi [4:112].

Mazkur nazariy yondashuvlar asosida frazeologik derivatsiyaning til tizimidagi o'rni, uning lingvomadaniy mohiyati hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik o'zgarishlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi va usullari. Mazkur tadqiqot frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy hamda tarjimaviy xususiyatlarini kompleks o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy tilshunoslikning qiyosiy, kognitiv, lingvomadaniy va tarjimashunoslik yondashuvlari metodologik asos sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida frazeologik birliklarning derivatsion taraqqiyoti, ularning semantik transformatsiyasi, madaniy konnotatsiyasi va tarjimada ekvivalentlikni ta'minlash mexanizmlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi [5:32].

Tadqiqotning metodologik asosini frazeologiya nazariyasi, derivatsion tilshunoslik, lingvomadaniyat hamda tarjimashunoslikning fundamental tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning faqat strukturaviy yoki semantik jihatlarini emas, balki ularning milliy-madaniy mazmuni, kommunikativ vazifasi va tarjima jarayonidagi funksional mosligi ham kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Bunday yondashuv o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning umumiy hamda farqli xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi [6:78]. Tadqiqot davomida bir-birini to'ldiruvchi quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Qiyosiy-komparativ metod yordamida o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion modellari, strukturaviy qurilishi hamda semantik rivojlanishidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Ushbu metod ikki tildagi frazeologik derivatsiyaning universal va milliy xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tavsifiy (deskriptiv) metod asosida frazeologik birliklarning derivatsion shakllanishi, ularning grammatik va semantik o'zgarishlari izchil tavsiflandi. Mazkur metod yordamida frazeologik derivatsiyaning asosiy turlari, hosil bo'lish mexanizmlari hamda funksional imkoniyatlari ilmiy jihatdan izohlandi.

Komponent tahlil metodi orqali frazeologik birliklarning semantik tarkibi, asosiy va qo'shimcha semalar, konnotativ ma'nolar hamda derivatsiya natijasida yuzaga keladigan ma'no siljishlari o'rganildi. Masalan, ingliz tilidagi *break the ice* va o'zbek tilidagi *muzni eritmoq* birliklari denotativ jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning obrazli asoslari va lingvomadaniy motivatsiyasi komponent tahlili orqali yoritildi.

Lingvomadaniy tahlil metodi frazeologik birliklarda aks etgan milliy qadriyatlar, madaniy kodlar, ramziy obrazlar

va etnomadaniy konseptlarni aniqlashga xizmat qildi. Ushbu metod asosida derivatsion o'zgarishlarning xalqning tarixiy tafakkuri, urf-odatlar va madaniy stereotiplari bilan bog'liqligi tahlil qilindi.

Kontekstual tahlil metodi yordamida frazeologik birliklarning badiiy, publitsistik va ilmiy matnlarda qo'llanishi, derivatsion variantlarning kommunikativ vazifasi hamda uslubiy imkoniyatlari o'rganildi. Bu metod frazeologik birliklarning real nutqdagi funksional xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tarjimashunoslik tahlili metodi orqali frazeologik derivatsiyaning tarjima jarayonida yuzaga keltiradigan muammolari, ekvivalentlik darajalari hamda qo'llanilgan tarjima strategiyalari tahlil qilindi. Xususan, to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent, deskriptiv tarjima, funksional analog va adaptatsiya usullarining qo'llanish samaradorligi qiyosiy baholandi. [5:24].

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari frazeologik derivatsiyaning til tizimidagi dinamik hodisa ekanligini hamda uning lingvomadaniy va tarjimaviy jihatlarini o'zaro uzviy bog'liqligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning derivatsion o'zgarishlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlari aniqlandi. Tahlillar

shuni ko'rsatdiki, frazeologik derivatsiya natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar faqat tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan emas, balki milliy tafakkur, tarixiy tajriba, madaniy qadriyatlar va kommunikativ ehtiyojlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Har bir frazeologik birlik o'zida muayyan xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va madaniy xotirasini mujassamlashtirgani sababli, derivatsion jarayonlar ham ushbu omillar ta'sirida shakllanadi. Lingvomadaniy tahlil natijalari o'zbek va ingliz tillarida mazmun jihatidan o'xshash bo'lgan ayrim frazeologik birliklar obrazlilik, ramziylik va madaniy motivatsiya nuqtai nazaridan sezilarli farqlanishini ko'rsatdi. Shu bois frazeologik birliklarni tahlil qilishda ularning semantik tarkibi bilan bir qatorda madaniy konnotatsiyasi va pragmatik vazifasini ham hisobga olish zarur.

Tarjimaviy tahlil esa frazeologik derivatsiya tarjima jarayonining eng murakkab masalalaridan biri ekanligini tasdiqladi. Derivatsion o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan yangi ma'no qirralari har doim ham boshqa tilda to'liq ekvivalent bilan ifodalanmaydi. Bunday holatlarda funksional ekvivalent, deskriptiv tarjima, adaptatsiya yoki kontekstual almashtirish strategiyalaridan foydalanish tarjimaning mazmunini va uslubiy adekvatligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, O. *O'zbek va ingliz frazeologizmlarining qiyosiy tahlili*. – Toshkent: Fan, 2015
2. Karimov, R. *Idiomatik birliklarni tarjima qilish metodlari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2018
3. Smith, J. (2012). *English Idioms and their Cross-Cultural Translation*. London: Routledge.
4. Aliyeva, M. (2020). *Madaniyatlararo tarjimada idiomatik birliklar*. Toshkent: Universitet Nashriyoti. [4]
5. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
6. Jalilova, N. (2016). *O'zbek frazeologizmlari va ularning ingliz tiliga tarjimasi*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
7. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.
8. Xolmatova, D. (2019). *Idiomatik ifodalarni tarjimada madaniy moslash*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fan Akademiyasi.
9. Larson, M. (1998). *Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence*. New York: University Press.
10. Rakhimov, S. (2021). *Tarjima va frazeologik birliklar: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: Ilm-Fan.
11. Rakhmonova Gavhar Nuritdinovna, . (2024). COMPREHENSIVE EXAMINATION OF DERIVATIONAL TECHNIQUES IN UZBEK LANGUAGE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 5(02), 23–27. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-05-02-05>.
13. Rahmonova Gavhar Nuritdinovna. 2023. "COMPARATIVE ANALYSIS OF DERIVATIONAL PROCESSES IN ENGLISH AND UZBEK VOCABULARY SYSTEMS". Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research 1 (7):30-34. <https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/223>

Mohinur BURIYEVA,
*Samarqand davlat chet tillar instituti
 Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til
 mokhib13@gmail.com*

BADIIY TARJIMADA LINGVISTIK VA ADABIY QIYOSLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy tarjimada lingvistik va adabiy qiyoslash tamoyillarining nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida til birliklari, uslubiy vositalar, milliy-madaniy xususiyatlar va muallif individual uslubini qayta yaratish masalalari yoritilgan. Shuningdek, qiyosiy adabiyotshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslikning tarjimashunoslik bilan uzviy bog'liqligi ilmiy manbalar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijasida badiiy tarjimaning sifati lingvistik va adabiy qiyoslash tamoyillariga amal qilish bilan bevosita bog'liqligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, ekvivalentlik, adekvatlik, lingvomadaniyat, badiiy matn.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты лингвистических и литературных принципов сопоставления в художественном переводе. Рассматриваются вопросы воспроизведения языковых единиц, стилистических средств, национально-культурных особенностей и индивидуального авторского стиля в процессе перевода. Кроме того, на основе научных источников раскрывается взаимосвязь сравнительного литературоведения, сопоставительного языкознания и переводоведения. По результатам исследования обосновано, что качество художественного перевода непосредственно зависит от соблюдения лингвистических и литературных принципов сопоставления.

Ключевые слова: *художественный перевод, сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание, переводоведение, эквивалентность, адекватность, лингвокультурология, художественный текст.*

Annotation: this article examines the theoretical and practical aspects of linguistic and literary comparison principles in literary translation. It discusses the reproduction of linguistic units, stylistic devices, national and cultural features, and the author's individual style in the translation process. In addition, the interrelationship between comparative literature, contrastive linguistics, and translation studies is explored based on scholarly sources. The study concludes that the quality of literary translation largely depends on adherence to the principles of linguistic and literary comparison.

Key words: *literary translation, comparative literature, contrastive linguistics, translation studies, equivalence, adequacy, linguoculturology, literary text.*

Kirish. Globallashuv sharoitida turli xalqlar adabiy merosining o'zaro almashinuvi tarjimaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Badiiy tarjima nafaqat bir tildagi matnni ikkinchi tilga ko'chirish, balki muallifning badiiy-estetik qarashlari, milliy ruhiyati va madaniy qadriyatlarini ham qayta yaratish jarayonidir. Shu sababli tarjima nazariyasida lingvistik va adabiy qiyoslash tamoyillari alohida o'rin egallaydi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik turli xalqlar adabiyotlarini mazmun, g'oya, obraz va uslub jihatidan taqqoslab o'rgansa, chog'ishtirma tilshunoslik tillarning fonetik, leksik, grammatik va semantik xususiyatlarini solishtiradi. Tarjimashunoslik esa ushbu ikki yo'nalish natijalaridan foydalanib, tarjimaning ilmiy mezonlarini ishlab chiqadi. Demak, badiiy tarjimaning muvaffaqiyati mazkur fanlarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Asosiy qism.

Lingvistik qiyoslash tamoyillari.

Lingvistik qiyoslash tarjima qilinayotgan va tarjima tili o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Tarjimon, avvalo, leksik birliklarning ma'no doirasini, grammatik qurilmalarni

va uslubiy vositalarni chuqur tahlil qilishi zarur. Har bir tilning o'ziga xos semantik tizimi mavjud bo'lgani sababli so'zma-so'z tarjima ko'pincha asarning badiiy qiymatini pasaytiradi.

Masalan, ingliz tilidagi idiomatik ifodalar yoki frazeologizmlar o'zbek tiliga aynan emas, balki ma'nodosh va uslubiy jihatdan mos ekvivalentlar orqali tarjima qilinadi. Tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillarining uyg'unligi muhim hisoblanadi. Ekvivalentlik matn mazmunini saqlashni, adekvatlik esa uning badiiy-estetik ta'sirini qayta yaratishni anglatadi.

Adabiy qiyoslash tamoyillari.

Qiyosiy adabiyotshunoslik tarjimada asarning badiiy tabiati, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi va muallif uslubini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Tarjimon nafaqat matn mazmunini, balki uning estetik qiymatini ham saqlashi kerak.

Har bir badiiy asarda milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar aks etadi. Tarjima jarayonida ana shu milliylikni saqlab qolish asarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Shu bois tarjimon tilshunos, adabiyotshunos va madaniyatshunos sifatida ham faoliyat yuritadi.

Lingvomadaniy birliklarni tarjima qilish.

Bugungi tarjimashunoslikda lingvomadaniy birliklarni tarjima qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maqollar, matallar, ramziy obrazlar, tarixiy va diniy tushunchalar boshqa tilga ko'chirilganda ularning madaniy mazmuni ham hisobga olinishi lozim.

Masalan, o'zbek xalqiga xos "mehmondo'stlik", "oriyat", "duogo'ylik" kabi tushunchalar boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega bo'lmashligi mumkin. Bunday hollarda izohli tarjima, tavsifiy tarjima yoki funksional ekvivalentlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy tarjimashunoslikda qiyosiy yondashuv.

Bugungi kunda tarjima tadqiqotlarida korpus lingvistikasi, pragmatolingvistika va kognitiv tilshunoslik yutuqlaridan keng foydalanilmoqda. Zamonaviy qiyosiy tadqiqotlar tarjimaning sifatini baholashda faqat til birliklarini emas, balki matnning kommunikativ vazifasi, pragmatik ta'siri va madaniy kontekstini ham e'tiborga oladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari rivojlanayotgan bo'lsa-da, badiiy matn tarjimasida inson tarjimonining ijodiy tafakkuri, estetik didi va madaniy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, metafora, ramz, kinoya va individual uslubni to'liq aks ettirishda professional tarjimonning o'rni beqiyosdir. Badiiy asarning qimmatini ko'p jihatdan muallifning individual uslubi bilan belgilanadi. Shu sababli tarjimonning asosiy vazifalaridan biri muallif uslubini imkon qadar saqlab qolishdir. Uslub faqat so'z tanlash emas, balki gap qurilishi, badiiy tasvir vositalari, ritm, ohang va emotsional ta'sirning uyg'unligidan iborat. Tarjimon matnni boshqa tilga ko'chirishda ushbu xususiyatlarni qayta yaratishga intilishi lozim.

Masalan, she'riy asarlar tarjimasida qofiya, vazn va badiiy obrazlarni saqlash murakkab vazifalardan biridir. Nasriy asarlarda esa muallifning hikoya qilish uslubi, dialoglarning tabiiyligi va personajlarning nutq xususiyatlari alohida e'tiborni talab qiladi. Shu bois badiiy tarjima ijodiy jarayon sifatida baholanadi.

Milliy-madaniy xususiyatlarni tarjimada aks ettirish.

Har bir xalqning urf-odati, qadriyati, turmush tarzi va dunyoqarashi uning tilida o'z ifodasini topadi. Badiiy asarlarda uchraydigan milliy taomlar, kiyim-kechaklar, marosimlar, tarixiy

shaxslar va joy nomlari tarjimada ehtiyotkorlik bilan berilishi zarur. Aks holda, asarning milliy ruhi va badiiy ta'sirchanligi pasayadi.

Tarjimon bunday birliklarni tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, tavsifiy tarjima, izoh berish yoki funksional ekvivalentlardan foydalanishi mumkin. Qaysi usul tanlanishi asarning janri, o'quvchilar auditoriyasi va tarjimaning maqsadiga bog'liq.

Tarjimada badiiy tasvir vositalarining ifodalanishi.

Badiiy matnning estetik qiymati ko'pincha metafora, epitet, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va ramz kabi tasvir vositalari orqali yuzaga chiqadi. Ushbu vositalarni boshqa tilga ko'chirish tarjimonning yuksak kasbiy mahoratini talab qiladi.

Masalan, metaforani so'zma-so'z tarjima qilish uning ma'nosini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun tarjimon matnning umumiy mazmuni va badiiy ta'sirini hisobga olgan holda mos badiiy vositani tanlaydi. Bunda nafaqat til me'yorlari, balki madaniy tafovutlar ham e'tiborga olinadi.

Tarjimon kompetensiyasining ahamiyati.

Zamonaviy tarjimashunoslik tarjimon kompetensiyasini sifatli tarjimaning asosiy omillaridan biri deb hisoblaydi. Tarjimon ikki yoki undan ortiq tilni mukammal bilish bilan birga, adabiyot nazariyasi, stilistika, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya asoslarini ham puxta egallashi lozim.

Bundan tashqari, tarjimon ilmiy izlanish olib borish, lug'atlar va elektron korpuslardan foydalanish, matnni tahlil qilish hamda zamonaviy tarjima texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ana shunday kompetensiyalar tarjima sifatini oshiradi va muallif g'oyasini o'quvchiga to'liq yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa. Badiiy tarjima lingvistik, adabiy va madaniy omillarning uzviy uyg'unligiga asoslanadi. Lingvistik qiyoslash tarjimaning til jihatdan to'g'riligini ta'minlasa, adabiy qiyoslash asarning estetik qimmatini saqlashga xizmat qiladi. Tarjimashunoslikda ushbu ikki yo'nalishning integratsiyasi yuqori sifatli badiiy tarjimalarni yaratishning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va zamonaviy tarjimashunoslik yondashuvlarini uyg'unlashtirish badiiy tarjima sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komissarov V. N. Teoriya perevoda (Lingvisticheskiye aspekty). Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
2. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. J. Brill, 1969.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall, 1988.
4. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2018.
5. Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. Amsterdam: John Benjamins, 1995.
6. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1983.

Marjona JUMAYEVA,
Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi
jumayevam731@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-4964-9402>



“TUYA” LUG'AVIY MA'NOVIY GURUHI QATNASHGAN MAQOLLARDA “AYOL MAKRI, USTAMONLIK” VA “BEMINNATLIK” SLOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunda keng o'rganilayotgan va tadqiq etilayotgan lingvokognitiv tilshunoslikka murojaat qilingan. Mazkur tilshunoslikning asosiy tayanch tushunchalari asosida “tuya” lug'aviy ma'noviy guruhi qatnashgan maqollar kontekstual va semantik tahlilga tortilgan. Freym va slot nazariyasi mazkur zoonim qatnashgan bir qator maqollarga tatbiq etilgan. Kognitiv tilshunoslik doirasida o'rganilayotgan boshqa tushunchalar, ssenariy va slot ham maqolada tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, freym, slot, konsept, nazariya, assotsiativ tilshunoslik, tahlil, lingvokulturologiya.

Аннотация: данная статья посвящена лингвокогнитивной лингвистике, которая сегодня широко изучается и исследуется. На основе базовых концепций этой лингвистики пословицы, в которых участвует лексико-семантическая группа «верблюд», подвергаются контекстному и семантическому анализу. К ряду пословиц, в которых участвует этот зооним, применяется теория фреймов и слотов. В статье также анализируются другие концепции, изучаемые в рамках когнитивной лингвистики, такие как сценарий и слот.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, фрейм, слот, концепт, теория, ассоциативная лингвистика, анализ, лингвокультурология.

Annotation: this article refers to the linguocognitive linguistics, which is widely studied and researched today. Based on the basic concepts of this linguistics, proverbs in which the lexical semantic group “camel” participates are subjected to contextual and semantic analysis. Frame and slot theory is applied to a number of proverbs in which this zoonym participates. Other concepts studied within the framework of cognitive linguistics, scenario and slot, are also analyzed in the article.

Key words: cognitive linguistics, frame, slot, concept, theory, associative linguistics, analysis, linguoculturology.

Lingvokognitiv tadqiqotlar markazida inson tafakkuri va bilimni o'zlashtirish jarayonlari asosiy masala sifatida o'rganiladi. Shu bois ham ushbu soha bir qancha tilshunoslik yo'nalishlari bilan bog'lanadi.

Slot – freym mazmunini ochib berishga qaratilgan asosiy tugun, g'oya hisoblanadi. Kognitiv tadqiqotlarda freymnlarni belgilashda uning tarkibida mavjud bo'lgan slotlar mundarijasiga qaratiladi. Slotlar ifodalagan ma'no matn qurshovida yanada ayonlashadi.

Sh.Safarov monografiyasida¹ M.Minskiy tadqiqotidan misollar keltirib, freymni to'ldirish vazifasini uning tarkibida bo'lgan slotlar bajarishini va slotlar asosida freymning chegarasi hosil bo'lishini misollar vositasida isbotlaydi hamda freym tarkibida bo'lgan subfreym (kichik freym) konsept shakllanishida asosiy vazifani bajarishini ta'kidlaydi.

Ssenariy o'zida voqelikni, undagi ketma-ket vaziyatni ko'rsatadigan, kognitologiyada slotlar asosida mohiyatni

ochib berishga xizmat qiladigan tushuncha.

Slot – freym tarkibiga kira oluvchi, o'zida bir nechta kognitiv tushunchalarni birlashtirib turuvchi tugun. Biroq freym to'piga kira olmagan, ammo yakka o'zi ma'no anglatadigan tushunchalarni slot sifatida ham tahlil etish mumkin.

Stereotip – tildan foydalanuvchi jamoada yuzaga keladigan, jamoa vakillari tomonidan foydalaniladigan, mentalitetning axloqiy tipi sifatida yuzaga keladigan tushuncha.

Ayol makri qirq tuyaga yuk bo'lar.

Maqolda tuyaning og'ir yukni ko'tara olish vazifasiga urg'u berilgan hamda ayol kishining makri, yolg'oni qirg'ta tuyaga ham yuk bo'la olishi e'tirof etilgan. Tuyadagi yuk ko'tara olish qobiliyatidan kelib chiqib konnotatsiya tuyadagi og'ir yukni ko'tara olishi bilan bog'langan hamda obraz vositasida yuk “makr” leksemasiga o'zgartirilgan.

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik: Сангзор нашриёти. 2006. –Б.46.

Bular ba'zi ayyor, makkora ayollarga nisbatan aytiladi².

Sinonimlari: "Bir xotinning hiylasi qirq eshakka yuk bo'lar", "Erning hiylasi bitta bo'lsa, xotinning hiylasi mingta", "Xotinning makri shaytonga dars bo'lur".

Bular ba'zi ayyor, makkora ayollarga nisbatan aytiladi³.

Hasan janoblari chuqur uf tortdi. Keyin shayxulislomga qaradi. Uning Ixtiyoriddin ko'zlarida yosh halqalanar edi.

– Taqsir, bir muhtola⁴ xotinning beandisha da'vosi kuchlilik qilgonda, siz-u bizning uyatimiz ojizlik qilur!

– Yo tavba, axir bu yolg'onning isi xalifat-ur-rahmon quloqlariga etsa ne bo'lur? Qorako'z begim buni o'ylamaydimi?

Qozikalon orqadan kelayotgan mulozimlarga xavfsirab qarab qo'ydi. Keyin sekingina:

– Tavba demang, taqsir, ayol makri qirq tuyaga yuk bo'larmish. Axir xalifat-ur-rahmonga aldanganini aytishga kim ham jur'at qila olur? — dedi⁵.

Anvar "Xotin kishining makri qirq tuyaga yuk bo'ladi, deydi. Xolidiyning makri qirq emas, qirq ming eshelonga yuk bo'lar-ov", deb yurardi. Bu maqolani o'qiy turib fikrini o'zgartirdi: "Uning makri qirq million eshelonga yuk bo'la oladi!" Xolidiyning kim ekani, yuragi oqmi, qora ekanini bilmaydiganlar bu maqolani o'qigach, uni aziyat chekkan, kuyunchak olim sifatida qabul qilishlari shubhasiz. Gazitni minglab odamlar o'qiydi. Endi kimga borib "aslida Xolidiyning o'zi ablah, Hikmat O'rolov halol odam", deb ishonirish mumkin? Anvarni kutayotgan noxushlik maqolaning so'ngida edi: ...Men hujjatxonada o'tirib bu dalillarga duch kelgach, ko'zlarimga ishonmadim. Yaqin do'stimning shunday siri borligiga ajablandim⁶.

2 Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. Sovet Ensiklopediyasi Bosh Redaksiyasi. – T., 1990. 45-b.

3 Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. Sovet Ensiklopediyasi Bosh Redaksiyasi. – T., 1990. 45-b.

4 Muhtola – hiylagar ayol.

5 R.Haydarova Javzo: Roman. – T.: Fan, 2001. 26-b.

6 Tohir malik. Shaytanat. (2-kitob). 138-b.

Yuqoridagi maqolda ssenariy sifatida maqol mohiyatidan kelib chiqib ayolning ustamonligi, barchani ishonirib o'z maqsadiga erishganligi ta'kidlangan.

Maqolda stereotip sifatida o'zbek ayollariga xos uddaburonlik, vaziyatdan chiqar olish xususiyati ta'kidlangan bo'lsa, ikkinchi maqol tahlilida aldovning jiddiyligi, yolg'onning oqibati haqida fikr yuritilgan.

Minnatli tuyadan beminnat to'qli afzal.

Minnat bilan berilgan har qanday narsa insonning qadriga, nafsoniyatiga tegadi. Yuqoridagi maqolda ham minnat qilib berilgan tuyadan, kichkina bo'lsa-da, to'qli afzalroq ekanligi ta'kidlangan.

To'qli – urg'ochi qo'zi, qo'zichoq⁷.

To'qli bir yarim yoshga yetmagan urg'ochi qo'zi bo'lib, mazkur maqol quyidagi ma'noda qo'llaniladi: birovning minnat qilib bergan oshidan kishining o'z peshona teri bilan topgan qotgan noni afzal⁸.

Xalq tafakkur tarzida ushbu maqolning paydo bo'lishida xalq madaniyatida mavjud har narsaga sabr qilish, bor narsalarning qadriga yetish kabi qadriyat darajasiga ko'tarilgan tushunchalarning mavjudligi asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek millatida qoralanuvchi manmanlik, qilingan yaxshilikni boshqalarga aytmaslik g'oyasi tuya va to'qli zoonimlar misolida shakllantirilib ssenariy sifatida; kamtarlik, manmanlikdan uzoqda bo'lish fikri stereotip shaklida maqolda aks etgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, "tuya" zoonimi qatnashgan maqollarda nafaqat xalq kognitivatsiyasi, balki milliy-mental xususiyatlari va so'z qo'llash mahorati ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, kognitiv tilshunoslik antroposentrik tilshunoslikning sohasi sifatida inson bilan bog'liq bilim va tafakkur elementlarini tahlilga tortadi.

7 Шумақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 218.

8 Холманова З. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2016. – Б. 154.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Haydarova Javzo: Roman. – T.: Fan, 2001. 26-b.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик: Сангзор нашриёти. 2006. –Б.46.
3. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа докт... дисс... – Т., 2017. – 152 б.
4. Холманова З., Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2016. – 209 б.
5. Шумақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – 477 б.

Umidxon XABIBULLAYEV,
O'zDJTU, Umumiy fanlar kafedrası o'qıtuvchısı
 ORCID: 0009-0003-5144-789X

LUG'AT USTIDA ISHLASH VOSITASIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada ona tili ta'limida lug'at ustida ishlashning o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyati yoritilgan. Lug'at ustida ishlashning nazariy-metodik asoslari, o'quvchilar so'z boyligini oshirish, so'z ma'nosini anglash, sinonim, antonim va omonimlar bilan ishlash hamda so'zlarning kontekstual ma'nosini o'zlashtirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, kompetensiyaviy, kommunikativ va multimodal yondashuvlarning lug'at o'rgatishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari lug'at ustida tizimli ishlash o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *lug'at ustida ishlash, nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, ona tili ta'limi, so'z boyligi, leksik birlik, so'z ma'nosi, kompetensiyaviy yondashuv, multimodal yondashuv.*

Аннотация: в статье рассматриваются роль и значение словарной работы в развитии речевой компетенции учащихся на уроках родного языка. Проанализированы теоретико-методические основы словарной работы, способы обогащения словарного запаса, формирования навыков понимания значения слов, работы с синонимами, антонимами, омонимами и усвоения контекстуального значения лексических единиц. Особое внимание уделено эффективности компетентностного, коммуникативного и мультимодального подходов в обучении лексике. Сделан вывод о том, что систематическая словарная работа является важным фактором развития речевой и коммуникативной компетентности учащихся.

Ключевые слова: *словарная работа, речевая компетенция, коммуникативная компетенция, обучение родному языку, словарный запас, лексическая единица, значение слова, компетентностный подход, мультимодальный подход.*

Annotation: this article examines the role and significance of vocabulary work in developing students' speech competence in native language education. It analyzes the theoretical and methodological foundations of vocabulary instruction, including strategies for expanding vocabulary, understanding word meanings, working with synonyms, antonyms, and homonyms, and mastering contextual meanings of lexical units. The study also highlights the effectiveness of competency-based, communicative, and multimodal approaches to vocabulary teaching. The findings indicate that systematic vocabulary work is a key factor in improving students' speech and communicative competence.

Key words: *vocabulary instruction, speech competence, communicative competence, native language education, vocabulary development, lexical units, word meaning, competency-based approach, multimodal approach.*

Ta'lim tizimida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda lug'at ustida ishlash o'quvchilarning til boyligini kengaytirish, fikrni aniq va mantiqiy ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Lug'at birliklarini o'zlashtirish nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki o'quvchining kommunikativ faoliyatda erkin va samarali muloqot qilishiga ham xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan lug'at ustida ishlash o'quvchilarning semantik tafakkurini rivojlantiradi, so'zlarning ma'no nozikliklarini anglash va ularni turli nutqiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon o'quvchining mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va ijodiy nutq tuzish qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda ta'lim jarayonini o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Mazkur hujjatlarda "ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy savodxonligi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi"¹ Shu jihatdan qaraganda, lug'at ustida ishlash metodikasi zamonaviy ta'lim talablariga to'liq mos keladi va o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. So'z boyligini tizimli ravishda oshirish o'quvchilarga fikrlarini aniq, lo'nda va mantiqan izchil bayon etish imkonini beradi.

Lug'at ustida ishlash – bu o'quvchilarning til boyligini, so'z ma'nosini aniqlash, so'z yasashini tushunish, sinonim, antonim va omonimlar bilan ishlash, shuningdek, so'zning kontekstual ma'nosini anglash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon. Ushbu jarayon o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi va ona tili darslarida alohida o'rin tutadi.

O'zbek tilshunosligi va pedagogikasida lug'at ustida ishlash tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: "Lug'at ustida ishlash – o'quvchilarning so'z boyligini boyitish, so'z ma'nosini aniqlash, so'z yasashini tushunish, sinonim, antonim va omonimlar bilan ishlash, so'zning kontekstual ma'nosini anglash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon"² Bundan tashqari, lug'at ishlari o'quvchilarda tilga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi, ularni mustaqil izlanishga, so'z ma'nolarini tahlil qilishga va nutqiy vaziyatga mos leksik birliklarni tanlashga o'rgatadi. Bu esa ularning nafaqat til bilimlarini, balki umumiy intellektual salohiyatini ham rivojlantiradi.

Lug'at ustida ishlash jarayoni quyidagi pedagogik vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilarning so'z boyligini boyitish;
2. So'z ma'nosini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish;
3. So'z yasashini tushunish ko'nikmalarini shakllantirish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti (kompetensiyaviy yondashuv asosida). – Toshkent, 2022.

² Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2020. 45-b.

4. Sinonim, antonim va omonimlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

5. So'zning kontekstual ma'nosini anglash ko'nikmalarini shakllantirish;

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish

Zamonaviy til o'qitish metodikasi lug'atni kommunikativ yondashuv asosida o'rgatishni talab qiladi. Bu esa so'zlarni alohida emas, balki matn va real kommunikativ vaziyatlar orqali o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, multimodal yondashuv ham lug'at o'rgatishda samarali usul sifatida qaraladi. Rasmlar, audio va video materiallar so'zlarning semantik maydonini kengroq tushunishga yordam beradi.

Lug'at ustida ishlash jarayoni o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Chunki so'z - tilning ma'no bildiradigan asosiy birligi, so'zlar yig'indisi tilning lug'at boyligini tashkil etadi. Tilning lug'ati qancha ko'p bo'lsa, fikr shuncha aniq ifodalanadi. Nutqi lug'atga boy kishining nutqi aniq, ravon bo'ladi, shuning uchun boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ham o'quvchilar nutqini so'z bilan boyitishdir.

Lug'at ustida ishlash o'quvchining til kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, u nutqiy tafakkur, muloqot qobiliyati va lingvistik savodxonlikni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Olima K.Qosimova "5-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash" qo'llanmasida lug'at boyligini oshirishning metodikasini bayon etgan. Uning fikricha, "o'quvchilarning so'z boyligini oshirish orqali bilimlarni puxta egallash imkoniyati kengayadi, nutqning ifodali bo'lishiga erishiladi va mustaqil fikrini yetkazib berishda qiyinchiliklarga duch kelinmaydi"³.

Lug'at boyligini oshirish jarayoni quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Yangi so'zlarni tushuntirish orqali lug'atni boyitish;
2. Badiiy asarlar orqali so'z boyligini oshirish;
3. Gazeta va jurnal materiallari orqali so'z boyligini oshirish;
4. Radio va teleko'rsatuvlar orqali so'z boyligini oshirish;

³ Qosimova K. 5-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash. – T.: O'qituvchi, 2020. 34-b.

5. Ona tili darslaridagi mashqlar orqali soʻz boyligini oshirish;

6. Lugʻatlar orqali soʻz boyligini oshirish.

Soʻz maʼnosini aniqlash – bu oʻquvchilarning lugʻatdan foydalanish orqali soʻz maʼnosini aniqlash koʻnikmalarini shakllantirish jarayoni. Ushbu jarayon oʻquvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Lugʻat boyligini oshirish lugʻat ustida ishlashning eng asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon oʻquvchilarning yangi leksik birliklarni oʻzlashtirishi va ularni faol nutqqa kiritishi bilan bogʻliq. Bu yerda aktiv va passiv lugʻat tushunchalari muhim ahamiyatga ega: aktiv lugʻat – nutqda qoʻllaniladigan soʻzlar, passiv lugʻat esa tushuniladigan, lekin ishlatilmaydigan soʻzlardir.

Soʻz maʼnosini aniqlash jarayoni quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Soʻzni matn asosida tushuntirish;
2. Soʻz maʼnosini lugʻatdan, kitobdagi izohdan foydalanib tushuntirish;
3. Sinonimlarini keltirib tushuntirish;
4. Antonimiga taqqoslab tushuntirish;
5. Birikmalar, gaplar yordamida tushuntirish;
6. Soʻzni predmetning asosiy belgilarini aytish orqali tushuntirish;
7. Axloqiy mavhum tushunchalarni bildiradigan soʻzlar maʼnosini misollar yordamida tushuntirish.

Britaniyalik tilshunos D. Crystal “The Cambridge Encyclopedia of the English Language” asarida soʻz maʼnosini aniqlashning ahamiyatini quyidagicha taʼkidlagan: “Soʻz maʼnosini aniqlash – til oʻzlashtirish jarayonining asosiy bosqichlaridan biri. Bu jarayon

oʻquvchilarning tilning semantik tizimini tushunishiga yordam beradi”⁴ Bundan tashqari, lugʻat boyligini oshirish jarayoni psixolingvistik jihatdan ham muhim hisoblanadi. Yangi soʻzlar oʻquvchining xotirasida semantik tarmoqlar orqali joylashadi va bu ularning tez eslab qolinishiga yordam beradi. Shu sababli, soʻzlarni mavzuviy guruhlar asosida oʻrgatish samarali metodlardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, lugʻat ustida ishlash oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning eng muhim metodik vositalaridan biridir. Soʻz boyligini muntazam ravishda oshirish, soʻz maʼnolarini chuqur anglash, ularni turli nutqiy vaziyatlarda oʻrinli qoʻllash hamda sinonim, antonim va omonimlardan samarali foydalanish oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini takomillashtirishga xizmat qiladi. Lugʻat ustida ishlash jarayoni nafaqat til kompetensiyasini, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuv koʻnikmalarini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy taʼlimda kompetensiyaviy, kommunikativ va multimodal yondashuvlar asosida tashkil etilgan lugʻat ishlari oʻquvchilarning taʼlim jarayonidagi faolligini oshiradi, yangi leksik birliklarni ongli ravishda oʻzlashtirish va ularni amaliy nutqda qoʻllash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bois ona tili darslarida lugʻat ustida ishlashni innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda raqamli taʼlim resurslari bilan uygʻunlashtirish taʼlim samaradorligini yanada oshiradi.

4 Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. P-234

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi. Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti (kompetensiyaviy yondashuv asosida). – Toshkent, 2022.
2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili oʻqitish metodikasi. – T.: Oʻqituvchi, 2020. 23-b.
3. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 421 p.

Xilola KAROEVA,
Samarqand davlat texnika universiteti,
"Xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchisi
xilolakaroeva@gmail.com

KASBIY YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASI: TUSHUNCHA, TARKIBIY KOMPONENTLARI VA OLIY TA'LIMDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada kasbiy yozma nutq kompetensiyasi tushunchasining nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari va oliy ta'limdagi pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetensiya, diskurs kompetensiyasi va janrga asoslangan yondashuv nazariyalariga tayanib, maqolada bu kompetensiyaning ko'p qatlamli tuzilishi ochib beriladi hamda uni shakllantirishning zamonaviy pedagogik ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: kasbiy yozma nutq kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, diskurs kompetensiyasi, ESP, janrga asoslangan yondashuv, oliy ta'lim.

Аннотация: в статье анализируются теоретико-методологические основы понятия компетенции профессиональной письменной речи, её структурные компоненты и педагогическая значимость в системе высшего образования. Опираясь на теории коммуникативной, дискурсивной компетенции и жанрово-ориентированного подхода, автор раскрывает многоуровневую структуру данной компетенции и обосновывает её современное педагогическое значение. Особое внимание уделено разграничению профессиональных письменных жанров (организационно-деловых, отчётно-аналитических и технико-прикладных) и рекомендациям по интеграции жанрового подхода в программы ESP.

Ключевые слова: компетенция профессиональной письменной речи, коммуникативная компетенция, дискурсивная компетенция, ESP, жанрово-ориентированный подход, высшее образование.

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of professional written speech competence, its structural components, and its pedagogical significance in higher education. Drawing on the theories of communicative competence, discourse competence, and the genre-based approach, it reveals the multi-layered structure of this competence and substantiates its contemporary pedagogical importance in developing specialists' communicative readiness.

Key words: professional written speech competence, communicative competence, discourse competence, ESP, genre-based approach, higher education.

Kirish. Globallashuv, kasbiy mobillikning oshishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi bo'lajak mutaxassislardan nafaqat o'z sohasini chuqur egallashni, balki chet tilida professional darajada yozma muloqot olib borish qobiliyatini ham talab qilmoqda. Hisobot, ish maktubi, ilmiy annotatsiya, texnik topshiriq kabi kasbiy janrlarda samarali yoza olish ko'nikmasi zamonaviy mutaxassisning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, "kasbiy yozma nutq kompetensiyasi" tushunchasining o'zi hali yagona, umumiy tan olingan ta'rifga ega emas — turli tadqiqotchilar uni kommunikativ, diskursiv yoki janrga oid kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin qilishadi. Ushbu maqolaning maqsadi

— mavjud nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish orqali kasbiy yozma nutq kompetensiyasining aniq tuzilmasini ko'rsatish va uning oliy ta'limdagi pedagogik ahamiyatini asoslashdan iborat. Mavzuning dolzarbligi shundaki, oliy ta'lim amaliyotida yozma nutqni o'qitish ko'pincha umumiy grammatik-leksik mashqlar darajasida qolib ketadi, talabalar bitirgach duch keladigan real kasbiy janrlar (rasmiy xat, hisobot, texnik hujjat, tavsiyanoma va h.k.) esa o'quv dasturlarida yetarlicha alohida ko'rib chiqilmaydi. Bu — nazariy bilim bilan amaliy kasbiy ehtiyoj o'rtasidagi uzilishni keltirib chiqaradi, natijada bitiruvchilar tilni bilsalar-da, uni kasbiy vaziyatlarda konventsional tarzda qo'llay olishda qiynaladilar.

Kasbiy yozma nutq kompetensiyasi tushunchasining ildizlari kommunikativ kompetensiya nazariyasiga borib taqaladi. Bu tushunchani dastlab Hymes Chomskiyning “ideal soʻzlovchi” haqidagi mavhum lingvistik kompetensiya gʻoyasiga qarshi ilgari surgan boʻlib, tilni nafaqat grammatik toʻgʻrilik, balki muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatda mos qoʻllay olish qobiliyati sifatida talqin qiladi (Hymes, 1972). Bu gʻoya keyinchalik Canale va Swain (1980) tomonidan operatsion modelga aylantirilib, kommunikativ kompetensiya tarkibida grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar ajratib koʻrsatildi. Celce-Murcia, Dörnyei va Thurrell (1995) esa bu modelni kengaytirib, unga alohida diskurs kompetensiyasi komponentini kiritdilar — bu, aynan yozma matn yaratish jarayonida fikrlarni izchil va bogʻliq tarzda ifodalash qobiliyatini anglatadi. Shu tariqa, kasbiy yozma nutq kompetensiyasini alohida, mustaqil hodisa emas, balki kommunikativ kompetensiyaning kasbiy kontekstga moslashtirilgan, diskursiv jihatdan boyitilgan koʻrinishi sifatida qarash mumkin. Yozma nutqni ogʻzaki nutqdan farqlovchi diskursiv xususiyatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi: Connor va Mbaye (2002) matnning kogeziqligi (bogʻlovchi vositalar orqali izchillik) va koherentligi (mantiqiy yaxlitlik) kabi mezonlarning ustuvorligini koʻrsatib berishgan. Bu jihat kasbiy yozma nutq kompetensiyasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda metodologik asos boʻlib xizmat qiladi: kompetensiyani faqat leksik-grammatik toʻgʻrilik bilan emas, balki matnning kommunikativ maqsadga qanchalik erishganligi bilan ham oʻlchash zarur.

Chet tillarni kasbiy maqsadlar uchun oʻqitish (ESP) yoʻnalishida kasbiy yozma nutq kompetensiyasi alohida oʻrin egallaydi. Hutchinson va Waters (1987) asoslagan “oʻquvchiga yoʻnaltirilgan” yondashuv, shuningdek Dudley-Evans va St. John (1998) rivojlantirgan ESP metodologiyasi til oʻqitishni talabalarning kelajakdagi kasbiy ehtiyojlariga bevosita bogʻlashni talab qiladi. Bu yozma nutqni umumiy, mavhum koʻnikma sifatida emas, balki muayyan kasbiy janrlar (hisobot, ariza, texnik hujjat va h.k.) doirasida shakllantirish zarurligini koʻrsatadi. Bhatia (2004) ishlab chiqqan janrga asoslangan yondashuv nazariyasiga koʻra, har bir kasbiy janr oʻziga xos kommunikativ maqsad, tuzilmaviy bosqichlar (moves) va til vositalariga ega boʻlib, kasbiy yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish aynan shu janr

xususiyatlarini ongli ravishda oʻzlashtirishdan iborat boʻladi. Shu bilan birga, bu kompetensiya nafaqat til vositalarini, balki muayyan kasbiy hamjamiyat (discourse community) tomonidan qabul qilingan yozish konvensiyalarini bilishni ham talab qiladi.

Soʻnggi yillarda kasbiy kommunikativ kompetensiyaning tuzilishini tizimli koʻrsatishga qaratilgan tadqiqotlar ham eʼtiborga molik. Xomutova (2018) kasbiy kommunikativ kompetensiyani tahlil qilib, uning shakllanishi oʻzaro bogʻliq komponentlar (lingvistik, diskursiv, sotsiomadaniy, strategik) asosida bosqichma-bosqich yuz berishini koʻrsatgan. Urunova (2026) esa kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning sakkizta didaktik tamoyili (kasbiy kontekstga yoʻnaltirilganlik, kommunikativ yoʻnalganlik, funksionallik, integratsiya, faoliyat va ongllilik, individuallashtirilgan yondashuv, autentiklik, kompetensiyaviy yondashuv) hamda besh bosqichli rivojlanish modelini (tayyorlov, asosiy, amaliy mashq, mustahkamlash, baholash) taklif etgan. Bu model kasbiy yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayonini tarqoq mashqlar yigʻindisi emas, balki izchil pedagogik tizim sifatida loyihalashtirish zarurligini koʻrsatadi. Oʻzbekiston oliy taʼlim tizimida ham bu masala soʻnggi yillarda tadqiqotchilar eʼtiborini tortmoqda: Irgasheva (2022) talabalarning kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik jihatlarini, jumladan uning turlari va samarali shakllantirish usullarini koʻrib chiqqan. Biroq mavjud tadqiqotlarda kasbiy nutq kompetensiyasi koʻproq ogʻzaki va yozma nutqni birgalikda qamrab oluvchi tarzda tahlil qilingani, kasbiy yozma nutq kompetensiyasining janrga asoslangan yondashuv nuqtayi nazaridan alohida chuqur oʻrganilmagani bugungi kunda dolzarb ilmiy boʻshliq boʻlib qolmoqda.

Nazariy tahlilni amaliy jihatdan toʻldirish maqsadida, Bhatia (2004) taklif etgan janr tahlili nuqtayi nazaridan kasbiy yozma janrlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: (1) tashkiliy-boshqaruv janrlari — rasmiy xat, ariza, xizmat xati, buyruq loyihasi; (2) hisobot-tahliliy janrlar — ish yuritish hisoboti, ilmiy annotatsiya, tezis, tavsiyanoma; (3) texnik-amaliy janrlar — texnik koʻrsatma, foydalanuvchi qoʻllanmasi, xavfsizlik yoʻriqnomasi. Har bir janr guruhi oʻziga xos kommunikativ maqsad, til registri va tuzilmaviy bosqichlarga ega boʻlib, ularni farqlash kasbiy yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishning boshlangʻich pedagogik bosqichi

hisoblanadi: tashkiliy-boshqaruv janrlarida rasmiylik va aniqlik, hisobot-tahliliy janrlarda dalillash va mantiqiy izchillik, texnik-amaliy janrlarda esa qisqalik va bir ma'noilik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu farqlarni tizimli o'rgatish talabalarga nafaqat til vositalarini, balki har bir janrning nima uchun aynan shunday tuzilganini ham anglash imkonini beradi — bu janrga asoslangan yondashuvning pedagogik qadriyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'tkazilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, kasbiy yozma nutq kompetensiyasi — kommunikativ kompetensiya, diskurs kompetensiyasi va janr bilimlarining kasbiy kontekstda integratsiyalashgan namoyon bo'lishidir. Uning tarkibiy tuzilmasi kamida to'rt komponentni o'z ichiga oladi: (1) lingvistik komponent — til vositalarini to'g'ri qo'llash; (2) diskursiv komponent — matnning kogeziiv va koherent bo'lishini ta'minlash; (3) janr komponenti —

muayyan kasbiy janrning tuzilmaviy va kommunikativ xususiyatlarini bilish; (4) sotsiomadaniy-strategik komponent — kasbiy hamjamiyat konvensiyalariga moslasha olish. O'zbekiston kontekstida kasbiy yozma nutq kompetensiyasini janrga asoslangan yondashuv orqali maqsadli rivojlantirish masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Amaliy nuqtayi nazardan, o'tkazilgan tahlil quyidagi tavsiyalarni ilgari surish imkonini beradi: birinchidan, ESP sillabuslariga kasbiy janrlar bo'yicha alohida modul kiritish; ikkinchidan, baholash mezonlarini nafaqat grammatik to'g'rilik, balki janr mosligiga ko'ra ham ishlab chiqish; uchinchidan, o'quv jarayonida haqiqiy (autentik) kasbiy matnlar namunalaridan foydalanishni kengaytirish. Ushbu yo'nalishlar keyingi tadqiqotning amaliy asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / ed. by J.B. Pride, J. Holmes. — Harmondsworth: Penguin, 1972. — P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1, № 1. — P. 1–47.
3. Celce-Murcia M., Dörnyei Z., Thurrell S. Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model with Content Specifications // Issues in Applied Linguistics. — 1995. — Vol. 6, № 2. — P. 5–35.
4. Connor U., Mbaye A. Discourse Approaches to Writing Assessment // Annual Review of Applied Linguistics. — 2002. — Vol. 22. — P. 263–278.
5. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
6. Dudley-Evans T., St. John M.J. Developments in English for Specific Purposes. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
7. Bhatia V.K. Worlds of Written Discourse: A Genre-Based View. — London: Continuum, 2004.
8. Khomutova T.N. Professional Communicative Competence: Structure and Formation // Journal of Language and Education. — 2018. — Vol. 4, № 2. — P. 44–53.
9. Urunova Sh. Didactic Foundations of Forming Professional Communicative Competence // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. — 2026. — Vol. 13, № 5. — P. 712–716.
10. Irgasheva U.R. Talabalar kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik aspektlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social sciences. — 2022. — P. 937–944.

Furqat DJALOLOV,

O'zbekiston jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: furkatdjololov76@gmail.com

TA'LIM MAZMUNINI TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA UNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtirish texnologiyasining nazariy asoslari, uning pedagogik amaliyotda qo'llanilish xususiyatlari va samaradorligi masalalari adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan. Tadqiqotda B. Blum tomonidan asos solingan "mastery learning" konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati hamda o'zbek pedagogika fanida ushbu texnologiyaga bo'lgan yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *to'liq o'zlashtirish texnologiyasi, pedagogik texnologiya, ta'lim samaradorligi, individuallashtirilgan ta'lim, formativ baholash, ta'lim sifati.*

Аннотация: в данной статье на основе анализа литературы освещены теоретические основы технологии полного усвоения содержания образования, особенности её применения в педагогической практике и вопросы её эффективности. В исследовании проанализированы этапы развития концепции «mastery learning», основоположником которой является Б. Блум, её значение в современной системе образования, а также подходы к данной технологии в узбекской педагогической науке.

Ключевые слова: *технология полного усвоения, педагогическая технология, эффективность образования, индивидуализированное обучение, формативное оценивание, качество образования.*

Annotation: this article, based on a review of the literature, examines the theoretical foundations of the technology of full mastery of educational content, the features of its application in pedagogical practice, and issues related to its effectiveness. The study analyzes the stages of development of the "mastery learning" concept founded by B. Bloom, its significance in the modern education system, and approaches to this technology within Uzbek pedagogical science.

Key words: *mastery learning technology, pedagogical technology, educational effectiveness, individualized learning, formative assessment, quality of education.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining tub mohiyati har bir o'quvchining o'quv materialini to'liq va chuqur o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu borada dunyo pedagogika fanida uzoq yillar davomida turli nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan. Ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtirish texnologiyasi, ingliz tilidagi "mastery learning" atamasi bilan ham yuritiladigan ushbu yondashuv, an'anaviy ta'lim jarayonidagi asosiy kamchilik, ya'ni bir xil vaqt ichida barcha o'quvchilardan bir xil natija talab qilinishi muammosiga muqobil yechim sifatida yuzaga kelgan. Ushbu konsepsiyaning ilmiy asoschisi hisoblangan Benjamin Blum o'zining mashhur ishida barcha o'quvchilar mos sharoit va yetarlicha vaqt berilgan taqdirda o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtira olishlari mumkinligini ta'kidlagan edi [1]. Bu g'oya keyinchalik Tomas Guskey tomonidan chuqur nazariy va amaliy asoslangan holda rivojlantirilib, ta'lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etish uchun aniq metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan [2]. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish davlat siyosatining

ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, Anderson va Kravol tomonidan Blum taksonomiyasining qayta ko'rib chiqilgan varianti ta'lim maqsadlarini aniq belgilash va baholash mezonlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [3]. Zamonaviy tadqiqotchilar ham ushbu texnologiyaning nazariy negizlarini pedagogik jarayonda qayta talqin qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar, xususan, mastery learning texnologiyasining nazariy asoslari zamonaviy ta'lim modellari kontekstida yangicha yondashuvlar bilan boyitilmoqda [4].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologik jihatdan nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullariga asoslangan bo'lib, tajriba yoki kuzatuv ma'lumotlaridan foydalanilmagan, faqat mavjud ilmiy adabiyotlar chuqur va tanqidiy tahlil qilingan. To'liq o'zlashtirish texnologiyasining ilmiy negizini o'rganishda birinchi navbatda Blum tomonidan ilgari surilgan g'oyaga murojaat qilindi, unga ko'ra o'quv jarayonini alohida mavzular bo'yicha kichik bloklarga bo'lish, har bir blok yakunida formativ baholash o'tkazish va zarur hollarda qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish

orqali barcha o'quvchilarni yuqori natijaga yetkazish mumkin [1]. Guskeyning ishida ushbu g'oya amaliy jihatdan rivojlantirilib, to'liq o'zlashtirish texnologiyasini joriy etishning bosqichma-bosqich modeli, jumladan dastlabki o'qitish, formativ baholash, tuzatish ishlari va kengaytiruvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan [2]. Bundan tashqari, Anderson va Kravol tahririda nashr etilgan Blum taksonomiyasining yangilangan versiyasi bilimni, tushunishni, qo'llashni, tahlil qilishni, baholashni va yaratishni o'z ichiga olgan olti bosqichli kognitiv jarayonlar tizimini taqdim etadi, bu esa to'liq o'zlashtirish texnologiyasida ta'lim maqsadlarini aniq shakllantirish uchun muhim metodologik vosita hisoblanadi [3].

Mahalliy pedagogika fanida ushbu masala bo'yicha ham qator izlanishlar olib borilgan. Ishmuhamedov, Abduqodirov va Pardayevlarning tadqiqotida innovatsion pedagogik texnologiyalarning umumiy tasnifi berilgan bo'lib, unda to'liq o'zlashtirish texnologiyasi individuallashtirilgan ta'lim yondashuvlarining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilgan [5]. Yo'ldoshev va Usmonovning ishida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari, uning tuzilishi va samaradorlik mezonlari batafsil yoritilgan bo'lib, bu asar zamonaviy o'zbek pedagogika ilmidagi ushbu yo'nalishning shakllanishiga sezilarli hissa qo'shgan [6]. Xodjayevning fundamental ishida pedagogika nazariyasi va tarixi konteksti orqali ta'lim texnologiyalarining evolyutsion rivoji tahlil qilinib, mazmun jihatidan to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan yondashuvlarning ilmiy asoslari ochib berilgan [7]. Abdurakhimovning tadqiqotida pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati masalasi chuqur yoritilib, texnologik yondashuvning an'anaviy o'qitish usullaridan farqli tomonlari aniq ko'rsatib berilgan [8]. Shuningdek, elektron o'quv materiallarida bilimlarni to'liq o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasining mohiyati, uning tarkibiy bosqichlari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan bo'lib, bu manba texnologiyaning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Alibayevning so'nggi tadqiqotida Yangi O'zbekistonda innovatsion ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi va zamonaviy pedagogning ushbu jarayondagi o'zni masalasi ko'tarilgan bo'lib, unda to'liq o'zlashtirish texnologiyasi kabi yondashuvlarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarurati asoslab berilgan [10].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili natijasida to'liq o'zlashtirish texnologiyasining samaradorligini belgilovchi bir qancha asosiy omillar aniqlandi. Birinchidan, ushbu texnologiyaning markaziy g'oyasi vaqt omilining moslashuvchanligidir, ya'ni an'anaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga bir xil vaqt ajratilib, natija turlicha bo'lishiga yo'l qo'yilsa, to'liq o'zlashtirish texnologiyasida aksincha, natija bir xil, ya'ni yuqori darajada belgilanadi va vaqt moslashuvchan omil sifatida qaraladi. Bu

yondashuv Blum tomonidan asoslangan asosiy tezisga to'g'ridan to'g'ri mos keladi, unga ko'ra o'quvchilarning aksariyati zarur vaqt va sharoit ta'minlangan taqdirda o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga qodir [1]. Ikkinchidan, formativ baholashning uzluksiz va tizimli xarakterda bo'lishi texnologiyaning samaradorligini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi, chunki bu jarayon o'qituvchiga o'quvchining qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini o'z vaqtida aniqlash va tegishli tuzatish choralarini ko'rish imkonini beradi, bu esa Guskey tomonidan ishlab chiqilgan amaliy modelning asosini tashkil etadi [2].

Uchinchidan, Anderson va Kravol taksonomiyasi asosida ta'lim maqsadlarini aniq va o'lchanadigan tarzda shakllantirish to'liq o'zlashtirish texnologiyasining samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi, zero maqsadlarning noaniqligi baholash mezonlarining ham noaniq bo'lishiga olib keladi, bu esa texnologiyaning butun mohiyatiga zid keladi [3]. Zamonaviy tadqiqotlarda ham ta'kidlanishicha, to'liq o'zlashtirish texnologiyasining nazariy asoslari pedagogik jarayonda tizimli tarzda qo'llanilganda, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada ortadi, chunki har bir o'quvchi o'z sur'atida ilgirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi [4].

Mahalliy pedagogika fanida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'liq o'zlashtirish texnologiyasi innovatsion pedagogik texnologiyalar tizimida individuallashtirilgan yondashuvning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi va uni joriy etish o'quvchilarning bilim sifatini oshirishga xizmat qiladi [5]. Shu bilan birga, ushbu texnologiyaning nazariy asoslarini o'rganish jarayonida uning tarkibiy tuzilishi, ya'ni maqsad qo'yish, mazmunni modallashtirish, o'qitish, baholash va tuzatish bosqichlaridan iborat yaxlit tizim ekanligi alohida ta'kidlanadi [6]. Xodjayevning tarixiy-pedagogik tahlilida ko'rsatilishicha, ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan yondashuvlar pedagogika fani rivojining tabiiy natijasi bo'lib, ular an'anaviy transmissiv ta'lim modelidan farqli o'laroq o'quvchi shaxsini markazga qo'yadi [7].

Shuningdek, amaliy manbalarda ta'kidlanishicha, bilimlarni to'liq o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasini joriy etish uchun o'quv dasturini aniq mantiqiy bloklarga bo'lish, har bir blok bo'yicha aniq o'zlashtirish mezonlarini belgilash va diagnostik testlar tizimini yaratish zarur hisoblanadi [9]. Bizning tahlilimizcha, ushbu talablar nazariy jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etishda bir qator obyektiv qiyinchiliklar mavjud, jumladan o'qituvchining yuklamasi ortishi, qo'shimcha o'qitish soatlarini tashkil etishning moliyaviy va tashkiliy jihatlari hamda ta'lim muassasalarida moslashuvchan dars jadvalini

shakllantirish imkoniyatining cheklanganligi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, to'liq o'zlashtirish texnologiyasining nazariy jihatdan yuqori samaradorlikka ega ekanligi shubhasiz bo'lsa-da, uni keng ko'lamda joriy etish uchun ta'lim tizimining institutsional va moliyaviy imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur.

Alibayevaning so'nggi tadqiqotida ko'rsatilishicha, Yangi O'zbekistonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki aynan o'qituvchining texnologik savodxonligi va moslashuvchanligi to'liq o'zlashtirish kabi murakkab texnologiyalarning muvaffaqiyatli qo'llanilishini belgilaydi [10]. Bizningcha, bu fikr alohida e'tiborga loyiq, zero ko'plab hollarda texnologiyaning o'zi emas, balki uni qo'llovchi mutaxassisning tayyorgarlik darajasi natijaviylikni belgilovchi hal qiluvchi omilga aylanadi. Shu bois to'liq o'zlashtirish texnologiyasini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishda pedagog kadrlarni maxsus tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, raqamli ta'lim vositalaridan foydalangan holda formativ baholash jarayonini avtomatlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtirish

texnologiyasining amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida faqat metodik va tashkiliy omillar emas, balki psixologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtirish texnologiyasi zamonaviy pedagogika fanining nazariy jihatdan yetarlicha asoslangan va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Blum tomonidan ilgari surilgan asosiy g'oya, ya'ni barcha o'quvchilarga mos sharoit va yetarlicha vaqt berilgan taqdirda yuqori natijaga erishishi mumkinligi, keyingi tadqiqotchilar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirilib, ta'lim jarayonini modullashtirish, formativ baholashni tizimli joriy etish va differensial yondashuvni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Mahalliy pedagogika fani ham ushbu yo'nalishda muayyan ilmiy salohiyatga ega bo'lsa-da, texnologiyani aniq fan sohalari va ta'lim bosqichlariga moslashtirish borasidagi metodik ishlanmalar yetarli emasligi aniqlandi. Shu bois kelgusi tadqiqotlarda to'liq o'zlashtirish texnologiyasini milliy ta'lim tizimining turli bosqichlari uchun moslashtirilgan holda, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va raqamli baholash vositalarini keng joriy etish masalalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bloom B. S. Learning for Mastery // Evaluation Comment. 1968. – Vol. 1, No. 2. – P. 1–12. – URL: <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED053419.pdf>
2. Guskey T. R. Implementing Mastery Learning. – Belmont, CA: Wadsworth Publishing, 1997. 216 p. – URL: <https://www.guskey.com/books/implementing-mastery-learning/>
3. Anderson L. W., Krathwohl D. R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. 352 p. – URL: <https://books.google.com/books?id=JPKXAQAAMAAJ>
4. Djalolov F. Theoretical Foundations of the Technology of Mastery Learning in the Pedagogical Process // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. 2025. – Vol. 4, No. 10. – P. 1416–1419. – URL: <https://ijmri.de/index.php/jmsi/article/view/2982>
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. 208-b.
6. Yo'ldoshev J. F., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. 152-b.
7. Xodjayev B. X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 384-b.
8. Abdurakhimova M. M. qizi. Pedagogik texnologiyalarning mazmuni va mohiyati // Educational Research in Universal Sciences. 2024. – Vol. 2, Maxsus son. B. 650–655. – URL: <https://erus.uz/index.php/er/article/view/5680>
9. Bilimlarni to'liq o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasi. – Elektron o'quv material. – URL: <https://pdfbox.uz/doc/pedagogika/37741-bilimlarni-toliq-ozlashtirishga-qaratilgan-talim-texnologiyasi>
10. Alibayeva U. A. Yangi O'zbekistonda innovatsion ta'lim texnologiyalari va zamonaviy pedagogning o'rni // Advances in Science and Education. 2026. – Vol. 2, No. 1. B. 98–101. – URL: <https://science-education.uz/index.php/journal/article/view/300>

Shoxista YOQUBBOYEVA,
Namangan davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
shoxistayoqubboyeva@gmail.com

ANTONIMIYA HODISASINING IFODALANISHI (Iqbol Mirzo she'rlari misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning she'riyatida qo'llanilgan antonimiya hodisasi leksemalar va frazeologizmlar o'rtasida tahlil qilingan. Adib ijod jarayonida turli maqsadlarda antonimlardan foydalangan. So'z takrorini oldini olish, so'zning ma'no ifodalash qiymatini oshirish va she'rlarining rang-barang bo'yoqdorlikka ega bo'lishida antonimiya hodisasi muhim rol o'ynaydi. Maqoladagi she'riy misralarning barchasi "Ko'zlaringga termulsaydim" she'riy to'plamidan olingan.

Kalit so'zlar: *leksik va kontekstual antonimlar, frazeologizmlar, antonimik juftlik, semantik-stilistik xususiyatlar.*

Аннотация: в данной статье анализируется феномен антонимии, используемой в поэзии народного поэта Узбекистана Икбала Мирзо, среди лексем и фразеологизмов. Писатель использовал антонимы в различных целях в творческом процессе. Феномен антонимии играет важную роль в предотвращении повторения слов, повышении выразительной ценности слов и придании его стихам красочности. Все поэтические строки в статье взяты из сборника стихов «Я стал источником вдохновения для своих глаз».

Ключевые слова: *лексические и контекстуальные антонимы, фразеологизмы, антонимическая пара, семантико-стилистические особенности.*

Annotation: this article analyzes the phenomenon of antonymy used in the poetry of the people's poet of Uzbekistan Iqbal Mirzo among lexemes and phraseologisms. The writer used antonyms for various purposes in the creative process. The phenomenon of antonymy plays an important role in preventing word repetition, increasing the expressive value of words, and giving his poems a colorful color. All poetic lines in the article are taken from the poetry collection «I have become a source of inspiration for my eyes.»

Key words: *lexical and contextual antonyms, phraseologisms, antonymic pair, semantic-stylistic features.*

Badiiy asar tilida poetik individuallikni ta'minlash uchun ijodkorlar barcha til birliklaridan unumli foydalanishadi. Xususan, antonimlar adiblar, shoirilar maqsadini tugal ochib berishda asosiy vosita sanaladi. "Antonimiya so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. Ya'ni o'zaro qarama-qarshi ma'noga ega so'z juftligi antonim deyiladi" [2:178]. Tilda antonim so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Shoir va yozuvchilar voqelikni narsa va hodisalarning belgi-xususiyatlaridagi farqli tomonlarini ko'rsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda kuchli stilistik vosita sifatida antonimlardan o'rinli foydalanadi.

U kun ham, u to'n ham qoldi o'tmishda,

Ovro'paning kalta cho'poni keldi.

Asada, bayramda, uyda-yu ishda [1:37].

Ushbu misralarda qo'llangan "Aza" va "bayram" so'zlari antonim juftliklaridan biri hisoblanadi. Aza – qayg'u, motam, g'am kechiriladigan holat, bayram – quvonch, shodlik, tantana. Shuning uchun so'zlar leksik antonimlar (yoki grammatik antonimlar) toifasiga kiradi. Bu juftlik ko'pincha badiiy matnda qarama-qarshi holatlar, kayfiyatlar yoki voqealar ketma-ketligini ifodalashda ishlatiladi. Iqbol Mirzo ham bu orqali hayotdagi ziddiyatlarni poetik ifoda qiladi.

Antonimlar qarama-qarshi ma'no ifodalash uslubi va ishlatilish kontekstiga qarab leksik va kontekstual antonimlarga bo'linadi. Leksik antonimlar lug'aviy ma'noda bir-biriga qarama-

qarshi bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Ular alohida olinganda ham antonimlik ma'nosini yo'qotmaydi. Quyida Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llanilgan leksik antonimlar bilan tanishamiz.

Bozorda – *shaytonning* to'yxonasida

Raqsh tushib, isiriq tutatib yurar *farishta* [1:61].

Bu yerda Iqbol Mirzoning o'tkir iste'dodi, ziddiyatlar orqali chuqur ma'no berish uslubi yaqqol seziladi. "Shayton" — "Farishta" juftligi leksik-semantik (grammatik) antonimlarga kiradi. Ular lug'aviy jihatdan doimiy qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydi: *Shayton* – yovuzlik, yomonlik timsoli, *farishta* – ezgulik, poklik timsoli. Bu — klassik, diniy-madaniy asosga ega bo'lgan doimiy antonim juftlik.

Ishq qadimiy masaldir:

Ham *zahar*, ham *asaldir*.

Ikkisiga kosa bir,

Asaldayin zaharim [1:79].

Bu she'r parchasi juda chuqur ma'no va badiiy ifodaga ega — ayniqsa ishq tushunchasi atrofidagi qarama-qarshiliklar orqali tuyg'ular ziddiyatini juda go'zal yoritadi. "Zahar" — "asal" leksik antonimlardir. *Zahar* – halokatli, zararli, yomon, *asal* – shirin, yoqimli, foydali. Ular lug'aviy jihatdan hamisha qarama-qarshi ma'noga ega. Shoir bu ikki tushunchani ishq orqali birlashtirgan: ishq ham azobli, ham lazzatli. "Asaldayin zaharim" — metaforik ziddiyat, bu misrada kontekstual antonimlik kuchaytirilgan. "Zaharim" — azob, og'riq, ammo "asaldayin" — uni shirin qilib ko'rsatadi. Demak, bu ziddiyatli obraz — og'riq ichidagi lazzat,

azob ichidagi baxt g'oyasini beradi. Bu ifoda kuchli stilistik kontrast orqali yaratilgan, shoirning poetik mahoratini yaqqol ko'rsatadi.

Ikki qayiq boshin tutgan bo'lar nobud:

Birining ismi – *beshik*, biri – *tobut* [1:162].

Misralarda qo'llangan "*Beshik*" — "*tobut*" leksik antonimlar guruhiga mansubdir. *Beshik* — yangi tug'ilgan chaqaloqning uyi, hayotning boshlanishi, yashash, o'sish, umid, *tobut* — o'lim, hayotning oxiri, halokat. Bu ikki so'zning qarama-qarshiligi juda aniq — bir tomondan hayot, boshqa tomondan o'lim, boshlanish va tugash. Ajratib ko'rsatilgan misralarda shoir hayot va o'limning ajralmasligini, ulardagi ziddiyatni, bir-birini to'ldiruvchi holatlarini ko'rsatadi. *Beshik* va *tobut* kabi qarama-qarshi tushunchalar orqali hayotning o'tuvchanligi va beqarorligini ifodalaydi.

Kontekstual antonimlar faqat ma'lum kontekstda, matn doirasida bir-biriga qarama-qarshi bo'lib chiqadi, lug'aviy jihatdan ular antonimlar hisoblanmaydi, lekin she'r yoki matnda qarama-qarshi mazmunni ifodalashga xizmat qiladi.

Bo'm-bo'sh yuragimda *kashf etdim* sizni,

Bilmayman bu baxtmi yoki omadim.

Yoshli ko'zlarimga *berkitdim* sizni,

Ammo sevaman deb ayta olmadim [1:33].

Ajratib ko'rsatilgan "*kashf etdim*" va "*berkitdim*" so'zlari o'zaro munosabati jihatidan kuchli kontekstual antonimlik yaratadi. *Kashf etdim* — ochdim, topdim, yuzaga chiqardim, ya'ni aniqlik va oshkorlik ifodasidir, *berkitdim* — yopdim, yashirdim, ichimga soldim, ya'ni yashirinlik, sir saqlash ifodasidir. Bu juftlik doimiy antonim sifatida lug'aviy ro'yxatlarda keltirilmaydi, shuning uchun leksik antonimlar emas. Ammo mazmunan, kontekstda ular kuchli ziddiyat yaratgan. Bu holat orqali ichki kechinma va tashqi ifoda o'rtasidagi ziddiyat, ochish istagi va sukunat majburiyati go'zal poetik tarzda ifodalangan

Seni obqochib ketaman!

Gulgun qo'shiqlar mamlakatida

O'tli o'lan aytib o't-o'lan aro,

Tillaqo'ng'izlarning saltanatida

Xon qizi bo'lursan, men, mayli, *gado*... [1:57]

"*Xon qizi*" va "*gado*" — kuchli ijtimoiy va badiiy ziddiyatni ifodalovchi obrazlar. *Xon qizi* — hukmdor, boy, yuqori tabaqa vakilining qizi; hashamat, izzat, martaba timsoli, *gado* — faqir, muhtoj, kambag'al; ko'pincha tilanchi yoki past tabaqadagi odam ma'nosida ishlatiladi. Bu juftlik kontekstual antonim sifatida ishlatiladi. She'riyatda ko'pincha imkonsiz muhabbat, taqiqlangan

rishtalar, yoki ruhiy tenglikka qaramay ijtimoiy tengsizlikni ko'rsatishda ishlatiladi.

Antonimiya hodisasi faqatgina leksemalarda emas, balki frazeologizmlarda ham uchraydi. Antonimiya hodisasini belgilash, birinchidan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, ko'p ma'nolik hodisasida bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi [3:441].

Iqbol Mirzo she'rlarida bir-biriga antonim bo'la oladigan iboralar ham juda ko'p qatnashgan bo'lib, ular ifodalilikni kuchaytirish uchun, qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, narsalarni, shaxslarning xarakterlarini qiyoslash yoki bir xil narsa-hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlash uchun xizmat qiladi.

Biz oh ursak, har oshiqdan ko'ra oshiq ohimiz bor,

Ko'ylagining shamolidan samolarda xokimiz bor.

Ko'nglimiz yo'q, dog'imiz bor, dog'i yo'q dilxohimiz bor,

Gunohkormiz, *ko'ngil berdik*, endi tan olmog'imiz bor,

Qalbimizni qayta bersin, tashlasin ostonasiga,

Buncha jafo qilmasalar begonaning bolasiga! [1:149].

"O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da *Ko'ngil bermoq* iborasi "*Sevmoq*, oshiq bo'lmoq" ma'nosini, *ko'ngli yo'q* iborasi esa "*Istamaslik*" ma'nosini bildirishi ko'rsatib o'tilgan [4:153]. Yuqordagi she'riy misralarda *ko'ngli yo'q* va *ko'ngil bermoq* iboralari o'zaro zidlanib antonimlikni yuzaga keltirgan.

O'rgimchak to'rini daryoga soldim,

Tillo baliq tutib, ziyoga soldim,

O'zimning *jonimni baloga soldim*.

Shu shirin *jonimni saqlagim keldi*,

Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi [1:77].

Shoir ushbu she'rda dunyo tashvishlaridan charchaganlari, jonini ba'zan baloga solgani, o'zini qiynagani ba'zan shu jonini azoblardan, qiyinchiliklardan saqlagisi kelgani, hammasidan ham yorning oyog'ini quchib yig'lagisi kelganini tasvirlamoqda. *Jonini baloga solmoq* va *Jonini saqlamoq* iboralari o'zaro zidlanib antitezani yuzaga keltirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llanilgan antonimlarning semantik va stilistik xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek tili lingvopoetikasini boyitishga va taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Shoir tomonidan yaratilgan individual antonimlar shoir she'riyatining o'ziga xosligi, betakrorligini o'zida namoyon etgan va ular shoir she'riyatining gulto'ji hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iqbol Mirzo. Ko'zlarimga termulsaydim. — Toshkent: Sharq, 2020.
2. Mirto'jiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent, 2004. 178-bet
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. — Toshkent: Universitet, 2006.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1978.

Kh.M.BEKBERGANOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

ONLAYN MEDIA DISKURSDA PERSUAZIYA VA MANIPULYATSIYANI FARQLASHNING LINGVOPRAGMATIK MEZONLARI

Annotatsiya: maqolada onlayn media diskursda persuaziya (ochiq ishontrish) va manipulyatsiya (yashirin ta'sir) hodisalarini farqlashning to'rt lingvopragmatik mezonni asoslanadi: niyatning ochiqligi, dalilning tekshirilishi, epistemik avtonomiyaga hurmat va kooperatsiya maksimalariga munosabat. Ushbu mezonlar J.Ostin va J.Serlning nutq aktlari nazariyasi, H.Grays kooperatsiya prinsipi hamda T.van Deyk va N.Ferklouning tanqidiy diskurs tahlili asosida ishlab chiqilgan. Maqolada persuaziya va manipulyatsiya qat'iy ikkilik emas, balki kontinuum sifatida talqin etiladi va matnni baholash uchun diagnostik savollar taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: *persuaziya, manipulyatsiya, nutq aktlari, kooperatsiya prinsipi, tanqidiy diskurs tahlili, epistemik avtonomiya, presuppozitsiya, implikatura, onlayn media diskurs.*

Аннотация: в статье обосновываются четыре лингвопрагматических критерия разграничения персуазии (открытого убеждения) и манипуляции (скрытого воздействия) в онлайн-медиадискурсе: открытость интенции, верифицируемость аргумента, уважение эпистемической автономии и отношение к максимам кооперации. Критерии разработаны на основе теории речевых актов Дж.Остина и Дж.Сёрла, принципа кооперации Г.Грайса и критического дискурс-анализа Т.ван Дейка и Н.Фэркло. Персуазия и манипуляция трактуются как континуум, а не жёсткая дихотомия.

Ключевые слова: *персуазия, манипуляция, речевые акты, принцип кооперации, критический дискурс-анализ, эпистемическая автономия, presupпозиция, импликатура, онлайн-медиадискурс.*

Annotation: the article substantiates four linguopragmatic criteria for distinguishing persuasion (overt influence) from manipulation (covert influence) in online media discourse: openness of intention, verifiability of evidence, respect for epistemic autonomy, and attitude towards the maxims of cooperation. The criteria are developed on the basis of the speech act theory of J.Austin and J.Searle, H.Grice's cooperative principle, and the critical discourse analysis of T.van Dijk and N.Fairclough. Persuasion and manipulation are treated as a continuum rather than a rigid dichotomy.

Key words: *persuasion, manipulation, speech acts, cooperative principle, critical discourse analysis, epistemic autonomy, presupposition, implicature, online media discourse.*

Kirish. Onlayn media diskursida til nafaqat axborot uzatish, balki auditoriyaga pragmatik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'sir ikki shaklda kechadi: ochiq, tinglovchi tomonidan anglanishi mumkin bo'lgan ishontrish (persuaziya) va yashirin, tinglovchi sezmaydigan ta'sir (manipulyatsiya). Ikki hodisa bir xil til mexanizmlaridan foydalangani sababli, ularni ishonchli farqlash zamonaviy lingvopragmatikaning muhim muammosidir. Mazkur maqolaning maqsadi — persuaziya va manipulyatsiyani farqlashning aniq, operatsionlashtirilishi mumkin bo'lgan lingvopragmatik mezonlarini ishlab chiqishdir. Vazifalar: xalqaro nazariy manbalar asosida farqlash asoslarini aniqlash; ularni yagona mezonlar tizimiga birlashtirish; amaliy tahlil uchun diagnostik savollarni taklif etish. Ishning yangiligi — tarqoq nazariy yondashuvlarni yagona, gradual (kontinuumga asoslangan) mezonlar tizimiga jamlashdadir.

Adabiyotlar tahlili

Persuaziya va manipulyatsiyaning nazariy negizi J.Ostinning nutq aktlari nazariyasi bilan bog'liq: u tilning performativ tabiatini va nutqiy aktning muvaffaqiyat shartlarini (felicity conditions) asoslaydi [1]. J.Serl illokutiv aktlar tasnifini va bilvosita nutqiy aktlar

tushunchasini rivojlantiradi [2]. H.Grays kooperatsiya prinsipi va to'rt maksimani kiritib, maksimaning ochiq (flouting) va yashirin (violating) buzilishini farqlaydi [3]. T.van Deyk manipulyatsiyani diskurs, kognitsiya va jamiyat munosabati hamda "mental modellar" orqali izohlaydi [4]. N.Ferklou "tabiiylashtirish" (naturalization) mexanizmini ochib beradi [5]. G.Lich nazokat maksimalarini [6], R.Sialdini ijtimoiy ta'sir tamoyillarini [7] tizimlashtiradi. D.Mayya va S.Osvald manipulyatsiyani kognitiv illuziyalardan foydalanish sifatida ta'riflaydi [8]. Onlayn muhitning o'ziga xosligi J.Suler [9] va M.Zappavigna [10] ishlarida yoritilgan. O'zbek tilshunosligida pragmalingsvistik yondashuv Sh.Safarov tomonidan rivojlantirilgan [11]. Biroq ushbu manbalarda farqlash mezonlari tarqoq holda berilgan; ularni yagona operatsional tizimga birlashtiruvchi yondashuv yetarli ishlanmagan.

Metodologiya

Tadqiqotda lingvopragmatik tahlil, diskurs-tahlil va komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan. Yondashuv nutq aktlari nazariyasi, kooperatsiya prinsipi va tanqidiy diskurs tahlilini uyg'unlashtirishga asoslanadi. Har bir mezon muayyan nazariy manbaga bog'lanadi va unga mos diagnostik savol shakllantiriladi. Matnlar "sof" toifaga emas, balki persuaziya-

manipulyatsiya shkalasidagi nuqtaga joylashtiriladi — bu gradual yondashuv zamonaviy pragmatikada afzal ko'riladi.

Tahlil va natijalar

Birinchi mezon — niyatning ochiqqligi. U Ostin-Serlning samimiylik sharti va bilvosita nutqiy aktlar tushunchasidan kelib chiqadi: persuaziyada ta'sir niyati anglab olinishi mumkin, manipulyatsiyada esa u boshqa, "zararsizroq" illokutiv shakl (masalan, sof informatsion bayonot) ostida niqoblanadi. Masalan, "Bu kremni ishlatib ko'rishni tavsiya qilamiz" (ochiq direktiv) va "Terisi sog'lom ayollar bu kremdan foydalanadi" (assertiv shaklga niqoblangan yashirin direktiv) juftligi shu farqni ko'rsatadi [1; 2].

Ikkinchi mezon — dalilning tekshirilishi imkoniyati. U Grays sifat maksimasiga bog'lanadi: persuaziv dalil mustaqil tekshirilishi mumkin, manipulyativ dalil esa mavhumlashtirish, kontekstdan uzib olish yoki soxta korrelyatsiya orqali tekshirib bo'lmaydigan holga keltiriladi [3]. Uchinchi mezon — epistemik avtonomiyaga hurmat: persuaziyada xulosa tinglovchiga qoldiriladi, manipulyatsiyada esa u kognitiv-emotsional bosim ostida cheklanadi; bu mezon van Deykning mental modellar nazariyasi bilan bog'liq [4]. To'rtinchi mezon — kooperatsiya maksimalariga munosabat: farqlash uchun maksima buzilishining ochiq (flouting, implikatura hosil qiluvchi) yoki yashirin (violating) ekanligiga e'tibor qaratiladi [3].

1-jadval. Persuaziya va manipulyatsiyani farqlash mezonlari

Mezon	Nazariy asos	Diagnostik savol
Niyatning ochiqqligi	Ostin-Serl [1; 2]	Ta'sir niyati anglashiladimi yoki niqoblanganmi?
Dalilning tekshirilishi	Grays [3]	Dalil mustaqil tekshirilishi mumkinmi?
Epistemik avtonomiya	van Deyk [4]	Xulosa tinglovchiga qoldirilganmi?
Kooperatsiya maksimalari	Grays [3]	Buzilish flouting yoki violating shakldami?

Yaxlit misol sifatida quyidagi matnni ko'rib chiqamiz: «Ko'pchilik ekspertlar bu vitaminni tavsiya qiladi, chunki u energiyani oshiradi — hoziroq buyurtma bering, chegirma faqat bugun». Ushbu matn to'rt mezon bo'yicha tahlil qilinganda quyidagi manzara ochiladi: (1) niyat ochiqqligi — direktiv niyat ("buyurtma bering") qisman assertiv tavsiya bilan niqoblangan; (2) dalil tekshirilishi — "ko'pchilik ekspertlar" va energiya da'vosi mustaqil tekshirilishi mumkin emas; (3) epistemik avtonomiya — "hoziroq", "faqat bugun" kabi shoshiltiruvchi vositalar mustaqil o'ylash imkonini cheklaydi; (4) kooperatsiya maksimalari — miqdor va sifat maksimalari yashirin (violating) buzilgan. Uchala mezon bo'yicha matn manipulyatsiya qutbiga yaqinlashadi. Bu misol ko'rsatadiki, mezonlar birgalikda qo'llanilganda matnning haqiqiy pragmatik mohiyatini aniqlashning ishonchli vositasini beradi [3; 7].

Ushbu to'rt mezon amaliyotda kontinuum tarzida namoyon bo'ladi: matn bir mezon bo'yicha persuaziv, boshqasi bo'yicha manipulyativ bo'lishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotchi matnni to'rt mezon bo'yicha baholab, o'rtacha indeks orqali uni shkalaga joylashtiradi. Muhim metodologik nuqta

shundaki, alohida til vositasi (masalan, baholovchi leksika yoki presuppozitsiya) o'z-o'zidan manipulyatsiyani isbotlamaydi — u faqat to'rt mezon bilan birgalikda, diskurs darajasida baholanganda diagnostik ahamiyat kasb etadi [4; 8]. Onlayn muhit bu jarayonni murakkablashtiradi: J.Suler ko'rsatgan anonimlik, asinxronlik va avtoritetning minimallashtirish kabi omillar manipulyatsiyaning sezilmasdan tarqalishiga qulaylik yaratadi [9; 10].

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijasida persuaziya va manipulyatsiyani farqlashning to'rt mezonli tizimi — niyatning ochiqqligi, dalilning tekshirilishi, epistemik avtonomiyaga hurmat va kooperatsiya maksimalariga munosabat — ishlab chiqildi. Ushbu tizim ikki hodisani qat'iy ikkilik emas, balki kontinuum sifatida ajratish va matnni operatsionlashtirilgan diagnostik savollar orqali baholash imkonini beradi. Natijalar media matnlarini tahlil qilish, media savodxonligini oshirish va manipulyativ kontentni aniqlash amaliyotida qo'llanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda mezonlarni real korpus asosida statistik sinovdan o'tkazish istiqbolli yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J.L. How to Do Things with Words. — Oxford: Clarendon Press, 1962. — 168 p.
2. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 1969. — 203 p.
3. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. — New York: Academic Press, 1975. — P. 41–58.
4. van Dijk T.A. Discourse and Manipulation // Discourse & Society. — 2006. — Vol. 17, No. 3. — P. 359–383.
5. Fairclough N. Language and Power. — London; New York: Longman, 1989. — 259 p.

Нина ГОНЧАРОВА,
 ст. преподаватель

Кокандского государственного университета

ПОЭТИКА САКРАЛЬНОЙ ЛЮБВИ В ПОВЕСТИ А.И. КУПРИНА «ГРАНАТОВЫЙ БРАСЛЕТ» И НОВЕЛЛЕ С. ЦВЕЙГА «ПИСЬМО НЕЗНАКОМКИ»

Аннотация: в статье исследуется поэтика сакральной любви в повести А. И. Куприна «Гранатовый браслет» и новелле С. Цвейга «Письмо незнакомки». На основе сравнительно-типологического анализа, опирающегося на концепцию диалогической природы личности М. М. Бахтина, семиотический подход Ю. М. Лотмана и принципы сравнительного литературоведения, выявляются особенности художественного воплощения мотивов молитвы, страсти, благодарности и памяти. Особое значение приобретают письмо, дар, музыка и цветы, выступающие символами любви, продолжающей существовать после утраты.

Ключевые слова: сакральная любовь, мотив молитвы, мотив страсти, мотив благодарности, символика, память, сравнительное литературоведение.

Annotatsiya: maqolada A. I. Kuprinning «Anor bilaguzuk» qissasi va S. Svaygning «Notanish ayol maktubi» novellasida muqaddas muhabbat poetikasi tadqiq etiladi. M. M. Baxtinning shaxsiyatning dialogik tabiati konsepsiyasi, Y. M. Lotmanning semiotik yondashuvi hamda qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillariga asoslangan qiyosiy-tipologik tahlil asosida ibodat, ehtiros, minnatdorlik va xotira motivlarining badiiy ifodalanish xususiyatlari aniqlanadi. Muhabbatning yo'qotishdan keyin ham mavjud bo'lishini ifodalovchi ramzlar sifatida maktub, tuhfa, musiqa va gullar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: muqaddas muhabbat, ibodat motivi, ehtiros motivi, minnatdorlik motivi, ramziylik, xotira, qiyosiy adabiyotshunoslik.

Annotation: the article examines the poetics of sacred love in A. I. Kuprin's novella "The Garnet Bracelet" and S. Zweig's short story "Letter from an Unknown Woman". Based on a comparative-typological analysis grounded in M. M. Bakhtin's concept of the dialogic nature of personality, Yu. M. Lotman's semiotic approach, and principles of comparative literature, the study reveals the specific features of the artistic representation of the motifs of prayer, passion, gratitude, and memory. Particular significance is attached to the letter, gift, music, and flowers, which function as symbols of love that continues to exist beyond loss.

Key words: sacred love, motif of prayer, motif of passion, motif of gratitude, symbolism, memory, comparative literature.

Введение

В литературе начала XX века любовь нередко становится формой духовного испытания, раскрывающей способность человека к самоотдаче, верности и нравственному выбору. Повесть А. И. Куприна «Гранатовый браслет» (1911) и новелла С. Цвейга «Письмо незнакомки» (1922), принадлежащие разным национальным литературным традициям, обнаруживают типологическое сходство в изображении любви, не получающей взаимного осуществления, но сохраняющей внутреннюю ценность. Их сопоставление позволяет рассматривать сакральную любовь как особую художественную модель, основанную на признании безусловной ценности Другого.

Методологическая основа исследования.

Методологическую основу исследования составляет сравнительно-типологический подход, позволяющий выявлять сходные художественные структуры при отсутствии прямой генетической связи между произведениями. Теоретическую базу анализа формируют концепция диалогической природы личности М. М. Бахтина, рассматривающая отношение к Другому как основу личностного бытия, и семиотический подход Ю. М. Лотмана,

согласно которому художественные символы сохраняют и актуализируют культурные смыслы. В исследуемых произведениях такую функцию выполняют письмо, подарок, музыка и цветы.

В литературоведении неоднократно отмечалась особая роль любовной темы в творчестве А. И. Куприна. Исследователи связывают «Гранатовый браслет» с гуманистической традицией русской литературы, в которой любовь приобретает значение нравственного подвига и духовного самоотречения.

Цель исследования — выявить особенности поэтики сакральной любви в повести А. И. Куприна «Гранатовый браслет» и новелле С. Цвейга «Письмо незнакомки» посредством анализа мотивов молитвы, страсти, благодарности и символики памяти.

1. Концепция сакральной любви в художественном мире А. И. Куприна и С. Цвейга

В повести А. И. Куприна «Гранатовый браслет» и новелле С. Цвейга «Письмо незнакомки» любовь изображается как духовный опыт, не зависящий от возможности взаимности. Авторы сосредоточивают внимание не на внешних обстоятельствах любовного конфликта, а на внутреннем

мире героев, для которых чувство становится способом нравственного самоопределения.

Cognitive Grammar and the Symbolic Nature of Language. Among the theoretical models that shaped cognitive linguistics, Ronald Langacker's Cognitive Grammar occupies a central position. Langacker challenged the traditional distinction between lexicon and grammar by proposing that all linguistic units represent symbolic pairings of form and meaning. According to this perspective, grammatical constructions possess semantic content and cannot be analyzed independently of conceptual knowledge. One of the principal innovations of Cognitive Grammar lies in its rejection of autonomous syntax. Instead of treating grammar as a separate computational module, Langacker argues that grammatical structures emerge from recurring patterns of language use. Frequent linguistic expressions gradually become conventionalized, forming schematic constructions that speakers recognize and employ during communication. This usage-based perspective has important implications for language acquisition and linguistic variation. Large electronic corpora demonstrate that grammatical constructions exhibit gradient patterns of frequency and productivity rather than categorical boundaries. These findings reinforce Langacker's original assumption that grammar reflects general cognitive processes rather than abstract symbolic computation. Despite its considerable explanatory power, Cognitive Grammar has also received criticism. Some scholars argue that the theory occasionally lacks precise formal definitions, making empirical verification more challenging than in computational linguistic models.

Results

The systematic analysis of classical and contemporary studies reveals that cognitive linguistics has undergone substantial theoretical and methodological transformation over the past four decades. Initially established as an alternative to formal linguistic theories, cognitive linguistics has evolved into an interdisciplinary paradigm that explains language through the interaction of cognition, perception, conceptualization, and human experience. The reviewed literature consistently demonstrates that linguistic meaning cannot be separated from cognitive processes, as language functions as a reflection of conceptual knowledge rather than an autonomous system of formal rules. The findings indicate that several theoretical frameworks have significantly contributed to the development of cognitive linguistics. Among them, Cognitive Grammar provides

a comprehensive explanation of grammar as a symbolic and meaning-based system, emphasizing the inseparable relationship between linguistic form and conceptual structure. Conceptual Metaphor Theory explains how abstract concepts are understood through mappings from concrete experiential domains, thereby demonstrating that metaphor constitutes a fundamental mechanism of human cognition rather than merely a rhetorical device. Similarly, Frame Semantics highlights the importance of background knowledge and conceptual structures in lexical interpretation, while Image Schema Theory illustrates how repeated bodily experiences shape human conceptual organization. Conceptual Blending Theory further extends these perspectives by explaining dynamic meaning construction through the integration of multiple mental spaces. Another important finding concerns the increasing interdisciplinary orientation of cognitive linguistics. Recent studies demonstrate that cognitive linguistic theories are widely applied in psycholinguistics, neurolinguistics, discourse analysis, translation studies, computational linguistics, artificial intelligence, and language education. The integration of cognitive linguistic principles into these disciplines has considerably expanded the explanatory power and practical relevance of cognitive research.

The review also reveals significant methodological developments. Earlier cognitive linguistic studies primarily relied on theoretical analysis and introspection. Contemporary research, however, increasingly combines qualitative interpretation with empirical methodologies, including corpus-based investigations, psycholinguistic

experiments, eye-tracking techniques, neuroimaging technologies, and computational modelling.

Conclusion

The present study examined the theoretical foundations and contemporary development trends of cognitive linguistics through a systematic review of classical and recent scholarly literature. The analysis confirms that cognitive linguistics has fundamentally transformed modern linguistic thought by positioning meaning, conceptualization, and human cognition at the center of linguistic inquiry. Unlike formal approaches that primarily emphasize structural regularities, cognitive linguistics explains language as an integral component of general cognitive activity shaped by perception, categorization, embodiment, and experience. Another important conclusion is that contemporary cognitive linguistics has become increasingly interdisciplinary. The integration of cognitive linguistic principles with psychology, neuroscience, corpus linguistics, computational linguistics, and artificial intelligence has considerably expanded both the theoretical and practical significance of the discipline.

Finally, cognitive linguistics should not be regarded merely as one of many linguistic theories but rather as a dynamic and continuously evolving research paradigm that offers a comprehensive explanation of the complex relationship between language, cognition, culture, and human experience. Its capacity to integrate theoretical insight with empirical evidence ensures that cognitive linguistics will remain one of the most influential directions of linguistic research in the coming decades.

References:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
2. Langacker, R. W. *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. (2008). Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford: Oxford University Press.
3. Evans, V., & Green, M. *Cognitive Linguistics: An Introduction*. (2006). Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press.
4. Geeraerts, D., & Cuyckens, H. (Eds.). *The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics*. (2007). The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. Oxford: Oxford University Press.
5. Fauconnier, G., & Turner, M. *The Way We Think*. (2002). The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. New York: Basic Books.
6. Johnson, M. *The Body in the Mind*. (1987). The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason. Chicago: University of Chicago Press.
7. Croft, W., & Cruse, D. A. *Cognitive Linguistics*. (2004). Cognitive Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press.

N. N. XOMIDOVA,
 EFL teacher in Kokand state university

INTERDISCIPLINARY CONNECTION OF GEOGRAPHY WITH ENGLISH LESSONS

Annotation: this article examines the interdisciplinary connection between geography and English language teaching. It explains how geographical content can create meaningful contexts for developing reading, speaking, listening, and writing skills, while English provides learners with access to international geographical information and intercultural communication.

Key words: *geography, English language teaching, interdisciplinary learning, CLIL, communication, map skills, intercultural competence.*

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya va ingliz tili ta'limi o'rtasidagi fanlararo bog'liqlik yoritiladi. Geografik mazmun o'qish, gapirish, tinglab tushunish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mazmunli kontekst yaratishi, ingliz tili esa xalqaro geografik axborot va madaniyatlararo muloqotga yo'l ochishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *geografiya, ingliz tili ta'limi, fanlararo ta'lim, CLIL, muloqot, xarita ko'nikmalari, madaniyatlararo kompetensiya.*

Аннотация: в статье рассматривается межпредметная связь географии и обучения английскому языку. Показано, как географическое содержание создаёт содержательный контекст для развития чтения, говорения, аудирования и письма, а английский язык открывает доступ к международной географической информации и межкультурному общению.

Ключевые слова: *география, обучение английскому языку, межпредметное обучение, CLIL, коммуникация, работа с картой, межкультурная компетенция.*

Introduction

Modern education increasingly emphasizes the ability to connect knowledge from different fields rather than study each subject in isolation. Geography and English are especially suitable for integration because both disciplines help learners understand the world, communicate about it, and interpret relationships among people, places, and environments. Geography supplies authentic topics—countries, climates, migration, natural hazards, cities, resources, and sustainable development—while English supplies the linguistic tools needed to describe, compare, explain, and evaluate these topics.

The connection is also practical. A large proportion of current maps, reports, documentaries, scientific websites, and international discussions is available in English. When students use English to explore geographical questions, language becomes a means of inquiry instead of only an object of memorization. At the same time, geographical knowledge gives language tasks a clear purpose. The central aim of interdisciplinary instruction is therefore dual: learners develop subject understanding and communicative competence through one coherent learning experience.

Interdisciplinary learning is based on the idea that complex real-world issues cannot be fully understood through a single school subject. Climate change, urbanization, water scarcity, tourism, global trade, and population movement combine physical, social, cultural, economic, and linguistic dimensions[1, p.421]. An integrated geography-English lesson allows students to examine these dimensions together. Instead of learning a disconnected list of words, students use vocabulary to interpret evidence, express spatial relationships, and discuss causes and consequences.

Geography and English develop several common competences. Both require careful reading of information, selection of relevant evidence, and clear presentation of conclusions. A geographical map is a multimodal text: learners must read symbols, scale, direction, labels, and visual patterns. English lessons can teach the language needed to verbalize that interpretation, including expressions such as north of, located along, densely populated, higher than, and due to. In this way, map literacy and language literacy reinforce one another.

The two subjects also share an emphasis on comparison and explanation. Geography students compare regions, climates, landscapes, and settlement patterns. English grammar provides comparatives, superlatives, linkers, and cause-effect structures that make these comparisons precise. For example, the statement 'The eastern region receives more rainfall because moist air rises over the mountains' simultaneously demonstrates geographical reasoning and accurate language use.

Authentic materials increase learner motivation because they show that English functions beyond the classroom. Weather forecasts, travel maps, satellite images, infographics, short reports, and environmental campaigns offer varied input at different levels of difficulty. Such resources stimulate curiosity and invite meaningful questions: Why do people live near volcanoes? How does a river influence a city? Which route is safer? Students are more willing to communicate when the answer matters and when visual evidence supports their ideas.

Integration also supports differentiated learning. Visual learners benefit from maps and diagrams; verbal learners benefit from discussion and writing; analytical learners benefit from data; and socially oriented learners benefit from

pair and group tasks[2, p.45]. Teachers can provide word banks, sentence starters, labeled maps, or simplified texts for learners who need support, while advanced students work with additional data or defend more complex conclusions.

Maps can generate purposeful speaking and writing tasks. In an information-gap activity, Student A and Student B receive maps with different missing details. They must ask and answer questions in English to complete them: 'Where is the railway station?' 'Which river crosses the capital?' or 'How far is the village from the coast?' The task develops prepositions of place, question forms, measurement language, and attentive listening. Because neither learner has all the information, communication is genuinely necessary.

Route-planning activities are equally effective. Groups receive a map, a limited budget, weather information, and several destinations. They choose a route and justify it using future forms, modal verbs, and geographical evidence [3, p.190]. A short written itinerary can follow the discussion. Assessment should reward both communicative clarity and the sensible use of map information.

Weather is familiar to students and adaptable to almost every proficiency level. Beginners identify symbols and produce simple forecasts; intermediate students compare seasonal conditions; advanced learners interpret climate graphs and explain long-term patterns. Teachers can combine listening to a forecast, reading a climate chart, speaking as a weather presenter, and writing advice for visitors. This sequence integrates all four language skills around one geographical concept. Data commentary provides a bridge from everyday English to academic language [4, p. 39]. Students learn phrases such as the figure rises gradually, reaches a peak, remains stable, or falls sharply. They should be asked not only to report numbers but also to infer possible causes. A comparison of rainfall in two cities, for instance, may lead to discussion of altitude, distance from the sea, prevailing winds, or continentality.

A longer project may ask students to design a sustainable neighborhood, investigate local water use, create an eco-tourism guide, or compare their region with an English-speaking region. Projects naturally combine research, note-taking, map design, oral presentation, and report writing. Clear checkpoints are essential: the teacher approves the question, checks sources, reviews a draft, and provides language feedback before the final product. A shared rubric should include geographical accuracy, organization, language, evidence, visual communication, and teamwork.

First, teachers should begin with a precise content objective and a precise language objective. 'Learn about climate' is too

broad; 'compare two climate graphs and explain two causes using comparative adjectives and cause-effect linkers' is observable and assessable. Second, the chosen geographical material should match learners' age, background knowledge, and language level. Visual support should clarify a challenging idea, not merely decorate the page[5, p.204].

Third, teachers should move from supported input to independent output. A useful sequence is: observe a model, notice key language, practice with guidance, discuss with peers, and produce an individual response. Word banks and sentence frames may be offered at the beginning and gradually removed. Fourth, students need explicit instruction in source evaluation. They should check the date, author, purpose, evidence, and reliability of online maps, statistics, videos, and articles.

Fifth, local geography should be connected with global perspectives. A lesson about water scarcity becomes more meaningful when learners examine their own community and then compare it with another region. Local observations give students confidence, whereas the international comparison expands vocabulary and intercultural understanding. Finally, collaboration between subject teachers should be realistic: even a shared vocabulary list, common project rubric, or coordinated sequence of topics can create continuity across lessons.

Conclusion

The interdisciplinary connection of geography with English lessons transforms language learning into purposeful exploration of the world. Geography offers authentic problems, visual texts, data, and cultural contexts; English enables students to access information, exchange viewpoints, and communicate conclusions to a wider audience. When content and language objectives are balanced, learners do more than memorize terminology: they interpret patterns, explain relationships, evaluate choices, and participate in informed discussion.

Successful integration does not require every English lesson to become a geography lesson. It requires carefully selected topics in which geographical thinking creates a genuine reason to read, listen, speak, or write. With appropriate scaffolding, reliable materials, collaborative tasks, and dual-focused assessment, the approach can strengthen language proficiency, subject knowledge, critical thinking, and global awareness at the same time. It thus responds to a central demand of contemporary education: preparing learners to understand an interconnected world and communicate responsibly within it.

List of used literature:

1. Brinton, D. M., Snow, M. A., & Wesche, M. B. (2003). Content-Based Second Language Instruction. University of Michigan Press.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
3. Dalton-Puffer, C. (2007). Discourse in Content and Language Integrated Learning Classrooms. John Benjamins.
4. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). Uncovering CLIL. Macmillan Education.
5. National Council for Geographic Education. (2012). Geography for Life: National Geography Standards (2nd ed.).

The background is a light blue surface with various educational items. At the top left is a yellow ruler. At the top center is an orange with two green leaves. At the top right is a blue spiral notebook. On the left side is a pink book with a white label. On the right side is a rolled-up white diploma tied with a blue ribbon. At the bottom center is an open book with a globe of the Earth resting on its pages. At the bottom left is a green pencil, and at the bottom right is a red pencil. Small colored dots (purple, orange, white) are scattered across the background.

PEDAGOGIKA

Nigora SAIDOVA,
*Farg'ona davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
E-mail: nigorasaidd89@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-6538-2092>

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijodkorlik shaxsning yangilik yaratish, muammoni noodatiy yo'l bilan hal etish va mavjud tajribani samarali qayta tashkil etish imkonini beruvchi muhim sifat sifatida yoritiladi. Maktabgacha ta'lim sharoitida ijodkorlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar — rivojlanishga mos ta'lim muhiti, o'yin faoliyati, emotsional qo'llab-quvvatlash, mustaqil tanlov imkoniyati va refleksiv yondashuv tahlil etildi. Reggio Emilia va rivojlanishga mos amaliyot (DAP) kabi yondashuvlar bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda muhim metodik tayanch bo'la olishi asoslandi. Maqolada ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar beriladi. Ijodkorlikni pedagogik jarayonga tizimli kiritish bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligini kuchaytirishi, bolalarda tashabbuskorlik va mustaqil fikrlashni shakllantirishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *bo'lajak tarbiyachi, ijodkorlik, pedagogik-psixologik xususiyatlar, maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, refleksiya, Reggio Emilia, rivojlanishga mos amaliyot, kreativ kompetensiya.*

Аннотация: в данной статье анализируются педагогико-психологические особенности развития творческих способностей у будущих воспитателей. Творчество освещается как важное качество личности, позволяющее создавать новшества, решать проблемы необычным способом и эффективно реорганизовывать существующий опыт. Были проанализированы основные факторы, влияющие на формирование творчества в условиях дошкольного образования: развивающая образовательная среда, игровая деятельность, эмоциональная поддержка, возможность самостоятельного выбора и рефлексивный подход. Обосновано, что такие подходы, как Reggio Emilia и практика, соответствующая развитию (DAP), могут стать важной методической базой в подготовке будущих воспитателей. В статье приводятся теоретические выводы и практические рекомендации по развитию творчества. Отмечается, что систематическое включение творчества в педагогический процесс усиливает профессиональную компетентность будущего воспитателя, формирует у детей инициативу и самостоятельное мышление.

Ключевые слова: *будущий воспитатель, творчество, педагогико-психологические особенности, дошкольное образование, игровая деятельность, рефлексия, Reggio Emilia, развивающая практика, креативная компетенция.*

Annotation: this article analyzes the pedagogical and psychological features of developing creative abilities in future educators. Creativity is highlighted as an important quality that allows an individual to create something new, solve a problem in an unconventional way, and effectively reorganize existing experience. The main factors influencing the formation of creativity in preschool education have been analyzed: a developmental learning environment, play activities, emotional support, opportunities for independent choice, and a reflexive approach. It has been substantiated that approaches such as Reggio Emilia and development-oriented practice (DAP) can serve as an important methodological basis for training future educators. The article provides theoretical conclusions and practical recommendations for developing creativity. It is emphasized that the systematic inclusion of creativity in the pedagogical process strengthens the professional competence of the future educator and fosters initiative and independent thinking in children.

Key words: *future educator, creativity, pedagogical and psychological characteristics, preschool education, play activity, reflection, Reggio Emilia, developmental practice, creative competence.*

Kirish. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsining ijodkorligi faqat darsni qiziqarli tashkil etish vositasi emas, balki bolalarning bilish faolligi, nutqi, ijtimoiy-emotsional moslashuvi va mustaqil fikrlashini shakllantirishning ham muhim shartidir. Ijodkorlik bo'yicha ilmiy adabiyotlarda odatda, yangilik va foydalilik mezonlari birgalikda ko'riladi: ya'ni ijodiy mahsulot nafaqat original, balki amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lishi kerak. Shu sababli bo'lajak tarbiyachida ijodkorlikni rivojlantirish — faqat badiiy qobiliyat emas, balki pedagogik vaziyatni tahlil qilish, yechim topish va uni moslashuvchan qo'llash qobiliyatidir [4].

Bugungi ta'limda ijodiy fikrlashning ahamiyati ortib bormoqda. OECDning kreativ tafakkurga oid yondashuvlari ham ta'lim tizimlarida yangilik yaratish, g'oya ishlab chiqish va uni baholash kabi ko'nikmalarni muhim ko'rsatkich sifatida e'tirof etadi. Bu holat bo'lajak tarbiyachilar tayyorlovida ijodkorlikni alohida kompetensiya sifatida shakllantirish zarurligini kuchaytiradi [5].

Metodologiya

Maqola nazariy-tahliliy yondashuv asosida yozildi. Tadqiqot metodlari sifatida pedagogik va psixologik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni umumlashtirish, tizimlashtirish va pedagogik sintez usullaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashga mos bo'lgan rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim, o'yin, muhit va kattalar hamkorligi kabi omillar alohida ko'rib chiqildi [2][3].

Nazariy asos sifatida rivojlanishga mos amaliyot (developmentally appropriate practice, DAP) va Reggio Emilia yondashuvi tanlandi. DAPda tarbiyachi bolaning yosh xususiyatlari, individual ehtiyojlari hamda ijtimoiy-madaniy kontekstini hisobga olgan holda faoliyatni tashkil etadi. Reggio Emilia yondashuvida esa bola faol subyekt sifatida qaraladi, muhit "uchinchi tarbiyachi" vazifasini bajaradi, ijodiy ifoda esa "yuz til" orqali namoyon bo'ladi [2][3].

Natijalar

Tahlil shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarda ijodkorlik qobiliyatlari uch asosiy yo'nalishda rivojlanadi: kognitiv, emotsional va faoliyatga doir yo'nalish. Kognitiv jihatdan tarbiyachi muammoni sezish, alternativ yechimlarni topish, tasavvur qilish va yangi pedagogik variantni tanlashga o'rganadi. Emotsional jihatdan u o'ziga ishonch, tashabbuskorlik, noaniqlikka bardoshlilik va xatodan qo'rqmaslik

sifatlarini egallaydi. Faoliyatga doir jihatdan esa o'yin, loyihaviy ish, dramatisatsiya, konstruksiyalash va ijodiy topshiriqlarni boshqarish malakasi shakllanadi. Bu xulosa ijodkorlikning faqat natija emas, balki fikrlash jarayoni ekanini tasdiqlaydi [4][6].


Maktabgacha ta'limda ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng samarali vositalardan biri o'yin hisoblanadi. O'yin bolaning tabiiy faoliyati bo'lib, u orqali tasavvur, nutq, muammo yechish, ijtimoiy muloqot va mustaqil qaror qabul qilish rivojlanadi. Tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, qo'l bilan bajariladigan, tajriba va konstruksiyalashga asoslangan faoliyatlar bolalarda ham, ularni boshqarayotgan pedagoglarda ham ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi [6].

Reggio Emilia yondashuvi bo'lajak tarbiyachilar uchun ayniqsa muhim, chunki unda bola qiziqishi, kuzatuv, hamkorlik va estetik muhit markazga qo'yiladi. Bu yondashuvda tarbiyachi tayyor bilim beruvchi emas, balki kuzatuvchi, yo'naltiruvchi va dialog tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Yaqinda AP va Reuters xabarlarida ham Reggio Emilia modeli bolalarning qiziqishi, ifodasi va hamkorlikka asoslangan ta'lim usuli sifatida yoritildi; unda standartlashtirishdan ko'ra, tabiiy rivojlanish va ijodiy izlanish ustuvor ekani ta'kidlangan [3].

Psixologik nuqtayi nazardan ijodkorlikni rivojlantirishda xavfsiz emotsional muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bola ham, bo'lajak tarbiyachi ham tanqid va qo'rquv kuchli bo'lgan sharoitda erkin g'oya bildirsa olmaydi. Aksincha, xato qilishga ruxsat berilgan, savol berish rag'batlantirilgan va mustaqil fikr qadrlangan muhitda ijodiy faollik oshadi. Shu sababli tarbiyachi tayyorlovida muloqot madaniyati, empatiya, refleksiya va ijobiy psixologik iqlim yaratish ko'nikmalari alohida o'rgatilishi kerak [2][4].

Muhokama

Topilgan natijalar ijodkorlikni rivojlantirishda uchta pedagogik-psixologik mexanizm muhimligini ko'rsatadi. Birinchisi — motivatsion mexanizm: bo'lajak tarbiyachi o'z faoliyatida qiziqish va ichki ehtiyoj asosida ishlashga o'rganishi kerak. Ikkinchisi — kognitiv mexanizm: muammoni turli rakursdan ko'ra bilish, g'oyalarni moslashtirish va original yechim topish. Uchinchisi — ijtimoiy-emotsional mexanizm: hamkorlikda ishlash, fikrni himoya qilish, boshqalar g'oyasini qabul qilish va o'zini nazorat qilish. Bu mexanizmlar uyg'unlashganda ijodiy kompetensiya barqaror shakllanadi [4][6].



1-rasm. Kreativ pedagogik kompetentlik

Tarbiyachi tayyorlovida faqat nazariy bilim yetarli emas. Amaliy mashg'ulotlar, mini-loyihalar, ijodiy topshiriqlar, rol o'yinlari va muammoli vaziyatlar orqali talaba faol pozitsiyaga chiqadi. Ayniqsa, tabiat materiallari, konstruktiv o'yinlar, ertakni sahnalashtirish, tasviriy faoliyat va STEM/STEAM elementlari ijodiy tafakkurni harakatga keltiradi. Bu yerda muhim jihat — tarbiyachi o'zini tayyor reja ijrochisi emas, balki muhitni yaratuvchi, savol qo'yuvchi va bolani o'ylashga undovchi shaxs sifatida ko'ra bilishidir [6].

Shuningdek, zamonaviy raqamli vositalar ham ijodkorlikni qo'llab-quvvatlashi mumkin, biroq ular pedagogik maqsadga xizmat qilgandagina samarali bo'ladi. Play-based va physical-digital o'yin texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar bolalar rivojlanishiga mos xulq va faoliyatni qo'llab-quvvatlashi mumkinligini ko'rsatadi. Demak, bo'lajak tarbiyachilar raqamli muhitni ham ijodiy topshiriqlar, kuzatish, hikoya qilish

va konstruksiyalash bilan uyg'unlashtirishni o'rganishlari lozim.

Xulosa. Bo'lajak tarbiyachilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismidir. Ijodkorlik pedagogik mahorat, psixologik barqarorlik, muammoli vaziyatni ko'ra bilish va yangi yechim topish qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq. Rivojlanishga mos amaliyot, Reggio Emilia yondashuvi, o'yin faoliyati va ijodiy muhit bu jarayonning samarali metodik asoslari hisoblanadi [2][3].

Tarbiyachi tayyorlov dasturlarida ijodiy topshiriqlar, refleksiv tahlil, loyiha faoliyati, sahnalashtirish, konstruktiv o'yin va muammoli vaziyatlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv bo'lajak tarbiyachining nafaqat bilimini, balki uning tashabbuskorligi, moslashuvchanligi va pedagogik ijodkorligini ham rivojlantiradi. Natijada maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning erkin fikrlashi, mustaqilligi va kreativ salohiyati yanada samarali shakllanadi [4][6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Demchenko E.P. Razvitie tvorcheskoy kompetentsii budushchikh pedagogov kak sostavlyayushchey podgotovki k rabote s odarennyimi detmi. *Pedagogika* (2019).
2. NAEYC (National Association for the Education of Young Children). Definition of Developmentally Appropriate Practice (2020). – *Policy Statement*.
3. Kurniawati A., Nurhayati S., Rukanda N. *Enhancing Early Childhood Education Teachers' Creativity through Professional Development Training Program*. Aulad: Journal on Early Childhood, 2024, Vol.7(1), pp.141–149.
4. Ata-Aktürk A., Sevimli-Çelik S. Creativity in early childhood teacher education: beliefs and practices. *Int. J. of Early Years Education* 2020, 31(2), pp. 152–171.
5. Kao C.-P., Lin K.-Y., Williams P.J. The influence of STEAM-based block play on creative imagination and performance in preschool children. *Int. J. of Technology and Design Education* 2026, 36:465–482.
6. Reggio Children. About the Reggio Emilia Approach (Reggio Education Principles).

Shohistaxon DADABAYEVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti mustaqil tadqiqotchisi*



AKADEMIK LITSEYLAR ADABIY TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI PRAGMATIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

Annotatsiya: mazkur maqolada akademik litseylar adabiy ta'limida o'quvchilarning ekologik madaniyatini pragmatik yondashuv asosida rivojlantirishning mavjud holati tahlil qilingan. Adabiy ta'limning ekologik tarbiyadagi o'rni, badiiy asarlarni tanlashning ilmiy-metodik asoslari hamda ekologik kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *akademik litsey, adabiy ta'lim, ekologik madaniyat, pragmatik yondashuv, ekologik tarbiya, ekologik kompetensiya, badiiy asar, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, ekologik savodxonlik.*

Annotation: this article analyzes the current state of developing students' ecological culture in academic lyceum literature education based on a pragmatic approach. The role of literature education in ecological education, the scientific and methodological principles of selecting literary works, and the opportunities for developing ecological competencies are discussed.

Key words: *academic lyceum, literature education, ecological culture, pragmatic approach, environmental education, ecological competence, literary work, State Educational Standard, curriculum, ecological literacy.*

Аннотация: в статье проанализировано современное состояние формирования экологической культуры учащихся академических лицеев на основе прагматического подхода в процессе литературного образования. Рассмотрены роль литературного образования в экологическом воспитании, научно-методические основы отбора художественных произведений и возможности формирования экологических компетенций.

Ключевые слова: *академический лицей, литературное образование, экологическая культура, прагматический подход, экологическое воспитание, экологическая компетенция, художественное произведение, Государственный образовательный стандарт, учебная программа, экологическая грамотность.*

Ma'lumki, globallashuv sharoitida ta'lim oluvchilarning atrof-olam haqidagi tushunchalarini oshirish, tabiat go'zalliklarini his etish, o'z nutqida estetika elementlarini ijodiy ko'rsata bilish qobiliyatini rivojlantirish uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining muhim masalasi sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'qitish metodikasiga har jihatdan bog'liq. Xususan, adabiy ta'limda o'quvchilarning tabiat va inson munosabati shakllarini aniqlash, ularda atrof-olam sir-sinoatlarini idrok etish, unda kuzatilgan o'ziga xosliklarni badiiy obrazlar bilan qiyoslash, adabiy materiallarda ekologik muammolarning qaysi jihatlari mavjudligini bilish layoqatini kamol toptirishga doir shart-sharoitlarni yaratish muhim didaktik vazifalardan sanaladi. Ekologik madaniyat elementlari bola tabiatni faol kuzatganida, undagi o'zgarishlarni ilg'aganida, badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularni ifodalaganida, borliqning estetik xususiyatlariga baho berganida, tilning ifoda vositalaridan tabiat hodisalarini aks ettirganida shakllantirib boriladi.

Avvalo, adabiy ta'lim jarayonida pragmatik yondashuv orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish

o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, saralash va tanlashga jiddiy yondashish lozim. Shu bois o'qish va tahlil uchun yuqori saviyali, tabiat hodisalarini yangi tomondan yoritib beradigan, kelgusida o'zlari uchun asqatadigan ekologik bilimlarni o'zlashtirishga, o'rganganlarini hayotda qo'llashga xizmat qiladigan asarlarni tanlash maqsadga muvofiq. Adabiy materiallar mazmuniga singdirilgan, bugungi kunda dolzarblashib borayotgan ekologik muammolarga o'quvchilar e'tiborini qaratish, shu orqali mavjud real muammolarga yechim topish, atrof-muhit tozaligini asrash, unga hissa qo'shish, iste'mol uchun yaroqli bo'lgan ekologik toza mahsulotlarning inson salomatligiga ta'sirini bilish malakalarini shakllantirish zarur.

Asar tanlashda adabiy ta'lim maqsadining bajarilishi muhim talabdir. Bu tarkibga ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar mansub bo'lib, tanlangan asarlar ana shu muhim talabga mos kelishi zarur. Ta'limiy maqsad o'quvchilarda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik va ekologik bilimlarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Natijada ta'lim oluvchilarning ilmiy dunyoqarashi rivojlanadi.

Zero, badiiy asar o'quvchilarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish hamda ularning intellektual, ekologik, ma'naviy-estetik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va jismoniy kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Akademik litsey adabiyot darslarini tashkil etish, ta'lim metodlari, shakl va vositalari, o'qituvchining shaxsiyati, kompetentligi, hayotiy va adabiy hodisalarga tanqidiy qarashlari tarbiyaviy ahamiyatga molik. Shunga ko'ra badiiy asar mavzusi tanlangan matnning tarbiyaviy ta'sirini mujassam etadi. Badiiy asarlarni tanlashda o'ziga xos ilmiy-metodik yondashuv va tamoyillarga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada rus metodisti N. I. Kudryashev quyidagilarga e'tibor berish lozimligini qayd etadi: "1) asarning yuksak g'oyaviy-badiiy qimmatini hamda uning zamon talablari nuqtayi nazaridan dolzarbligi; 2) asarning ijtimoiy va adabiy-tarixiy jihatdan ahamiyatligi; 3) uslub va janriga ko'ra rang-barangligi, asarning yozuvchi ijodi uchun xos ekanligi; 4) o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi". [1]

Bizningcha, mazkur ro'yxatga adabiy ta'limdan ko'zlangan bosh maqsadni ham kiritish o'rinlidir. Binobarin, har bir davrda o'ziga xos dolzarb muammolar mavjud bo'lishi aynan shu maqsad bilan hamohangdir.

Professor R. Niyozmetovanning "asar yoki asardan tanlangan parcha o'quvchi uchun hayot saboqlarini berishi" haqidagi fikrlari muayyan darajada bugungi kunda kechiktirib bo'lmaydigan ekologik tarbiya bilan chambarchas bog'liq. Negaki insonning hayot tarzi bevosita toza havo, toza suv, toza tuproq bilan uzviylikda kechishi ham masalaga shu nuqtayi nazardan yondashishni talab etadi. Adabiy asarlarni o'rganishda ham ulardagi axloqiy-estetik g'oyalar bilan birga ekologiyaga oid bilimlarni o'zlashtirish muhim sanaladi.

Quyida adabiy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarda ekologik tarbiyaga qanday yondashilgani yuzasidan fikr yuritiladi.

Akademik litseylar uchun mo'ljallangan Davlat ta'lim standarti Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2024-yil 20-avgustdagi 9-son yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 30-avgustdagi 327-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Mazkur Davlat ta'lim standartida ta'lim bir qator kompetensiyalar qatori "ekologik madaniyatga ega bo'lish, ekologik mas'uliyatni his qilish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni egallash" [2] bilan natijalanishi belgilangan. Mazkur jihat 2021-yilda qabul qilingan DTSning "3-§. O'rta maxsus ta'lim dasturini o'zlashtirgan ta'lim muassasasi bitiruvchilariga qo'yilgan talablar" [2, 9-b.] da ham o'z aksini topganligi bilan xarakterlidir. Bu esa me'yoriy hujjatlarda ekologik

savodxonlikni rivojlantirish maqsadiga ma'lum darajada e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

DTSda o'quvchilarning bilishga nisbatan faolligi, ijodiy qobiliyatlari, o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasini aniqlash, zamonaviy texnologiyalar qatoriga barqaror rivojlanish kafolatlari doirasida "oqilona iste'mol, iqlimga qarshi kurash, biologik xilma-xillikni saqlash, yer resurslaridan samarali foydalanish, havoni ifloslantirishni cheklash" [3] maqsadlari ijrosiga doir pragmatik yondashuvdan foydalanish masalasini ham kiritish muhim o'rin tutadi.

Akademik litseylarning namunaviy o'quv dasturida adabiyot o'qitishning maqsadi sifatida belgilangan "o'quvchilarda kreativlik (ijodkorlik) noaniq vaziyatlarda o'z bilimlarini qo'llash orqali muammolarga yangi va samarali yechimlar topa olish qobiliyatlarini rivojlantirish; adabiyot fani o'quv dasturining bajarilishi jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotga joriy qilishga qaratilgan loyihalar tuzishga yo'llash hamda ularda jamoaviy ishlash (kollaboratsiya) umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat qilish, o'z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat" liligi [4,4-b.] badiiy matn ustida ishlashni pragmatik yondashuv orqali tashkil etish masalasini taqozo etadi.

Pragmatik yondashuv haqidagi qarashlarda "biror narsani uning **amaliy ahamiyati, natijaviyligi va real hayotdagi foydaliligi** nuqtayi nazaridan tushunish, o'rganish va baholash usuli tushuniladi, ya'ni "qanday ishlaydi" yoki "qanday natija beradi" degan savollarga javob izlanadi, nafaqat nazariy jihatga, balki amaliy qo'llanishga e'tibor qaratiladi. Bu, asosan, tilshunoslik (nutqning maqsadlari, suhbat qoidalar), adabiyotshunoslik (matnning ta'siri) va umumiy falsafada (g'oyalarning amaliyotdagi qo'llanishi) keng qo'llaniladi" [5]. Shunga ko'ra badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ekologik bilimlarni amalda qo'llash bu borada samaralidir.

Dasturda o'quvchilarda rivojlantirilishi ko'zda tutilgan malaka talablari:

1. Adabiy-nutqiy malaka talablari (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*) **B1+ darajasida** badiiy asar g'oyasini tahlil qila oladi, badiiy asar syujetini biladi, badiiy unsurlarni tahlil qila oladi; asarda qo'llangan badiiy tasvir va ifoda vositalarining qo'llanish maqsadini tushunadi; asarning lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarini biladi va tahlil qila oladi; matnda berilgan umumiy va asosiy ifodalangan ma'lumotni (raqam, nom va hokazo) qidirib topadi va tushuna oladi; she'rlarni yoddan ifodali o'qiydi, dramatik va nasriy asarlardan parchalar ijro etadi, bunda til vositalarining mazmunini anglaydi, ohang, to'xtam (pauza) dan o'rinli foydalana oladi; munozaralarda ishtirok etadi,

aytilganlarni umumlashtiradi va xulosalay oladi; mutolaa qilingan asarlar yuzasidan insho, annotatsiya, taqriz, esse, kichik xabar va lavhalar yoza oladi" kabilar belgilangan.

2. Badiiy asarni tahlil qilish malaka talablarida esa quyidagilar belgilangan:

B1+ fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltiradi; boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asar g'oyalarga o'z munosabatini bildiradi; obrazlarga o'z bahosini beradi hamda hayotiy tajribasi va matnga tayangan holda bergan bahosini asoslay oladi; obrazlarga o'z munosabatini bildiradi hamda hayotiy tajribasi va matnga tayangan holda baho beradi"[4, 8-b].

Akademik litsey o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish aynan shu bosqichda rivojlantiriladi degani emas, negaki bu ta'limning quyi bosqichlaridan e'tibor beriladigan muhim hayotiy muammodir.

2017-yil 6-aprelda qabul qilingan "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi"da, asosan, axloqiy-estetik tarbiya berish maqsadi ustuvorlik qiladi. Bu jihat darsliklarda ham yetakchiligi seziladi. Lekin bugungi kunda ekologik muammolar bo'rtib, inson hayotiga salbiy ta'siri kuchayib borayotgani mazkur masalaga matn tahlili misolida yechimlar taklif qilish nuqtayi nazaridan ham dolzarbligini ta'kidlash o'rinlidir.

Akademik litseylarning "Adabiyot" o'quv dasturlarida Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida xalqning suv muammosidan aziyat chekishi, "Sab'ayi sayyor" dostoni qahramonlari: Bahrom va Diloromning ishq-muhabbati tasviri orqali hayvonlarni ovlash oqibatida tabiatga zulm qilingani, "Boburnoma"da nabotot va hayvonot tasviri, Ch. Aytmatovning "Qiyomat" romanida inson va tabiat munosabati Akbara va Toshchaynar obrazlari orqali ochib berilishi orqali ekologik madaniyatni rivojlantirishga ahamiyat qaratilgan deyish mumkin. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotimizda ekologik muammolar mavjud asarlarni tanlash yoki muayyan asarlarda tabiat va inson muvozanati buzilgan o'rinlarni tahlil qilishga jiddiy e'tibor berildi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashda, jumladan, ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir asarlarni quyidagi jihatdan tanlashga e'tibor berildi:

1. *O'quv dasturlarida ko'zda tutilgan asarlar bilan to'liq tanishish orqali.* Masalan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Sab'ayi sayyor" dostonlari, Z. M. Boburning "Boburnoma", Ch. Aytmatovning "Qiyomat", N. B. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", O. Yoqubovning "Diyonat", E. A'zamning "Tanho qayiq", T. Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarlari kabi.

2. *O'quv dasturidan o'rin olgan ijodkorlarning o'quv dasturiga kirmagan boshqa asarlari misolida.* Jumladan,

S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasidan "Qirq besh kun", Ch. Aytmatovning "Oq kema", "Qulayotgan tog'lar", Ch. Aytmatov va M. Shoxonovlarning "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori", T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar", E. A'zamning "Suv yoqalab" asarlarini o'rganish.

3. *O'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilmagan ijodkorlar asarlari misolida.* Xususan, "Avesto", J. Londonning "Hayotga muhabbat", "Oq so'yloq", ekologiya mavzusiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari (maqollar, afsona, rivoyatlar) shular jumlasidandir.

Yuqoridagilarga asoslanib, tadqiqotimiz davomida o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda quyidagilarga ahamiyat qilindi.

"Adabiyot" o'quv dasturlarida o'rganilishi rejalashtirilgan asarlar va ularning tahlilga tortilgan jihatlar:

1. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni (suv muammosi va unga amaliy yechim topish).

2. Alisher Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostoni (hayvonlarga vahshiylarcha munosabatlarda bo'lish oqibati).

3. "Boburnoma" memuar asari (o'simliklar va hayvonot dunyosining rang-barangligi).

4. Ch. Aytmatovning "Qiyomat" romani (insonlarning o'rmonlarni yo'q qilishlari, tabiatning azaliy qoidalarini buzishlari, jonzoatlarni o'z hududlaridan siqib chiqarish kabilar).

5. O. Yoqubovning "Diyonat" romani (suv muammosining tarixiy ildizlari va uning jamiyat hayotidagi o'rni, shuningdek, g'o'za zararkunandalariga qarshi biologik usulda kurashish muammosi).

6. E. A'zamning "Tanho qayiq" dramasi (Orol fojiasi, dengizning qurib borishi, qariyada dengizning qachondir suvga to'lishiga ishonch borligi).

Fikrimizcha, ekologik madaniyatni rivojlantirish keng qamrovli va butun hayot davomida e'tibor beriladigan jarayon bo'lib, buni nafaqat o'quv dasturlarida belgilangan asarlar, balki ularga uzviylikda darsdan tashqari ishlar, xususan, mustaqil o'qish yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish misolida ham yechim izlash to'g'ri hisoblanadi. Buning uchun muayyan yozuvchi ijodining mavzu, asarlarning syujeti, qahramonlar taqdiri, g'oyasining yaqinligi kabi xususiyatlariga ham tayanish o'rinli sanaladi. Shuningdek, inson va tabiat munosabatlari aks etgan ilmiy-ommabop asarlar ham bu borada samaralidir.

O'quv dasturlarida ijodi o'rganilishi rejalashtirilgan adiblarning dasturga kirmagan boshqa asarlari:

1. S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasidan "Qirq besh kun" (Katta Farg'ona kanalining qazilishiga sabab bo'lgan omillar: suv chiqarish bilan bog'liq masalalar).

2. Ch. Aytmatovning “Oq kema”, “Qulayotgan tog’lar” (Inson va hayvonot olami munosabatlari buzilishi: odamlarning bug’ularga ofat keltirishi; mahalliy aholi va arab oligarxlarining qor barslari biznesini yo’lga qo’yish rejalari), Ch. Aytmatov va M. Shoxonovlarning “Cho’qqida qolgan ovchining ohi-zori” (asar qahramoni Xo’jayosh ko’p hayvonlarning, noyob turlarning hayotiga zomin bo’lishi).

3. E. A’zamning “Suv yoqalab” kinoqissasi (suv tanqisligi muammosi, aholining tomorqalarini sug’orishidagi ziddiyatlar, dov-daraxtlarning suvsizlikdan qurib qolishi).

Adabiyot o’qitish metodikasi ilmida mustaqil o’qish yoki sinfdan tashqari o’qishni tashkil etishda o’quv dasturlariga kirmagan ijodkorlarning asarlarini ham o’rganish ko’zda tutiladi. Bunda o’quv dasturiga kirgan asarlarning muayyan jihatlar (mavzusi, syujeti, g’oyasi kabilar)ga tayaniladi. Masalan:

O’quv dasturlarida ijodi o’rganilishi rejalashtirilmagan adiblarning dasturga kirmagan boshqa asarlari: 1) “Avesto” (suv, tuproq, havoni toza saqlash g’oyasi); 2) T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani (paxta dalalarida zaharlanib o’lgan bolalar taqdiri); 3) ilmiy-ommabop matnlar (“Issiqlik effekti”, “Suv”, “Tuproq” va h.k); 4) xalq og’zaki ijodi namunlari (maqollar, rivoyatlar, qo’shiqlar).

2021-yilda loyiha sifatida e’lon qilingan “Uzluksiz ta’limning “Milliy o’quv dasturlari”da tadqiqot muammosi bo’yicha ayrim jihatlar tahlil qilinganda quyidagilar ma’lum bo’ldi:

“Maktabgacha, umumiy o’rta, o’rta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimlarida adabiyot fanining uzviyligini ta’minlash konsepsiyasi” umumiy qoidalarida “adabiyot predmetining boshqa umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi orqali o’quvchilarni hayotning turli holatlariga tayyorlash imkoniyatini oshirish; adabiyot o’quv fanining mazmuni o’quvchilar o’z hayotida qo’llashlarini hisobga olib belgilanishiga erishish” (9-b.); “muayyan bilimlarni egallash bilan bog’liq, bevosita amaliy topshiriqlarni bajarishga yo’naltirilgan, muammoli vaziyatni his etish va uni bartaraf qilish bilan bog’liq topshiriq yoki vazifani bajarish” (10-b.).

Dasturda asarning qaysi jihatini o’rganish bo’yicha annotatsiya berilmaganini ham ijobiy baholab bo’lmaydi. Zero, annotatsiya o’qituvchi uchun xaritadek muayyan yo’nalish berishi bilan ahamiyatlidir. Umumiy o’rta va akademik litseylar o’quv dasturlarida atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish bo’yicha aniq fikrlar sezilmaydi.

Umumta’lim maktablari 11-sinflari va akademik litseylarning 2-kurslari uchun E. A’zamning “Tanho qayiq” dramasiga doir “Drama mavzusini hozirgi kun ekologiya muammosi bilan qiyoslab tushuntirish” (6, 151-b.) tarzidagi topshiriqni tadqiqot muammosiga oid deyish mumkin.

Bizningcha, sog’lom turmush tarzi, barqaror rivojlanish kafolatlari doirasidagi savol-topshiriqlar sonining ko’paytirilishi hamda maqsadga muvofiqlashtirish dolzarb hisoblanadi.

Badiiy asarlar mutolaasidan so’ng ekologik madaniyatni rivojlantirish bo’yicha o’g’il bolalarga transport vositalarining atrof-muhitga yetkazadigan zarari, iqlim o’zgarishlari, suv, havo, tuproq bilan bog’liq atrof-muhit sofliqi; qiz bolalarga esa yashash hududi ozodaligi, ekologik toza havo, suv, oziq-ovqat, kiyim-kechak, joyning iqlim sharoiti kabi uzoq umr ko’rishini ta’minlaydigan omillar bo’yicha loyiha ishlari, mustaqil ishlar, keyslar, assesmentlar yaratish, ekologik sudlar tashkil etish, munozaralar o’tkazish vazifalarini qo’yish maqsadga muvofiq. Shuningdek, akademik litseylar ta’lim yo’nalishlari kesimida tabiat – texnika va inson issiqlik energiyalaridan oqilona foydalanish, ekologik xarakterdagi manbalarni izlab topish va ulardan foydalanish bo’yicha esselar yozish, tabiat bag’rida sayllar o’tkazish, ko’chat ekish, toza hududlarni ko’paytirish va iflos joylarni kamaytirish bo’yicha reydlar uyushtirish kabi topshiriqlarni yuklash mumkin.

Akademik litseylarda adabiyot o’quv fanining o’qitilishi masalasi tahlil qilinganda bu bosqichga oid tadqiqotlar kamligi ham ayonlashdi. Xususan, Q. Yadgarov badiiy asarlarning til xususiyatlarini [7], D. Islomova akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda nasriy asarlarni o’rganish [8], K. Yusupov qoraqalpoq adabiyotini o’qitish shakllari, darsdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etish [9], O. Turakulova mutolaa madaniyatini rivojlantirish [10], N. Urazova mazkur bosqichda adabiyot o’qitish metodikasini takomillashtirish [11] bo’yicha tadqiqotlar olib borganligini keltirish mumkin. Mazkur izlanishlar o’rganilganda ularda ekologik tarbiya masalasiga o’rin berilmagani ayonlashdi.

Akademik litseylarda adabiyot o’qitish metodikasini tadqiq etgan olim K. Yusupov ushbu bosqich uchun mo’ljallangan dastur va darsliklarning umumiy prinsiplari haqida quyidagi qarashlarini bildiradi: “1. Dasturga kiritilgan materiallar saralanma bo’lishi lozim. 2. Tanlangan har bir adabiy material o’quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga loyiq bo’lib, shu orqali adabiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olish kerak. 3. Dasturga kiritilgan yozuvchilarning ijodiy mahoratiga, asarlarining sifatiga e’tibor qaratish lozim. 4. Nazariy materiallar o’quvchilarning yosh xususiyatiga ko’ra osondan qiyinga qarab tanlab va saralab olinishi lozim” [9]. Bizningcha, akademik litsey o’quvchilarida shakllantiriladigan adabiy kompetensiyalar tarkibiga ekologik bilim va malakalarni kiritish ularda hayotiy ko’nikmalarni kamol toptirishni taqozo etadi.

N. Urazovanning fikricha, “Akademik litseylarning ta’lim yo’nalishi bo’yicha xilma-xilligi (aniq, tabiiy, ijtimoiy-

gumanitar, xorijiy filologiya va hk.) adabiy tahlilning ham ixtisoslashtirilishi, tabaqalashtirilishini taqozo etadi. Albatta, aniq, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, xorijiy filologiya yo'nalishidagi litsey o'quvchilari uchun bir xildagi tahlil nojoiz. Aniq va tabiiy fanlar yo'nalishidagi akademik litseylarda mavjud badiiy tahlil ijtimoiy-gumanitar va xorijiy filologiya yo'nalishidagi o'quvchilar ehtiyojini qondirmasligi tabiiy. Bu boradagi tahlil jarayonida badiiy-estetik qonuniyatlarning o'ziga xos jihatlariga ko'proq va chuqurroq e'tibor talab etiladi. Har qanday holatda ham badiiy tahlil usullarining nihoyatda xilma-xilligini nazarda tutish va ulardan o'rinli foydalanish katta samara beradi. Muhimi badiiy asarning g'oyaviy mazmuni, badiiyati va yozuvchi nuqtayi nazarini o'quvchilar ongiga yetkazish, alal-oqibat adabiy ta'lim mohiyatini teran idrok etishlariga erishish nazarda tutiladi" [11,19-b.]. Fikrimizcha, bunda barcha yo'nalishlarda adabiyot o'quv fanining o'rganilishi orqali kundalik turmush tarzida asqotadigan ekologik tushunchalarni asar syujeti bilan bog'lash o'rinlidir.

Akademik litsey o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishda adabiy matnlardan samarali foydalanish,

ekologiyaga oid so'zlarning ma'nosini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlar ona tabiatga insonlarning munosabati, o'simliklar va hayvonot dunyosini asrash g'oyalari aks etgani bilan xarakterli bo'lib, fikrlashga, nazariy bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatishi bilan ta'sirchandır. O'quvchilar e'tiboriga aynan mana shu asarda qanday joy haqida so'z borayotgani, matn va o'zlari yashaydigan hudud o'rtasidagi farqli va muayyan darajada o'xshashliklari borligini qiyoslash, nima uchun insonlar so'nggi vaqtlarda tabiatga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'layotgani, suv havzalarining qurib borishi odamlar hayotiga xavf solayotgani sabablari haqidagi savollarni havola qilish maqsadga muvofiq.

Yechimini kutayotgan muammolar sifatida darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarning yo'qligi, akademik litseylar adabiy ta'limini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-metodik izlanishlarning kamligi kabilarni ta'kidlash mumkin. Bu jihatlar ayrim maqolalardagina kuzatiladi. Akademik litsey o'quvchilarining gender xususiyatlarini hisobga olish mustaqil ijodiy ishlar, loyiha ishlarini amalga oshirishda kutilgan natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кудряшев Н.И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – М.: Просвещение, 1981. – С. 22. 31 с.
2. O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2024. 4-b. 15-b.
3. Barqaror rivojlanish kafolatlari // <https://www.google.com/search?q=Barqaror+rivojlanish+kafolatlari>
4. Akademik litseylar uchun namunaviy o'quv dasturi. Adabiyot. (chuqurlashtirilgan). – Toshkent, 2024. 4-b. 26-b.
5. Pragmatika <https://www.google.com/search?q=pragmatik+yondashuv+nima>
6. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B. To'xliyev [va boshq.], – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 151-b. 200-b.
7. Ядгаров Қ.М. Академик лицейларда адабий асар тилини ўргатишнинг лингводидактик асослари. Пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. 25 б.
8. Исломова Д.Д. Академик лицей ва касб-хунар коллежларида насрий асарларни ўрганиш (рус гуруҳлари мисолида). Пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. 25 б.
9. Юсупов К. Академик лицейларда қорақалпоқ адабиётини ўқитиш методикаси. Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Нукус, 2021. 66 б.
10. Туракулова О.А. Адабий таълим жараёнида академик лицей ўқувчиларида мутолаа маданиятини ривожлантириш технологияси. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. 159 б.
11. Urazova N.Q. Akademik litseylarda adabiyot fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024.153-b.

Dilnoza RAXIMOVA,
Toshkent Davlat Texnika universiteti
Chet tillar kafedrasida o'qituvchisi
dilnozim@gmail.com



NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILI O'QITISH MUAMMOLARI HAMDA YECHIMLAR

Annotatsiya: maqolada texnika, iqtisodiyot, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va huquqshunoslik kabi nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarga ingliz tili o'qitish amaliyotida uchraydigan qiyinchiliklar va mavjud pedagogik adabiyotlar asosida tizimli tahlil qilinadi. Motivatsiya pastligi, auditoriya soatlarining yetarli emasligi, kasbga yo'naltirilgan o'quv materiallarining yetishmasligi, guruh ichidagi til bilish darajasi o'rtasidagi farq, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi past ekanligi, o'qituvchi tayyorgarligi va baholash tizimidagi kamchiliklar kabi masalalar xorijiy tajriba bilan qiyoslab o'rganib chiqiladi. Yakunda amaliyotda sinash mumkin bo'lgan aniq tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirilgan ingliz tili, ESP, til o'qitish metodikasi, motivatsiya, aralash ta'lim, nofilologik ta'lim yo'nalishi, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: в статье на основе наблюдений автора и педагогической литературы системно анализируются трудности, возникающие при обучении английскому языку студентов технических, экономических, медицинских, аграрных и юридических направлений. Отдельно рассматриваются низкая мотивация, нехватка аудиторных часов, дефицит профессионально-ориентированных материалов, разница в уровне владения языком внутри группы, слабое использование технологий, проводится сопоставление с зарубежным опытом. В заключение предложены конкретные, применимые на практике рекомендации.

Ключевые слова: профессионально-ориентированный английский язык, ESP, методика преподавания языка, мотивация, смешанное обучение, нефилологическое направление, компетентностный подход.

Annotation: drawing on classroom observation and existing pedagogical literature, this article systematically examines the difficulties involved in teaching English to students of engineering, economics, medicine, agriculture and law. It separately discusses low motivation, limited classroom hours, a shortage of profession-oriented materials, wide proficiency gaps within groups, weak use of technology, teacher preparedness, and shortcomings in assessment, comparing these with international experience. It concludes with concrete, practice-tested recommendations.

Key words: English for Specific Purposes, ESP, language teaching methodology, motivation, hybrid learning, non-philology programmes, competence-based approach.

Kirish. Har qanday oliy ta'lim muassasasida dars beruvchi ko'plab til o'qituvchilari shu kabi savollarga javob qidirib ko'rishgan: "nega bir xil dastur, bir xil darslik, bir xil metodika bilan ishlansa ham, filologiya fakulteti talabasi bilan, aytaylik, texnika muhandisligi yo'nalishi talabalari o'rtasidagi natijalar orasidagi bunchalik farq? Savolning javobi esa aslida unchalik ham murakkab emas — chunki ikkala yo'nalishlar butunlay turli vaziyatlarda, turli maqsadlar bilan, har xil vaqt resurslarida til o'rganadilar. Ya'ni filolog uchun til bu ayni kasb bo'lsa, nofilologlar uchun esa ko'pincha diplom ilovasidagi yana bitta fanlardan biridir.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa so'nggi o'n yillikda O'zbekistonda chet tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha

bo'lgan bosqichlarda til o'qitish soatlari ko'paytirilgani, xalqaro sertifikatlash tizimlari joriy etilishi, o'qituvchilarning malaka oshirish imkoniyatlari kengaytirilgani kabilarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Biroq bu islohotlarning samarasi barcha ta'lim yo'nalishlarida bir xil darajada sezilmayapti. Filologik yo'nalishlarda til o'qitish nisbatan izchil tizimga ega bo'lsa, nofilologik yo'nalishlarda masalan, texnika, iqtisodiyot, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, huquqshunoslik va boshqa sohalarida esa bir qator o'ziga xos, ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi aynan shu va shu kabi muammolarni tizimli tarzda ko'rib chiqish, ularning sabablarini aniqlash va amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan yechim yo'nalishlarini taklif etishdan iborat.

Maqolaning vazifalari. Birinchidan, nofilologik yo'nalish talabalariga til o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ikkinchidan, mavjud muammolarni tizimlashtirish va ularning o'zaro bog'liqliklarini aniqlash; uchinchidan, xorijiy tajriba bilan qiyoslash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning ilmiy – metodik jihatdan o'rganilganligi. Kasbga yo'naltirilgan til o'qitish, ya'ni "English for Specific Purposes" (ESP) yo'nalishi xorijiy tilshunoslik va lingvodidaktikada ancha yillar ilgari, o'tgan asrning 60–70-yillarida shakllana boshladi. Bu yo'nalishning asosiy g'oyasi ham shundan iboratki, til o'rganish maqsadi va mazmuni o'rganuvchining ehtiyojlaridan (needs analysis) kelib chiqishi kerak — ya'ni bo'lajak muhandis, shifokor yoki iqtisodchi umumiy til emas, balki o'z sohasida real foydalanadigan til ko'nikmalarini o'zlashtirishi lozim. Bu yondashuv asosida talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida qanday til vaziyatlariga duch kelishi oldindan tahlil qilinadi va o'quv dasturini ham shunga moslab tuziladi.

Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching) nazariyasi ham nofilologik ta'limda til o'qitish metodikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu yondashuvga ko'ra, grammatik to'g'rilikdan ko'ra real muloqot vaziyatlarida til vositalaridan foydalana olish muhimroq hisoblanadi. Shu bilan birga, Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan "Common European Framework of Reference for Languages" (CEFR) hujjati til darajalarini aniq tavsiflash va baholash uchun xalqaro miqyosda umumiy asos yaratdi, bu esa nofilologik yo'nalishlar uchun ham daraja va natijalarni belgilashda foydali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Mahalliy pedagogika va metodika sohasidagi tadqiqotlarda ham chet tillarni kasbga yo'naltirib o'qitish masalasi tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan to'plangan tajriba, kuzatuvlar va real auditoriya sharoitida yuzaga keladigan muammolar ilmiy adabiyotda hali yetarlicha aks etmagan, degan xulosaga kelish mumkin — bu esa mazkur mavzuni yanada chuqur o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qo'llanilgan asosiy metodlardan biri pedagogik kuzatuv (ya'ni, bir necha nofilologik yo'nalish guruhlarida olib borilgan dars jarayonlarini tahlil qilish), navbatdagisi, mavjud ilmiy-metodik adabiyotni tizimli tahlil qilish, shuningdek qiyosiy tahlil metodi bunda mahalliy amaliyotni xorijiy tajriba bilan solishtirish kabilardan foydalanildi. Tahlil uchun asosan, texnika, iqtisodiyot, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va huquqshunoslik yo'nalishlaridagi til o'qitish jarayonlari misol sifatida olindi, chunki aynan shu yo'nalishlarda kasbiy til talabi bilan umumta'lim dasturi o'rtasidagi tafovut eng yaqqol ko'zga tashlanadi.

Asosiy qism. Ko'p hollarda nofilologik yo'nalish talabalariga xorijiy tilni o'qitishda shu kabi masalalar uchraydi.

Nofilologik yo'nalish talabasi uchun xorijiy til ko'pincha "ikkinchi darajali" fan sifatida qabul qilinadi, chunki bu tasavvur uning kelajakdagi kasbi bilan bevosita bog'lanmagan holda shakllanadi va buning natijasida faqat tashqi (ya'ni baho, o'tish balli) motivatsiyaga tayaniladi, bilim esa uzoq saqlanmasligi mumkin. Buning yechimi esa talabaga tilni o'qitishda darsning mazmunini kasbga yaqinlashtirish (masalan, tibbiyotchi uchun bemor tarixi, muhandis uchun texnik hujjat kabi topshiriqlar). Bundan tashqari, haftalik soatlar yetarli emasligi va tilning faqat dastlabki kurslarda o'qitilishi "til unutilishi"ga olib keladi, buning yechimi sifatida mustaqil ta'lim va aralash ta'lim orqali talabalarni o'qitishga erishish mumkin. Darslik masalasida esa umumiy "General English" materiallarini emas, balki sohaga yo'naltirilgan (texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi) ehtiyojlarga mos keladigan ESP darsliklar orqali o'qitish tavsiya etiladi.

Guruh ichida til darajasining keskin farq qilishi — bunga sabab qabul imtihonlarida maxsus xorijiy til imtihonlarining mavjud emasligidadir, va bunga yechim esa darajaga qarab guruh ichida mini guruhlashtirish va individual topshiriqlarni ishlab chiqish kerak. Texnologiyadan (mobil ilovalar, sun'iy intellekt, LMS platformalari) foydalanish darajasi ham past bo'lib, bu ko'proq nafaqat o'qituvchi malakasi masalasi, balki o'quvchilarda ham raqamli savodxonlikning yetarli emasligidan. Bundan tashqari, talabalar til muhitidan uzilgan holda qoladi (til klublari, xalqaro almashinuvlar bu bo'shliqni to'ldirishi mumkin), baholash tizimi esa asosan, grammatik test va tarjimaga qurilgan bo'lib, kommunikativ ko'nikmalarni o'lchamaydi — bu yerda CEFR asosidagi kompleks va portfolio baholash haqiqiy yechim bo'la oladi.

Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil. Ko'plab rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimida nofilologik yo'nalishlarda ham til o'qitish alohida strategik yo'nalish sifatida qaraladi. Masalan, Yevropa universitetlarining aksariyatida CLIL (Content and Language Integrated Learning) — fan mazmuni va tilni integratsiyalashtirish holda o'qitish modeli keng qo'llanilmoqda. Bunda talaba o'z mutaxassisligiga oid fanni bevosita ingliz tilida o'rganadi, bu esa til va soha bilimni bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkonini taqdim qilmoqda. Osiyoning bir qator davlatlarida, xususan janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida, oliy ta'lim muassasalari nofilologik yo'nalishlar uchun maxsus ishlab chiqilgan ESP dasturlarini joriy etilgan bo'lib, bu dasturlar tuzilishida albatta soha mutaxassislari ishtirok etadi. Bundan tashqari, ko'p hollarda talabalar kurs oxirida xalqaro tan olingan til sertifikatini (masalan, IELTS yoki TOEFL) belgilangan minimal ball bilan topshirishi majburiy shart sifatida qo'yiladi, bu esa til o'qitish sifatini nazorat qilishning qo'shimcha mexanizmi vazifasini bajaradi. Mahalliy sharoitda bunday modellarni to'liq va tezkor tarzda joriy etish, albatta, resurs, vaqt va kadrlar tayyorgarligi nuqtayi nazaridan qator qiyinchiliklarga duch keladi. Biroq ularning ayrim elementlarini — masalan, needs

analysis asosida dastur tuzish, kurs yakunida amaliy til testini joriy etish, kafedralararo hamkorlikni institutsionallashtirish kabi — bosqichma-bosqich joriy etish real va foydali qadam bo'lishi mumkin.

Natijalar va muhokama. Yuqorida ko'rib chiqilgan bir qator muammolar, masalan, motivatsiya, vaqt, material, daraja farqi, texnologiya, o'qituvchi tayyorgarligi, til muhiti kabilarni bir-biridan ajralgan holda emas, balki bir-birini kuchaytiruvchi omillar sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, mos material yo'qligi motivatsiyani pasaytirs, past motivatsiya esa o'z navbatida o'qituvchini yangi texnologiya joriy etishdan ko'ra an'anaviy usulda dars o'tishga undaydi. Buning natijasida talabaniing til muhitidan yanada uzoqlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, bu yerda gap alohida-alohida "nuqsonlar" haqida emas, balki o'zaro bog'liq tizim haqida bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, muammolarni bittalab, tasodifiy tarzda hal qilishga urinish, masalan, faqat yangi darslik sotib olish yoki faqat bitta seminar o'tkazish sezilarli natija bermaydi. Real o'zgarish faqat bir necha yo'nalishda parallel harakat qilingandagina kuzatiladi.

Xulosa va tavsiyalar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, nofilologik yo'nalish talabalariga til o'qitishning samaradorligini oshirish murakkab, ko'p qirrali vazifa bo'lib, uni faqat bitta chora bilan hal qilib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

Birinchidan, har bir yo'nalish uchun needs analysis, ya'ni talabaniing kelajakdagi kasbiy faoliyatida qanday til ko'nikmalariga muhtoj bo'lishini aniqlash asosida o'quv dasturini qayta ko'rib chiqish lozim.

Ikkinchidan, auditoriya soatlari yetishmovchiligini mustaqil ta'lim, onlayn resurslar va aralash ta'lim (hybrid

learning) texnologiyalari hisobiga qoplash, shuningdek keyingi kurslarda ham tilni saqlab qolish uchun qisqa modullar joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, til o'qituvchilari va soha mutaxassisilari o'rtasida institutsionallashtirilgan hamkorlikni yo'lga qo'yib, har bir yo'nalish uchun moslashtirilgan ESP materiallari va qo'llanmalarini yaratish zarur.

To'rtinchidan, o'quv yili boshida placement testlarini joriy etish va shu asosda talabalarni til darajasiga qarab guruhlashtirish (yoki guruh ichida mini guruhlarini tashkillashtirish), individual va differensial topshiriqlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi.



Beshinchidan, o'qituvchilarning nafaqat umumiy metodik, balki maxsus ESP metodikasi va raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish, ichki seminarlar va tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Oltinchidan, talabalarni til muhitiga yaqinlashtiruvchi qo'shimcha faoliyatlarni — til klublari, kasbiy mavzudagi tadbirlar, xalqaro almashinuv imkoniyatlarini — rag'batlantirish kerak. Yettinchidan, baholash tizimini faqat yozma testga emas, balki CEFR mezonlariga mos, barcha to'rt ko'nikmani hisobga oluvchi va portfolio elementlarini o'z ichiga olgan kompleks tizimga o'tkazish zarur.


Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish aslida bir necha kunlik ish emas, balki fakultet, kafedra va o'qituvchilar jamoasining uzoq muddatli, izchil sa'y-harakatini talab qiladigan tizimli mukammal yondashuvli jarayondir. Biroq aynan shunday tizimli yondashuvgina nofilologik yo'nalish talabalarining ingliz tilini o'zlashtirish sifatini real darajada oshirish, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatida xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"
2. PF-5847-son, 2019-yil 8-oktyabr, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon
3. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
5. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). — Council of Europe, 2001.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
7. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
9. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. — Harlow: Pearson Education, 2015.
10. Basturkmen H. Developing Courses in English for Specific Purposes. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010.



KICHIK TADQIQOT



Madina MUSTAQIMOVA,

Buxoro davlat universiteti, Adabiyotshunoslik yo'nalishi,

2-kurs magistranti

SHODMON SULAYMON SHE'RIYATINING TARBIYAVIY SALOHİYATI VA UNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada Shodmon Sulaymon she'riyatining tarbiyaviy salohiyati va uni oliy ta'lim jarayonida qo'llashning metodik asoslari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shoirning "Otamga", "Do'st" va "Mehribon o'g'lim" she'rlari misolida talabalarda ma'naviy-axloqiy, kommunikativ va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda kontent-tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil hamda pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shoir asarlarining oila qadriyatlarini, do'stlik, ilm-ma'rifat va vatanparvarlik g'oyalarini yuksak badiiy darajada ifodalashi, ularning adabiyot ta'limida samarali didaktik resurs bo'la olishini ko'rsatadi. Maqola oxirida she'rlarni interfaol metodlar asosida o'qitish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Shodmon Sulaymon, she'riyat, tarbiyaviy salohiyat, ma'naviy-axloqiy kompetensiya, adabiy ta'lim metodikasi, interfaol metodlar.*

Annotation: the article analyzes the educational potential of Shodmon Sulaymon's poetry and the methodological foundations for its application in higher education from a pedagogical perspective. It examines opportunities for fostering spiritual-moral, communicative, and civic competencies in students through the lens of the poet's works, specifically the poems «To My Father» («Otamga»), «Friend» («Do'st»), and «My Kind Son» («Mehribon o'g'lim»). The study employs content analysis, comparative-typological analysis, and pedagogical observation methods. The results demonstrate that the poet's works express values such as family, friendship, knowledge, and patriotism with high artistic quality, making them effective didactic resources for literature education. Practical recommendations for teaching these poems using interactive methods are provided at the conclusion of the article.

Key words: *Shodmon Sulaymon, poetry, educational potential, spiritual-moral competence, literature teaching methodology, interactive methods.*

Аннотация: в статье с педагогической точки зрения анализируются воспитательный потенциал поэзии Шодмона Сулаймона и методологические основы ее применения в системе высшего образования. Рассматриваются возможности формирования у студентов духовно-нравственных, коммуникативных и гражданских компетенций на материале произведений поэта, в частности стихотворений «Отцу» («Otamga»), «Друг» («Do'st») и «Мой добрый сын» («Mehribon o'g'lim»). В исследовании использованы методы контент-анализа, сравнительно-типологического анализа и педагогического наблюдения. Результаты показывают, что в произведениях поэта на высоком художественном уровне отражены такие ценности, как семья, дружба, знания и патриотизм, что делает их эффективным дидактическим ресурсом в преподавании литературы. В заключительной части статьи представлены практические рекомендации по изучению данных стихотворений с использованием интерактивных методов.

Ключевые слова: *Шодмон Сулаймон, поэзия, воспитательный потенциал, духовно-нравственная компетенция, методика преподавания литературы, интерактивные методы.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasida bilim berish bilan bir qatorda talabalarining ma'naviy dunyosini boyitish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'lim jarayonida she'riy asarlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb pedagogik masaladir.

Badiiy adabiyotning shaxs tarbiyasidagi o'rni ko'plab adabiyotshunos va pedagoglar tomonidan turli jihatdan

o'rganilgan. Adabiy ta'limning tarbiyaviy salohiyati va uni o'qitish metodikasi bir qator o'zbek pedagog-metodistlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, Q.Husanboyeva va R.Niyozmetova adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha yaratilgan o'quv qo'llanmasida she'riy asarlarni o'rganishga bag'ishlangan darslarning maqsadi o'quvchilarda badiiy idrokning teranligini ta'minlash va ularni asar mohiyatiga olib kirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar, shu bilan birga muallif Q.Yo'ldoshevga tayangan holda, lirik asarda voqealar tasviridan ko'ra ruhiy holat va hissiyot ifodasi muhimroq ekanligini ko'rsatadilar. Ushbu tadqiqotlarda

asosan adabiy ta'limning umumiy metodik asoslari yoritilgan bo'lib, Shodmon Sulaymon she'riyatining aynan ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Shodmon Sulaymon – shoir, olim, yozuvchi va jurnalist bo'lib, ijodiy faoliyati bilan bir qatorda Buxoro viloyati ijodkorlar jamoatchiligiga rahbarlik qiladi hamda davriy nashrlar muharriri sifatida faoliyat yuritadi. Uning «Otamning ayvoni» nomli she'rlar, dostonlar, monologlar va hikoyalar to'plami dastlab 2016-yilda chop etilgan bo'lib, 2024-yilda «Adabiy Buxoro» nashriyotida to'ldirilgan qayta nashri e'lon qilingan. Shoir ijodida Vatan va ayniqsa Buxoro mavzusi, oilaviy qadriyatlar, do'stlik va falsafiy-ma'naviy izlanishlar alohida o'rin tutadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – Shodmon Sulaymon she'riyatining tarbiyaviy salohiyatini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish hamda uni oliy ta'lim jarayonida qo'llashning metodik asoslarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: 1) shoirning «Otamga», «Do'st» va «Mehribon o'g'lim» she'rlarida ifodalangan tarbiyaviy g'oyalarni aniqlash; 2) ularning talabalarda qaysi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishini asoslash; 3) she'rlarni o'qitishning samarali metodik yo'llarini ishlab chiqish; 4) taklif etilgan metodikaning amaliyotdagi natijadorligini tekshirish.

Tadqiqot metodologiyasi: tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda Shodmon Sulaymonning «Otamga», «Do'st» va «Mehribon o'g'lim» she'rlari kontent-tahlil metodi asosida o'rganildi: matndagi kalit tushunchalar (ota-ona, do'stlik, ilm, Vatan) ajratilib, ularning chastotasi va kontekstual ma'nosi aniqlandi. Ikkinchi bosqichda qiyosiy-tipologik tahlil qo'llanildi — uch she'rda aks etgan g'oyalar o'zaro va o'zbek mumtoz hamda zamonaviy she'riyatidagi o'xshash mavzular bilan qiyoslandi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini adabiy ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvga oid umumpedagogik tamoyillar, shuningdek badiiy matnni pedagogik tahlil qilish metodikasi tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan «kompetensiya» shaxsning hayotning muayyan sohasida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bilim, ko'nikma, malaka va tajriba majmuini, «kompetentlilik» esa shu kompetensiyaga egalik darajasini anglatadi. Ushbu tushunchalar tadqiqotda talabalarda she'riy matn asosida shakllantiriladigan ma'naviy-axloqiy, kommunikativ va fuqarolik ko'nikmalarini tavsiflashda asos qilib olindi.

Asosiy qism. Badiiy adabiyot, xususan she'riy asarlar, obrazlilik va hissiy ta'sirchanligi bilan yoshlarning ongiga chuqur singib, ularda ezgulik, mehr-oqibat, insonparvarlik

va ilmga intilish kabi fazilatlarini shakllantirishda samarali didaktik manba bo'lib xizmat qiladi. Adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha manbalarda ta'kidlanishicha, badiiy asar o'quvchini kitobga bog'lab qo'yish bilan bir qatorda, unda o'zganing holatini his etish va unga tuyg'udosh bo'lish, ya'ni empatiya fazilatini ham shakllantiradi. Shodmon Sulaymon she'riyati ham mazmun-mohiyatiga ko'ra yuksak tarbiyaviy salohiyatga ega bo'lib, unda ota-onaga hurmat, do'stlik, ilm-ma'rifat va Vatanga muhabbat g'oyalari badiiy jihatdan mukammal ifodalangan. Tahlil qilinayotgan uchala asar ham janr jihatidan lirik turga mansub bo'lib, ularni pedagogik tahlil qilishda lirik asarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Adabiyotshunoslikda lirik asarlarga xos asosiy belgilar sifatida tuyg'u ifodasining ustuvorligi, lahzalik kechinma tufayli hajman ixchamlik, she'riy nutq shakli, monologik bayon, bayon «hozirgi zamon»da olib borilishi hamda badiiy «men» (lirik qahramon birinchi shaxs tilidan) ifodasi ko'rsatiladi. «Otamga», «Do'st» va «Mehribon o'g'lim» she'rlarida ham voqealar tasviridan ko'ra ruhiy holat va tuyg'u samimiyati ustuvor bo'lib, bu lirik janrning tabiatidan kelib chiqadi hamda ularni o'qitishda ham aynan shu jihatga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

«Otamga» she'rida oilaviy tarbiya g'oyasi: She'rda ota obrazi farzand hayotidagi eng muhim tarbiyachi va ma'naviy tayanch sifatida tasvirlanadi:

Meni o'ylab tunlari bedor,
Ta'm qoldimi yeganingizda.
Ota, nima bildingiz ilk bor,
«O'zing asra», deganingizda¹.

Mazkur satrlar orqali shoir ota mehrini oddiy hissiyot sifatida emas, balki farzand shaxsini kamol toptirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy omil sifatida talqin qiladi. «O'zing asra» iborasi mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ota nasihatining ramziy ifodasidir. Pedagogik nuqtayi nazardan bu g'oya talabalarda oilaviy qadriyatlarga hurmat, mas'uliyat hissi va emotsional madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

«Do'st» she'rida ijtimoiy-emotsional tarbiya: she'r inson hayotida samimiy do'stlikning o'rni va uning ruhiy-ma'naviy ahamiyatini ochib beradi:

Bo'lganida yoningda yo'ldosh,
Hisrlaringni qo'lasan erkin.
Ko'krigiga urganingcha bosh,
O'krab-o'krab yig'lashing mumkin².

Zamonaviy pedagogikada bunday munosabatlar ijtimoiy-emotsional ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Nazariy jihatdan bu badiiy asar o'qishning aynan o'zganing holatini his etish, ya'ni empatiya

¹ Shodmon Sulaymon. Otamning ayvoni. She'rlar, dostonlar, monologlar, hikoyalar. – Buxoro: BUXORO NASHR", 2024. 7-bet

² Shodmon Sulaymon. Otamning ayvoni. She'rlar, dostonlar, monologlar, hikoyalar. – Buxoro: BUXORO NASHR", 2024. 57-bet.

fazilatini shakllantiruvchi tarbiyaviy vazifasi bilan bog'liq. Talabalarda his-tuyg'ularni erkin ifodalash, boshqalarning fikrini hurmat qilish va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Shu jihatdan mazkur she'r kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

“Mehribon o‘g‘lim” she‘rida ma‘rifiy-vatanparvarlik tarbiyasi: she‘r didaktik xarakterga ega bo‘lib, unda ilm-ma‘rifat, kitobxonlik va Vatanga sadoqat g‘oyalari ustuvor o‘rin egallaydi:

Rafiq aylab kitobni bul zamon yo'lga oshiqmishsen,
Bo'lr sadqa nigoring, do'st-u ulfat, jonga jon, o'g'lim³.

Sheʼrning mumtoz muvashshah shakli tanlanishi bejiz emas: bu janr har bir baytning boshlangʻich harflari yoki soʻzlari orqali alohida maʼno yoki nasihat berish anʼanasiga asoslanadi, bu esa asarga qoʻshimcha didaktik-tarbiyaviy

3 Shodmon Sulaymon. Otamning ayvoni. She'rlar, dostonlar, monologlar, hikoyalari. – Buxoro: BUXORO NASHR", 2024. 22-bet.

qatlam yuklaydi va uni o'qitishda janr xususiyatlarini ham tahlil qilish imkonini beradi. Kitob insonning eng yaqin hamrohi sifatida talqin etiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish talabalarning tanqidiy fikrlashi va umrbod ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishda muhim omildir. She'rning "Kalom o'rgan, Vatanga qil sadoqat, mehribon o'g'lim" misralari esa fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tarbiyasining badiiy ifodasi bo'lib, talabalarda milliy o'zlikni anglash va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uch she'ri qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilganda, ular yagona tarbiyaviy tizimni tashkil etishi ko'rinadi: "Otamga" oilaviy tarbiyaning, "Do'st" ijtimoiy munosabatlar madaniyatining, "Mehribon o'g'lim" esa ma'rifiy-fuqarolik tarbiyasining badiiy ifodasidir. Bu jihatdan Shodmon Sulaymon she'riyati o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida keng tarqalgan ota-ona ehtiromi va vatanparvarlik motivlari an'anasini davom ettiradi, biroq uch mavzuni bir muallif ijodida o'zaro uyg'unlashtirilgan yaxlit tarbiyaviy tizim sifatida taqdim etishi bilan farqlanadi.

She'r nomi	Asosiy g'oya	Tarbiyaviy yo'nalish	Shakllanadigan kompetensiyalar
Otamga	Ota mehri, mas'uliyat, oilaviy qadriyatlar	Oilaviy tarbiya	Ota-onaga hurmat, mas'uliyat, milliy qadriyatlarga sadoqat, emotsional madaniyat
Do'st	Do'stlik, ishonch, samimiyat, hamdardlik	Ijtimoiy tarbiya	Kommunikativ kompetensiya, empatiya, hamkorlik, bag'rikenglik
Mehribon o'g'lim	Ilm-ma'rifat, kitobxonlik, Vatanga muhabbat	Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya	Kitobxonlik kompetensiyasi, fuqarolik kompetensiyasi, vatanparvarlik, umrbod ta'limga intilish

Tahlil qilingan she'rlarni adabiyot mashg'ulotlarida o'qitishda, avvalo, lirik asarlar ustida ishlashning o'ziga xos tabiati inobatga olinishi lozim. Adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha manbalarda ta'kidlanishicha, she'riy matn ustida ishlashda uning mazmunini qayta hikoya qildirish emas, balki ifodali o'qish orqali matnga singdirilgan hissiy-ma'naviy qatlamni his qildirish muhim, chunki mazmun so'zlab berilganda she'rning ta'sir kuchi yo'qoladi.

Xulosa. Ushbu maqolada Shodmon Sulaymonning “Otamga”, “Do’st” va “Mehribon o’g’lim” she’rlari oila qadriyatlari, do’stlik, ilm-ma’rifat va vatanparvarlik kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yuksak badiiy darajada

ifodalashini ko'rsatdi. Ushbu she'r'lar talabalarda ma'naviy-axloqiy, kommunikativ va fuqarolik kompetensiyalarini kompleks tarzda rivojlantirish uchun muhim didaktik resurs bo'la oladi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar badiiy matnni anglash darajasini oshirish bilan birga, talabalarning ma'naviy barkamolligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda Shodmon Sulaymon she'riyatini boshqa zamondosh shoirlar ijodi bilan kengroq qiyosiy tahlil qilish, shuningdek taklif etilgan metodikaning natijadorligini kattaroq tanlanma asosida statistik jihatdan tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmon Sulaymon. Otamning ayvoni: She’rlar, dostonlar, monologlar, hikoyalar. — Buxoro: “Adabiy Buxoro” nashriyoti, 2024. 480-b.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o’qitish metodikasi: O’quv qo’llanma. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, 2018. 352-b.
3. Yo’ldosh Q., Yo’ldosh M. O’zbek adabiyotini o’qitish metodikasi: Darslik. — Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 408-b.
4. Karimov N. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O’zbekiston, 2008. 512-bet.
5. Xodjavev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Sano-standart, 2017.

O'g'iloy KARIMOVA,
O'zDTU bakalavr talabasi,
karimovaogiloy2301@gmail.com

ABDULLA QODIRIYNING O'ZBEK TARJIMASHUNOSLIGI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek romanchiligi asoschisi, jadidchilik harakati namoyandasi Abdulla Qodiriyning tarjimonlik faoliyati va bu faoliyatning o'zbek tarjimashunosligi taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Fitrat va Behbudiydan farqli o'laroq, Qodiriy nafaqat tashkilotchi, balki bevosita amaliy tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan: u N.V.Gogolning "Uylanish" ("Женитьба") komediyasini, A.P.Chexovning "Olchazor" ("Вишнёвый сад") pyesasini hamda tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning "Fizika" darsligini o'zbek tiliga tarjima qilgan¹, shuningdek, 1934-yilda Qozonda nashr etilgan "To'la ruscha-o'zbekcha lug'at"ni tuzishda ishtirok etgan. Maqolada tarixiy-qiyosiy va matnshunoslik tahlili metodlaridan foydalanilgan holda Qodiriyning tarjimonlik tajribasi, tarjima strategiyalari va uning ikki tomonlama — tarjimon va tarjima qiluvchi muallif sifatidagi — o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Abdulla Qodiriy, jadidchilik, tarjimashunoslik, badiiy tarjima, Gogol, Chexov, lug'atchilik.*

Annotation: this article analyzes the translation activity of Abdulla Qodiriy, the founder of the Uzbek novel and a representative of the Jadid movement, and its place in the development of Uzbek translation studies. Unlike Fitrat and Behbudiy, Qodiriy worked directly as a practicing translator: he rendered into Uzbek Nikolai Gogol's comedy "The Marriage" ("Uylanish"), Anton Chekhov's play "The Cherry Orchard" ("Olchazor"), and the physics textbook of the Tatar physicist Abdulla Shunosiy, and also participated in compiling the "Complete Russian-Uzbek Dictionary" published in Kazan in 1934. Using historical-comparative and philological text analysis, the article examines Qodiriy's translation experience, his translation strategies, and his dual role as both translator and translated author.

Key words: *Abdulla Qodiriy, Jadidism, translation studies, literary translation, Gogol, Chekhov, lexicography.*

Аннотация: в статье анализируется переводческая деятельность Абдуллы Кадыри — основоположника узбекского романа и представителя джадидского движения — и ее роль в развитии узбекского переводоведения. В отличие от Фитрата и Бехбуди, Кадыри непосредственно занимался практическим переводом: он перевел на узбекский язык комедию Н. В. Гоголя «Женитьба» («Uylanish»), пьесу А. П. Чехова «Вишневый сад» («Olchazor») и учебник физики татарского ученого Абдуллы Шуноси, а также участвовал в составлении «Полного русско-узбекского словаря», изданного в Казани в 1934 году. На основе историко-сравнительного метода и филологического анализа текста в статье рассматриваются переводческий опыт Кадыри, его стратегии перевода, а также его двойственная роль — как переводчика и как автора, чьи произведения переводились на другие языки.

Ключевые слова: *Абдулла Кадыри, джадидизм, переводоведение, художественный перевод, Гоголь, Чехов, лексикография.*

¹ Abdulla Qodiriy // Wikipedia (English). — Manba: https://en.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qodiriy

Kirish. O'zbek adabiyoti va tarjimashunosligi tarixida Abdulla Qodiriy (1894–1938) alohida o'rin tutadi. U o'zbek romanchiligining asoschisi, publitsist, dramaturg va zukko tilshunos sifatida tanilgan bo'lib, uning ijodiy merosi asosan "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari orqali baholanadi². Biroq Qodiriy faoliyatining kamroq o'rganilgan, ammo

tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan muhim qismi — uning bevosita tarjimonlik amaliyoti hisoblanadi. Fitrat va Behbudiydan farqli o'laroq, Qodiriy rus va tatar tillaridan o'zbek tiliga bevosita badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni tarjima qilgan amaliyotchi tarjimon bo'lgan.

Ushbu maqolaning maqsadi — Qodiriyning tarjimonlik faoliyatiga oid faktik materialni tizimlashtirish, uning tarjima qilgan asarlarini

² Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi // Sputnik O'zbekiston. — Manba: <https://oz.sputniknews.uz/20190410/abdulla-qodiriy-hayoti-va-ijodi-22340395.html>

aniqlash va bu asarlar tarjimasida qo'llanilgan yondashuvlarni o'zbek tarjimashunosligi tarixi kontekstida baholashdan iborat.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot uchun material sifatida Qodiriyning tarjima qilgan asarlari (Gogolning "Uylanish", Chexovning "Olchazor", Shunosiyning "Fizika"), uning tarjimai holiga oid manbalar, shuningdek, uning o'z asarlarining boshqa tillarga tarjima qilinishiga oid ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- 1) tarixiy-qiyosiy metod;
- 2) manbashunoslik tahlili;
- 3) tavsifiy-tizimlashtirish metodi.

Natijalar va muhokama

Qodiriy — amaliyotchi tarjimon: rus va tatar tillaridan o'g'irilgan asarlar

Qodiriy 1920–1930-yillarda bir qator rus va tatar tilidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi. Manbalarda uning N.V.Gogolning "Uylanish" ("Женитьба") komediyasini va A.P.Chexovning "Olchazor" ("Вишнёвый сад") pyesasini o'zbekchaga o'g'irgani qayd etiladi³; ba'zi manbalarda bu tarjimalar va tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning "Fizika" darsligi tarjimasining sanalari bir-biridan farq qiladi ("Fizika" — ba'zi manbalarda 1925, boshqalarida 1928-yil, "Uylanish" — 1935-yil, "Olchazor" — 1936-yil deb ko'rsatiladi)⁴, bu esa manbalarni yanada aniqlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. Shunga qaramay, tarjima qilingan asarlar nomi va yo'nalishi barcha manbalarda barqaror takrorlanadi, bu ularning ishonchligini tasdiqlaydi.

3 Abdulla Qodiriy // Vikipediya (o'zbekcha bo'lim). – Manba: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qodiriy

4 Abdulla Qodiriy // Jadid.uz. – Manba: <https://jadid.uz/jadids/abdulla-qodiriy/>

Quyidagi jadvalda Qodiriy tarjima qilgan asarlar va ularning asl nomlari keltirilgan:

Asl asar (muallif, til)	Qodiriy tarjimasi (o'zbekcha nomi)	Janr / mavzu
H.B.Гоголь. «Женитьба» (rus)	"Uylanish"	komediya
A.П.Чехов. «Вишнёвый сад» (rus)	"Olchazor"	drama
Абдулла Шуноший. «Физика» (tatar)	"Fizika"	ilmiy-ta'limiy darslik

Chexov pyesasi nomining tarjimasi — "Вишнёвый сад" (so'zma-so'z: "gilos/olcha bog'i") o'rniga "Olchazor" shaklining tanlanishi — Qodiriyning tarjima strategiyasidagi muhim uslubiy tanlovni ko'rsatadi: u rus tilidagi ikki so'zli izofa birikmasini ("вишнёвый" — sifatdosh, "сад" — ot) o'zbek tilining o'ziga xos affiksatsiya imkoniyati — "-zor" qo'shimchasi ("gulzor", "anorzor", "bog'zor" kabi so'zlarda uchraydigan, "ko'plik/mo'llik" ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha) yordamida bir so'zga zichlashtirib bergan. Bu — so'zma-so'z tarjima (kalka) o'rniga tilning ichki so'z yasash resurslaridan foydalangan holda amalga oshirilgan struktur-moslashtiruvchi (adaptiv) tarjima strategiyasining namunasidir.

Ilmiy-ommabop va lug'atchilik sohasidagi tarjima faoliyati

Qodiriyning tarjimonlik faoliyati faqat badiiy adabiyot bilan chegaralanmagan. U tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning "Fizika" darsligini o'zbek tiliga o'g'irib, o'zbek ilmiy-ommabop adabiyoti

tarjimachiligiga ham hissa qo'shdi⁵. Bundan tashqari, 1934-yilda Qozon shahrida nashr etilgan "To'la ruscha-o'zbekcha lug'at"ni tuzish ishida bevosita ishtirok etgan⁶. Bu ikki faoliyat turi — ilmiy-ommabop tarjima va lug'atchilik — tarjimashunoslikning amaliy-lingvistik yo'nalishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, Qodiriyning nafaqat badiiy, balki ilmiy-ommabop tarjima sohasida ham faoliyat yuritgan universal tarjimon sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, u "Obid ketmon" qissasi ustida ishlash bilan bir qatorda boshqa g'arb yozuvchilarining satirik hikoyalari ham o'zbek tiliga o'g'irgani qayd etiladi⁷, biroq bu tarjimalarning to'liq ro'yxati va nashr manbalari alohida manbashunoslik tadqiqotini talab qiladi.

Qodiriy — tarjima qilinuvchi muallif: teskari yo'nalish

5 Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi. Tarjimai holi // ilmlar.uz. – Manba: <https://ilmlar.uz/abdulla-qodiriy-hayoti-va-ijodi-abdulla-qodiriy-biografiyasi-tarjimai-holi/>

6 Abdulla Qodiriy // Vikipediya (o'zbekcha bo'lim). – Manba: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qodiriy

7 Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi // tafakkur.net. – Manba: <https://tafakkur.net/abdulla-qodiriy.haqida>

Qodiriy tarjimashunoslik tarixida yana bir muhim jihat bilan ham namoyon bo'ladi: uning o'z asarlari boshqa tillarga faol tarjima qilingan. "O'tkan kunlar" romani 1928-yildayoq ozarbayjon tiliga, "Mehrobdan chayon" 1935-yilda tojik tiliga, "Obid ketmon" esa 1935-yilda rus tiliga tarjima qilingan⁸. Keyinchalik "O'tkan kunlar" arab tiliga ham "خلت أيام" ("Ayyam Xalat" — "O'tgan kunlar") nomi ostida o'girilgan⁹. Tadqiqotchilar bu tarjimada o'zbek milliy voqeligiga xos realialarni (masalan, kundalik turmush va udumlarga oid so'zlarni) arab tiliga o'tkazishda leksik-grammatik transformatsiyalar va izohli tarjima usullaridan foydalanilganini qayd etadilar¹⁰. Bu holat Qodiriy ijodini "tarjima qiluvchi" va "tarjima qilinuvchi" obyekt sifatida ikki tomonlama tahlil qilish imkonini beradi, bu esa qiyosiy tarjimashunoslik uchun boy material yaratadi.

Qodiriy tarjimonlik tajribasining nazariy ahamiyati

Qodiriyning jahon realistik adabiyoti namunalarini tarjima qilish jarayonida ulardan ijodiy o'rganib borgani, bu tajribani o'z original asarlarida (xususan, psixologik tasvir va syujet qurilishida) qo'llagani manbalarda alohida ta'kidlanadi¹¹. Bu — tarjima amaliyoti bilan original ijod o'rtaqidagi o'zaro

8 Qodiriy // oyina.uz. — Manba: <https://oyina.uz/uz/teahause/1112>

9 Badiiy tarjima bilan bog'liq muammolar ("O'tkan kunlar" arab tiliga tarjimasi misolida) // Journal of Education, Ethics and Value, Vol. 3, No. 11, 2024. — Manba: <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/download/951/819/888>

10 Badiiy tarjima bilan bog'liq muammolar ("O'tkan kunlar" arab tiliga tarjimasi misolida) // Journal of Education, Ethics and Value, Vol. 3, No. 11, 2024. — Manba: <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/download/951/819/888>

11 Abdulla Qodiriy // Vikipediya (o'zbekcha bo'lim). — Manba: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qodiriy

ta'sirning yorqin namunasi bo'lib, zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimaning ijodiy-uslubiy "maktab" vazifasini bajarishi haqidagi tushunchalar bilan uyg'undir¹².

Xulosa

O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

— Abdulla Qodiriy, Fitrat va Behbudiydan farqli o'laroq, o'zbek tarjimashunosligi tarixida bevosita amaliyotchi tarjimon sifatida namoyon bo'lgan: u Gogol va Chexovning dramaturgik asarlarini hamda ilmiy-ommabop "Fizika" darsligini o'zbek tiliga tarjima qilgan;

— uning "Olchazor" nomini tanlashi kabi tarjima yechimlari o'zbek tilining ichki so'z yasash imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan moslashtiruvchi tarjima strategiyasini namoyish etadi;

— Qodiriy 1934-yildagi "To'la ruscha-o'zbekcha lug'at"ni tuzishda ishtirok etib, o'zbek leksikografiyasi va ilmiy tarjima terminologiyasi rivojiga ham hissa qo'shgan;

— uning o'z asarlarining ko'plab tillarga, jumladan arab tiliga tarjima qilinishi Qodiriy ijodini qiyosiy tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ikki tomonlama (tarjimon va tarjima obyekti sifatida) o'rganish imkonini beradi.

Shu tariqa, Qodiriy merosini tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish o'zbek badiiy va ilmiy tarjimachiligi tarixining amaliy-uslubiy jihatlarini to'ldirishga xizmat qiladi.

12 Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy // Wikipedia (English). — Manba: https://en.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qodiriy
2. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi // Sputnik O'zbekiston. — Manba: <https://oz.sputniknews.uz/20190410/abdulla-qodiriy-hayoti-va-ijodi-22340395.html>
3. Abdulla Qodiriy // Vikipediya (o'zbekcha bo'lim). — Manba: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qodiriy
4. Abdulla Qodiriy // Jadid.uz. — Manba: <https://jadid.uz/jadids/abdulla-qodiriy/>
5. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi. Tarjimai holi // ilmlar.uz. — Manba: <https://ilmlar.uz/abdulla-qodiriy-hayoti-va-ijodi-abdulla-qodiriy-biografiyasi-tarjimai-holi/>
6. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi // tafakkur.net. — Manba: <https://tafakkur.net/abdulla-qodiriy.haqida>
7. Qodiriy // oyina.uz. — Manba: <https://oyina.uz/uz/teahause/1112>
8. Badiiy tarjima bilan bog'liq muammolar ("O'tkan kunlar" arab tiliga tarjimasi misolida) // Journal of Education, Ethics and Value, Vol. 3, No. 11, 2024. — Manba: <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/download/951/819/888>
9. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

Umida SAMATOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti;
Ilmiy rahbar: Nilufar TURUMOVA

INGLIZ ADABIYOTIDA POSTMODERNIZM XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz adabiyotida postmodernizm yo'nalishining shakllanishi, uning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Postmodern adabiyotning intertekstuallik, metafiksiya, fragmentarlik, o'yin uslubi, ironiya va tarixiy voqelikni qayta talqin qilish kabi asosiy belgilari ingliz yozuvchilarining asarlari misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *postmodernizm, ingliz adabiyoti, intertekstuallik, metafiksiya, fragmentarlik, ironiya, postmodern roman.*

Annotation: this article analyzes the formation of the direction of postmodernism in English literature, its theoretical foundations and specific features. The main characteristics of postmodern literature, such as intertextuality, metafiction, fragmentation, play style, irony, and reinterpretation of historical reality, are highlighted on the example of the works of English writers.

Key words: *postmodernism, English literature, intertextuality, metafiction, fragmentary, irony, postmodern novel.*

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida jahon adabiyotida yuzaga kelgan postmodernizm oqimi badiiy tafakkurning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur yo'nalish an'anaviy adabiy me'yorlarni qayta ko'rib chiqib, matnning ko'p ma'noliligi, o'quvchi talqinining ustuvorligi va turli madaniy qatlamlarning uyg'unlashuviga asoslandi. Ingliz adabiyotida postmodernizm 1960–1970-yillardan boshlab faol rivojlandi va zamonaviy roman janrining mazmuni hamda shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, tarixiy voqealarning yangi talqini, muallif va qahramon o'rtasidagi chegaralarning buzilishi hamda badiiy tajribalar ushbu yo'nalishning asosiy belgilariga aylandi.

Asosiy qism. Postmodernizm modernizmning mantiqiy davomi sifatida maydonga kelgan bo'lsa-da, u ko'plab estetik tamoyillarni inkor etadi. Postmodern adabiyotda yagona haqiqat yoki mutlaq g'oya mavjud emas. Asarlar ko'p qatlamli ma'noga ega bo'lib, o'quvchi ularni turlicha talqin qilishi mumkin. Postmodernizmning muhim xususiyatlaridan biri **intertekstuallik** hisoblanadi. Bunda yozuvchi o'z asarida boshqa adabiy manbalarga, tarixiy voqealarga yoki mashhur obrazlarga murojaat qiladi. Natijada yangi matn avvalgi matnlar bilan uzviy bog'lanadi. Bu usul o'quvchining adabiy bilimiga tayanadi va matnning ma'no doirasini kengaytiradi.

Postmodernizmning muhim belgilaridan yana biri simulyatsiya va reallik o'rtasidagi chegaralarning nisbiylashuvidir. Postmodern yozuvchilar asarlarida voqelik ko'pincha tasavvur, xotira yoki ommaviy axborot vositalari orqali qayta yaratilgan shaklda namoyon bo'ladi. Natijada o'quvchi haqiqiy voqea bilan badiiy to'qimani ajratishda qiyinchilikka duch keladi. Bu usul postmodern adabiyotning murakkab va ko'p qatlamli tuzilishini yanada kuchaytiradi.

Ingliz postmodern romanlarida shaxs muammosi ham alohida o'rin tutadi. Asar qahramonlari ko'pincha o'z shaxsiyati, jamiyatdagi o'rni va tarixiy jarayonlar bilan bog'liq ichki ziddiyatlarni boshdan kechiradilar. Ular an'anaviy qahramonlardan farqli ravishda mukammal yoki ideal obraz emas, balki qarama-

qarshi fikr va his-tuyg'ularni o'zida mujassam etgan murakkab shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu esa inson tabiatining ko'p qirrali ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Postmodern adabiyotda ramz va allegoriyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mualliflar ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarni bevosita emas, balki ramziy obrazlar orqali ifodalaydilar. Ramzlar turli ma'nolarni anglatishi mumkinligi sababli, har bir o'quvchi ularni o'z dunyoqarashi asosida talqin qiladi. Bu esa badiiy asarning estetik qiymatini oshirib, uning mazmunini yanada chuqurlashtiradi.

Postmodern adabiyot uchun **fragmentarlik** ham xosdir. Voqealar izchil emas, balki parchalar ko'rinishida bayon qilinadi. Syujetning uzilishi, vaqt va makonning almashib ketishi o'quvchini faol fikrlashga undaydi. **Ironiya va parodiya** postmodernizmning yana bir ajralmas xususiyatidir. Muallif jiddiy tarixiy yoki madaniy hodisalarni kinoya va hazil orqali tasvirlaydi. Bu usul mavjud stereotiplarni qayta ko'rib chiqishga yordam beradi. Ingliz adabiyotida postmodernizm rivojiga katta hissa qo'shgan yozuvchilar orasida John Fowles, Julian Barnes, Salman Rushdie, Angela Carter va Ian McEwan alohida o'rin tutadi. Ularning asarlarida tarix va fantastika, realizm va mifologiya, haqiqat va badiiy to'qima o'zaro uyg'unlashgan.

Masalan, The French Lieutenant's Woman romanida muallif bir nechta yakunni taqdim etadi. Bu esa o'quvchiga asarni mustaqil talqin qilish imkonini beradi. Flaubert's Parrot esa tarixiy-biografik materiallarni badiiy to'qima bilan uyg'unlashtirib, haqiqat tushunchasining nisbiyligini ko'rsatadi. Midnight's Children romanida esa tarixiy voqealar sehrli realizm va postmodern usullar orqali talqin etilgan.

Postmodernizm ingliz adabiyotida nafaqat yangi uslubni, balki o'quvchi va matn o'rtasidagi munosabatning yangi modelini ham shakllantirdi. O'quvchi endi tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki matn ma'nosini yaratuvchi faol ishtirokchiga aylandi. Bu yo'nalish modernizmning qat'iy estetik tamoyillariga tanqid

munosabat bildirib, badiiy asarda ko'p ma'nolilik, erkin talqin va janrlararo uyg'unlikni ilgari surdi.

Ingliz postmodern romanining o'ziga xos xususiyatlari

Ingliz postmodern romanlarida syujet an'anaviy ketma-ketlikka bo'ysunmaydi. Voqealar vaqt jihatidan almashib turadi, qahramonlarning xotiralari, orzulari va tasavvurlari real voqealar bilan uyg'unlashadi. Bunday usul asarning mazmunini murakkablashtiradi va o'quvchini faol mushohada yuritishga undaydi.

Postmodern yozuvchilar ko'pincha tarixiy voqealarni yangi nuqtayi nazardan talqin qiladilar. Tarixiy shaxslar yoki voqealar badiiy to'qima bilan uyg'unlashtiriladi, natijada tarix va fantastika o'rtasidagi chegaralar nisbiylashadi. Bu usul tarixni mutlaq haqiqat emas, balki turli talqinlarga ochiq hodisa sifatida ko'rsatadi.

Postmodernizmda til va uslub

Postmodern adabiyotning yana bir muhim belgisi til bilan tajriba o'tkazishdir. Yozuvchilar turli uslublarni, ilmiy va badiiy nutqni, publitsistik hamda folklor elementlarini bitta asarda uyg'unlashtiradilar. Ayrim hollarda bir necha janr elementlari bir asarda qo'llaniladi. Bu esa matnga rang-baranglik va ko'p qatlamlilik bag'ishlaydi.

Shuningdek, postmodern asarlarda kinoya, hazil va parodiya keng qo'llaniladi. Muallif jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarni bevosita emas, balki ramziy va kinoyaviy usullar orqali ifodalaydi. Shu jihatdan postmodern adabiyot o'quvchini tanqidiy fikrlashga undaydi.

Ingliz adabiyotida postmodernizmning ahamiyati

Ingliz adabiyotida postmodernizm yangi badiiy tafakkur uslubini shakllantirdi. U nafaqat roman janrini, balki hikoya, drama va esse janrlarini ham yangiladi. Postmodernizm adabiyotning imkoniyatlarini kengaytirib, muallif va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda o'quvchi matnni shunchaki o'qib chiqmaydi, balki uning ma'nosini izlash va talqin qilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Bugungi kunda ingliz postmodern adabiyoti jahon adabiyotshunosligida muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Uning estetik tamoyillari zamonaviy adabiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ko'plab mamlakatlar adabiyotida yangi badiiy izlanishlarning yuzaga kelishiga xizmat qilmoqda. Postmodernizmning nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan falsafiy va madaniy qarashlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu yo'nalish mutlaq haqiqat va universal qadriyatlar mavjudligi haqidagi an'anaviy qarashlarni

shubha ostiga qo'yadi. Postmodernizmga ko'ra, badiiy matn yagona ma'noga ega emas, balki har bir o'quvchi uni o'z bilim va tajribasi asosida turlicha talqin qiladi. Shu sababli postmodern asarlarda ochiq yakun, ko'p ma'nolilik va erkin talqin tamoyillari muhim o'rin egallaydi.

Postmodern adabiyotda janrlararo uyg'unlik ham muhim ahamiyatga ega. Ingliz yozuvchilari roman, esse, detektiv, tarixiy asar, fantastika va avtobiografik elementlarni bitta asar tarkibida birlashtiradilar. Bundan tashqari, ilmiy uslub, publitsistik nutq, folklor motivlari va ommaviy madaniyat unsurlaridan birgalikda foydalanish matnning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada asar ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, turli o'quvchilar tomonidan har xil talqin qilinishi mumkin.

Postmodern romanlarda vaqt va makon tushunchalari ham an'anaviy qoliplardan farq qiladi. Voqealar xronologik ketma-ketlik asosida emas, balki qahramonlarning xotiralari, tushlari yoki tasavvurlari orqali beriladi. Shu sababli o'tmish, hozirgi zamon va kelajak o'zaro tutashib ketadi. Bunday kompozitsiya asarning murakkabligini oshiradi va o'quvchini voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni mustaqil aniqlashga undaydi. Shuningdek, postmodern adabiyotda ommaviy madaniyat elementlari ham keng qo'llaniladi. Reklama, kino, televideniye, gazeta uslubi, mashhur afsona va rivoyatlar badiiy matnga singdiriladi. Bu esa postmodernizmning turli madaniy qatlamlarni birlashtirish xususiyatini namoyon etadi hamda zamonaviy jamiyatning murakkab madaniy manzarasini aks ettiradi.

Natijada ingliz postmodern adabiyoti nafaqat yangi badiiy uslublarni yaratdi, balki adabiyotni anglash va talqin qilishning yangi modelini ham shakllantirdi. O'quvchi endilikda tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki matnning mazmunini izlash va yaratishda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihatlar ingliz postmodern romanining jahon adabiyotidagi o'ziga xos o'rnini belgilaydi.

Xulosa. Ingliz adabiyotida postmodernizm badiiy tafakkurning yangi bosqichini boshlab bergan muhim adabiy yo'nalishdir. Ushbu oqim intertekstuallik, metafiksiya, fragmentarlik, ironiya va ko'p ma'nolilik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Postmodern yozuvchilar an'anaviy syujet va kompozitsiyadan voz kechib, yangi badiiy shakllarni yaratdilar. Natijada ingliz adabiyoti jahon adabiy jarayonining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ham postmodernizm zamonaviy adabiy tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barry, P. *Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory*. 4th ed. Manchester University Press, 2017.
2. Bertens, H. *The Idea of the Postmodern: A History*. Routledge, 1995.
3. Hutcheon, L. *A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction*. Routledge, 1988.
4. Waugh, P. *Metafiction: The Theory and Practice of Self-Conscious Fiction*. Routledge, 1984.
5. Fowles, J. *The French Lieutenant's Woman*. Vintage Books, 2004.
6. Barnes, J. *Flaubert's Parrot*. Vintage International, 1990

Muhlisa KAMOLOVA,
Magistrant, Turkiyaning O'zbekistondagi elchixonasi
Kommunikatsiya bo'limi tarjimoni
khamolovamuhlisaa@gmail.com

JAMOAT DIPLOMATIYASIDA KONVERGENT TAHRIRIYATLARNING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashtirish va raqamlashtirish davrida jamoat diplomatiyasini shakllantirish va yuritishda konvergent tahririyatlarning o'rnini tadqiq etilgan. Axborot makonining transformatsiyasi sharoitida an'anaviy va yangi medianing birlashuvi natijasida davlatlarning xalqaro maydondagi "yumshoq kuch" siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilingan. Maqolada xalqaro tajriba va zamonaviy media-modellar asosida konvergent tahririyatlarning jamoat diplomatiyasidagi strategik funksiyalari va ularning samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamoat diplomatiyasi, konvergent tahririyat, multimedia, yumshoq kuch, raqamli diplomatiya, media transformatsiya, yangi media.

Аннотация: в данной статье исследуется роль конвергентных редакций в формировании и ведении публичной дипломатии в эпоху глобализации и цифровизации. Анализируется влияние слияния традиционных и новых медиа, происходящего на фоне трансформации информационного пространства, на политику «мягкой силы» (soft power) государств на международной арене. На основе международного опыта и современных медиамodelей в статье освещаются стратегические функции конвергентных редакций в публичной дипломатии и пути повышения их эффективности.

Ключевые слова: публичная дипломатия, конвергентная редакция, мультимедиа, мягкая сила, цифровая дипломатия, медиатрансформация, новые медиа.

Annotation: this article examines the role of convergent newsrooms in forming and conducting public diplomacy in the era of globalization and digitization. It analyzes how the integration of traditional and new media, resulting from the transformation of the information space, affects the "soft power" policy of states in the international arena. Based on international experience and modern media models, the article highlights the strategic functions of convergent newsrooms in public diplomacy and ways to increase their effectiveness.

Keywords: public diplomacy, convergent newsroom, multimedia, soft power, digital diplomacy, media transformation, new media.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi shiddatli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Davlatlarning tashqi siyosiy maqsadlariga erishishda an'anaviy "qattiq kuch" omili bilan bir qatorda, axborot va jozibadorlik orqali xorijiy auditoriya ongiga ta'sir o'tkazish, ya'ni "yumshoq kuch" konsepti yetakchi o'ringa chiqdi. Ushbu yumshoq kuchni amalga oshirishda jamoat diplomatiyasi asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi an'anaviy ommaviy axborot vositalarini butunlay isloh qilib, ularni yangi media bilan yagona axborot tizimiga konvergent platformaga birlashtirishni taqozo etmoqda. Konvergent tahririyat shunchaki texnologik yangilanish emas, balki xalqaro auditoriyaga yo'naltirilgan axborotni ishlab chiqarish, qadoqlash va yetkazib berishning mutlaqo yangi strukturaviy modelidir.

Jamoat diplomatiyasida konvergent media, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va an'anaviy medianing birlashishi orqali davlatlarning xorijiy jamoatchilik bilan to'g'ridan to'g'ri hamda interaktiv aloqa o'rnatishini ta'minlaydigan asosiy kuchdir. U madaniy aloqalarni kuchaytiradi, davlatlarning "yumshoq kuch"ini qo'llab-quvvatlaydi va tezkor global muloqot orqali noto'g'ri tasavvurlarni boshqarish imkoniyatini beradi. An'anaviy medianing bir tomonlama axborot oqimi o'rnini ijtimoiy tarmoqlarning izoh qoldirish, yoqtirish (layk) va ulashish kabi funksiyalari egalladi. Bu esa davlatlarga xorijiy xalqlar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatish imkonini bermoqda. Yaqindagina o'tkazilgan Jahon chempionatida bir qancha xorijiy jurnalistlar ishtirok etdi. Davlatlar o'rtasidagi OAV vakillari bir-birlari bilan o'zaro muloqotni yanada yaxshiladi. Shu bilan birga, jurnalistlar birga hamkorlikda faoliyatini

olib borishdi. Xorijlik jurnalistlarning ko'payishi jamoat diplomatiyaning yanada takomillashuviga olib keladi. Madaniyat, san'at, ta'lim va turizm kabi "yumshoq kuch" unsurlari raqamli video platformalar va onlayn tarmoqlar orqali keng auditoriyaga tez fursatda yangiliklar yetkazadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yumshoq kuch nazariyasini Jozef Nay 1990-yilda **"Bound to Lead: The Changing Nature of American Power"** nomli asarida asos slogan [1]. Asarda shunday deyiladi: "Kelajakda xalqaro muammolarni (masalan, ekologiya, kiberxavfsizlik, global iqtisodiyot) faqat bitta davlat qurol bilan hal qila olmaydi. Shuning uchun davlatlar boshqalar bilan hamkorlik qilishga, ittifoqchilar yig'ishga majbur bo'ladi. Buning uchun esa ularga harbiy kuch emas, balki xalqaro maydondagi obro' va jozibadorlik, ya'ni o'sha "yumshoq kuch" kerak bo'ladi. Bu nazariyani o'z talqinimizda izohlaydigan bo'lsak, har bir xalqaro jurnalistik hamkorlik uchun "yumshoq kuch" ga ehtiyojimiz bor.

Jamoat diplomatiyasini rivojlantirish uchun ko'p tilli platformalarning sonini orttirib, xalqaro jurnalistlarni jalb etishimiz O'zbekistonni ham turizm sohasiga hamda media sohasiga bir qancha ijobiylikni olib keladi. Masalan: **Deutsche Welle Germaniya** tahririyati to'liq konvergent modelga o'tgan bo'lib, dunyoning 32 tilida faoliyat yuritadi [2]. Ularning asosiy vazifasi Germaniya tashqi siyosati va Yevropa qadriyatlarini xalqaro auditoriyaga tushunarli va jozibali tilda yetkazishdir. Buning uchun an'anaviy eshittirishlardan ko'ra ijtimoiy tarmoqlardagi interaktiv loyihalarga ko'proq urg'u beriladi. Yana bir misol, **CGTN (Xitoy)**: Xitoy hukumati o'zining global imijini yaxshilash va g'arb media-gegemonligiga qarshi turish uchun sun'iy intellekt va konvergent texnologiyalardan keng foydalanadi [3]. Bitta tahririyat bir vaqtning o'zida o'nlab tillarda ko'p formatli (multi-format) kontent yaratadi va tarqatadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ko'p tilli formatlarda faoliyat olib borilganlik deyarli kuzatilmaydi. Oxirgi 3 oyda "Xalq so'zi" nomi bilan tanilgan bugungi Xs.uz sayti 11 tilda faoliyatini olib borganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin bu ham nazarimda yetarli emasdek. Nega degan savolga bizni xorijda muhbirlarimiz yo'q deb javob bergan bo'lar edim. Bizga yaqin qardosh Turkiya bilan bog'liq xabarlarini

biz turk nashrlaridan emas, Yevropa saytlaridan olamiz. Agar biz jamoat diplomatiyasini rivojlantirsak, xalqaro muxbirlarimizni yo'lga qo'ysak bizning o'zbek mediamiz ham BBCdan qolishmaydi. Xorijiy tillarni mukammal biladigan OAV vakillari sonini orttirib, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishimiz zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jamoat diplomatiyasini konvergent tahririyatlarsiz samarali yuritish imkonsizdir. Axborot oqimining tezligi va formati o'zgargan davrda, davlatlarning xalqaro imiji ularning axborotni qanchalik tezkor, ishonchli va vizual jihatdan jozibali yetkazib bera olishiga bog'liq.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamoat diplomatiyasini konvergent tahririyatlarsiz samarali yuritish imkonsizdir. Konvergent tahririyat modeli axborot tarqatishdagi bir tomonlama yondashuvdan voz kechib, xorijiy jamoatchilik bilan doimiy, ikki tomonlama va interaktiv muloqot o'rnatish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash va milliy brendini tizimli ilgari surish uchun tashqi auditoriyaga yo'naltirilgan davlat media resurslarini yagona konvergent tizimga birlashtirish, kontent tarkibida vizual va audio formatlar ulushini keskin oshirish hamda media sohasida ham xalqaro munosabatlarni, ham zamonaviy texnologiyalarni mukammal tushunadigan universal kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish strategik zaruriyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish va "Yangi O'zbekiston" brendini tizimli targ'ib qilish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Milliy va xalqaro yo'nalishdagi davlat axborot resurslarini integratsiyalashgan yagona konvergent xabarlar markaziga birlashtirish.

2. Jurnalistika va xalqaro munosabatlar yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida "Raqamli jamoat diplomatiyasi" va "Konvergent xalqaro jurnalistika" kabi ixtisoslashgan o'quv kurslarini joriy etish.

3. Tashqi siyosiy va madaniy targ'ibotda faqat matnli formatlardan voz kechib, vizual va audio (podkast, infografika, interaktiv loyihalar) kontent ulushini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jozef Nay, "Bound to Lead: The Changing Nature of American Power" 1990-yil.
2. Nye, J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics / J. S. Nye. — New York: Public Affairs, 2004.
3. Zhang, L. Xinhua's and CGTN's Public Diplomacy on Social Media [Text] / L. Zhang // Global Media and Communication. 2020.

Diyora ABDUXAMIDOVA,

ORCID: 0009-0002-9216-5605

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti

abduhamidovadiyora08@gmail.com



O'ZBEK ENERGOTERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilidagi energoterminlarning leksikografik talqini masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – o'zbek energoterminlarining leksikografik talqinini o'rganishdan iborat. Energetika sohasiga oid terminlarning shakllanishi, ularning lug'atlarda izohlanish tamoyillari, semantik xususiyatlari hamda ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan bog'liq holda boyib borishi yoritiladi. Shuningdek, energoterminlarning o'zbek tilidagi qo'llanishi, milliy terminologiya tizimidagi o'rni va ularni tartibga solish masalalari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *energotermin, leksikografiya, terminologiya, energetika, ilmiy uslub, semantika, lug'at, texnik termin, tilshunoslik*

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы лексикографической интерпретации энерготерминов в узбекском языке. Освещаются процессы формирования терминов, относящихся к сфере энергетики, принципы их толкования в словарях, семантические особенности, а также их обогащение в связи с научно-техническим прогрессом. Кроме того, на научной основе рассматриваются особенности употребления энерготерминов в узбекском языке, их место в системе национальной терминологии и вопросы их упорядочения.

Ключевые слова: *энерготермин, лексикография, терминология, энергетика, научный стиль, семантика, словарь, технический термин, языкознание*

Annotation: this article analyzes the issues of the lexicographic interpretation of energy-related terms in the Uzbek language. It highlights the formation of terms related to the field of energy, the principles of their interpretation in dictionaries, their semantic features, and their enrichment in connection with scientific and technological progress. In addition, the article scientifically examines the use of energy terms in the Uzbek language, their role in the national terminology system, and issues related to their standardization.

Keywords: *energy term, lexicography, terminology, energy sector, scientific style, semantics, dictionary, technical term, linguistics*

Kirish. Bugungi kunda fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi tilning terminologik qatlamiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, energetika sohasi bilan bog'liq terminlar zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim qismi sifatida til tizimida faol qo'llanilmoqda. Elektr energiyasi, atom energetikasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, neft-gaz sanoatidagi yo'nalishlarning rivojlanishi yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa energoterminlarning til tizimidagi o'rni, ularning semantik xususiyatlari va leksikografik talqinini o'rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Terminologiya har qanday ilmiy sohaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilm-fan rivojlangan sari terminologik tizim ham boyib, takomillashib boradi. Energetika sohasi ham bundan mustasno emas. Mazkur

sohada qo'llanilayotgan terminlarning katta qismi xalqaro xarakterga ega bo'lib, ular asosan, ingliz va rus tillari orqali o'zbek tiliga kirib kelgan. Shu bilan birga, o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan milliy terminlar ham mavjud. Terminlarning milliy til me'yorlariga moslashuvi, ularning ilmiy aniqligi hamda bir ma'nolilik xususiyatini ta'minlash esa leksikografiya va terminologiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi energoterminlarning leksikografik xususiyatlarini o'rganish, ularning lug'atlardagi talqinini tahlil qilish hamda terminologik tizimdagi o'rnini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun energoterminlarning shakllanish manbalari, semantik

va strukturaviy xususiyatlari, ilmiy uslubdagi qo'llanishi hamda terminologik me'yorlashuv masalalari tadqiq qilindi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda energetika sohasiga oid terminlarning o'zbek tilidagi qo'llanish xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda ularning leksikografik talqiniga oid ilmiy qarashlar umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari energetika terminologiyasini takomillashtirish, terminologik lug'atlar yaratish va ilmiy uslubni me'yorlashtirish jarayonlarida muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, energoterminlarning leksikografik talqini alohida ilmiy muammo sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu jihatdan energoterminlarning lug'atlardagi izohi, ularning semantik tabiati va qo'llanish xususiyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot doirasida quyidagi savollarga javob izlanadi:

1. Energoterminlar lug'atlarda qanday izohlanadi?
2. Ularning semantik va funksional xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Milliy va xalqaro energoterminlar o'rtasidagi farqlar nimada?
4. Lug'atlarda energoterminlarni izohlashda qanday muammolar va variantdorlik holatlari mavjud?

Adabiyotlar sharhi. O'zbek tilshunosligida terminologiya va leksikografiya masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, ilmiy-texnik terminlarning shakllanishi, ularning semantik xususiyatlari hamda lug'atlardagi talqini yuzasidan muhim ilmiy ishlanmalar yaratilgan. A.Hojiyevning (2002) tilshunoslik terminologiyasiga oid tadqiqotlarida terminlarning ilmiy aniqligi va bir ma'nolilik xususiyatlari alohida ta'kidlanadi. Olim terminologik birliklarning umumxalq leksikasidan farqli jihatlarini yoritib, ilmiy terminlarning standart shaklda qo'llanishi zarurligini qayd etadi.

Sh.Rahmatullayev (2006) o'z tadqiqotlarida o'zbek tilining lug'aviy tarkibi va terminologik qatlamini o'rganib, ilmiy terminlarning til taraqqiyotidagi o'rniga baho beradi. Olim terminlarning milliy til imkoniyatlari asosida shakllanishiga katta e'tibor qaratadi.

Terminologiya nazariyasining rivojlanishida rus tilshunoslari, jumladan, V.V.Vinogradov (1986) hamda D.S.Lottening (1961) ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. Ular terminlarning sistemaviy tabiati,

standartlashuvi va ilmiy kommunikatsiyadagi o'zni haqida nazariy asoslar yaratgan.

Energetika terminologiyasi bilan bog'liq tadqiqotlarda ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida yangi terminlarning paydo bo'lishi va ularning milliy tillarga moslashuvi masalalari keng yoritiladi (Vinogradov, 1986, 640-bet). Xususan, energetika terminlarining aksariyati xalqaro xarakterga ega bo'lib, ingliz va rus tillari orqali o'zbek tiliga kirib kelgani qayd etiladi (Hojiyev, 2002, 164-bet).

Leksikografiya sohasidagi ilmiy ishlarda terminlarning lug'atlardagi talqini masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida (2006) energetika sohasiga oid terminlarning qisqa va ilmiy izohlari keltirilgan. Ammo ayrim energoterminlarning izohida (Hojiyev, 2002) noaniqlik va variantdorlik holatlari saqlanib qolayotgani kuzatiladi. Bunga sabab sifatida o'zbek tilida hali o'zbek energoterminlarining maxsus lug'ati yaratilmaganini hamda o'zbek energoterminlarining yetarli darajada o'rganilmaganini keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mavzuni tadqiq etishda zamonaviy tilshunoslikning terminologiya, leksikologiya va leksikografiya yo'nalishlariga oid nazariy qarashlarga tayanildi. Maqolaning metodologik asosini terminlarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot davomida, avvalo, terminologik birliklarning ilmiy tabiatini aniqlashga xizmat qiluvchi deskriptiv metoddan foydalanildi. Ushbu metod yordamida energetika sohasiga oid terminlarning lug'atlardagi izohi, ularning qo'llanish doirasi va ma'noviy xususiyatlari tavsiflandi. Energoterminlarning o'zbek tilidagi shakllanish jarayonini yoritishda qiyosiy-tahliliy metod muhim o'rin tutdi. Bu metod orqali terminlarning milliy va xalqaro variantlari o'zaro solishtirildi hamda ularning til tizimidagi moslashuv darajasi tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada komponent tahlil metodidan ham foydalanildi. Mazkur metod energoterminlarning semantik tarkibini aniqlash, ularning asosiy va qo'shimcha ma'no komponentlarini ochib berishda qo'l keladi. Masalan, "generator", "transformator", "quvvat", "kuchlanish" kabi terminlarning ilmiy mazmuni lug'aviy va terminologik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini terminologiya va leksikografiya bo'yicha yaratilgan ilmiy qarashlar tashkil qiladi. Xususan, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev,

V.V.Vinogradov kabi olimlarning termin va terminologik tizim haqidagi ilmiy qarashlari metodologik manba sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida energetika sohasiga oid terminlarning lug'atlardagi ifodasi, ularning semantik aniqligi hamda ilmiy-uslubiy xususiyatlari o'rganildi. Bundan tashqari, terminlarning zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot ta'sirida boyib borishi ham metodologik jihatdan tahlil qilindi.

Natija va muhokamalar. Maqolada o'zbek tilidagi energoterminlarning leksikografik talqini tahlil qilinib, ularning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlari aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, energetika sohasiga oid terminlar o'zbek tilining zamonaviy terminologik qatlamida muhim o'rin egallaydi

hamda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq holda muntazam boyib bormoqda. Ba'zi tahlil natijalariga ko'ra, energoterminlarning asosiy qismi xalqaro terminlar hisoblanadi. Jumladan, "generator", "transformator", "reaktor", "kabel", "volt", "amper" kabi terminlar o'zbek tiliga rus va ingliz tillari orqali kirib kelgan. Ushbu terminlar ilmiy adabiyotlar va texnik hujjatlarda asosan, o'z asl shaklida qo'llanilishi aniqlandi.

Shuningdek, energoterminlarning ma'lum qismi o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllanganligi kuzatildi. Masalan, "kuchlanish", "quvvat", "tok", "zaryad", "energiya manbai" kabi birliklar milliy terminologik qatlamga mansubdir. Bu hol o'zbek tilining ilmiy termin yaratish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi.

1-jadval

T/ r	Topilma	Misollar	Muhokama
1	Xalqaro energoterminlar	Generator, transformator, reaktor, kabel, volt, amper va hokazo.	Bu terminlar rus va ingliz tillari orqali kirib kelgan hamda ko'proq asl shaklda qo'llanmoqda.
2	Milliy energoterminlar	Kuchlanish, quvvat, tok, zaryad va hokazo.	O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan.

Leksikografik tahlillar natijasida energoterminlarning lug'atlardagi izohlanishida ayrim farqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, izohli lug'atlarda terminlarning umumiy ma'nosi qisqa tarzda berilgan bo'lsa, terminologik va texnik lug'atlarda ularning ilmiy tavsifi kengroq yoritilgan. Masalan, "transformator" termini izohli lug'atda elektr kuchlanishini o'zgartiruvchi qurilma sifatida qisqacha izohlansa, texnik lug'atlarda uning ishlash prinsipi va vazifalari batafsil tushuntiriladi. Tahlillardavomidaayrimenergoterminlardavariantdorlik holatlari mavjudligi ham kuzatildi. Jumladan: "akkumulyator" va "batareya"; "transformator" va "o'zgartirgich"; "quyosh paneli" va "quyosh batareyasi" kabi birliklar parallel qo'llanilmoqda.

Bu esa terminologik me'yorlashuvning to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, zamonaviy energetika sohasida yangi terminlarning faol paydo bo'layotgani aniqlandi. Xususan: "yashil energetika", "muqobil energiya", "raqamli energetika", "aqlli tarmoq" kabi terminlar keyingi yillarda ilmiy iste'molda keng qo'llanmoqda.

Mazkur terminlarning ayrimlari hali barcha lug'atlarda bir xil shaklda izohlanmaganligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari o'zbek energoterminologiyasi shakllanishida xalqaro terminlarning ustuvor mavqega ega ekanini ko'rsatdi. Bu hol energetika sohasining global ilmiy-texnik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liqligi bilan izohlanadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar, asosan, ingliz tilidagi ilmiy muhit orqali tarqaladi va yangi terminlar ko'pincha o'z asl shaklida milliy tillarga kirib keladi.

Shu bilan birga, o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan energoterminlar ham terminologik tizimning milliylashuviga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "kuchlanish", "quvvat", "tok" kabi terminlarning faol qo'llanishi ilmiy tilning milliy asosda rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bu esa termin yaratishda o'zbek tilining boy semantik va so'z yasash imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi energoterminlar zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot bilan uzviy bog'liq holda shakllanib va rivojlanib bormoqda. Energetika sohasining jadal rivojlanishi natijasida yangi terminlarning paydo bo'lishi, mavjud terminlarning semantik jihatdan kengayishi hamda xalqaro terminlarning milliy tilga moslashuvi terminologik tizimning boyishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "yashil

energetika”, “muqobil energiya”, “raqamli energetika”, “aqli tarmoq” kabi yangi tushunchalarning ilmiy iste’molga kirib kelishi o’zbek energoterminologiyasining zamonaviy bosqichga ko’tarilayotganini ko’rsatadi.

Ayniqsa, ekologik va raqamli texnologiyalar rivoji natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalar o’zbek terminologik tizimining yangilanishiga sabab bo’lmoqda. Biroq ayrim yangi terminlarning o’zbekcha muqobili hali to’liq shakllanmagan. Shuningdek, energoterminlarning semantik aniqligini ta’minlashda terminologik lug’atlarning roli katta ekani ma’lum bo’ldi. Maxsus terminologik lug’atlar ilmiy terminlarni tizimlashtirish, ularning standart shaklini belgilash va ilmiy iste’molda yagona me’yorni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Tahlillar davomida energoterminlarning katta qismi xalqaro xarakterga ega ekani aniqlandi. Bu hol energetika sohasining global ilmiy makon bilan chambarchas bog’liqligi bilan izohlanadi. Xususan, ingliz va rus tillari orqali kirib kelgan terminlar ilmiy adabiyotlarda faol qo’llanmoqda. Biroq ayrim terminlarning o’zbekcha muqobillari bilan parallel qo’llanishi terminologik variantdorlikni yuzaga keltirmoqda. Masalan, “quyosh paneli” va “quyosh batareyasi”, “transformator” va “o’zgartirgich” kabi birliklarning bir vaqtda ishlatilishi ilmiy me’yorlashuv jarayonining to’liq shakllanmaganini ko’rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot davomida energoterminlarning lug’atlardagi izohi turlicha berilishi ham kuzatildi. Izohli lug’atlarda terminlarning umumiy ma’nosi qisqa va sodda tarzda yoritilgan bo’lsa, texnik va terminologik lug’atlarda ularning ilmiy tavsifi kengroq berilgan. Bu esa energoterminlarni yagona ilmiy mezon asosida izohlash zaruratini yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, zamonaviy energetika bilan bog’liq yangi terminlarning ayrim lug’atlarda hali qayd etilmagani yoki turlicha talqin

qilinayotgani terminologik tizimni takomillashtirish lozimligini ko’rsatadi.

Tadqiqot natijalari o’zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida ham samarali termin yaratish mumkinligini tasdiqladi. “Kuchlanish”, “quvvat”, “tok”, “zaryad” kabi terminlar milliy terminologik qatlamning shakllanganini va o’zbek tilining ilmiy uslub yaratish salohiyati yuqori ekanini ko’rsatadi. Bu esa yangi terminlarni yaratishda imkon qadar milliy til vositalaridan unumli foydalanish zarurligini anglatadi. Mazkur tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- energetika sohasiga oid terminlarning yagona elektron terminologik bazasini yaratish;
- energoterminlarning ilmiy asoslangan izohlarini ishlab chiqish va ularni standartlashtirish;
- yangi terminlarni o’zbek tiliga moslashtirishda milliy tilning ichki imkoniyatlariga ustuvor ahamiyat berish;
- energetika terminlari bo’yicha maxsus ikki tilli va ko’p tilli lug’atlar yaratish;
- ilmiy maqola, darslik va texnik hujjatlarda terminlardan bir xil me’yor asosida foydalanishni yo’lga qo’yish;
- energetika va tilshunoslik sohalari mutaxassislari hamkorligida terminologik komissiyalar faoliyatini kuchaytirish;
- zamonaviy energetik texnologiyalar bilan bog’liq yangi tushunchalarni muntazam ravishda terminologik jihatdan monitoring qilib borish.

Umuman olganda, o’zbek energoterminologiyasini ilmiy asosda rivojlantirish nafaqat tilshunoslik, balki energetika sohasining samarali rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Energoterminlarning aniq, izchil va standart shaklda qo’llanishi ilmiy kommunikatsiya sifatini oshiradi, mutaxassislar o’rtasidagi axborot almashinuvini yengillashtiradi hamda o’zbek ilmiy tilining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev, A. (2002). Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 162–164.
2. Lotte, D. S. (1961). Основы построения научно-технической терминологии. Москва: Издательство Академии наук СССР, 150–158.
3. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi o’zbek adabiy tili.–Toshkent: Universitet, 472–476.
4. Vinogradov, V. V. (1986). Русский язык. Грамматическое учение о слове. – Москва: Высшая школа, 636–640.
5. O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildlik. 2-jild. (2006). – Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 670–672.

Dilafruz YUSUPOVA,
ISFT University Samarqand filiali
Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich magistranti

TALABALARNING O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING ROLI

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarining o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli vositalar — onlayn platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar — talabalarining mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar yordamida o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari, ularning samaradorligi hamda pedagogik amaliyotdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli muhitda o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish ko'nikmalarini maqsadli rivojlantirish talabalar akademik muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil ta'lim, onlayn platforma, metakognitiv ko'nikmalar, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль и возможности цифровых технологий в развитии навыков самоконтроля у студентов. В современном образовательном процессе цифровые инструменты — онлайн-платформы, мобильные приложения, системы на основе искусственного интеллекта — играют важную роль в поддержке самостоятельной учебной деятельности студентов. В исследовании рассматриваются методы формирования навыков самоконтроля с помощью цифровых технологий, их эффективность и место в педагогической практике. Результаты исследования показали, что целенаправленное развитие навыков саморегуляции и самоконтроля в цифровой среде значительно повышает академическую успеваемость студентов.

Ключевые слова: *цифровые технологии, самоконтроль, самостоятельное обучение, онлайн-платформа, метакогнитивные навыки, эффективность обучения.*

Annotation: this article analyzes the significance and potential of digital technologies in developing students' self-regulation and self-monitoring skills. In the contemporary educational process, digital tools — online platforms, mobile applications, and artificial intelligence-based systems — play a crucial role in supporting students' independent learning activities. The research examines methods for fostering self-monitoring skills through digital technologies, their effectiveness, and their role in pedagogical practice. The findings indicate that targeted development of self-regulation and self-monitoring competencies in digital environments significantly enhances students' academic achievement.

Key words: *digital technologies, self-monitoring, self-regulated learning, online platform, metacognitive skills, educational effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasida talabalarining o'z o'quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati — ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari — tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, bu ko'nikmalarni shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Dunyo bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalariga ega talabalar akademik muvaffaqiyatga erishishda ancha yuqori natijalarga ega bo'lishadi (Zimmerman, 2002; Pintrich, 2004).

O'zbekiston Respublikasida ta'limni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan tashabbuslarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur maqola ana shu dolzarb masalaga bag'ishlanib, raqamli muhitda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil va sintez (mahalliy va xorijiy pedagogik adabiyotlarni o'rganish), taqqoslash metodi (turli raqamli platformalarning samaradorligini solishtirish), pedagogik kuzatuv va anketalashtirish. Tadqiqotning empirik qismi ISFT University Samarqand filiali talabalarini qamrab oldi (n=120). Shuningdek, Google Scholar, ResearchGate va ERIC ma'lumotlar bazalarida 2015–2024 yillar oralig'ida chop etilgan 45 ta ilmiy maqola tahlil qilindi.

O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari quyidagi komponentlar asosida o'rganildi:

- 1) maqsad qo'yish va rejalashtirish;
- 2) o'z-o'zini monitoring qilish;
- 3) o'z-o'zini baholash;
- 4) strategiyalarni moslashtirish. Raqamli vositalar sifatida Moodle LMS, Khan Academy, Coursera, Quizlet, Notion va Microsoft OneNote platformalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi tadqiq etildi.

Natijalar va muhokama.

Raqamli texnologiyalarning o'z-o'zini nazorat qilishga ta'siri

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishda uchta asosiy mexanizm orqali ta'sir o'tkazadi. Birinchidan, tezkor fikr-mulohaza (feedback) imkoniyati — raqamli platformalar test va topshiriqlar bajarilgandan so'ng darhol natijalarni ko'rsatib, talabaga xatolarini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, o'quv jarayonini vizualizatsiya qilish — progress grafiklar, foiz ko'rsatkichlari va analitik ma'lumotlar talabaning o'z yutuqlari va kamchiliklarini aniq ko'rishiga yordam beradi. Uchinchidan, individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish — adaptiv algoritmlar har bir talabaning bilim darajasiga mos keladigan materiallarni taklif etadi.

So'rovnoma natijalari tahlili ko'rsatdiki, raqamli platformalardan muntazam foydalanuvchi talabalar (haftasiga 5 soatdan ko'p) o'z-o'zini nazorat ko'rsatkichlari bo'yicha boshqalarga nisbatan 34% yuqori ball to'plagan. Xususan, Moodle tizimida o'qish jurnallarini yuritish va o'z baholash testlarini topshirish jarayonida talabalar metakognitiv ko'nikmalarini — o'z bilish jarayonini anglash va nazorat qilish qobiliyatlarini — sezilarli darajada rivojlantirgan.

Raqamli vositalarning turlari va ularning pedagogik samaradorligi.

Tadqiqot davomida turli raqamli vositalar tahlil qilinib, ularning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni aniqlandi. LMS (Learning Management System) platformalari, jumladan Moodle va Canvas, talabalarning vazifalarni bajarish muddatlarini, o'quv faoliyat dinamikasini va baholash natijalarini kuzatish imkonini beradi. Tadqiqotimizda LMS foydalanuvchilarining 78% o'z vaqtini rejalashtirish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar sezganini ta'kidladi.

Gamifikatsiya elementlarini o'z ichiga olgan ilovalar (Quizlet, Duolingo) talabalar motivatsiyasini oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish siklini mustahkamlashda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Bu

ilovalar talabalarga o'z bilim darajasini o'zlari sinab ko'rish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'rganish tizimlari esa (Knewton, Smart Sparrow) har bir talabaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda materiallarni moslashtirib taqdim etishi bilan boshqa vositalardan ustun turadi.

To'siqlar va yechimlar

Raqamli texnologiyalarning barcha potensial imkoniyatlariga qaramay, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda bir qator to'siqlar mavjud. Birinchi to'siq — raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar: barcha talabalar zamonaviy platformalardan samarali foydalana olmaydi. Ikkinchi muammo — ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligi masalalari. Uchinchi to'siq — texnologiyaga haddan tashqari bog'liqlik va ijtimoiy tarmoqlardagi chalg'ish xavfi. Ushbu muammolarni hal etish uchun oliy ta'lim muassasalari raqamli savodxonlikni o'qitish dasturlarini joriy etishlari, o'qituvchilar esa raqamli vositalar qo'llanilishini pedagogik jihatdan rejalashtirishi zarur.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot shuni tasdiqladi: raqamli texnologiyalar talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida amal qiladi. Tezkor fikr-mulohaza, o'quv jarayonini vizualizatsiya qilish va adaptiv o'rganish imkoniyatlari birgalikda talabaning metakognitiv rivojlanishini ta'minlaydi. Biroq texnologiyalarning o'zi yetarli emas — muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun o'qituvchining pedagogik rahbarligi va talabaning ichki motivatsiyasi birdek zarurdir.

Kelajakdagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining mustaqil o'rganish jarayoniga ta'sirini longitudinal usulda o'rganish, shuningdek, metaversiya va immersive texnologiyalarning ta'limdagi rolini tahlil qilish muhim ilmiy yo'nalishlar bo'lib qoladi. Amaliy tavsiya sifatida, oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini raqamli komponentlar bilan boyitishlari va talabalarning o'z-o'zini nazorat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus treninglar tashkil etishlari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.
2. Pintrich, P. R. (2004). A conceptual framework for assessing motivation and self-regulated learning in college students. *Educational Psychology Review*, 16(4), 385–407.
3. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. W. H. Freeman and Company.
4. Azevedo, R., & Cromley, J. G. (2004). Does training on self-regulated learning facilitate students' learning with hypermedia? *Journal of Educational Psychology*, 96(3), 523–535.
5. Dabbagh, N., & Kitsantas, A. (2012). Personal Learning Environments, social media, and self-regulated learning: A natural formula for connecting formal and informal learning. *The Internet and Higher Education*, 15(1), 3–8.
6. Moos, D. C., & Azevedo, R. (2008). Self-regulated learning with hypermedia: The role of prior domain knowledge. *Contemporary Educational Psychology*, 33(2), 270–298.
7. Panadero, E. (2017). A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research. *Frontiers in Psychology*, 8, 422.
8. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
9. Karimova, N. va Toshmatov, A. (2023). Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning asoslari. — Toshkent: Fan nashriyoti.
10. Yusupova, F. R. (2024). Metakognitiv strategiyalarni rivojlantirishda raqamli muhitning imkoniyatlari. *Pedagogik ta'lim*, 3(12), 45–52.

Zaxro TOYIROVA,
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi
toyirovazaxro@gmail.com

BADIIY EKOLOGIK DISKURSDA LINGVISTIK VA STILISTIK VOSITALARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ekologiya mavzusining badiiy adabiyotda ifodalanish uslublari lingvistik va stilistik tahlil asosida o'rganildi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, ekologik muammolar va ularning adabiy aks-sadosi o'zbek hamda jahon adabiyotidan olingan misollar yordamida yoritildi. Matnlarda qo'llanilgan leksik-semantik birliklar, obrazlilik vositalari, poetik strukturalar, badiiy-tasviriy vositalarning ekologik ongni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Xususan, metafora, personifikatsiya, epitet va boshqa stilistik figuralarning ekologik g'oyalarni ifodalashdagi funksional yuklamasi ochib berildi. Maqola ekologik madaniyatni yuksaltirishda adabiyotning estetik ta'sir kuchini ko'rsatish orqali ekologik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *ekologiya, stilistik vositalar, lingvistik tahlil, adabiy matn, metafora, epitet, obrazlilik, ekologik ong, tabiat, semantik maydon.*

Аннотация: в данной статье на основе лингвистического и стилистического анализа исследуются методы выражения темы экологии в художественной литературе. Взаимоотношения человека и природы, экологические проблемы и их литературный отголосок освещаются на примерах из узбекской и мировой литературы. Анализируется значение лексико-семантических единиц, образных средств, поэтических структур, художественных и визуальных средств, используемых в текстах, в формировании экологического сознания. В частности, раскрывается функциональная нагрузка метафоры, олицетворения, эпитета и других стилистических фигур в выражении экологических идей. Статья служит развитию экологического мышления, демонстрируя эстетическое влияние литературы на формирование экологической культуры.

Ключевые слова: *экология, стилистические средства, лингвистический анализ, литературный текст, метафора, эпитет, образность, экологическое сознание, природа, семантическое поле.*

Annotation: this article studies the methods of expressing the theme of ecology in fiction based on linguistic and stylistic analysis. The relationship between man and nature, ecological problems and their literary echo are highlighted using examples from Uzbek and world literature. The importance of lexical-semantic units, figurative means, poetic structures, artistic and visual means used in the texts in the formation of ecological consciousness is analyzed. In particular, the functional load of metaphor, personification, epithet and other stylistic figures in expressing ecological ideas is revealed. The article serves to develop ecological thinking by showing the aesthetic influence of literature in raising ecological culture.

Key words: *ecology, stylistic means, linguistic analysis, literary text, metaphor, epithet, figurativeness, ecological consciousness, nature, semantic field.*

Kirish. XXI asr boshida global ekologik muammolarning keskinlashuvi adabiyotshunoslik va gumanitar fanlarda yangi yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, ekologik ong masalalari, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi endilikda nafaqat ekologiya fanining, balki falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslikning ham markaziy muammosiga aylandi. Shu jarayonda *ekokritika* deb ataluvchi ilmiy-nazariy oqim vujudga keldi.

Ekokritika – adabiy matnlarni ekologik ong, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan o'rganadigan metodologik yondashuvdir. Uning paydo bo'lishi asosan Cheryl Glotfelty, Harold Fromm, Lawrence Buell, Greg Garrard kabi olimlarning ilmiy izlanishlari bilan bog'liq. Dastlab G'arb adabiyotshunosligida shakllangan bu yo'nalish bugungi kunda turli madaniyatlar va milliy adabiyotlarda ham qo'llanilmoqda. Ekokritikaning dolzarbligi shundaki, u badiiy adabiyotdagi tabiat obrazlarini shunchaki estetik element sifatida emas, balki

insoniyatning ekologik ongini shakllantirish vositasi sifatida talqin qiladi. Boshqacha aytganda, ekokritika nafaqat matn tahliliga, balki keng ijtimoiy-ma'naviy muammolarga ham qaratilgan. Adabiyot orqali tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash, insonning atrof-muhit oldidagi mas'uliyatini anglash jarayoni keng yoritiladi. Shuningdek, ekokritika o'zining transdisiplinar xarakteri bilan ajralib turadi: u ekologiya, falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, gender tadqiqotlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Bu yondashuv, ayniqsa, mustamlakachilikdan keyingi jamiyatlarda, jumladan, Markaziy Osiyo adabiy jarayonida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik fojialar-xususan, Orol dengizining qurishi, cho'llanish, suv tanqisligi kabi muammolar o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topgan. Shu sababli ekokritikaning nazariy-metodologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, uni milliy adabiyotshunoslikka tatbiq etish va ekologik ongni mustahkamlash hozirgi davr ilm-fani uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Asosiy qism. Ekokrititsizm – adabiy harakat bo'lib, uning asosiy mavzusi insonning tabiatga nisbatan salbiy ta'sirlari bo'lib, bu adabiyot olamini va atrof-muhitni ilmiy o'rganishni birlashtiradi. Ekokritik yozuvchilar ba'zida o'z tasavvurlaridan, ba'zida shaxsiy tajribalaridan yoki ba'zi tarixiy yoki madaniy haqiqatlarni aks ettirish orqali tabiat va insonni birlashtirgan adabiy hayot tasvirini yaratadilar, bu esa ularning munosabatlarining simmetriyasining yerimzda ekologik muvozanatli hayot uchun qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Tabiat jismoniy omon qolish uchun zarur bo'lgan barcha narsalarning yagona manbai (daraxtlar, havo, suv, tuproq va boshqalar) bo'lishi bilan birga, rivojlangan shakllarida ruhiy salomatlik uchun foydalidir, chunki u o'zining tinchligi bilan ruhimizni ko'taradi va ichki quvonch hamda osoyishtalikni ta'minlaydi, shuning uchun tabiatni o'rganish har doim insonni o'rganishdir. Bu haqda Greg Garrard shunday deydi:

Ekokrititsizm —bu inson nima ekanligini o'rganishdir (Garrard, 2004, 5-bet). “Ekokrititsizm” atamasi birinchi marta 1978-yilda Uilyam Ryukert tomonidan kiritilgan bo'lib, u ekologiya va ekologik tushunchalarni adabiyotni o'rganishda qo'llash deb ta'rifladi (Rueckert, 1996, 107-bet). Ekologiya va adabiyotning birgalikda tanqidiy tahlili birinchi marta jamoatchilik e'tiboriga Sheril Glotfelt va Garold Fromm tomonidan 1996-yilda nashr etilgan “Ekokrititsizm o'quvchisi” (The Ecocriticism Reader) kitobida, shuningdek, Lourens Byuell tomonidan 1995-yilda nashr etilgan “Ekologik tasavvur” (The Ecological Imagination) kitobida taqdim etilgan. Ozg'un va Arag'uch esa ekokrititsizmni juda keng tushunadilar. Ular uchun bu madaniy farqlar, qadriyatlar, sog'liqni saqlash muammolari, iqlim o'zgarishi, ijtimoiy va siyosiy diskurslar, identifikatsiya muammolari, kapitalizm, irqchilik, gender diskriminatsiyasi, til, din, texnologiyalar va ularning inson va inson bo'lmagan tabiat bilan o'zaro aloqalarini qamrab olgan ko'p fanli adabiy tanqid hisoblanadi (Ozgun, Araguc, 2021).

Ekokritik nuqtayi nazardan adabiy matnni tahlil qilish uchun Donel N. Dresse aytgan bir qator mulohazalar talab etiladi. Xususan, inson va tabiat munosabatlarini ularning evolyutsiyasi doirasida o'rganish, ekologik tushunchalar asrlar davomida qanday rivojlanganini anglash, ayniqsa, hozirgi ekologik inqiroz davrida (Dreese, 2002, 4-bet). Richard Kerridge ham shunga o'xshash tushunchani taklif qiladi va unga amaliy o'lchov qo'shadi. U aytadiki, ekokritik ekologik g'oyalar va tasavvurlar qayerda paydo bo'lmasin ularni kuzatib borishi kerak, shunda turli madaniy makonlarda taqdim etilgan yondashuvlarning ziddiyatlarini aniqroq ko'rish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, ekokrititsizm, avvalo, matnlar va g'oyalarni ekologik inqirozga javob sifatida ularning uyg'unligi va foydaliligi nuqtayi nazaridan baholashga intiladi (Kerridge, 1998).

Ekokritistlar va tanqidchilar uchun matnlarga nisbatan mumkin bo'lgan savollar, masalan, quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: Bu sonetda tabiat qanday tasvirlangan? Ushbu roman syujetida fazo qanday rol o'ynaydi? Ushbu asarda keltirilgan qadriyatlar ekologik qarashlarga tegishlimi? Yerning metaforalari unga bo'lgan munosabatimizga qanday ta'sir qiladi? Tabiat

tasvirini janr sifatida qanday tasvirlashimiz kerak? Ekologik inqiroz zamonaviy adabiyot va ommaviy madaniyatda qanday aks etadi va bu tomoshabinlarga qanday ta'sir qiladi? Ekokritik tadqiqot hayvonlar, landshaftlar va tabiatning tabiiy, dastlabki holatda tasvirini tekshirish mumkin. Ekokritistni “tabiat va cho'l” tushunchalarining o'zi, vaqt o'tishi bilan qanday o'zgargani, tabiat va madaniyat o'rtasidagi chegara qayerda joylashgani ham qiziqtiradi. Ekotanqidning o'ziga xos xususiyati uning siyosiy faolligidir: ekologik tanqidning “yashil” foni bor. Ekotanqid bizga yer ustida emas, balki u bilan yashash nimani anglatishini ochib berishga intiladi.

Adabiy matnlarda ekologik muhit tasvirida ishlatilgan leksik vositalar muhim rol o'ynaydi. Tabiatga oid so'zlar (tog', daraxt, daraxtzor, bulut, shamol, suv, qush, hayvon va h.k) ekologik holatni ifodalashda asosiy semantik maydonni tashkil etadi. Masalan, “Chorrahadagi qayrag'och ham endi o'sishdan to'xtadi. Uning tanasi ham chang va zaharli tutqunlardan yelkamday qotgan”.

Bu yerda “qayrag'och” metafora tarzda odamga qiyoslashadi. Uning “chang va zaharli tutunlar” ta'sirida nobud bo'lishi ekologik falokatni ko'rsatadi. Semantik jihatdan “ekologik ofat”, “tabiatning halokati”, “tuproqning yemirilishi”, “atrof muhitni ifloslantirish”, “insonning tabiiy muhitga aralashuvi” singari bog'lamalar semantik asos sifatida ekologik matnning ideyasini ochishga xizmat qiladi.

Badiiy matnlarda ekologik muammolar ko'pincha obrazli ifoda, poetik tasvir, stilistik figuralar orqali yoritiladi. Bunday vositalar epitetlar, metaforalar, personifikatsiyalar, ichki monolog va pauzalar orqali ifodalanadi. Masalan: “Yarador daryo jim oqardi-go'yo nolardi” yoki “Yer ona yurakdek urar edi, ammo biz uning har urishini pichoqday kesib, tomirlariga zahar yuborardik”.

“Tinimsiz osmonga cho'zilar daraxt,
Har shoxida bir umid, bir armon yotar.
Tabiat-onadek bag'rida yashar,
Ehtiyot qilmasang, qahrdan qo'rqrar...”

Ushbu parchani tahlil qilsak, bu yerda leksik vositalar – “daraxt”, “shox”, “osmon”, “tabiat”, “ona” — tabiatga oid nomlar, “umid”, “armon”, “nafas”, “bag'rida yashar” — inson ruhiyati bilan tabiatni bog'lovchi simvolik leksemalardan foydalanilgan. Frazologizm sifatida “bag'rida yashar” birikmasini keltiramiz. Bu emotsional va frazeologik ifoda, tabiat mehr va shavqat manbai sifatida ko'rsatilgan. “Tinimsiz osmon”, “qahrdan qo'rqrar” epitetlarida tabiat holatining dinamik va hissiy xarakteri berilgan. She'rda metaforalar orqali tabiatga inson sifati, onalik berilgan. “Tabiat-onadek” antropomorfik obrazdir. Bu metafora-ekologik ongni uyg'otishga xizmat qiladi. A. Oripov “onadek bag'rida yashar” tashbehlarini keltirish orqali inson va tabiat munosabatini ilohiy darajaga chiqargan, bu estetik va ma'naviy ta'sirni kuchaytiradi.

Qo'llanilgan tasviriy ifoda vositalari (metafora, tashbeh, epitet) va simvolik leksika (nafas, bag'rida yashar, qahrdan qo'rqrar) tabiatni inson singari his etadigan, qayg'uriladigan,

himoya qilinishi kerak bo'lgan mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu esa ekolingvistika nuqtayi nazaridan tilning faqat axborot uzatish vositasi emas, balki madaniy hissiy va g'oyaviy ta'sir kuchiga ega ekanini ko'rsatadi.

A. Oripovning ekologik mavzudagi she'rlari orqali tabiatga insonparvarlik ruhida yondashuv, axloqiy bag'rikenglik va ma'naviy yondashuv targ'ib etiladi. Bu esa o'zbek adabiyotida ekologik diskursning mustaqil, ta'sirchan va milliy ruhda ega bo'lgan shakl mavjud ekanini tasdiqlaydi.

E. Vohidovning "Ona yurt" she'rida tabiatga mehr va ekologik ogohlik kuylanadi. Tohir Malikning "Somon yo'li elchilari" asarida texnologik taraqqiyot bilan bog'liq ekologik muammolar ko'tariladi. Valentin Raspuntinning "Hayot vaqti" asarida daryo, daraxt va inson orasidagi bog'liqlik va fojia ifodalanadi.

O'zbek adabiyotidan Xurshid Davron "Oqsaroy davroni", Erkin A'zam "Chorrahadagi uy", Nodiraning g'azallari; jahon adabiyotidan Chingiz Aytmatov "Qiyomatdan so'ng", Ernest Seton-Tompson "Yovvoyi hayvonlar hayoti", Reychel Karson "Tinch bahor", Jean Giono "Daraxt ekan odam" asarlarida ekologik muammolar obrazlar va stilistik vositalar orqali ochib berilgan. Alisher Navoiy g'azallaridagi bog'-rog' manzaralari, Cho'lponning tabiat tasvirlari yoki Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she'riyatidagi ekologik muammolar ekokritik yondashuv uchun muhim material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekokritika – bu nafaqat adabiy matnlarni tabiat va ekologik muammolar kontekstida o'qish metodologiyasi, balki ekologik ongni shakllantirishda ham muhim madaniy omil bo'lib xizmat qiladi. Endi diqqatni Muhammad Yusufning "Lolaqizg'aldoq" she'ri tahliliga qaratsak:

Mendan nima qolar:

Ikki misra she'r,

Ikki sandiq kitob,

Bir uyum tuproq.

Odamlar ortimdan

Nima desa der,

Men seni o'ylayman

O'zimdanda ko'proq –

Lola, lolajonim,

Lolaqizg'aldoq!

Bu she'r o'zbek shoiri Shavkat Rahmon xotirasiga bag'ishlangan. She'rda 3 birlik – Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq shakllari qo'llanilgan. Lola (ayol ismi), lolajonim (lola+jon- mehr qo'shimchasi), lolaqizg'aldoq – bunda she'riy obrazlilik kuchayadi. "Qizg'aldoq" o'zbek tilidagi lola so'zining sinonimi bo'lib, nochor, iztirob ma'nolari bilan bog'langan. Shoirning "lolajonim" deya ta'kidlashi "jonimdan ham aziz" ma'nosining kuchayishiga sabab bo'lgan. M. Yusuf "Lola" obrazini ham iztirob chekkan ayol, ham qon to'kayotgan yurak sifatida qayta- qayta takrorlaydi.

Xulosa. O'zbek adabiyotidagi tabiat obrazlari ekokritik tahlil uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Alisher Navoiyning bog'-rog' tasvirlari, Cho'lponning sahro manzaralari yoki Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning ekologik mavzudagi she'rlari ekologik ong va milliy o'zlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ijodkorlar she'rlarida tabiat faqatgina badiiy sahna emas, balki inson ma'naviyati bilan uzviy bog'langan obraz sifatida namoyon bo'ladi. U himoyaga muhtoj jonli mavjudot sifatida ifodalanadi, bu esa kitobxonda ekologik mas'uliyatni uyg'otishga xizmat qiladi. Ekokritika o'z mohiyatiga ko'ra interdisiplinar xarakterga ega. U ekologiya, falsafa, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari o'rtasidagi ilmiy integratsiyani ta'minlaydi. Shu sababli ekokritik yondashuvni nafaqat adabiy matn tahlilida, balki ijtimoiy-ijtimoiy muammolarni hal qilishda ham qo'llash mumkin. Adabiy matn ekologik masalalarni faqatgina axborot vositasi sifatida emas, balki inson qalbiga yo'l topuvchi tarbiyaviy vosita sifatida yoritadi. Ekologik mavzuni yoritishda til vositalarining to'g'ri va badiiy qo'llanilishi, obrazlilik va stilistik chuqurlik orqali o'quvchida ekologik ong shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонова Ҳ. Адабиёт дарсларида пейзаж лирикаси // Замоновий аълим / современное образование. 2014.
2. Айтматов Ч. И дольше века длится день. — Бишкек: Кыргызстан, 1983.- 236 с.
3. Homidova N. Ekokritikaning nazariy-metodologik xususiyatlari // Yangi o'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. 2025.
4. https://www.researchgate.net/publication/275226208_Reki_car_i_vsej_prirody_car_-_na_odnoj_lovuske_-_Povestvovanie_v_rasskazah_Car-ryba_VP_Astafeva_ekokriticeskij_vzglad, 43- bet.
5. <https://ziyouz.uz/ru/publitsistika/literaturovedenie/1403-gulnoza-odilova-vossozdanie-obraznykh-znachenij-v-khudozhestvennom-perevode>
6. Карсон Р. Безмолвная весна. — Москва: Прогресс, 1972.- 259 с.
7. Мд Тапу Райхан. Экокритический подход к роману В. П. Астафьева «Последний поклон» //Наука о человеке: гуманитарные исследования.- 2023.
8. Oripov A. Saylanma. — Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018.128-bet.
9. Распутин В. Прощание с Матёрой. — Москва: Советский писатель, 1982.- 82 с.
10. Tompson E. S. Lives of the Hunted.- New York: Scribner's Sons, 1901.- 361 p.
11. Вохидов Э. Она юрт. — Тошкент: Ёш гвардия, 1985.145-bet.

Muslimaxon ABDULLAYEVA,
 Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
 E-mail: abdullayevamuslima34@gmail.com



O'ZBEK MULOQOTIDA BILVOSITA RAD ETISH STRATEGIYALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada o'zbek muloqotida rad javobining ochiq aytilmay, turli yumshatuvchi vositalar orqali anglatilishi lingvopragmatik jihatdan o'rganildi. Bilvosita radning kechiktirish, sabab ko'rsatish, shart qo'yish, muqobil taklif berish, noaniq va'da hamda mavzuni burish kabi ko'rinishlari tasniflandi. Ularning hurmat, andisha va ijtimoiy masofani saqlashdagi vazifalari izohlandi.

Kalit so'zlar: bilvosita rad, nutqiy akt, kommunikativ niyat, xushmuomalalik, muloqot vaziyati, implitsit ma'no, o'zbek nutq odobi.

Аннотация: в статье исследуются способы выражения отказа без прямого отрицания в узбекском общении. Выделены стратегии отсрочки, указания причины, постановки условия, альтернативного предложения, неопределённого обещания и смены темы. Показано, что такие формы смягчают коммуникативное несогласие, поддерживают уважительную дистанцию и отражают национальные нормы речевого поведения.

Ключевые слова: косвенный отказ, речевой акт, коммуникативное намерение, вежливость, речевая ситуация, имплицитный смысл, узбекский речевой этикет.

Annotation: the article examines how refusal is conveyed in Uzbek communication without an explicit negative response. It classifies postponement, reason-giving, conditional response, alternative offer, vague promise and topic-shifting strategies. These forms are interpreted as pragmatic tools that soften disagreement, preserve respectful distance and reflect culturally established norms of Uzbek conversational behaviour.

Key words: indirect refusal, speech act, communicative intention, politeness, speech situation, implicit meaning, Uzbek speech etiquette.

Kirish. Rad javobini berish kundalik muloqotda tez-tez uchraydigan, ammo suhbatdoshlar munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan nutqiy harakatdir. So'zlovchi taklif, iltimos, talab yoki maslahatni qabul qilmasligini bevosita "yo'q", "bormayman", "qilmayman" shaklida bildirishi mumkin. Bunday ochiq javob mazmunan aniq bo'lsa-da, ayrim vaziyatlarda keskinlik, ranjish yoki ijtimoiy masofaning ortishiga sabab bo'lib kelmoqda. Shu bois o'zbek muloqotida rad mazmuni ko'pincha yumshatilgan, kechiktirilgan yoki boshqa mazmun ortiga yashirilgan shaklda ifoda etiladi. "Bir ko'rib chiqaylik", "hozir biroz qiyin", "nasib qilsa", "balki keyinroq" kabi javoblar yuzaki jihatdan qat'iy inkorni anglatmaydi, biroq muayyan vaziyatda taklif yoki iltimosning qabul qilinmaganini anglatadi.

Pragmalingvistik nuqtayi nazardan nutqiy birlikning mazmuni faqat lug'aviy va grammatik shakl bilan belgilanmaydi. Gapning haqiqiy vazifasi so'zlovchining maqsadi, tinglovchining kutishi, suhbatning oldingi qismi, kommunikantlarning yoshi, mavqeyi va o'zaro yaqinligi bilan birgalikda shakllanadi. Sh. Safarov nutqiy

akt mazmuni aniq muloqot muhitida boyishini, uning voqelanishi so'zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi [1; 78–79]. Demak, grammatik jihatdan xabar, shart yoki kelasi zamon shaklida tuzilgan gap amalda rad etish vazifasini bajarishi mumkin.

Bilvosita rad etish shakl va kommunikativ maqsad o'rtasidagi to'liq nomutanosiblikka asoslanadi. Masalan, "Ertaga erta turishim kerak edi" gapi alohida olinganda oddiy sababni bildiradi. Biroq u kechki uchrashuvga taklifdan so'ng aytilsa, taklifni qabul qilmaslik mazmunini bildiradi. Bilvosita nutqiy harakatda birlamchi ma'no saqlanadi, lekin kontekst ta'sirida qo'shimcha pragmatik vazifa hosil bo'ladi [1; 98–100]. Tinglovchi ana shu qo'shimcha ma'noni umumiy bilim, vaziyat va muloqot me'yorlari asosida tiklaydi.

Mavzuning dolzarbligi o'zbek tilida rad etishning aynan bilvosita shakllari, ularni yuzaga keltiruvchi lisoniy vositalar hamda milliy muloqot me'yorlari o'rtasidagi aloqani yaxlit tasniflash ehtiyoji bilan belgilanadi. O'zbek tilshunosligida muloqot xulqi, nutq odati, kommunikantlarning ijtimoiy

roli va pragmatik ma'no masalalari S. Mo'minov, Sh. Iskandarova, M. Hakimov, Sh. Safarov kabi olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan [2; 155; 3; 136; 4; 67]. Mazkur maqolada esa rad etish vaziyatida ishlatiladigan yumshatuvchi strategiyalar alohida obyekt sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek muloqotidagi bilvosita rad etish strategiyalarining asosiy turlarini aniqlash, ularning lisoniy ko'rsatkichlari va kommunikativ vazifalarini ochiqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bilvosita radni bevosita inkordan farqlash mezonlari belgilandi; rad mazmunini yuzaga keltiruvchi leksik, grammatik va kontekstual vositalar guruhlandi; strategiyalarning hurmat, andisha, ijtimoiy masofa va suhbat uyg'unligini saqlashdagi roli tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbekcha bilvosita radni olti funksional turga ajratish va har bir turning pragmatik talqin shartlarini bir tizimda ko'rsatish bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Material sifatida o'zbekona kundalik muloqotga xos vaziyatlar asosida muallif tomonidan modellashirilgan qirq ikkita dialog namuna sifatida olindi. Namunalar mehmonlikka taklif, yordam so'rash, biror ishni topshirish, qarz so'rash, uchrashuvni belgilash, maslahatni qabul qilish va xarid taklifi kabi kommunikativ holatlarni qamrab oldi. Modellashirilgan misollar real ijtimoiy guruhlar bo'yicha miqdoriy xulosa chiqarish uchun emas, balki bilvosita

radning tuzilishi va talqin mexanizmini ochib berish uchun qo'llanildi.

Tahlilda kontekstual, intensional, nutqiy akt va sotsiopragmatik usullar uyg'un tarzda ifodalandi. Kontekstual tahlil orqali javobning oldingi replika bilan munosabati aniqlandi. Intensional tahlilda so'zlovchining yuzaki bayon ortidagi maqsadi belgilandi. Nutqiy akt tahlili gapning grammatik shakli bilan uning amaldagi vazifasi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatdi. Kommunikantlarning ijtimoiy roli nutqiy vosita tanlashga ta'sir qilishi o'zbek muloqot xulqiga oid tadqiqotlarda ham qayd etilgan [9; 70–72].

Bilvosita radni aniqlashda uch mezon asos qilib olindi. Birinchidan, javobda ochiq inkor bo'lmashligi, ammo taklif yoki iltimosning bajarilmasligi anglashilishi kerak. Ikkinchidan, rad mazmuni alohida gapdan emas, savol-javob birligi va vaziyatdan kelib chiqishi lozim. Uchinchidan, javob suhbatdoshning sha'ni va hissiy holatiga zarar yetkazmaslikka qaratilgan yumshatish belgisiga ega bo'lishi zarur. Bevosita "yo'q" so'zi uzr, sabab yoki minnatdorlik bilan birga kelsa, u yumshatilgan bevosita rad hisoblanadi; ushbu maqolada esa inkor shakli aytilmaydigan holatlar markazga qo'yildi.

Natijalar.

Tahlil davomida radning o'zbek muloqotida bir xil grammatik qolip bilan emas, turli strategiyalar uyg'unligida yuzaga kelishi kuzatildi. Ularning umumiy belgisi taklif yoki iltimosga salbiy munosabatni ochiq inkor shaklida bermaslikdir. Asosiy turlar 1-jadvalda jamlandi.

Strategiya	Asosiy lisoniy ko'rsatkich	Modellashtirilgan misol
Sabab yoki to'siq ko'rsatish	vaqt, imkon, majburiyat, sog'liq bilan bog'liq izoh	— Bugun biznikiga keling. — Ertalab juda erta yo'lga chiqishim kerak edi.
Kechiktirish	keyinroq, boshqa safar, hali, ko'rib chiqamiz	— Hujjatni bugun tayyorlaysizmi? — Ertalab bir ko'rib chiqaylik.
Shart qo'yish	agar, imkon bo'lsa, vaqt topsam, nasib qilsa	— Tadbirga qatnashasizmi? — Vaqt topsam, albatta.
Muqobil taklif	boshqa vaqt, boshqa shaxs yoki boshqa yo'lni taklif etish	— Hozir birga boramizmi? — Yaxshisi, siz oldin boravering.
Noaniq va'da	balki, ko'ramiz, o'ylab ko'raman, xabar beraman	— Kitobni menga berib turasizmi? — O'ylab ko'ray, sizga aytaman.
Mavzuni burish yoki sukut	savolga bevosita javob bermaslik, boshqa masalani ochish	— Ertaga yordam bera olasizmi? — Ertangi yig'ilish soat nechada edi?

1-jadval. Bilvosita rad etishning asosiy strategiyalari

Birinchi strategiyada so'zlovchi radni sabab yoki obyektiv to'siq shaklida taqdim etadi. "Bugun borolmayman" o'rniga "Uyda mehmon kutayotgan edik", "Ertalab darsim bor", "Hozir qo'limdagi ishni tugatishim kerak" kabi gaplar ishlatiladi. Bunday javob suhbatdoshga salbiy munosabat emas, tashqi vaziyat taklifni qabul qilishga yo'l qo'ymayotganini anglatadi. Natijada rad shaxsga emas, sharoitga yuklanadi. Bu usul ayniqsa yoshi katta, mansabi

yuqori yoki yaqindan tanish bo'lmagan suhbatdosh bilan muloqotda hurmat masofasini saqlashga xizmat qiladi. Rad etish ehtimoliy xafachilikni yuzaga keltirgani uchun hurmat tamoyilini ifodalovchi vositalarga ehtiyoj tug'iladi [1; 145–146].

Kechiktirish strategiyasi qat'iy qarorni keyingi vaqtga ko'chirish orqali amalga oshadi. "Keyinroq gaplashamiz", "ertaga ko'ramiz", "hozir shoshmay turaylik" singari birliklar

semantik jihatdan vaqtini bildiradi, pragmatik jihatdan esa joriy taklifning qabul qilinmaganini anglatadi. Bunday javob baʼzan haqiqiy kechiktirish boʻlishi mumkin. Uni rad sifatida talqin qilish uchun soʻzlovchining keyingi muddatni aniq belgilamasligi, avval ham shu kabi javob bergani yoki vaziyatda taklifni bajarish istagi sezilmasligi muhim. Demak, bitta shaklning vazifasi faqat kontekst orqali aniqlanadi.

Shart qoʻyish strategiyasida qabul qilish imkoniyati mavhum yoki bajarilishi qiyin shartga bogʻlanadi. “Vaqt topsam”, “ishlarim bitib qolsa”, “nasib qilsa”, “yoʻl tushsa” kabi konstruksiyalar yuzaki ravishda rozilik ehtimolini saqlaydi. Ammo shartning bajarilishi soʻzlovchining nazoratidan tashqarida koʻrsatilgani sababli majburiyat susayadi. Tinglovchi bunday javobni toʻliq vaʼda emas, ehtiyotkor rad sifatida qabul qiladi. Ayniqsa “albatta” soʻzi shartli gap tarkibida kelganda tashqi ijobiy ohangni kuchaytiradi, lekin amaliy majburiyatni oshirmaydi.

Muqobil taklif strategiyasi suhbatdoshning ehtiyojini butunlay inkor qilmasdan, dastlabki taklif oʻrniga boshqa yechim koʻrsatadi. “Men bora olmayman, lekin Falonchi yordam berishi mumkin” kabi ochiq shakl bilan bir qatorda “Yaxshisi, siz ishni ertalab boshlang”, “Bu masalada kotib bilan gaplashsangiz tezroq boʻladi” kabi bilvosita shakllar ham qoʻllanadi. Bu strategiyada rad va hamkorlik bir vaqtning oʻzida ifodalanadi. Soʻzlovchi vazifani oʻz zimmasiga olmaydi, biroq suhbatni uzmaydi va yordamga tayyor obrazini saqlab qoladi.

Noaniq vaʼda strategiyasi “koʻramiz”, “oʻylab koʻraman”, “xabar beraman”, “bir yoʻlini toparmiz” kabi kelasi harakatni aniq majburiyatsiz ifodalovchi birliklar bilan yuzaga chiqadi. Sh. Safarov “xoʻp” kabi tasdiqqa oʻxshash birliklar ham har doim toʻgʻridan-toʻgʻri rozilikni bildirmasligi, ayrim vaziyatlarda “tingladim, endi oʻylab koʻraman” maʼnosini berishini qayd etadi [1; 264–265]. Mavzuni burish strategiyasida soʻzlovchi taklifga munosabat bildirish oʻrniga boshqa savol beradi, vaziyatning ikkinchi jihatini gapiradi yoki javobni hazilga aylantiradi. Sukut, uzoq pauza, koʻz qochirish kabi nolisoniy vositalar ham rad mazmunini kuchaytirishi mumkin. Oʻzbek nutq odati tadqiqotlarida paralingvistik vositalarning muloqot vaziyatidagi ahamiyati alohida koʻrsatilgan [4]. Biroq yozma raqamli muloqotda sukut oʻrnini xabarni koʻrib javob bermaslik, mavzuga aloqasiz belgi yoki qisqa “hmm” kabi birliklar egallaydi.

Tahlilda bilvosita radning yumshatish kuchini oshiradigan qoʻshimcha vositalar ham aniqlandi. Minnatdorlik (“rahmat, taklif yaxshi”), uzr (“kechirasiz”), ijobiy baho (“juda yaxshi fikr”), kichraytirish (“sal qiyinroq”), noaniqlik (“shekilli”, “balki”) va hurmat shakli (“siz”, “-lar”) radning keskinligini kamaytiradi. Mazkur vositalar alohida holda radni bildirmaydi; ular rad strategiyasi bilan birikib, suhbatdoshning ijtimoiy qiyofasini himoya qiladi. 2-jadvalda ularning asosiy vazifalari koʻrsatilgan.

Yumshatuvchi vosita	Pragmatik vazifa	Namuna
Minnatdorlik	taklifning qadrlanganini koʻrsatish	Rahmat, lekin hozir vaqtim juda tigʻiz.
Uzr	rad uchun masʼuliyatni yumshatish	Kechirasiz, bugun ulgurishim qiyin.
Ijobiy baho	taklif emas, vaziyat rad etilayotganini anglatish	Fikringiz yaxshi, bir oz keyinroq koʻrsak.
Noaniqlik	qatʼiylilikni pasaytirish	Balki bu safar bormay turganim maʼquldir.
Hurmat shakli	ijtimoiy masofani saqlash	Siz avval boshlay tursangiz, men keyin xabar beraman.

2-jadval. Bilvosita radni yumshatuvchi vositalar

Muhokama.

Natijalar bilvosita radni faqat grammatik hodisa sifatida emas, muloqot munosabatlarini boshqaruvchi strategik harakat sifatida talqin qilish zarurligini koʻrsatadi. Bevosita inkor axborotning aniqligini taʼminlasa, bilvosita shakl suhbatdoshning hissiy holati, obroʻsi va ijtimoiy mavqeyini hisobga oladi. Shu sababli bir xil mazmun turli kommunikantlarga turlicha shaklda yetkaziladi. Tengdoshlar oʻrtasida “Bormayman” deyish tabiiy boʻlishi mumkin, rasmiy yoki katta-kichiklik munosabatida esa

“Bugun imkonim boʻlmay turibdi” shakli maʼqul koʻriladi. Muloqot vaziyati maʼlum ijtimoiy va madaniy norma asosida baholanishi, norma esa lisoniy vosita tanlovini boshqarishi haqidagi qarashlar bu holatni izohlashga yordam beradi [1; 149–150].

Oʻzbek muloqot madaniyatida andisha, hurmat va murosaga moyillik bilvosita radning keng qoʻllanishiga imkon yaratadi. Bunda radni yashirish maqsadi yolgʻon axborot berish emas, balki salbiy qarorni munosabatga eng kam zarar yetkazadigan shaklda ifodalashdir. M. Hakimov

pragmatik tahlilda soʻzlovchi va tinglovchi shaxsi, ularning maqsadi hamda munosabatini birgalikda hisobga olish zarurligini asoslaydi [2; 155]. Shuning uchun bilvosita radni tushunish lugʻaviy maʼnoni bilish bilangina cheklanmaydi; tinglovchi milliy nutq odati va vaziyatga oid fon bilimiga ega boʻlishi lozim.

Bilvositalikning ijobiy tomoni muloqot keskinligini pasaytirish boʻlsa, salbiy tomoni noaniqlikdir. “Koʻramiz” javobini bir tinglovchi ehtiyotkor rozilik, boshqasi rad deb qabul qilishi mumkin. Ayniqsa ishbilarmonlik, taʼlim yoki muddat aniq boʻlishi zarur boʻlgan vaziyatlarda haddan tashqari bilvositalik rejalashtirishga xalaqit beradi. Shuning uchun samarali muloqotda madaniy yumshoqlik bilan axborot aniqligi muvozanatda boʻlishi kerak. Masalan, “Bugun ulgurmayman, lekin juma kuni soat uchgacha tayyorlayman” shakli radni yumshatadi va aniq muqobil muddat beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ona tili taʼlimi, nutq madaniyati va xorijliklarga oʻzbek tilini oʻqitishda koʻrinadi. Oʻquvchiga faqat gapning grammatik maʼnosini emas, uning vaziyatdagi maqsadini anglatadigan topshiriqlar berilishi zarur. Masalan, “Bu javob rozilikmi yoki radmi?”, “Qaysi birlik radni yumshatmoqda?”, “Javobni rasmiy vaziyatga mos qayta tuzing” kabi mashqlar pragmatik kompetensiyani rivojlantiradi. Nutq madaniyati oʻz fikrini adabiy meʼyor asosida toʻgʻri ifodalash bilangina cheklanmay, suhbat vaziyatiga mos vosita tanlashni ham talab qiladi [5; 7].

Xulosa. Oʻzbek muloqotidagi bilvosita rad etish rad mazmunini ochiq inkorsiz yetkazishga xizmat qiluvchi

murakkab lingvopragmatik hodisadir. Uning mazmuni alohida soʻz yoki gapdan emas, boshlangʻich taklif, javob shakli, kommunikantlar munosabati va umumiy vaziyatning birligidan kelib chiqadi. Shakl va kommunikativ maqsad oʻrtasidagi nomutanosiblik bilvosita nutqiy harakatning asosiy belgisi hisoblanadi.

Tahlil davomida rad javobning sabab yoki toʻsiq koʻrsatish, kechiktirish, shart qoʻyish, muqobil taklif berish, noaniq vaʼda hamda mavzuni burish yoki sukut shaklidagi olti asosiy strategiyasi ajratildi. Minnatdorlik, uzr, ijobiy baho, noaniqlik markerlari va hurmat shakllari ushbu strategiyalarning yumshatish kuchini oshiradi. Bir javobda bir nechta strategiya qoʻshilishi mumkin, biroq yetakchi maqsad radning pragmatik turini belgilaydi.

Bilvosita rad oʻzbek nutq odobidagi hurmat, andisha va munosabatni saqlash tamoyillari bilan chambarchas bogʻliq. U qarorni suhbatdosh shaxsiga qarshi qoʻymasdan, vaqt, sharoit yoki muqobil yechim bilan izohlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ortiqcha noaniqlik notoʻgʻri kutish va tushunmovchilikka sabab boʻlishi mumkin. Amaliy muloqotda yumshoqlik va aniqlikni uygʻunlashtirish, imkon qadar aniq sabab yoki muqobil muddat koʻrsatish samarali usuldir.

Kelgusida bilvosita radning yosh, kasb va hududiy muhitga koʻra farqlanishini tabiiy nutq materiallari asosida oʻrganish, shuningdek, ogʻzaki va raqamli muloqotdagi ifoda vositalarini qiyoslash zarur. Bunday tadqiqotlar oʻzbek muloqot xulqining milliy va zamonaviy xususiyatlarini aniqroq ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. 318-b.
2. Hakimov M. Oʻzbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.
3. Moʻminov S. Oʻzbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2000. 236-b.
4. Iskandarova Sh. Oʻzbek nutq odatining muloqot shakllari: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Samarqand, 1993. 140-b.
5. Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. 110-b.
6. Mahmudov N. Oʻqituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
7. Mahmudov N., Rafiyev A., Yoʻldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: Choʻlpon, 2013. 144-b.
8. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. 273-b.
9. Moʻminov S., Rasulov Q. Kommunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida // Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. – Samarqand: SamDU, 2007. 70–72-b.
10. Neʼmatov H., Vohidova N., Toirova G. Struktural tilshunoslikdan pragmalingvistikaga // Xorijiy filologiya. – 2007. – № 4. 38–41-b.
11. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. 310-b.
12. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 448-b.

Madina HABIYALIYEVA,
 Namangan davlat pedagogika instituti
 O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
 E-mail: habyaliyevamadina1212@gmail.com



O'ZBEK TILIDAGI SUN'IY INTELLEKT MODELLARIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANING NAMOYON BO'LISHI: IMPLIKATURA, PRESUPPOZITSIYA VA BILVOSITA NUTQIY AKTLAR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada o'zbek tilida faoliyat yurituvchi sun'iy intellekt modellarining pragmatik ma'noni anglash imkoniyatlari implikatura, presuppozitsiya va bilvosita nutqiy aktlar asosida tahlil qilinadi. Tavsifiy, kontekstual va qiyosiy usullar yordamida grammatik to'g'ri javob bilan kommunikativ o'rinli javob farqlanadi. Namunaviy mikrodialoglar tahlili kontekstni hisobga olish, so'zlovchi niyatini ehtiyotkor aniqlash, ortiqcha xulosa chiqarmaslik hamda o'zbek muloqot odobiga mos javob berish pragmatik kompetensiyaning asosiy belgilarini tashkil etishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt modeli, pragmatik kompetensiya, implikatura, presuppozitsiya, bilvosita nutqiy akt, kontekst, muloqot odobi.

Аннотация: в статье анализируется понимание прагматического значения моделями искусственного интеллекта, работающими на узбекском языке, на материале имплицитур, пресуппозиции и косвенных речевых актов. Описательный, контекстуальный и сопоставительный методы позволяют разграничить грамматически правильный и коммуникативно уместный ответ. Анализ микродиалогов показывает необходимость учитывать контекст, намерение говорящего, границы допустимого вывода и национальные нормы общения.

Ключевые слова: модель искусственного интеллекта, прагматическая компетенция, имплицатура, пресуппозиция, косвенный речевой акт, контекст, речевой этикет.

Annotation: the article examines how artificial intelligence models operating in Uzbek interpret pragmatic meaning through implicature, presupposition and indirect speech acts. Descriptive, contextual and comparative methods distinguish grammatical correctness from communicative appropriateness. The analysis of sample micro-dialogues highlights four essential requirements: attention to context, careful identification of speaker intention, avoidance of unsupported inference and sensitivity to Uzbek norms of interaction.

Key words: artificial intelligence model, pragmatic competence, implicature, presupposition, indirect speech act, context, speech etiquette.

Kirish. Til orqali axborot uzatish faqat so'z va gaplarning lug'aviy ma'nosini ifodalash bilan kifoyalanmaydi. Kundalik muloqotda suhbatdoshlar ko'pincha fikrlarini ochiq bayon etmaydilar, balki vaziyat, oldingi gap, umumiy bilim, ohang va ijtimoiy munosabatga tayangan holda yashirin ma'no hosil qiladi. Masalan, "Xona sal sovuq ekan" gapi oddiy holat bayoni bo'lishi ham, derazani yopish yoki isitish vositasini yoqish haqidagi ehtiyotkor iltimos vazifasini bajarishi ham mumkin. Shu o'rinda tilni anglash qobiliyati so'zma-so'z mazmunni aniqlash bilangina emas, gapdan ko'zlangan maqsadni to'g'ri topish bilan belgilanadi.

Bugungi kunda sun'iy intellektga asoslangan matn yaratish tizimlari o'zbek tilida ravon va grammatik jihatdan

to'g'ri javoblar taqdim eta boshladi. Biroq ravonlik har doim ham muloqot maqsadini chuqur idrok etish degani emas. Tizim gapning yuzaki mazmuniga yopishib qolsa, bilvosita iltimosni oddiy xabar, yumshatilgan radni rozilik, kinoyani maqtov yoki presuppozitsiyani yangi axborot sifatida qabul qilish ehtimoli yuqori. Bunday xatolar ayniqsa hurmat, yosh, maqom va andisha muhim bo'lgan o'zbek muloqotida sezilarli darajada ko'zga tashlanmoqda.

O'zbek pragmatikistikasida lisoniy birlikning ma'nosi nutq vaziyati, so'zlovchi va tinglovchi munosabati, kommunikativ maqsad hamda milliy-madaniy me'yor bilan bog'liq holda o'rganiladi [1; 2]. Nutqiy muloqotning ijtimoiy xususiyatlari, o'zbek nutq odati va murojaat

shakllari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham pragmatik talqinda ekstralingvistik omillarning hal qiluvchi ahamiyatni namoyon etadi [3; 4; 5]. Mazkur nazariy bilimlarni sun'iy intellekt javoblarini tahlil qilishga tatbiq etish o'zbek tilidagi raqamli muloqot sifatini baholash uchun muhim omil sanaladi.

Tadqiqot obyekti – o'zbek tilidagi sun'iy intellekt bilan muloqotda yuzaga keladigan pragmatik ma'no. Tadqiqot predmeti esa implikatura, presuppozitsiya va bilvosita nutqiy aktlarning anglanish shartlari hamda ularga mos javob yaratish mezonlaridir. Maqolaning maqsadi o'zbek tilida pragmatik kompetensiyaning asosiy tarkibiy belgilarini ochib berish va sun'iy intellekt javoblarini lingvistik jihatdan baholashga xizmat qiluvchi sodda, tushunarli mezonlarni tavsiya etishdir. Shu maqsadga muvofiq pragmatik ma'no tushunchasi izohlandi, uch asosiy hodisa namunaviy dialoglar orqali tahlil qilindi va xatolarning asosiy turlari ajratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Sh. Safarov pragmalingsvistikani insonning lisoniy faoliyati, nutq vaziyati va kommunikativ niyat bilan uzviy bog'liq soha sifatida izohlaydi [1]. Olimning yondashuvida nutqiy birlikning mazmuni tayyor va o'zgarmas hodisa emas; u aniq muloqot sharoitida so'zlovchi va tinglovchi tomonidan shakllantiriladi. M. Hakimov o'zbek pragmalingsvistikasining nazariy asoslarini yoritib, presuppozitsiya, nutqiy akt, pragmatik to'siq, adresant va adresat munosabatlarini o'zbek tili materialida izohlaydi [2]. Bu qarashlar sun'iy intellekt javobini faqat grammatik tuzilishiga qarab emas, uning vaziyatga mosligi va kommunikativ samarasi asosida baholash zarurligini taqazo etmoqda.

Sh. Safarov va G. Toirova nutqning etnosotsiopragmatik tahlilida muloqotning milliy, ijtimoiy va psixologik omillarini yaxlit holda ko'rib chiqadi [3]. S. Mo'minov o'zbek muloqot xulqiga xos ijtimoiy-lisoniy belgilarni o'rganib, yosh, jins, mavqe, tanishlik darajasi va vaziyat nutq shakliga bevosita ta'sir qilishini asoslaydi [4]. Sh. Iskandarova o'zbek nutq odatining muloqot shakllarini chuqur tahlil qilgan holda, xalqning odob, hurmat va muomala me'yorlari lisoniy tanlovni boshqarishini ko'rsatadi [5]. Mazkur tadqiqotlar sun'iy intellekt uchun "bir vaziyat – bir ma'no" tamoyili yetarli emasligini, ayni gap turli sharoitda turli nutqiy kuchga ega bo'lishini isbotlaydi.

L. Raupovanning dialogik diskursga oid tadqiqotida suhbat jarayonida gapning to'liq yoki to'liqsiz shakli, javobning qisqaligi, sukut va qo'shimcha izohlarning sotsiopragmatik vazifasi yoritiladi [6]. Z. Akbarova murojaat shakllarining

lisoniy tabiatini ochib, murojaat birligi orqali so'zlovchining munosabati, ijtimoiy masofa va bahosi ifodalanishini ko'rsatadi [7]. M. Saidxonov verbal va noverbal vositalar o'zaro bog'liq holda muloqot mazmunini shakllantirishini ta'kidlaydi [8]. Sun'iy intellekt faqat yozilgan gapni emas, muloqot vaziyati haqida berilgan qo'shimcha ma'lumotni ham hisobga olishi zarur.

Kompyuter lingvistikasi bo'yicha A. Rahimov va N. Abdurahmonova tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda tabiiy tilni kompyuter vositasida qayta ishlash uchun lingvistik qonuniyatlarni aniq ifodalash zarurligi taqdim etadi [9; 10]. O'zbek tili uchun elektron matnlar, morfologik va sintaktik tahlil vositalari rivojlanayotgan bo'lsa-da, pragmatik ma'noni avtomatik anglash masalasi murakkabligicha qolmoqda. Chunki yashirin ma'no ko'pincha alohida so'zda emas, balki butun vaziyat, suhbatdoshlar munosabati va aytilmagan vaziyatlar orasida yuzaga keladi.

Jahon pragmatikasida G. Grice implikaturani hamkorlik tamoyili va suhbat qoidalari orqali izohlaydi [11]. J. Searle esa gapning shakli bilan uning bajaradigan nutqiy vazifasi har doim bir xil bo'lmashligini, darak gap iltimos yoki buyruq vazifasida kelishi mumkinligini ko'rsatadi [12]. Ushbu nazariyalar o'zbek tilshunoslarining milliy muloqotga oid qarashlari bilan birgalikda sun'iy intellektning pragmatik kompetensiyasini tahlil qilish uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tavsifiy, kontekstual, qiyosiy va pragmatik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, tavsifiy usul orqali implikatura, presuppozitsiya va bilvosita nutqiy aktlarning asosiy belgilari ochiqlandi. Kontekstual tahlilda gapning ma'nosi oldingi va keyingi jumlar, vaziyat, ishtirokchilarning maqomi va muloqot maqsadi bilan bog'liq holda ifoda etildi. Qiyosiy usul yordamida gapning lug'aviy mazmuni bilan undan kelib chiqadigan yashirin ma'no farqlandi. Pragmatik tahlil esa so'zlovchi niyati va tinglovchidan kutilayotgan harakatni aniqlashga xizmat qildi.

Tahlilning materiali sifatida kundalik, ta'limiy va xizmat muloqotiga xos 24 ta namunaviy mikrodialog yaratildi. Ularning sakkiztasi implikatura, sakkiztasi presuppozitsiya, sakkiztasi bilvosita nutqiy akti ifoda etdi. Misollar real insonlarning yozishmalaridan olinmagan; ular o'zbek tilida keng uchraydigan muloqot qoliplari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan. Har bir misolda to'rt jihat kuzatildi: bevosita aytilgan mazmun, vaziyatdan kelib chiqadigan ma'no, so'zlovchining ehtimoliy maqsadi va tinglovchidan kutiladigan javob.

Sun'iy intellekt javobini baholashda besh mezon asos qilib olindi: birinchidan, gapning yuzaki va yashirin ma'nosini farqlash; ikkinchidan, oldingi nutq va vaziyatni hisobga olish; uchinchidan, so'zlovchi niyatini asossiz kengaytirmasdan aniqlash; to'rtinchidan, hurmat, andisha va ijtimoiy masofani saqlash; beshinchidan, mazmunan hamda usluban mos javob yaratish. Ushbu mezonlar raqamli tizimni ball bilan reytinglash uchun emas, javobning qaysi lingvistik bosqichda to'g'ri yoki xato shakllanganini tushuntirish uchun qo'llanildi.

Asosiy qism va tahlil.

Pragmatik kompetensiya bu gapning lug'aviy va grammatik ma'nosini anglashdan tashqari, uning qaysi vaziyatda, kim tomonidan, kimga va qanday maqsadda aytilganini tushunish qobiliyatidir. Inson suhbat davomida ko'plab ma'lumotlarni ochiq aytmaydi, chunki tinglovchi vaziyatni biladi yoki kerakli xulosani o'zi chiqarib oladi. Sun'iy intellektda ham mazkur qobiliyat shakllanishi uchun matnning faqat oxirgi jumlasini emas, butun suhbatni, ijtimoiy munosabatni va o'zbek muloqot odobini birlashtirib talqin qilish jarayoni taqazo etiladi.

1. Implikaturani anglash. Implikatura – gapda bevosita aytilmagan, ammo muloqot vaziyati va suhbat qoidalari asosida tushuniladigan ma'nodir. “Maqola tayyormi?” – “Xulosasini yozayapman” dialogida javob beruvchi “yo'q” demaydi, lekin maqola hali tugamaganini bildiradi. “Dars qanday o'tdi?” – “Xona juda issiq edi” javobida esa savolning asosiy mazmunidan chekinish darsga to'liq ijobiy baho berilmaganini anglatishi mumkin. Tizim bunday javoblarni faqat berilgan axborot sifatida qabul qilsa, muloqot maqsadini yo'qotadi.

Implikaturani aniqlashda qat'iy hukmdan ehtiyot bo'lish zarur. “Ertaga yig'ilishga kelasizmi?” – “Bemor onamni shifokorga olib borishim kerak” javobi ko'pincha kelmaslikni anglatadi, biroq mutlaq rad emas. To'g'ri talqin “aniq rozilik bildirilmagan, kelish ehtimoli past” shaklida bo'lishi maqsadga muvofiq. “Bir ko'rib chiqarmiz”, “vaqt topilsa” kabi o'zbekcha yumshatilgan ifodalar ham kontekstga qarab kechiktirish yoki ehtiyotkor radni anglatib kelishi mumkin [3; 4].

2. Presuppozitsiyani anglash. Presuppozitsiya gap aytilishidan oldin ma'lum deb qabul qilinadigan axborotdir. “Madina yana maqola yubordi” gapida Madinaning oldin ham maqola yuborgani nazarda tutiladi. “U kechikishni to'xtatdi” jumlasida esa shaxs ilgari kechikib yurgani anglashiladi. Bunday axborot ma'noni ko'rmaslik javobning yuzaki bo'lishiga olib keladi; ortiqcha xulosa chiqarish esa matnda yo'q ma'lumotni qo'shib yuboradi.

Presuppozitsiyani qo'zg'atuvchi birliklar o'zbek tilida turli shaklda uchraydi. “Yana”, “ham”, “faqat” yuklamalari; “to'xtamoq”, “davom ettirmoq”, “qaytmoq” fe'llari; “afsuski”, “xayriyat” kabi so'zlar fon axborotini faollashtiradi. “Xayriyat, hujjat topildi” gapidan hujjat avval topilmay turgani anglashiladi, ammo uning qayerda yoki kim tomonidan yo'qotilgani haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi.

3. Bilvosita nutqiy aktlarni anglash. Nutqiy akt gap orqali bajariladigan kommunikativ harakat hisoblanadi. So'roq gap har doim axborot so'rash, darak gap esa faqat xabar berish uchun xizmat qilmaydi. “Derazani yopib qo'ya olasizmi?” shaklan imkoniyat haqidagi so'roq bo'lsa-da, amalda iltimosdir. “Telefoningizning ovozi eshitilyapti” gapi yig'ilish paytida telefonni ovozsiz holatga o'tkazish talabini ifodalab kelishi mumkin. Bunday vaziyatda tizim grammatik shaklni emas, gapning bajaradigan vazifasini topishi kerak.

Bilvosita aktning kuchi ishtirokchilar maqomiga bog'liq. Rahbarning “Hisobot bugun tayyor bo'lsa yaxshi bo'lardi” gapi muloyim topshiriq, tengdoshlar orasida esa iltimos bo'lishi mumkin. “Choy sovib qoladi” jumlasini mehmonni dasturxonga taklif qilish vazifasini bajaradi. Maqom va vaziyat berilmagan hollarda sun'iy intellekt bitta qat'iy xulosa o'rninga asosiy ehtimollarni ko'rsatishi lozim.

4. Milliy-madaniy omillar. O'zbek muloqotida hurmat shakllari, qarindoshlik nomlari, yosh va mavqega mos murojaat, bevosita buyruqni yumshatish kabi vositalar pragmatik ma'noni belgilaydi [5; 7]. “Siz”, “aka”, “opa”, “ustoz”, “domla” kabi birliklar oddiy nomlashdan tashqari, so'zlovchining munosabatini ham ko'rsatadi. Sun'iy intellekt foydalanuvchi bilan rasmiy muloqotda ortiqcha erkin yoki buyruq ohangida gapirsa, mazmun to'g'ri bo'lsa ham kommunikativ me'yor buziladi.

Andisha o'zbekcha bilvositalikning muhim manbaidir. “O'zingiz bilasiz” iborasi haqiqiy tanlov, norozilik yoki mas'uliyatni suhbatdoshga qaytarishni anglatishi mumkin. “Mayli, siz aytganday bo'lsin” ham samimiy rozilik yoki majburiy ko'nish ma'nosida keladi. Oldingi suhbat berilmagan vaziyatda tizim noaniqlikni ochiq qayd etishi kerak.

Pragmatik javobni tahlil qilishda besh jihat birgalikda kuzatiladi: yashirin ma'no, kontekst, so'zlovchi niyati, xulosa chegarasi va muloqot odobi. Ma'no to'g'ri topilgan bo'lsa ham, javob qo'pol yoki vaziyatga nomos bo'lsa, pragmatik kompetensiya to'liq namoyon bo'lmaydi.

Muhokama.

Tahlil sun'iy intellekt uchun ikki asosiy murakkablikni taqdim etadi. Birinchisi – yetishmayotgan kontekst: kim gapirayotgani, munosabat darajasi va suhbat maqsadi berilmasa, qisqa javobni aniq talqin qilish qiyin. Ikkinchisi – ortiqcha xulosa: tizim yashirin ma'noni topish jarayonida matnda yo'q sabab yoki voqeani qo'shib yuborishi mumkin. Bunday holatlarda noaniqlikni tan olish va aniqlashtiruvchi savol berish qat'iy, ammo asossiz hukmdan afzal.

Yana bir muhim masala – milliy muloqot me'yorining umumiy qoliplarga singib ketishidir. O'zbek tilidagi hurmat, qarindoshlik atamaları, duo, yumshatilgan rad va bilvosita iltimoslar boshqa tillardagi tayyor qolip bilan to'liq mos kelmaydi. N. Mahmudov til vositasini maqsadga muvofiq va odob me'yoriga mos tanlashni nutq madaniyatining muhim belgisi sifatida ko'rsatadi [13]. Demak, sun'iy intellektning o'zbekcha javobi tushunarli bo'lishi bilan birga tabiiy va hurmatli ham bo'lishi kerak.

Xulosa. O'zbek tilidagi sun'iy intellekt modellarining pragmatik kompetensiyasi gapning lug'aviy ma'nosini aniqlashdan kengroq hodisadir. U yashirin xulosani topish, tag ma'no axborotini ajratish, bilvosita nutqiy harakatni anglash, ijtimoiy munosabatni hisobga olish va vaziyatga mos javob yaratishni qamrab oladi. Implikatura tahlilida aytilmagan ma'no va uning ehtimollik darajasi,

presuppozitsiyada oldindan ma'lum deb qabul qilingan axborot va xulosa chegarasi, bilvosita nutqiy aktlarda esa gapning shakli bilan kommunikativ vazifasi o'rtasidagi farq asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqot o'zbek muloqotiga xos hurmat, andisha, yumshatish, maqom va qarindoshlik birliklari sun'iy intellekt javobining sifatiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatdi. Shuning uchun o'zbekcha raqamli muloqotni baholashda besh talab muhim: yashirin ma'noni anglash, kontekstni hisobga olish, niyatni ehtiyotkor aniqlash, asossiz ma'lumot qo'shmaslik va muloqot odobiga mos javob berish. Ushbu talablar sun'iy intellektidan foydalanishda lingvistik savodxonlikni oshirish, foydalanuvchi so'rovlarini aniq tuzish va o'zbek tiliga mos dialog tizimlarini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kelgusidagi tadqiqotlarda tabiiy dialoglar, turli yosh va kasb vakillari nutqi hamda bir nechta sun'iy intellekt tizimining javoblari qiyosiy o'rganilishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, lotin va kirill yozuvi, so'zlashuv shakllari, kinoya, sukut, yumshatilgan e'tiroz, duo va yozishmadagi tinish belgilarining pragmatik vazifasini alohida kuzatish zarur. Bunday materiallar o'zbek tilining milliy xususiyatlarini aniqroq hisobga oladigan, foydalanuvchi niyatini ehtiyotkor talqin qiladigan va muloqot odobini saqlaydigan raqamli tizimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari. – Samarqand, 2007.
4. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2000.
5. Iskandarova Sh.M. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 1993.
6. Raupova L.R. Dialogik diskursdagi nopredikativ birliklarning sotsiopragsmatik tadqiqi: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2012.
7. Akbarova Z.A. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2007.
8. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008.
9. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
10. Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
11. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
12. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
13. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
14. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

Kamola QURBONOVA,
 Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi
 E-mail: k.qurbonova.06@mail.ru



KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA DOMENLAR NAZARIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Ronald Langaker tomonidan ishlab chiqilgan domenlar nazariyasining asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda domen tushunchasining mohiyati, domenlar matritsasi, asosiy va mavhum domenlar o'rtasidagi farqlar hamda ularning konseptual tizimdagi o'rnini yoritiladi. Shuningdek, asosiy domenlarning insonning konseptgacha bo'lgan tajribasiga bog'liqligi, obraz-sxemalar bilan munosabati va domenlarning iyerarxik tashkil etilishi masalalari ko'rib chiqiladi. Domenlarning o'lchamlilik, lokatsion va konfiguratsion xususiyatlari tahlil qilinib, ularning kognitiv semantikadagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari domenlar nazariyasining inson bilimlari va konseptual tuzilmalarning shakllanishini izohlashdagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, kognitiv semantika, domenlar nazariyasi, domen, asosiy domen, mavhum domen, domenlar matritsasi, obraz-sxema, konseptual tizim, ensiklopedik ma'no.*

Annotation: this article analyzes the main principles of Domain Theory developed by Ronald Langacker. The study examines the essence of the concept of a domain, the domain matrix, the differences between basic and abstract domains, and their role within the conceptual system. Furthermore, it discusses the relationship between basic domains and human pre-conceptual experience, their connection with image schemas, and the hierarchical organization of domains. The dimensional, locational, and configurational properties of domains are analyzed, and their significance in cognitive semantics is revealed. The findings demonstrate the important role of Domain Theory in explaining human knowledge and the formation of conceptual structures.

Key words: *cognitive linguistics, cognitive semantics, Domain Theory, domain, basic domain, abstract domain, domain matrix, image schema, conceptual system, encyclopedic meaning.*

Аннотация: в данной статье анализируются основные положения теории доменов, разработанной Рональдом Лэнгакером. В исследовании рассматриваются сущность понятия домена, матрица доменов, различия между базовыми и абстрактными доменами, а также их место в концептуальной системе. Кроме того, освещаются вопросы связи базовых доменов с доконцептуальным опытом человека, их соотношения с образными схемами и иерархической организации доменов. Анализируются измерительные, локативные и конфигурационные характеристики доменов, раскрывается их значение для когнитивной семантики. Результаты исследования показывают важную роль теории доменов в объяснении человеческих знаний и формирования концептуальных структур.

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, когнитивная семантика, теория доменов, домен, базовый домен, абстрактный домен, матрица доменов, образная схема, концептуальная система, энциклопедическое значение.*

Kirish. Tilshunoslik va kongnitivistika sohalarini o'zida jamlagan yo'nalish bo'lmish kognitiv tilshunoslik rivoji tilshunoslikka yangicha yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishni ham boshqa barcha sohalar singari o'zi ish ko'ruvchi maxsus terminlari mavjud bo'lib, bu yo'nalishni chuqurroq tushunishga va tadqiq etishga yordam beradi. Shunday terminlardan biri sifatida domenlar nazariyasini ko'rish mumkin.

Asosiy qism. Langaker tomonidan ishlab chiqilgan domenlar nazariyasi kognitiv tilshunoslikdagi muhim konsepsiyalardan biri bo'lib, u ma'noning ensiklopedik

xususiyatga ega ekanligi haqidagi qarashga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, leksik birliklarning ma'nosi alohida holda emas, balki kengroq bilim tuzilmalari fonida anglanadi. Langaker bunday bilim tuzilmalarini domenlar deb ataydi va ularni inson ongida mavjud bo'lgan konseptual birliklar, tajribalar hamda bilimlar majmuasi sifatida talqin qiladi. Domenlarning asosiy vazifasi til birliklarini tushunish va qo'llash uchun zarur bo'lgan fon bilimlarini ta'minlashdan iborat. Konseptlar inson ongida alohida birliklar sifatida namoyon bo'lmaydi. Aksincha, ular faqat oldindan mavjud bo'lgan, fon bilim tuzilmalari

kontekstida ham soʻzlovchi, ham tadqiqotchi tomonidan anglanishi mumkin. Mazkur fon bilim tuzilmasini ifodalovchi eng umumiy atama domen hisoblanadi [2:2]. Domenlar nazariyasining muhim jihatlaridan biri shundaki, biror konsept odatda, bitta emas, balki bir nechta domenlar bilan bogʻliq holda shakllanadi. Bu holat domenlar matritsasi deb yuritiladi. Domenlar matritsasi bitta konseptni tashkil etuvchi domenlar majmuyidir. Har bir konsept bir necha jihatdan domenlarga bogʻlanadi. Ushbu domenlar birlashib, domenlar majmuasini hosil qiladi. Ular orqali konseptning umumiy xususiyatlari ochiladi. Masalan, “inson” konsepti haqidagi bilimlar uning tanaga ega ekanligi, tugʻilishidan to oʻlimigacha oʻziga xos hayot sikliga ega boʻlishi haqida maʼlumot beradi. Shu sababli “inson” konsepti “makon”, “jismoniy obyekt”, “hayot”, “vaqt” kabi domenlar matritsasidan tashkil topadi [5:9].

Langaker domenlarni asosiy va mavhum turlarga ajratadi. Asosiy domenlar insonning bevosita jismoniy tajribasiga tayansa, masalan, “makon” va “vaqt” kabi tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Mavhum domenlar esa murakkabroq bilim tizimlariga asoslanib, “muhabbat”, “nikoh”, yoki “madaniyat” kabi konseptlarni qamrab oladi. Shunday qilib, mavhum domenlar ham oxir-oqibat insonning tajribasi bilan bogʻliq boʻlsa-da, ular koʻproq konseptual murakkablik darajasi bilan tavsiflanadi.

Domenlar nazariyasining yana bir muhim xususiyati ularning iyerarxik tarzda tashkil etilishidir. Bunda ayrim domenlar boshqa domenlar uchun asos vazifasini bajaradi. Masalan, “tirsak” konsepti “qoʻl” domeni orqali tushunilsa, “qoʻl” konsepti oʻz navbatida “tana” domeni bilan bogʻliq holda anglanadi. Shu tariqa domenlar oʻrtasida qism-butun munosabatlariga asoslangan konseptual bogʻlanishlar yuzaga keladi.

Langaker domenlar nazariyasida konseptual tizim iyerarxik tuzilishga ega ekanligini taʼkidlaydi. Agar har bir konsept uni tushunish uchun zarur boʻlgan boshqa domenlarga tayansa, bu jarayon oxir-oqibat boshqa hech qanday domenni talab qilmaydigan eng sodda bilim tuzilmalariga olib kelishi kerak. Bunday tuzilmalar asosiy domenlar deb ataladi. Shunday ekan, asosiy domenlar tugʻma emas, balki insonning konseptgacha boʻlgan tajribasi natijasida shakllanadi. Ular sezgi-idrok tajribasi hamda subyektiv ichki kechinmalarga asoslanadi.

Domenlar oʻrtasidagi iyerarxik munosabatni “boʻgʻim” konsepti misolida kuzatish mumkin. Mazkur konsept “qoʻl panjasi” domeni orqali tushuniladi, “qoʻl panjasi” esa “qoʻl” domeniga, “qoʻl” esa “tana” domeniga tayangan holda anglanadi. Oʻz navbatida, “tana” konsepti “makon” domeni bilan bogʻliq. “Makon” domeni esa boshqa domen orqali emas, balki insonning bevosita sezgi tajribasi orqali shakllanganligi sababli iyerarxiyaning eng quyi pogʻonasini tashkil etadi. Shu

jihatdan asosiy domenlar barcha murakkab konseptual tuzilmalarning negizi hisoblanadi.

Asosiy domenlar insonning tashqi olamni sezish va idrok etish tajribasidan hosil boʻladi. Masalan, “makon” va “rang” domenlari koʻrish tajribasi bilan, “ohang” eshitish bilan, “harorat”, “bosim” va “ogʻriq” esa teginish hissi bilan bogʻliq. Bundan tashqari, vaqtning oʻtishini his qilish, hissiyotlar va ong holatlari kabi subyektiv tajribalar “vaqt” hamda “hissiyot” domenlarining shakllanishiga asos boʻladi. Ushbu domenlar boshqa konseptual tuzilmalarga tayanmasligi bilan ajralib turadi.

Langaker nazariyasida asosiy domenlar obraz-sxemalar bilan chambarchas bogʻliq boʻlsa-da, ular aynan bir xil hodisa sifatida talqin qilinmaydi. Har ikkisi ham konseptgacha boʻlgan tajribaga asoslanadi, biroq obraz-sxemalar tajribaning takrorlanuvchi namunalaridan umumlashtirilgan murakkabroq konseptual tuzilmalardir. Masalan, “konteyner” obraz-sxemasi “makon” va “moddiy obyekt” kabi asosiy domenlarga tayangan holda shakllanadi. Shu sababli obraz-sxemalar asosiy domenlarga nisbatan yuqoriroq abstraksiya darajasiga ega hisoblanadi.

Asosiy domenlar va obraz-sxemalar oʻrtasidagi yana bir farq ularning konseptual tizimdagi qoʻllanish doirasida namoyon boʻladi. Obraz-sxemalar koʻplab konseptlarning domenlar matritsasida ishtirok etsa, ayrim asosiy domenlar nisbatan tor qoʻllanish sohasiga ega boʻlishi mumkin. Masalan, “moddiy obyekt” sxemasi deyarli barcha jismoniy obyektlarga tegishli boʻlsa, “harorat” domeni faqat issiqlik bilan bogʻliq konseptlarda faol namoyon boʻladi. Shunday qilib, kognitiv semantikada inson tafakkurining poydevorini asosiy domenlar va obraz-sxemalar tashkil etadi. Biroq inson bilimlarining katta qismi bevosita emas, balki turli oraliq konseptlar orqali shakllanadi. Ana shunday oraliq va murakkab bilim tuzilmalari mavhum domenlar deb ataladi. Mavhum domenlar oʻz mazmunini quyi pogʻonadagi domenlarga tayangan holda hosil qiladi va konseptual tizimning yuqori darajalarini tashkil etadi. Umumiy domenlar esa alohida soʻzlarning maʼnosidan kelib chiqmagan yoki mavhumlashtirilmagan, aksincha, ular insonning fundamental tajribalarini aks ettirishi hamda boshqa yanada asosiyroq domenlarga boʻlinmasligi jihatidan tayanch hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ular biz dunyoni anglash va uni oʻzlashtirishda foydalanadigan kognitiv vositalardir [3:193]. Shu sababli domenlar nazariyasi inson bilimlarining eng sodda tajribalardan boshlab murakkab konseptual tuzilmalargacha boʻlgan rivojlanish jarayonini izohlashda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Domenlar nazariyasi haqidagi maʼlumotlar konseptual metafora tuzilishini oʻrganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Konseptual metafora tuzilishini tadqiq etgan Kittay va Lehrer turli semantik oʻlchamlarni muhokama

qilgan bo'lsalar-da, metaforani alohida belgilar yoki xususiyatlarning oddiy ko'chirilishi yoxud g'ayrioddiylikni idrok etish sifatida emas, balki butun konseptual domenlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ta'kidlaydilar [4:75]. Bundan tashqari, Langaker domenlarning ichki tuzilishi va tashkil etilish mexanizmlarini tavsiflash uchun bir qator muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi. Ushbu xususiyatlar domenlarning tilning konseptual tizimidagi o'zni va faoliyatini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Domenlarning muhim belgilaridan biri o'lchamlilik xususiyatidir [3:257]. Ayrim domenlar bir yoki bir nechta o'lcham asosida tashkil topadi. Masalan, "vaqt", "harorat" va "ohang" domenlari bir o'lchamli domenlar hisoblanadi, chunki ular ketma-ket joylashgan nuqtalar yoki darajalar bo'yicha tashkil etiladi. Xususan, "harorat" domenida issiq va sovuq holatlar bir o'lcham bo'ylab joylashgan qiymatlar sifatida idrok etiladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, "makon" domeni ikki yoki uch o'lchamli tuzilishga ega bo'lib, obyektlarning uzunligi, kengligi va balandligi kabi parametrlar orqali tavsiflanadi. Xuddi shuningdek, "rang" domeni ham uch o'lchamdan: yorqinlik, tus va to'yinganlikdan tashkil topadi. Mazkur o'lchamlar insonning ranglarni idrok etish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ayrim mavhum domenlar ham muayyan o'lchamlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, sonlar tizimi ketma-ketlikka asoslangan yagona o'lcham bo'ylab tashkil topgan. Biroq barcha domenlarni o'lchamlilik orqali tavsiflash mumkin emas. Masalan, "hissiyot" domenining aniq o'lchamlarini belgilash murakkab hisoblanadi. Domenlarning yana bir muhim xususiyati lokatsion va konfiguratsion turlarga ajralishidir. Bu farqlanish domenning ma'lum bir o'lcham bo'yicha kalibrlangan yoki kalibrlanmaganligi bilan bog'liq. Lokatsion domenlarda har bir element o'lchamning muayyan nuqtasiga mos keladi. Masalan, "rang" domenida tus o'lchamining har bir nuqtasi ma'lum bir rang tajribasini ifodalaydi. Shuning uchun o'lcham bo'ylab joylashuvning

o'zgarishi rangning ham o'zgarishiga olib keladi. Konfiguratsion domenlarda esa obyektning mohiyati uning fazodagi joylashuviga emas, balki ichki tuzilishi va konfiguratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, uchburchak shakli makonning qaysi nuqtasida joylashishidan qat'i nazar, o'zining uchburchaklik xususiyatini saqlab qoladi. Demak, makon domeni konfiguratsion xarakterga ega bo'lib, unda obyektlarning o'zaro munosabati va shakliyl tuzilishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, domenlarning o'lchamlilik hamda lokatsion-konfiguratsion xususiyatlari til konseptual tizimining qanday tashkil etilganini tushuntirishda muhim nazariy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xususiyatlar orqali konseptlarning turli domenlar doirasida qanday shakllanishi, tartiblanishi va o'zaro bog'lanishi izohlanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, domenlar global tuzilma yoki noaniq miqdordagi tarkibiy qismlardan iborat tizim emas, balki faoliyat yurituvchi va o'zini o'zi boshqaruvchi kognitiv tizimlardir [1:9].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, domenlar nazariyasi kognitiv tilshunoslikning muhim yondashuvlaridan biri bo'lib, u til birliklarining ma'nosi insonning umumiy bilim tizimi va konseptual tajribasi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ushbu nazariya orqali ma'no faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki muayyan konseptual sohalar doirasida shakllanadigan murakkab kognitiv jarayon sifatida talqin etiladi. Har bir konsept o'zining tayanch domeni va kengaytirilgan konseptual tarmoqlari orqali tushuniladi, bu esa til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq ochib beradi. Domenlar nazariyasi metafora, metonimiya hamda konseptual integratsiya kabi hodisalarni izohlashda ham samarali yondashuv sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, domenlar nazariyasi tilni inson bilish jarayonlarining mahsuli sifatida o'rganishga imkon berib, zamonaviy kognitiv tilshunoslik rivojida muhim nazariy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atran S. Basic conceptual domains. // Mind and language Vol. 4. 1989, – P. 7–16
2. Clausner T.C, and Croft W. Domains and image schemas. // Cognitive Linguistics 10 (1), 1999 – P. 1– 31
3. Evans V, Green M. Cognitive Linguistics (An Introduction) – Edinburgh: Edinburgh university press, 2006. 830 p.
4. Keil, Frank C. Conceptual domains and the acquisition of metaphor. // Cognitive Development 1, no. 1, 1986 – P. 73–96
5. Qurbonova K. Kognitiv tilshunoslikka oid atamalarning izohli lug'ati. – Namangan: Mashrab, 2026. 44-b.
6. Ungerer F. H, Schmid H. J. An Introduction to Cognitive Linguistics. – London, New York: Longman, 1996. 383 p.

Madina NABIJONOVA,
Namangan davlat pedagogika
instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
3-bosqich talabasi
<https://orcid.org/0009-0001-7086-896X>

ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI: KOGNITIV STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb masalalaridan biri — ona tili ta'limida o'quvchilarning matn ustida ishlash ko'nikmalarini kognitiv strategiyalar asosida rivojlantirish metodikasi tadqiq etilgan. Maqolaning maqsadi an'anaviy matn tahlilidan voz kechib, o'quvchilarning konseptual va tanqidiy fikrlashini faollashtiruvchi kognitiv modellarni ishlab chiqish va ularning imkoniyatlarini baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, lingvokognitiv modellash, insert, denotat graf hamda «Fishboun» kabi interaktiv-kognitiv metodlardan foydalanildi. Natijada, matnni idrok etishning uch bosqichli (matnoldi, matn ustida, matndan keyingi) kognitiv algoritmi tizimlashtirildi. Maqolaning ilmiy yangiligi — ona tili darslarida lingvistik birliklarni shunchaki yodlatish emas, balki matndagi yashirin ma'nolarni (podtekst) ochishga qaratilgan kognitiv markerlar tahlili metodologiyasining asoslab berilganligidir.

Kalit so'zlar: *lingvodidaktika, kognitiv strategiya, matn tahlili, anticipatsiya, insert, denotat graf, fishboun, tanqidiy fikrlash, mental xarita, semantik tahlil.*

Annotation: this article explores one of the pressing issues in modern linguodidactics — the methodology of developing students' text-based skills through cognitive strategies in native language classes. The aim of the article is to shift away from traditional reproductive text analysis towards developing and evaluating cognitive models that stimulate students' conceptual and critical thinking. The research employs methods of systemic analysis, linguocognitive modeling, and interactive-cognitive techniques such as INSERT, denotative graph, and "Fishbone". As a result, a three-stage cognitive algorithm for text perception (pre-text, text-based, post-text) was systematized. The scientific novelty of the article lies in substantiating the methodology of cognitive marker analysis aimed at uncovering implicit meanings (subtext) in the text, rather than merely memorizing linguistic units. The findings of the study possess practical significance for designing next-generation textbooks and methodological manuals for secondary schools and academic lyceums.

Key words: *linguodidactics, cognitive strategy, text analysis, anticipation, INSERT, denotative graph, fishbone, critical thinking, mind map, semantic analysis.*

Kirish.

Bugungi global axborotlashgan zamonda ta'lim paradigmasining tubdan o'zgarishi ona tili darslarida o'quvchilarning matn ustida ishlash kompetensiyasini yangicha uslublar asosida loyihalashni taqozo etmoqda. Zamonaviy lingvodidaktikada ona tili ta'limi shunchaki grammatik qoidalarni mexanik tarzda yodlatish emas, balki tilni fikrlash quroli va dunyoni anglash vositasi sifatida o'rgatishga yo'naltirilishi lozim. Bu jarayonda shaxsning bilish apparati, xotirasi, diqqati va tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb

etadi. Psixolingvistik nuqtai nazardan matnni idrok etish va uni qayta ishlash inson ongida kechadigan murakkab konseptualizatsiya hamda turkumlashtirish jarayonlarining mahsulidir.¹

Xalqaro va milliy lingvodidaktika tarixida matnni o'qib tushunish va uning diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, g'arb tadqiqotchilari va kognitiv psixologiya maktabi vakillari til ta'limida bilish jarayonlarini faollashtirish modelini asoslab berishgan.²

¹ Piaget J. *Psychology of Intelligence*. – New York: Routledge, 2001. – P. 45-48.

² Chomsky N. *Language and Mind*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 112-115.

O'zbekiston tilshunoslik maktabida ham matn ustida ishlash va ona tili ta'limining kognitiv asoslari so'nggi yillarda jadal tadqiq qilinmoqda. O'zbek maktablarida ona tilini o'qitish metodikasining fundamental asoslarini yaratgan A. G'ulomov va M. Asqarovalar darslarda nutqiy vaziyatlar yaratish hamda matnning mazmuniy mantiqini anglash muhimligini qayd etganlar³. Shuningdek, umumta'lim maktablarida joriy etilgan Milliy o'quv dasturining talablaridan kelib chiqib, o'quvchilarning matnni anglash va tahlil qilish jarayonidagi kognitiv faolligini metodik jihatdan tizimlashtirish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biroq, metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaldagi ona tili darslarida hanuzgacha matn ustida ishlash asosan an'anaviy (shunchaki qayta so'zlab berish, tayyor savollarga javob topish) xarakterga ega. O'quvchilarning matndagi yashirin ma'nolarni (podtekst) ochish, anticipatsiya (oldindan taxmin qilish), kontekstual tahlil va tanqidiy fikrlash kabi oliy kognitiv operatsiyalarini rivojlantirishga tizimli yondashuv yetishmayapti. Ushbu ziddiyat va ilmiy-metodik bo'shliqni to'ldirish maqsadida mazkur tadqiqotimizda ona tili darslarida matn ustida ishlash samaradorligini oshirishda insert, denotat graf, «Fishboun» kabi kognitiv strategiyalardan foydalanishning pedagogik-metodik tizimini ishlab chiqish maqsad qilib qo'yildi.

Asosiy qism

Ona tili ta'limida matn tahlilini kognitiv strategiyalar asosida tashkil etish o'quvchining lisoniy axborotni kodlash va dekodlash mexanizmlarini faollashtiradi. Lisoniy shaxsning shakllanishida matn shunchaki grammatik qoidalar jamlanmasi emas, balki muayyan bir konseptual olam manzarasining ifodasidir. Kognitiv yondashuv o'quvchidan matnning strukturaviy-semantik zanjirini buzmaganda holda, uning makrostruktura (umumiy mavzu) va mikrostruktura (matndagi gaplararo mantiqiy aloqa) aloqalarini idrok etishni talab qiladi. ⁴Ushbu jarayonni ona tili darslarida amaliy joriy etish uchun matn ustida ishlashning *uch bosqichli kognitiv modelini* tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

3 G'ulomov A., Asqarova M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. 84-89-b.

4 [1] Matchonov S. Maktabda ona tili darslarini texnologiyalashtirish muammolari. – Toshkent: Fan, 2012. –42-46-b.

1. Matnoldi bosqichida bilish faoliyatini loyihalash

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi — o'quvchining apperseptiv tajribasini (mavjud bilimlar zaxirasini) uyg'otish va anticipatsiya (matn mazmunini oldindan bashorat qilish) mexanizmini ishga tushirishdir. Bu o'rinda **“BHO” (Bilaman / Bilishni xohlayman / O'rgandim)** strategiyasi kognitiv xarita vazifasini o'taydi. Masalan, publitsistik matn tahlilidan oldin o'quvchilarga faqat sarlavha va beshta tayanch tushuncha taklif etiladi. O'quvchi o'z tasavvuridagi mental freymlarni (bilim strukturalari) ishga solib, matn mazmuni haqida gipoteza yaratadi. Bu esa darsda motivatsiya bazasini shakllantiradi.

2. Matn ustida ishlash bosqichida tushunishni monitoring qilish

Matnni bevosita mutolaa qilish jarayonida o'quvchi axborotni shunchaki qabul qilmay, uni filtrlashi va tizimlashtirishi lozim. Bu bosqichda **INSERT (Interaktiv qayd etish tizimi)** kognitiv texnologiyasi yuqori samara beradi. O'quvchi matn chetiga quyidagi belgilar tizimini qo'yib chiqadi:

○ **“tasdiq belgisi”** — men bilgan ma'lumot (kognitiv tasdiq);

○ **“+”** — men uchun yangi axborot (mental bazaning kengayishi);

○ **“-”** — mening tasavvurimga zid tushuncha (kognitiv konflikt);

○ **“?”** — aniqlashtirishni talab qiladigan o'rinlar (muammoli ta'lim muhiti)

Ushbu jarayon o'quvchida matn tilini konseptual tushunish va uning grammatik sathini (so'z birikmalari va gap qurilishi) semantik jihatdan tahlil qilish ko'nikmasini o'stiradi. Keyingi qadamda **Denotat graf (tushunchalar daraxti)** metodi qo'llanadi. Matnning asosiy mavzusi (ot) yuqoriga yozilib, pastga qarab uning harakat va xususiyatlarini ifodalovchi fe'llar zanjiri tuziladi. Bu metod o'quvchining sintaktik qurilmalarni mantiqiy guruhlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Axborotni transformatsiya qilish bosqichi

Matn tahlilining yakuniy qismi — axborotni ijodiy qayta ishlash va tanqidiy baholash hisoblanadi. Argumentativ va muammoli matnlarni tahlil qilishda **“Fishboun” (Baliq skeleti)** kognitiv modeli eng ishonchli vositadir.

● *Baliqning boshi* — matnda ko'tarilgan markaziy til yoki ijodiy muammo.

● *Yuqori suyaklari* — muammoning kelib chiqish sabablari (matndagi argumentlar).

● *Pastki suyaklari* — ushbu sabablarni tasdiqlovchi dalillar, lisoniy faktlar.

● *Dumi* — o'quvchining shaxsiy mantiqiy xulosasi.

Ushbu kognitiv model o'quvchini matndagi ochiq ma'lumotlardan yashirin ma'nolarga (podtekst) o'tishga va o'z fikrini sintaktik jihatdan to'g'ri shakllantirishga o'rgatadi. Olingan yangi bilimlar yakunda kichikesseyoki matn ko'rinishida o'qituvchiga taqdim etiladi. Demak, ona tili darslarida matnni an'anaviy o'rganishdan kognitiv-strategik tahlilga o'tish o'quvchilarning funksional savodxonligini ta'minlovchi va matn yaratish kompetensiyasini oshiruvchi yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayonini kognitiv strategiyalar asosida tashkil etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz bir qancha xulosalarga kelish imkonini beradi. Avvalo, matnni shunchaki

mexanik o'qish va qayta so'zlab berishga asoslangan an'anaviy usullar o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirmasligi sababli zamonaviy ta'lim o'quvchidan matnning nafaqat grammatik qobig'ini, balki uning ichki mantiqiy-semantik qatlamlarini anglashni talab etadi. Shuningdek, matn ustida ishlashni uch bosqichga (matnoldi, matn ustida, matndan keyingi) ajratib loyihalash o'quvchining bilish faoliyatini tizimlashtiradi. Bundan tashqari, darslarda qo'llanilgan *INSERT* texnologiyasi o'quvchida axborotni filtrlash va monitoring qilish, *Denotat graf* sintaktik birliklarni guruhlash, "Fishboun" (Baliq skeleti) modeli esa matndagi yashirin ma'nolarni ochish hamda muammoli vaziyatlarni tanqidiy baholash ko'nikmasini shakllantiradi. Muxtasar aytganda, ona tili ta'limiga kognitiv yondashuvning joriy etilishi o'quvchilarni tayyor qoidalarni yodlovchi subyektdan, tilning cheksiz imkoniyatlaridan ijodiy foydalana oladigan faol lisoniy shaxsga aylantiradi. Bu esa umumta'lim maktablarida joriy etilgan Milliy o'quv dasturi maqsadlariga to'liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chomsky N. Language and Mind. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. — P. 112-115.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1997. 84-89-b.
3. Matchonov S. Maktabda ona tili darslarini texnologiyalashtirish muammolari. — Toshkent: Fan, 2012. 42-46-b.
4. Piaget J. Psychology of Intelligence. — New York: Routledge, 2001. — P. 45-48.
5. Steel J.L., Meredith K.S., Temple C. The Reading and Writing for Critical Thinking Project. Washington, DC: Open Society Institute, 1998. — P. 28-32
6. Umarova Y.T. Ona tili ta'limida kognitiv fikrlashning ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences. — 2024. — №4 (Pedagogika). — B. 59-64.
7. Usarova M.N. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kognitiv faollikni oshirish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. — Toshkent: TDPU, 2024. 12-20-b.
8. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va maktabda ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1999. 112-116-b.

Hamidabonu SULAYMONOVA,

Second-year student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: sulaymonovahamida25@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-1741-9320

PRESERVING NATIONAL IDENTITY IN TRANSLATION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK REALIA IN QODIRIY'S "O'TKAN KUNLAR" AND CHO'LPON'S "KECHA VA KUNDUZ"

Annotation: translation is not only the transfer of words from one language to another, but also the transfer of culture, social memory, and artistic meaning. This becomes especially important in literary translation, where realia, that is, culture-specific words and expressions, often do not have direct equivalents in the target language. Uzbek literature contains many such units because it reflects a historically rich social and cultural world. This article examines the problems of translating Uzbek realia into English through the analysis of selected examples from Abdulla Qodiriy's *O'tkan kunlar* and Cho'lpon's *Kecha va kunduz*. The study uses a qualitative comparative method and applies the translation theories of Newmark, Baker, Venuti, and Katan, together with Uzbek scholarly ideas on translation and literary interpretation. The analysis shows that Uzbek realia often require borrowing, descriptive translation, or contextual explanation in English. The paper argues that the most effective strategy is usually a balanced one, because it preserves the national identity of the source text while making the text understandable for foreign readers.

Key words: *Uzbek realia, cultural adaptation, literary translation, translation strategy, equivalence, English translation*

Аннотация: перевод представляет собой не только передачу слов с одного языка на другой, но и перенос культуры, социальной памяти и художественного смысла. Это особенно важно в художественном переводе, где реалии, то есть культурно-специфические слова и выражения, зачастую не имеют прямых эквивалентов в языке перевода. Узбекская литература содержит множество подобных единиц, так как отражает исторически богатый социальный и культурный мир. В данной статье рассматриваются проблемы перевода узбекских реалий на английский язык на основе анализа избранных примеров из романов Абдуллы Қодирия «Минувшие дни» и Чўлпона «Ночь и день». В исследовании используется качественно-сравнительный метод и применяются переводческие теории Ньюмарка, Бейкера, Венути и Катана, а также узбекские научные взгляды на перевод и литературную интерпретацию. Анализ показывает, что узбекские реалии в английском переводе нередко требуют транслитерации, описательного перевода или контекстуального пояснения. В статье обосновывается, что наиболее эффективной стратегией является сбалансированный подход, так как он сохраняет национальную идентичность исходного текста и делает текст понятным для иностранного читателя.

Ключевые слова: *узбекские реалии, культурная адаптация, художественный перевод, стратегия перевода, эквивалентность, перевод на английский язык*

Annotatsiya: tarjima so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazib qolmasdan, madaniyat, ijtimoiy xotira va badiiy ma'noni ham o'zida aks etadi. Bu ayniqsa badiiy tarjimada muhim bo'lib, realiyalar, ya'ni madaniyatga xos so'z va iboralar ko'pincha tilda to'g'ridan-to'g'ri muqobillarga ega bo'lmaydi. O'zbek adabiyoti tarixan boy ijtimoiy va madaniy dunyoga egaligidan bunday birliklar juda ko'p uchraydi. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarlaridan tanlangan misollar tahlili orqali o'zbek realiyalarini ingliz tiliga tarjima qilish muammolari o'rganiladi. Tadqiqotda sifat-qiyosiy metod qo'llaniladi va Nyumark, Beyker, Venuti va Katanning tarjima nazariyalari, shuningdek tarjima va adabiy talqinga oid o'zbek ilmiy qarashlari asosida ish ko'riladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek realiyalari ingliz tilida ko'pincha o'zlashtirishni, tavsifiy tarjimani yoki kontekstual izohni talab etadi. Maqolada eng samarali strategiya odatda muvozanatli yondashuv ekanligi ta'kidlanadi, chunki u manba matnining milliy o'ziga xosligini saqlab qolgan holda chet el o'quvchilari uchun matnni tushunarli qiladi.

Kalit so'zlar: *o'zbek realiyalari, madaniy adaptatsiya, badiiy tarjima, tarjima strategiyasi, ekvivalentlik, ingliz tiliga tarjima*

Introduction

Literary translation is a cultural act. It does not simply move lexical items from one language to another, but transfers the cultural world of a text into a new linguistic environment. This is why the translation of realia is one of the most difficult areas in translation studies. Realia are words and expressions tied to the history, customs, institutions, and everyday life of a specific culture. Because of this, they often have no exact equivalent in another language. Newmark notes that cultural words create translation problems because they belong to a specific cultural environment and often require special translation procedures.

This problem is especially visible in Uzbek literature. Abdulla Qodiriy's *O'tkan kunlar* opens with a social and historical setting filled with culturally marked vocabulary. The novel describes a caravanserai occupied by merchants from Tashkent, Samarkand, and Bukhara, and immediately places the reader in a traditional Uzbek commercial and social world. The opening pages also show the words *saroy*, *hujra*, *tanchaga*, *dasturxon*, and *qutidor*, all of which carry cultural meaning beyond their dictionary definitions.

Cho'lpon's *Kecha va kunduz* is equally rich in cultural vocabulary. It presents traditional domestic life, religious figures, family relations, and social titles such as *so'fi*, *eshon*, *xonaqo*, *mingboshi*, and *dasturxon*. The novel also portrays the life of a family in which social customs, marriage expectations, and community relations are deeply rooted in tradition.

The aim of this article is to analyze how Uzbek realia function in these two literary works and to discuss what translation strategies are most appropriate for rendering them into English. The paper also aims to show that translation is not a mechanical process. As Salomov argues, a literary translation must preserve not only meaning but also the national and artistic spirit of the original text.

Literature Review

The translation of culture-specific vocabulary has been widely discussed in translation studies. Newmark offers one of the clearest frameworks for understanding this problem. He classifies cultural words into several groups, including ecology, material culture, social culture, organizations, customs, and ideas. According to Newmark, such words often require special procedures because direct equivalence does not always exist [Newmark 1988: 96]. This idea is directly relevant to Uzbek realia, since many Uzbek words belong to social and traditional categories that are difficult to reproduce in English.

Baker develops the discussion through the concept of equivalence. She argues that translation equivalence cannot always be established at the level of a single word, because meaning depends on context, usage, and cultural

